O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI

GAYBULLAYEV R.M.

TIJORAT BANKLARI

D A R S L I K

Darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan (Ro‘yxatga olish raqami №218-809).

TOSHKENT
“INNOVATSIYA-ZIYO”
2024

UDK: 336.71
KBK: 65.262.10
G 15

Gaybullayev R.M.
Tijorat banklari. Darslik. – Toshkent: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2024. – 372 b.

Mazkur darslik kadrlar tayyorlash bo‘yicha Davlat ta’lim standarti va “Tijorat banklari” fanining namunaviy o‘quv dasturi hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Ilmiy kengashi tomonidan 2023-yil 29-sentyabrda 2-son bayonnoma bilan tasdiqlangan “Tijorat banklari” fanining ishchi o‘quv dasturiga muvofiq tayyorlangan bo‘lib, ushbu dasturda ko‘rsatilgan mavzular qamrab olingan.

Darslikda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tijorat banklarning amal qilish xususiyatlari va ularning tashkil etilishining nazariy asoslari va mexanizmlari, jumladan, tijorat banklarining passiv va aktiv operatsiyalari, banklar kapitali, kreditlash jarayonini tashkil etish, foiz siyosati, tijorat banklarining zamonaviy va yangi xizmatlari, lizing va faktoring operatsiyalari, valyuta operatsiyalari, qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar va ularning turlari, balansdan tashqari operatsiyalari, daromad va xarajatlari, to‘lovga layoqatligi va likvidligi kabilar yoritilgan.

Darslikda bank ishiga taalluqli savollar va javoblar bilan birgalikda har bir bob bo‘yicha alohida tayanch iboralar va nazorat savollari keltirilgan. Darslik 60410500 – “Bank ishi va auditi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etiladi. Shu bilan birga darslik oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida iqtisodchi mutaxassislar, bank xodimlarini tayyorlovchi o‘quv yurtlari va fakultetlarida hamda biznes maktablarida o‘quv mashg‘ulotlar, ilmiy seminarlar va suhbatlar, treninglar uyuchtirish uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

O.Murtazayev - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali direktori, i.f.d., professor

M.Pardayev - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasi professori, i.f.d.

A.Abdullayev – SAMBXRAM universiteti professori, i.f.d., professor

ISBN 978-9910-680-02-1

© Gaybullayev R.M., 2024.
© "INNOVATSIYA-ZIYO", 2024.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar tayyorlanayotgan yosh mutaxassislarni jahon talablariga javob beradigan darajada bo‘lishini talab etmoqda. Jumladan, bu bank ishi va auditi sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bank ishi va auditi sohasidagi mutaxassisliklarni tayyorlashda oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan iqtisodiy fanlar muhim o‘rin tutadi. Chunki, bank tizimi mamlakat moliya-kredit faoliyatining hukmron bo‘g‘ini, uning «qon aylanish tizimi» hisoblanadi. Aynan, bank sektori iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiyalar kiritish orqali iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ta’sir ko‘rsatuvchi va iqtisodiy rivojlanish darajasini ko‘p jihatdan belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Jumladan, tijorat banklari faoliyatini o‘rganish va tahlil qilish orqali mamlakat moliya-kredit tizimini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish, iqtisodiy asoslangan qarorlar qabul qilish hamda shu asosda pul-kredit va moliya siyosatiga tuzatishlar kiritish manbalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi bugungi kunda bank xizmatlarining an’anaviy sohalari — kreditlash, depozit operatsiyalari, hisob-kitob va kassa kabi xizmatlarini ko‘rsatuvchi ko‘plab tijorat banklaridan tashkil topgan. 2017-yilda boshlangan bank sektorini isloh qilishning faol bosqichi valyuta bozorini liberallashtirish, bank faoliyatidagi eskirgan cheklovlarni olib tashlash va banklarni ularga xos bo‘lmagan funksiyalardan ozod qilish, bank xizmatlari ommabopligini oshirishga qaratildi.

Aynan, bu boradagi ishlarning davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli ***“2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”****gi Farmoni*[1] *bank tizimini Jahon bankining mamlakat bank tizimi joriy holatini o‘rganish natijalari bo‘yicha asosiy*

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020 - 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

xulosalari va tavsiyalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilganligi, hamda kelgusi yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo‘nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy yechimlarni izlash yo‘llarini belgilaydi.

*Mamlakat iqtisodiyotini transformatsiyalashuvi, uning tobora globallashib borishi va bunda tijorat banklarining jahon bank tizimiga integratsiyalashuvini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “**2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”** Farmonida[2] belgilanganidek, davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha chiqarish – bu sohada juda katta va dolzarb vazifalar turganligini anglatadi.*

Tijorat banklari ish faoliyati shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotning rivojlanish ahvoli aynan banklar faoliyati bilan bog‘liqdir. Banklar bozor munosabatlarining boshqa subyektlaridan farqli ravishda iqtisodiyot tizimini harakatga keltiruvchi muassasa hisoblanib, moddiy ishlab chiqarishni tashkil qilish va olib borishda vositachi sifatida, kapital aylanishining uzluksizligini ta’minlash, bo‘sh pul mablag‘larini yig‘ish va ularni pul zarur bo‘lgan subyektlar o‘rtasida taqsimlash bo‘yicha faoliyat olib boradi. Banklar faoliyatining boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlardan farqli yana bir tomoni shundaki, ular asosan jalb qilingan mablag‘larga tayanib ishlaydilar. Bu esa, o‘z navbatida, bank ishining risklilik darajasini oshiradi. Chunki bank, bir tomondan unga o‘z jamg‘armalarini ishonib topshirgan yuridik va jismoniy shaxslar oldida majburiyatga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan bank o‘z aksiyadorlari oldida majburiyatga ega. Shu sabab, banklar mablag‘larni doimo eng maqbul darajada jalb qilish va ularni joylashtirish ustida ish olib boradilar.

---

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” Farmoni

Shu bilan birga, tijorat banklari ish faoliyatini o‘rganuvchi fanga ilmiy-amaliy taraqqiyotni o‘zida mujassamlashtiruvchi fan sifatida qarash mumkin. Hozirgi kundagi banklar oldingi banklardan ko‘ra, ilg‘or, yangi shakllarda va yangi texnologiyalar asosida iqtisodiyotning talablariga mos keluvchi operatsiyalarni qo‘llash orqali faoliyat olib bormoqda. Bu, o‘z navbatida, fanni o‘qitishda uning mazmunini boyitish, unda banklar faoliyatining yangi usul va uslublariniifodalashni zarurat qilib qo‘yadi.

“Tijorat banklari” fani banklar va ular faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlarni o‘rganadi. Bunda, dastavval, mamlakatdagi bank tizimi va ularni tashkil etishning huquqiy asoslari, banklar faoliyati ko‘lami va ularni tashkil etish masalalari hamda bank bilan boshqa korxona, tashkilot, muassasalar va aholi o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmuaviy ravishda o‘rganiladi.

Darslik “Bank ishi va auditi” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan va kadrlar tayyorlash bo‘yicha ta’lim standartlari asosida ishlab chiqilgan namunaviy o‘quv dasturi asosida yaratilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hech bir tarmoqni tahlilsiz tasavvur etish mumkin bo‘lmagani kabi tijorat banklari faoliyatining taraqqiyotini ham “Tijorat banklari” fanini o‘rganishsiz tasavvur etish qiyindir. Chunki, tijorat banklari passivlari va aktivlari tarkibi va dinamikasi, daromad va xarajatlar tahlilisiz to‘g‘ri qaror qabul qilish, barqaror strategiyani belgilash masalalari muammoli kechadi.

Darslikda har bir mavzuda talabalar bilimini mustahkamlash uchun tayanch so‘zlar va o‘z bilimini tekshirish bo‘yicha savollar tavsiya qilingan.

Darslik mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tijorat banklarining operatsiyalari va ularning tashkil etilishi, banklarning kreditlash jarayonini tashkil etish asoslari, tijorat banklarining yangi va zamonaviy xizmatlari, banklarning lizing va faktoring operatsiyalari, tijorat banklarining valyuta operatsiyalari, banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari va ularning turlari, tijorat banklarining daromad va xarajatlari, banklarning to‘lovga layoqatligi va likvidligi kabi mavzular o‘rin olgan.

Darslikning tayyorlanishi talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini oshirishga, balki amaliy ma'lumotlar bilan ishlash, tahlil etish va aniq fikrlar bera olish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Tayyorlangan darslikning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, iqtisodiy ta'limda alohida o'rin tutib kelgan "Tijorat banklari" fani va amaliyoti to'g'risida bir tizimga solingan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

I BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TASHKIL QILISHNING HUQUQIY VA IQTISODIY ASOSLARI

1.1. Tijorat banklarining mohiyati va ularni tashkil etishning iqtisodiy zaruriyati.
1.2. Tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari.
1.3. Banklarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va litsenziyalash tartibi.
1.4. Tijorat banklarini qayta tashkil etish shakllari.
1.5. Tijorat banklarini tugatish.

Tayanch iboralar: Tijorat banklari, banklarni tashkil etilishi, ochiq turdagi aksiyadorlik banki, yopiq turdagi aksiyadorlik banki,banklarni tugatish, bankni majburiy tugatish, bankni ixtiyoriy tugatish, bank ustav fondi, bank litsenziyasi, litsenziyani bekor qilish, litsenziyani qaytarib olish, litsenziyani to‘xtatish.

1.1. Tijorat banklarining mohiyati va ularni tashkil etishning iqtisodiy zaruriyati

Ijtimoiy munosabatlar tizimida pul, kredit va ularning harakati bilan bog‘liq munosabatlar alohida o‘rin tutadi. Ularning yordami bilan shaxslar va butun jamiyat boyib boradi. Biroq pul bilan asossiz muomala qilish, ular bilan ishlash qonunlari va qoidalariga e’tibor bermaslik salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Banklar yordamida vaqtincha bo‘sh pul mablag‘lari jamg‘ariladi, ular ko‘chiriladi va jamiyat manfaatlarini moliyaviy jihatdan qoniqtirish maqsadida unumli foydalaniladi. Agar iqtisodiy tizimni boshqarish aniq qoidalarga asoslansa, pul haqiqatan ham jamiyatni yanada boy qilishga qodir.

Butun dunyoda tijorat banklari bank tizimining eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, kredit resurslarining asosiy qismini jamlab, yuridik va jismoniy shaxslarga keng ko‘lamli bank operatsiyalari hamda moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadi. Ular bank tizimining markaziy (davlat, milliy) banklardan keyingi ikkinchi darajasini ifodalaydi.

Banklar pul mablag‘larini to‘lash va kechiktirib to‘lash shartlarida o‘z nomidan joylashtirish, shuningdek, boshqa bank operatsiyalarini amalga oshiruvchi faoliyatni amalga oshirish uchun tashkil etilgan tijorat muassasasidir. Bir tomondan, bank har qanday korxona kabi bank egalari (aksiyadorlar yoki jismoniy shaxslar) manfaatlarini va jamoat manfaatlarini (mijozlar - bank tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan yuridik va jismoniy shaxslar) qondirish uchun yaratilgan. Boshqa tomondan, bank - bu ssuda kapitali harakatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi, bank egalarining foyda olishini ta’minlovchi maxsus turdagi korxonadir.

Tijorat bankining asosiy maqsadi pul mablag‘larining kreditorlardan qarz oluvchilarga va sotuvchilardan xaridorlarga o‘tishida vositachilik qilishdir. Banklar bilan bir qatorda bozorda mablag‘lar harakati boshqa moliya institutlari: investitsiya fondlari, sug‘urta kompaniyalari, brokerlik, dilerlik firmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ammo tijorat banklari moliyaviy risk subyektlari sifatida ularni boshqa barcha subyektlardan ajratib turadigan ikkita muhim xususiyatga ega.

Birinchidan, banklar qarz majburiyatlarini ikki tomonlama almashish bilan tavsiflanadi: ular o‘zlarining qarz majburiyatlarini (depozitlar, depozit sertifikatlari, jamg‘arma sertifikatlari) joylashtiradilar va shu asosda safarbar qilingan mablag‘lar qarz majburiyatlari va boshqalar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarga joylashtiriladi.

Ikkinchidan, banklar yuridik va jismoniy shaxslar oldida, masalan, mijozlarning mablag‘larini hisobvaraqlar va depozitlarga joylashtirishda, depozit sertifikatlarini berishda so‘zsiz majburiyatlarni o‘z zimmalariga olishlari bilan ajralib turadi. Shu bilan banklar turli investitsiya fondlaridan farq qiladi.

Kredit tizimida tijorat banklari muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy tijorat banklari yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini birgalikda jalb qilish hamda o‘z nomidan va o‘z mablag‘lari hisobidan to‘lash, to‘lash va kechiktirish shartlarida joylashtirishning mutlaq huquqiga ega bo‘lgan kredit tashkilotlaridir. Biroq bu ayni paytda 300ga yaqin turdagi operatsiyalarga ega universal tijorat banki faoliyati bilan cheklanib

qolmaydi. Ular qimmatli qog‘ozlar va valyutalar bilan operatsiyalarni amalga oshiradilar, iqtisodiy xarakterdagi turli konsalting xizmatlarini ko‘rsatadilar va turli xil moliyaviy xizmatlarni bajaradilar.

Zamonaviy tijorat bankining o‘ziga xos jihati shundaki, u birinchi navbatda mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi va undan olingan litsenziya asosida muayyan mahsulotlar – kreditlar, qimmatli qog‘ozlar va valyutalarni sotishda vositachilik faoliyatini amalga oshiradi.

Tijorat banklarini davlat banklari va kredit kooperativlaridan ajratib turadigan xarakterli ikkinchi jihati shundaki, ular faoliyatining asosiy maqsadi foyda olishdir (bu ularning bozor munosabatlari tizimidagi o‘ziga xos “tijorat manfaati”dir).

Tijorat bankining funksiyalari orasida bank tushunchasiga asos bo‘ladigan va uning mohiyatini belgilovchi to‘rttasini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) Vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larni to‘plash va safarbar qilish. Vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larni to‘plash funksiyasi ularning eng muhimlaridan biridir. Tijorat banklari barcha xo‘jalik subyektlaridan bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilishda yyetakchi rol o‘ynaydi. Banklar katta miqdordagi mablag‘larni to‘plash orqali pulni saqlamaydi, balki kapitalga aylantiradi, iqtisodiyotga kiritadi, kreditlar beradi va qimmatli qog‘ozlarni sotib oladi.

2) Kredit vositachiligi. Tijorat banki bo‘sh pul mablag‘lari mavjud bo‘lgan subyektlar va ularga muhtoj bo‘lgan subyektlar o‘rtasida vositachi sifatida ishlaydi. Kredit bo‘yicha vositachi sifatida u mablag‘larni jamlagan holda, ushbu resurslarni ularga muhtoj bo‘lgan subyektlarga kerakli miqdorda va zarur muddatda taqdim etish imkoniyatiga ega.

3) To‘lovlar va hisob-kitoblarni amalga oshirishda vositachilik. Tijorat banklari pul mablag‘larini o‘tkazish orqali to‘lov tizimining ishlashini ta’minlaydi. Ushbu funksiyani amalga oshirish uchun tijorat banklari o‘z mijozlari uchun hisob raqamini ochadilar. O‘tkazma operatsiyalarida talab qilinadigan depozitlardagi mablag‘lar muhim o‘rin egallaydi va ulardan tobora samarali foydalaniladi; to‘lov texnologiyasi yaxshilanmoqda,

biznes mijozlari o‘z mablag‘laridan samaraliroq foydalanishga intilmoqda.

4) To‘lov vositalarini yaratish. Bu funksiya tijorat banklarida kredit pullarning rivojlanishi, oltin pullarning muomaladan chiqarilishi va banknota chiqarishning depozit va chekga aylanishi tufayli paydo bo‘ldi, bu esa naqd pulsiz muomalani kengaytirish va banknotalar muomalasini qisqartirish imkonini berdi. Banklar cheklar, veksellar, plastik kartochkalar chiqaradi, bank depozitlari ko‘rinishida naqdsiz shaklda pul yaratadi.

To‘rtta asosiy funksiyaga qo‘shimcha ravishda, qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va joylashtirishni tashkil etish funksiyasi ajralib turadi. U investitsiya operatsiyalari orqali amalga oshiriladi va iqtisodiyotning nisbatan barqaror o‘sish sur’atlarini saqlashning zaruriy sharti bo‘lgan elastik kredit tizimida katta ahamiyatga egadir.

Iqtisodiyotda bank ishining rivojlanishi juda ko‘p sonli xilma-xil banklarning paydo bo‘lishiga olib keldi, lekin u rivojlanishda davom etmoqda, ularning barcha yangi turlarini hayotga tatbiq etmoqda va mavjudlarini tashkil etish shakllarini o‘zgartirmoqda. Banklarning barcha mavjud turlarini tizimli ravishda taqdim etish uchun ularni quyidagi mezonlarga ko‘ra tasniflash mumkin:

1) Mulkchilik shakli bo‘yicha. Kapitalning mulkiga qarab quyidagilar mavjud:

- tijorat bankining kapitali davlatga tegishli bo‘lgan davlat banklari. Davlat banklarining ikki turi mavjud: markaziy banklar va davlat tijorat banklari. Ko‘pgina mamlakatlarning markaziy banklari davlat banklari bo‘lib, ularning kapitali davlatga tegishli bo‘lib, bu ularga o‘z siyosati va operatsiyalarini foyda olish uchun emas, balki iqtisodiyot talablariga muvofiq amalga oshirish imkonini beradi. Davlat tijorat banklari o‘z mablag‘larining asosiy qismini davlat byudjetidan, shuningdek, xorijiy davlatlar va xalqaro moliya-kredit tashkilotlaridan kreditlar shaklida oladi. Ularning faoliyatida uzoq muddatli kreditlar ustunlik qiladi. Ular kafolat va kafolat operatsiyalarini faol ravishda amalga oshiradilar;

- aksiyadorlik banklari - hozirgi vaqtda banklarning eng keng tarqalgan mulk shakli. Bunday banklarning ustav kapitali aksiyalarni sotish orqali shakllanadi. Aksiyadorlik tijorat banklari

ochiq aksiyadorlik jamiyatiga, aksiyalari hammaga ochiq bo‘lganda va aksiyalari faqat uning muassislari yoki oldindan belgilangan boshqa shaxslar doirasi o‘rtasida taqsimlanadigan yopiq aksiyadorlik jamiyatiga bo‘linadi;

– kooperativ (ulushli) banklar – o‘z a’zolarining kooperativ mulkiga asoslangan va kapitali aksiyalarni sotish hisobiga shakllanadigan kredit tashkilotlari. Ularning faoliyatidan maqsad - foyda olish emas, balki kredit kooperativi a’zolarining bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishdir;

- munitsipal banklar, bular mahalliy hokimiyat organlariga tegishli bo‘lgan banklar bo‘lib, ularning majburiyatlari bo‘yicha mahalliy byudjet birgalikda yoki subsidiar javobgar bo‘ladi. Ular kommunal xizmatlar va boshqa mahalliy ehtiyojlarni kreditlash uchun yaratilgan. Ushbu banklar o‘z-o‘zini ta’minlash tamoyillari asosida ishlaydi, mahalliy hokimiyat organlari bilan kelishilgan kredit siyosatini olib boradi, lekin ulardan mustaqildir;

- aralash banklar, bankning o‘z kapitali turli mulk shakllarini birlashtirganda, masalan, davlat mulki bo‘lgan aksiyadorlik banklari;

- qo‘shma banklar yoki xorijiy kapital ishtirokidagi banklar, ya’ni. ularning ustav kapitali xorijiy ishtirokchilarga yoki banklarning boshqa mamlakatlardagi filiallariga tegishli bo‘lsa;

- globallashuv jarayonlarining rivojlanishi va xalqaro moliya bozorining shakllanishi tufayli paydo bo‘lgan davlatlararo banklar. Ushbu banklarning asosiy vazifasi xalqaro kapital harakati jarayonlarini tartibga solish, to‘lov balansini saqlashga yordam berish va rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlari muammolarini hal qilishdir.

2) Iqtisodiy faoliyatning tabiati bo‘yicha:

- barcha yoki deyarli barcha bank operatsiyalarini amalga oshiradigan universal banklar: qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish, qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar, barcha turdagi depozitlarni qabul qilish, barcha turdagi vositachilik moliyaviy xizmatlarini ko‘rsatish. Tijorat va investitsiya faoliyatini birlashtirgan holda universal banklar ixtisoslashganlarga qaraganda ancha barqarordir. Ular o‘z faoliyatining diversifikatsiyasidan to‘liq foydalanishlari mumkin. Universal

banklar 100 dan 300 gacha operatsiyalarni amalga oshiradilar: depozit hisobvaraqlarini yuritish, pul mablag‘larini naqdsiz o‘tkazish, jamg‘armalarni qabul qilish, turli xil kreditlar berish, qimmatli qog‘ozlarni sotib olish, ishonchli vakil orqali operatsiyalar, qimmatbaho narsalarni seyflarda saqlash;

- ixtisoslashgan banklar: ular bank faoliyatining bir yoki bir nechta turlarini amalga oshiradilar.

3) Berilgan kreditlar shartlariga ko‘ra: qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlar banklari mavjud. Uzoq muddatli kredit beruvchi banklar, masalan, ipoteka banklari, besh yildan ortiq muddatga kredit berishadi. Qisqa muddatli kredit banklari uch yilgacha kredit beradi, bular, qoida tariqasida, universal tijorat banklaridir.

4) Tarmoq iqtisodiy asosida: banklar birinchi navbatda xizmat qiladigan tarmoqqa qarab sanoat banklari, tijorat banklari, qishloq xo‘jaligi banklari va hakozalar mavjud bo‘ladi.

5) Hududi bo‘yicha: banklar mahalliy, respublika va xalqaro banklarga bo‘linadi.

6) Hajmi bo‘yicha: yirik, o‘rta va kichik banklar farqlanadi.

7) Filial tarmog‘ining mavjudligi: banklar filiallari va filiallari bo‘lmaganlari bilan ajralib turadi.

Shaxsiy kompyuterlarning tarqalishi bilan bank xizmatlarida sifat o‘zgarishlari yuz berdi, bu uning tuzilmasi va operatsiyalarni amalga oshirish metodologiyasida o‘z ifodasini topdi. Virtual bankda mijozlar va uning xodimlari o‘rtasida bevosita aloqa mavjud. Internet, bankomatlar, telefon va "uy" banklari mijozlarning hududiy joylashuvidan qat’i nazar, bank xizmatlaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish imkonini beradi. Siz mobil telefoningizdan foydalangan holda hisobingiz balansini va so‘nggi operatsiyalar ro‘yxatini ko‘rishingiz mumkin.

Shunga ko‘ra, iqtisodiyotning bugungi kunda, ya’ni tobora globallashib borish sharoitida tijorat banklarining o‘rni beqiyosdir va banklar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning kengayib borayotganligi hamda ularning ish faoliyati bilan bog‘liq moliyaviy operatsiyalariga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

1.2. Tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda tijorat banklari faoliyatining muhim jihati, bu - mamlakatning butun bank tizimiga asos soladigan huquqiy asoslarning yaratilganligidir.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalari bank huquqining birinchi manbalari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-, 124-moddalari banklar faoliyatining huquqiy asoslarini belgilaydi[3]. Bundan tashqari, Konstitutsiyada aytilishicha, O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini Markaziy bank boshqaradi. Tabiiyki, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan quyi pog‘onada joylashgan tijorat banklari mamlakatda moliyaviy faoliyatni amalga oshirish uchun konstitutsiyaviy huquqqa ega. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 36-moddasida belgilanganidek, fuqarolar tomonidan bankka qo‘yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi. Tijorat banklarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida ishlashi fuqarolarni mulkdor bo‘lishga, bu esa iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish erkinligiga ishora qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan keyin tijorat banklari faoliyatini tartibga soluvchi ikkinchi qonun "O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasining 11.11.2019-yildagi O‘RQ-582-son qonuni[4] bo‘lib, bu banklar faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjatdir. Qonunning birinchi bobida Markaziy bankning maqomi shunday belgilab berilgan. Unda aytilishicha, Markaziy bank mustaqil yuridik shaxsdir, u davlatning mutlaq mulkidir va o‘z xarajatlarini o‘zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi, shu bilan birga u davlat qarzlari uchun javobgar emas. O‘zbekistonda Markaziy bankni yaratishdan maqsad milliy valyuta – so‘mning barqarorligini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash, to‘lov va bank tizimlarini

[3] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2014. 73 b.

[4] O‘zbekiston Respublikasining “Markaziy bank to‘g‘risida”gi qonuni. 11.11.2019-yildagi O‘RQ-582-son qonuni.

rivojlantirish, mustahkamlash va samarali va uzluksiz ishlashini ta’minlashdir.

Xuddi shu bobda Markaziy bankning pul muomalasi, pul muomalasini tashkil etishdagi vazifalari tasvirlangan. Markaziy bank bank tizimini nazorat qiladi va o‘zi O‘zbekiston Respublikasi byudjeti va byudjet tashkilotlari bilan bog‘liq holda bank funksiyalarini bajaradi. Bundan tashqari, regulyator mamlakatning valyuta zaxiralarini boshqaradi, valyuta nazoratini amalga oshiradi, shuningdek, xalqaro tashkilotlarda ishtirok etadi va O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining holatini tahlil qiladi va prognoz qiladi.

Keyingi muhim me’yoriy hujjat, O‘zbekiston Respublikasining 05.11.2019-yildagi O‘RQ-580-son "Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida"gi qonuni bo‘lib, mamlakatda tijorat banklari va kredit tashkilotlarini yaratish va faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjatdir[5].

Tijorat banklarining faoliyati omonatchilar, kreditorlar, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy daxldor bo‘lganligi tufayli uning yuridik shaxs sifatida tashkil topishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Shu vaqt ichida bo‘lg‘usi ta’sischilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar o‘rnatiladi, bank ustav kapitali uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar tayyorlanadi, rahbar shaxslar zarur hujjatlar tayyorlaydi, tegishli tashkiliy ishlar amalga oshiriladi.

Qonunga asosan, tijorat banklari respublika hududida o‘z faoliyatlarini Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradilar.

Banklarga litsenziya berish 0‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida», «0‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida», «Aksionerlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunlar va boshqa qator qonunlar hamda banklar faoliyatiga oid me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

[5] 0‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. 05.11.2019-yildagi O‘RQ-580-son qonuni.

2020-yil 1-oktyabrdan kuchga kirgan “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi Nizom[6] bank faoliyati sohasidagi ruxsat berish va linsenziyalash tartib-taomillarini yangi tahrirda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida” va “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari talablariga muvofiqlashtirish maqsadida Markaziy bank tomonidan ishlab chiqildi.

Nizom bank tizimining barqarorligi va rivojlanishini yanada mustahkamlash maqsadida xorijiy davlatlar tajribasi asosida tayyorlandi.

Ushbu nizomning qabul qilinishi bilan mazkur sohani tartibga soluvchi bir nechta normativ-huquqiy hujjatlar optimallashtirildi va yagona hujjatga birlashtirildi.

Ta’kidlash joizki, mazkur nizom banklarni tashkil etish va bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalarni olish, bank aksiyalarini sotib olishga doir dastlabki ruxsatnomani berish, bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolari hamda muhim ahamiyatga ega xodimlarini baholash, bankning alohida bo‘linmalarini (filial va ofislarini) oshish va yopish, bankning ustaviga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, banklarni qayta tashkil etish va tugatish masalalarini tartibga soladi.

Nizom bank muassislari va potensial ishtirokchilar, shuningdek, bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolari hamda muhim ahamiyatga ega xodimlari muvofiq bo‘lishi shart bo‘lgan qat’iy mezonlarni hamda ularni baholashning shaffof mexanizmini belgilaydi.

Shu bilan birga, nizomda yuqori kapital va kredit reytingi ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan Chet el banklari va boshqa kredit tashkilotlarining, shuningdek, xalqaro moliya institutlarining milliy bank tizimiga investitsiya kiritishini rag‘batlantirish maqsadida shunday tashkilotlar tomonidan bank tashkil etilayotganda yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etilayotganda dastlabki ruxsatnomani olishning alohida soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan.

[6] 0‘zbekiston Respublikasining “Markaziy bankining 25.05.2020-yildagi “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi Nizom

O‘zbekiston Respublikasining 04.10.2011-yildagi O‘RQ-301-son “Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida”gi qonuni qarz oluvchining kreditor oldidagi majburiyatlarini bajarishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni birlashtirish va almashishning huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilaydi[7]. Ushbu ma’lumotlar banklarga kredit berishda o‘z risklarini baholash imkonini beradi. Qonunga ko‘ra, banklar kredit byurolariga o‘zlarining roziliklarini bergan qarz oluvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etishlari shart.

“Iste’mol krediti to‘g‘risida”gi qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan 2006-yil 24-fevralda ma’qullangan va 2006-yil 6-may, O‘RQ–33-son bilan tasdiqlanib kuchga kirdi[8]. Hujjat jismoniy shaxsga kredit berish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi, qonun esa ipoteka bilan garovga qo‘yilgan kreditlarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Banklar va nobank kredit tashkilotlari (mikromoliya tashkilotlari, kredit kooperativlari) qonunga taalluqlidir.

Va nihoyat, yana bir kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi so‘nggi qonun - O‘zbekiston Respublikasining 20.04.2022-yildagi O‘RQ-765-son “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida” qonunidir[9].

Qonun mikromoliya tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilaydi, MMT faoliyatini tartibga solish tartibini amalga oshirib, mikrokreditlar berish shartlarini, mikromoliya tashkilotlari maqomiga ega bo‘lish va faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

1.3. Banklarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va litsenziyalash tartibi

Banklarga litsenziya berish O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi

[7] O‘zbekiston Respublikasining 04.10.2011-yildagi O‘RQ-301-son “Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida”gi qonuni

[8] 0‘zbekiston Respublikasining “Iste’mol krediti to‘g‘risida”gi qonuni. 2006-yil 6-may, 0‘RQ-33-son.

[9] O‘zbekiston Respublikasining 20.04.2022-yildagi O‘RQ-765-son “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida” qonuni.

Markaziy banki to‘g‘risida”, “Aksionerlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonunlar va boshqa qonunlari hamda banklarga oid me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

2020-yil 1-oktyabrdan kuchga kirgan “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi Nizom[10] bank faoliyati sohasidagi ruxsat berish va linsenziyalash tartib-taomillarini yangi tahrirda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida” va “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari talablariga muvofiqlashtirish maqsadida Markaziy bank tomonidan ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida" gi yangi tahrirdagi qonunining ikkinchi bobining 15-28-moddalari tijorat banklarini ro‘yxatga olish, tugatish va qayta tashkil etish, shuningdek, bank operatsiyalarini litsenziyalash tartibini belgilaydi.

Mazkur qonunning 15-moddasiga muvofiq, banklar O‘zbekiston Respublikasida o‘z faoliyatini Markaziy bank tomonidan beriladigan, bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya asosida amalga oshiradi.

Banklarni litsenziyalash tartib-taomili quyidagi ikki bosqichdan iborat:

Markaziy bank tomonidan bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish;

bir vaqtning o‘zida litsenziya bergan holda bankni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish.

Banklarni litsenziyalash tartib-taomiliga ko‘ra dastlabki qadamlar:

Bankni tashkil etish uchun muassislar ta’sis yig‘ilishini o‘tkazadi va o‘zaro ta’sis shartnomasini imzolaydi. Ushbu harakatlar muassislar tomonidan banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari va aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

[10] O‘zbekiston Respublikasining “Markaziy bankining 25.05.2020-yildagi “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi Nizomi

Muassislar bankni tashkil etish bo‘yicha ularning manfaatlarini Markaziy bankda ifoda etishga vakolatli bo‘lgan bir yoki bir necha shaxslarni tayinlaydi. Ushbu shaxslarning vakolatlari ta’sis shartnomasi bilan belgilanadi.

Bank o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari va ustavi, “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq Markaziy bank tomonidan berilgan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga asosan amalga oshiradi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun ariza beruvchi ta’sis hujjati imzolanganidan keyin ish oydan kechiktirmay Markaziy bankka ariza taqdim etadi va unga quyidagilarni ikki nusxada ilova qiladi:

1) muassislar tomonidan imzolangan ta’sis shartnomasini bank bir muassis tomonidan ta’sis etilgan taqdirda, muassisning bankni ta’sis etish haqidagi yakka tartibda qabul qilingan qarori taqdim etiladi;

2) bank ikki va undan ortiq muassislar tomonidan ta’sis etilgan hollarda ta’sis yig‘ilishining bayonnomasini. Bayonnoma nusxalari bankning kuzatuv kengashi raisi tomonidan tasdiqlanadi;

3) muassislar tomonidan tasdiqlangan va bankning kuzatuv kengashi raisi tomonidan imzolangan bank ustavini;

4) bankning kuzatuv kengashi raisi tomonidan tasdiqlangan muassislar ro‘yxatini;

5) muassis bo‘lgan yuridik shaxsning auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan oxirgi uch yil uchun moliyaviy hisobotlarini;

6) hal qiluvchi egalikka ega bo‘lgan bevosita va bilvosita muassislar, shu jumladan, oxirgi benefitsiar mulkdorlar to‘g‘risidagi axborotni. Hal qiluvchi egalikka ega bo‘lgan shaxslar mavjud bo‘lmagan taqdirda, bankning ustav kapitalida eng ko‘p ulushlarga ega bo‘lgan, umumiy ulushi kamida ellik foizni tashkil etadigan bevosita va bilvosita muassislar, shu jumladan, oxirgi benefitsiar mulkdorlar to‘g‘risidagi axborotni.

7) ariza beruvchining bankni tashkil etishda muassislarning manfaatlarini Markaziy bankda ifoda etish bo‘yicha vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatni;

8) bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun kiritilgan mablag‘larning manbalari to‘g‘risidagi hujjatlar bilan tasdiqlangan axborotni;

9) bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolari to‘g‘risida hujjatlarni;

10) bankning tashkiliy tuzilmasini;

11) bankning ichki audit xizmati to‘g‘risidagi nizom loyihasini;

12) bank faoliyatining strategiyasini, yo‘nalishlarini, ko‘lamini, moliyaviy istiqbollarini va boshqa ma’lumotlarni ko‘zda tutuvchi bankning keyingi uch yilga mo‘ljallangan biznes-rejasini;

13) keyinchalik bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi lozim bo‘lgan, bankning kredit, investitsiya va emissiya siyosati loyihalarining, shuningdek, tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazorat siyosati loyihalarining nusxalarini;

14) arizani ko‘rib chiqqanlik uchun yig‘im to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatni.

Ta’sis yig‘ilishining bayonnomasi va muassisning bankni ta’sis etish haqidagi yakka tartibda qabul qilingan qarori bankni tashkil etish, bankning ustav kapitali miqdorini belgilash, bank ustavini, tashkiliy tuzilmasini va biznes-rejasini tasdiqlash, bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolarini saylash (tayinlash) to‘g‘risidagi qarorlarni o‘z ichiga olishi lozim.

Ta’sis shartnomasining va muassisning bankni ta’sis etish haqidagi yakka tartibda qabul qilingan qarorining nusxalari, ulardagi jismoniy shaxslarning imzolari notarius yoki notarial harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan boshqa mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlanadi.

Agar ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va axborot bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun yetarli bo‘lmasa, Markaziy bank ariza beruvchidan qo‘shimcha hujjatlar va axborot so‘rashga haqli.

Chet ellik muassislarga nisbatan ular tomonidan bankni tashkil etish yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etish chog‘ida qo‘yiladigan talablar. Bankni tashkil etishda yoki bankning ustav kapitalida Chet el banki ishtirok etganda qo‘shimcha ravishda quyidagi hujjatlar ikki nusxada taqdim etiladi:

1) Chet el banki vakolatli organining bankni tashkil etish yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etish to‘g‘risidagi qarori;

2) Chet el banki bankni nazorat qilish organining mazkur Chet el banki uning konsolidatsiyalashgan nazorati ostida turishi, pul mablag‘larini depozitlarga qabul qilish huquqiga ega ekanligi va unga bankni nazorat qilish organining bankni tashkil etish yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etish uchun ruxsatnomasi berilganligi to‘g‘risidagi yozma tasdiqnomasi yoxud shunday ruxsatnoma talab etilmasligi to‘g‘risidagi tasdiqnomasi;

3) Chet el bankining ustavi;

4) Chet el banki kapitalining va kredit reytingining quyidagi talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat:

200 mln. yevro ekvivalentidan kam bo‘lmagan miqdordagi xususiy kapitalning mavjudligi;

«Standard & Poor’s», «Moody’s Investors Servise» yoki «Fitsh-IBSA» reyting agentliklari tomonidan berilgan investitsion reyting bahosidan kam bo‘lmagan uzoq muddatli kredit reytingi mavjudligi.

Chet el bankining kapital monandligi yoki kredit reytingi mazkur kichik bandda ko‘rsatilgan talablarga nomuvofiq bo‘lganda yoki unda kredit reytingi mavjud bo‘lmaganda, prudensial talablari Markaziy bank tomonidan milliy talablarga ekvivalent deb topilgan Chet davlatning bank nazorati organi tomonidan Chet el banki moliyaviy salohiyatiga berilgan bahosi, agar ushbu organ tomonidan Markaziy bankka yuborilgan hujjatlar mavjud bo‘lganda e’tiborga olinadi.

Xalqaro moliya institutlari, Chet el banklari va boshqa kredit tashkilotlari bo‘lmagan, norezident bo‘lgan yuridik shaxslarning bankni tashkil etishida yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etishida qo‘shimcha ravishda quyidagi hujjatlar ikki nusxada taqdim etiladi:

1) yuridik shaxs vakolatli organining O‘zbekiston Respublikasi hududida bank tashkil etish yoki uning bank ustav kapitalida ishtirok etishi to‘g‘risidagi qarori;

2) yuridik shaxs joylashgan davlatdagi nazorat qilish organining O‘zbekiston Respublikasi hududida bank tashkil etishga yoki bank ustav kapitalida ishtirok etishga roziligini tasdiqlovchi

hujjat yoxud shunday ruxsatnoma talab etilmasligi to‘g‘risidagi tasdiqnomasi;

3) yuridik shaxs ustavi;

4) ustav kapitalidagi o‘z ulushi uchun to‘lovni amalga oshirishga mablag‘lari mavjudligining tasdig‘i.

Yuqori kapital va kredit reytingi ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan xalqaro moliya institutlari, Chet el banklari hamda boshqa kredit tashkilotlari tomonidan bank tashkil etishda yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etishda ariza beruvchi arizani quyidagilarni ikki nusxada ilova qilgan holda taqdim etadi:

1) muassislar tomonidan imzolangan ta’sis shartnomasini bank bir muassis tomonidan ta’sis etilgan taqdirda, muassisning bankni ta’sis etish haqidagi yakka tartibda qabul qilingan qarori taqdim etiladi;

2) bank ikki va undan ortiq muassislar tomonidan ta’sis etilgan hollarda ta’sis yig‘ilishining bayonnomasini;

3) muassislar tomonidan tasdiqlangan va bankning kuzatuv kengashi raisi tomonidan imzolangan bank ustavini;

4) muassislar vakolatli organining bankni tashkil etish yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etish to‘g‘risidagi qarorini;

5) bank ustav kapitalidagi ulushlari miqdorini ko‘rsatgan holda muassislar ro‘yxatini;

6) muassislarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomasi nusxasini va to‘lov rekvizitlarini;

7) kapitalining va kredit reytingining keltirilgan mezonlarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatni;

8) bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolari to‘g‘risida hujjatlarni;

9) bankning tashkiliy tuzilmasini;

10) bankning ichki audit xizmati to‘g‘risidagi nizom loyihasini;

11) bankning keyingi uch yilga mo‘ljallangan biznes-rejasini. Unda bank faoliyatining strategiyasini, yo‘nalishlarini, ko‘lamini, moliyaviy istiqbollarini boshqa ma’lumotlarni yoritish zarur;

12) keyinchalik bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi lozim bo‘lgan, bankning kredit, investitsiya va

emissiya siyosati loyihalarining, shuningdek, tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazorat siyosati loyihalarining nusxalarini;

13) arizani koʻrib chiqqanlik uchun yigʻim toʻlanganligini tasdiqlovchi hujjatni.

Mazkur Nizom maqsadlarida:

1) xalqaro moliya institutlari deganda Jahon banki guruhi (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, investitsiyalarni kafolatlash boʻyicha koʻp tomonlama agentlik, Xalqaro taraqqiyot uyuchmasi), Xalqaro hisob-kitoblar banki, Xalqaro valyuta fondi, Yyevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yyevropa investitsiya banki, Yyevropa investitsiya jamgʻarmasi, Yyevropa Kengashining taraqqiyot bank, Yyevropa markaziy banki, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyasi banki, Islom taraqqiyot banki tushuniladi;

2) yuqori kapital va kredit reytingi koʻrsatkichlariga ega boʻlgan Chet el banklari va boshqa kredit tashkilotlari deganda kapitali va kredit reytingi quyidagi talablarga muvofiq boʻlgan shaxslar tushuniladi:

500 mln.yevro ekvivalentidan kam boʻlmagan miqdordagi ustav kapitalining mavjudligi;

«Standard & Poor's», «Moody's Investors Servise», «Fitsh-IBSA» reyting agentliklarining mos ravishda «A+», «A1», «A+» reyting bahosidan kam boʻlmagan uzoq muddatli kredit reytingining mavjudligi.

Bankni tashkil etish uchun dastlabki ruxsatni berish. Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish toʻgʻrisidagi arizani koʻrib chiqish Markaziy bank tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida»gi Qonunining 16-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish toʻgʻrisidagi arizani koʻrib chiqishda Markaziy bank:

- bank kapitali, shu jumladan, ustav kapitali miqdorini doimiy koʻpaytirib borishning rejalashtirilganligi, koʻzda tutilayotgan daromadlar hamda fondlarni shakllantirish istiqbollari, shuningdek, muassislarning zarur hollarda qoʻshimcha kapital

kirita olish qobiliyati kabi omillar bilan aniqlanuvchi tashkil etilayotgan bank kapitalining yetarlilik darajasini;

- Markaziy bank bilan Chet el banki bo‘lgan muassisning bankni nazorat qilish organi o‘rtasida axborot ayirboshlash to‘g‘risidagi kelishuv mavjudligini;

- norezident joylashgan mamlakat vakolatli organlarining axborotini va fikrlarini inobatga oladi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqqanlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida yig‘im undiriladi.

Ariza beruvchi bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to‘g‘risidagi arizada elektron pochta manzilini ko‘rsatishga haqli. Elektron pochta manzilining ko‘rsatilishi ariza yuzasidan qabul qilingan qaror to‘g‘risidagi xabarnomani olishga yoki axborot kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda qo‘shimcha axborotni so‘rab olinishiga bo‘lgan rozilikdir.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to‘g‘risidagi ariza bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlar taqdim etilgan kundan e’tiboran uch oy ichida Markaziy bank tomonidan ko‘rib chiqilishi kerak. Mazkur muddat to‘rt oygacha uzaytirilishi mumkin.

Agar ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va axborot bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun yetarli bo‘lmasa, Markaziy bank ariza beruvchidan qo‘shimcha hujjatlar va axborot so‘rashga haqlidir.

Ariza beruvchi Markaziy bank so‘ragan hujjatlar va axborotni so‘rov olingan kundan e’tiboran o‘ttiz kalendar kundan oshmagan muddatda taqdim etishi kerak, ushbu muddat mobaynida bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to‘g‘risidagi ariza ko‘rib chiqiladigan uch oylik davr to‘xtatib turiladi.

Markaziy bank ariza beruvchini qabul qilingan qaror to‘g‘risida tegishli qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran uch ish

kuni ishida yozma shaklda, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda xabardor qiladi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnoma olingan kundan e'tiboran olti oydan oshmagan muddat ishida yuridik kuchini saqlab turadi.

Bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya berishda taqdim etiladigan hujjatlar.

Bankni davlat ro'yxatiga olish va litsenziya olish uchun ariza beruvchi bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnoma olinganidan keyin olti oydan kechiktirmay Markaziy bankka quyidagilarni taqdim etishi kerak:

- bankni davlat ro'yxatiga olish va litsenziya berish to'g'risidagi ariza. Litsenziya berish to'g'risidagi arizada ariza beruvchining elektron pochta manzilining ko'rsatilishi uning qabul qilingan qaror to'g'risidagi xabarnomani axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda olishga bo'lgan roziligidir;

- bankning muhim ahamiyatga ega xodimlari to'g'risida hujjatlar;

- tashkil etilayotgan bank joylashgan yerdagi Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasining bank binolari, ularning muhofaza qilinishi ta'minlanganligi, uskunalar, ishlarni tashkil etish texnika vositalari bilan jihozlanganligi va dasturiy ta'minotining Markaziy bank talablariga muvofiqligi to'g'risidagi berilgan xulosasi;

- banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan eng kam miqdordan kam bo'lmagan summada bankning ustav kapitali shakllantirilganligini tasdiqlovchi hujjat, shuningdek, muassislarning ro'yxati;

- taqdim etilgan hujjatlarning elektron shakldagi ko'chirma nusxalari.

Hujjatlar ikki nusxada taqdim etiladi.

Bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya berish uchun taqdim etilgan hujjatlarning Markaziy bank tomonidan ko'rib chiqilishi O'zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunining 20-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Litsenziyalashdan oldin boshqa organlar bilan maslahatlashish.

Markaziy bank litsenziyalashdan oldingi tartib-taomillar doirasida vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan maslahatlashishga haqlidir.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari Markaziy bank tomonidan so‘ralgan, tegishli qarorni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotni taqdim etishi kerak.

Markaziy bank Chet davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to‘g‘risida so‘rovnomalar yuborishga haqli.

Bankni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va litsenziyani berish, shuningdek, litsenziyani qayta rasmiylashtirish uchun to‘lov. Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida yig‘im undiriladi.

Litsenziya berilganligi uchun bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,1 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirish yig‘im summasining yarmi undiriladi.

Markaziy bank tomonidan bank haqidagi Banklarning davlat reestrida saqlanuvshi ma’lumotlar ko‘chirma ko‘rinishida bepul taqdim etiladi.

Tashkiliy-texnik tadbirlarni moliyalashtirish. Tashkiliy-texnik tadbirlarni bajarish, bank binolarini tayyorlash, ularning muhofaza qilinishi ta’minlash, uskunalar, tashkiliy-texnik vositalari bilan jihozlash va dasturiy ta’minot bilan ta’minlash bo‘yicha xarajatlar muassislar hisobidan qoplanadi. Buning uchun muassislar tomonidan bankni tashkil etish bo‘yicha xarajatlarning taxminiy hisob-kitobi qilinadi hamda bir yoki bir necha muassis tomonidan xarajatlarni amalga oshirish to‘g‘risida o‘zaro shartnoma tuziladi, ushbu hujjatlar bank ro‘yxatga olingunga qadar Markaziy bankka taqdim etiladi.

Bank davlat ro‘yxatiga olingan va unga litsenziya berilgandan so‘ng muassislar aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida bankni tashkil etish bo‘yicha xarajatlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi

shartnomaga muvofiq qilingan xarajatlar haqida hisobot beradi. Ularning harakati aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan ma’qullangan taqdirda, ularning qilgan xarajatlari bank tomonidan shartnomaga muvofiq qaytarib beriladi.

Markaziy bank bankni davlat ro‘yxatiga olish hamda litsenziya berish to‘g‘risida qaror qabul qilishi. Basharti bankning faoliyati xavfsiz tarzda amalga oshirilishi ta’minlansa hamda omonatchilar va kreditorlarning manfaatlari himoya qilinishini, shuningdek, bank tizimi lozim darajada ishlashini kafolatlovshi korporativ boshqaruv talablariga rioya etilsa, Markaziy bank bankni davlat ro‘yxatiga olish hamda litsenziya berish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Bankni davlat ro‘yxatiga olish va litsenziya berish haqidagi qaror ariza barcha zarur hujjatlar bilan olingan kundan e’tiboran bir oydan oshmagan muddatda qabul qilinadi.

Markaziy bank tegishli qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran uch ish kuni ishida ariza beruvchini qabul qilingan qaror haqida yozma shaklda, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda xabardor qiladi.

Litsenziya berilganligi uchun qonunda belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

Bankning davlat ro‘yxatiga olinganligi va unga litsenziya berilganligi to‘g‘risidagi axborot Markaziy bankning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

Litsenziyaning qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlangan taqdirda litsenziya Markaziy bank tomonidan chaqirib olinadi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish. Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

- ko‘rsatilgan taqdim etilgan hujjatlarning banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiq emasligi;
- baholanishi muvofiq amalga oshirilgan muassislarning, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlarning qonun talablariga muvofiq emasligi;
- bankning biznes-rejada ko‘rsatilgan maqsadlarga erishishga qodir emasligi;

- tashkil etiladigan bank bilan yaqin aloqalarga ega bo‘lgan bir yoki bir necha shaxsning faoliyatini tartibga soluvchi boshqa mamlakat qonunlarida yoki normativ hujjatlarida ushbu shaxslarga nisbatan boshqa mamlakat vakolatli organlarining talablari mavjudligi yoxud ular tomonidan qo‘llanilgan, Markaziy bankning nazorat qilish vazifasini amalga oshirishiga to‘sqinlik qiluvchi taqiqlar hamda cheklovlar qo‘llanilganligi yoki O‘zbekiston Respublikasining banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchiligiga rioya etish borasida boshqa mon’eliklarning mavjudligi;

- Markaziy bank tomonidan so‘ralgan qo‘shimcha hujjatlarning va axborotning taqdim etilmaganligi.

1.4. Tijorat banklarini qayta tashkil etish shakllari

Bankni qayta tashkil etish raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 25.05.2020-yildagi “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi Nizomi kabi hujjatlarning talablari hisobga olingan holda, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga muvofiq qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish va o‘zgartirish shaklida Markaziy bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Bankni qayta tashkil etish Markaziy bankning talabiga binoan ham amalga oshirilishi mumkin.

Bankni qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo‘lgan aksiyadorlar ovozlarining to‘rtdan uch qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Bankni qayta tashkil etishda ruxsat berishga doir majburiy talablar va shartlarga quyidagilar kiradi:

- qayta tashkil etish natijasida omonatchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishi;

- qayta tashkil etish natijasida yangidan vujudga keladigan va (yoki) qoladigan banklar tomonidan banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarida o‘rnatilgan prudensial normativlar va boshqa talablarga rioya etilishi;

- qayta tashkil etish jarayonida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi;

- qayta tashkil etilayotgan bankning topshirish hujjati yoki taqsimlash balansida huquqiy vorisning huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi qoidalarning mavjudligi.

Ariza beruvchi bankni qayta tashkil etishga doir ruxsatnoma olish uchun Markaziy bankka quyidagilarni taqdim etadi:

- bank aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolangan, bankni qayta tashkil etishga doir ruxsatnoma berish to‘g‘risidagi ariza;

- qayta tashkil etilayotgan bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining bankni qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qarori;

- qayta tashkil etishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligining asoslanganligi va oqibatlarining moliyaviy taxminlari, shu jumladan, qayta tashkil etilgandan so‘ng yangidan vujudga keladigan va qoladigan har bir bankning taxminiy balansi, bundan bankni o‘zgartirish mustasno;

- qayta tashkil etishda ishtirok etayotgan va ushbu jarayon natijasida yuzaga kelayotgan banklarning qayta tashkil etish natijasida hosil bo‘ladigan taxminiy balanslari asosida hisoblangan prudensial normativlar ko‘rsatkichlari bundan bankni o‘zgartirish mustasno;

- bankning aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan bankning yangi tahrirdagi ustavi, bundan bankni o‘zgartirish shaklidagi qayta tashkil etish mustasno.

Markaziy bank bankni qayta tashkil etishga doir ruxsatnomani berish to‘g‘risidagi arizani, mazkur ariza barcha zarur hujjatlar bilan olingan kundan e’tiboran 20 ish kunidan oshmagan muddatda ko‘rib chiqadi. Bankni qayta tashkil etishga doir ruxsatnomani berish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish uchun Markaziy bank tomonidan yig‘im undirilmaydi.

Bankni qayta tashkil etishga doir ruxsatnomani berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

- bankni qayta tashkil etishga doir ruxsatnomani berish uchun talab etiladigan hujjatlar to‘liq hajmda taqdim etilmaganda;

- ariza beruvchi ruxsat berishga doir majburiy talablar va shartlarga muvofiq bo‘lmaganda;

- ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda noto‘g‘ri yoki buzib ko‘rsatilgan ma’lumotlar mavjud bo‘lganda.

Markaziy bank bankni qayta tashkil etishni rad etgan taqdirda, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining bankni qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qarori haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan bankni qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganidan keyin qayta tashkil etilayotgan bank 30 kundan kech bo‘lmagan muddatda yozma ravishda ma’lum qilish va bankning rasmiy veb-saytida tegishli e’lon berish yo‘li bilan o‘z kreditorlarini kelgusidagi o‘zgarishlar haqida xabardor qilishi shart.

Ariza beruvchi Markaziy bankdan belgilangan tartibda ruxsatnoma olganidan so‘ng, raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq monopoliyaga qarshi organning dastlabki roziligini olishi lozim.

Bankni qo‘shib yuborish, bo‘lish va ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etishga doir Markaziy bank ruxsatnomasi olinganidan so‘ng, mazkur Nizomga muvofiq yangidan vujudga keladigan har bir bankni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va litsenziya olish uchun zarur tashkiliy-texnik tadbirlar bajariladi.

Bankni qo‘shib yuborish, bo‘lish va ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish natijasida yangidan vujudga keladigan banklarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ularga litsenziya berish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bankni qayta tashkil etish uchun Markaziy bankning ruxsatnomasi olinganligi qayta tashkil etilishi natijasida vujudga keladigan banklarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ularga litsenziya berish uchun kafolat bo‘la olmaydi.

Bankni qayta tashkil etish bilan bog‘liq bank ustaviga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bankni qo‘shib yuborish, qo‘shib olish va o‘zgartirish shaklida banklarni qayta tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar qayta tashkil etishda ishtirok etayotgan banklar hisobidan amalga oshiriladi.

Bankni bo‘lish va ajratib chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar qayta tashkil etish natijasida yangidan vujudga keladigan banklar tomonidan to‘lanadi.

Qayta tashkil etilayotgan bank zarur hollarda Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda bank mijozlarining barcha hisobvaraqlarini qayta ro‘yxatga olishi lozim.

Qayta tashkil etilayotgan bank qayta tashkil etish jarayonini Markaziy bankning qayta tashkil etish uchun ruxsatnomasi olingan kundan e’tiboran olti oy ichida tamomlashi shart.

Bankni qayta tashkil etishga doir ruxsatnoma quyidagi asoslarda bekor qilinadi:

- ariza beruvchining ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni bekor qilish to‘g‘risidagi murojaatiga ko‘ra;

- ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Bankni qo‘shib yuborish. Banklarni qo‘shib yuborish deganda ikki yoki bir necha banklar faoliyati to‘xtatilib, ularning huquq va majburiyatlarini berish yo‘li bilan yangi bankning tashkil bo‘lishi tushuniladi.

Qo‘shib yuborishda ishtirok etuvchi banklar o‘rtasida, qo‘shib yuborish tartibi va shartlari, shuningdek, har bir bank aksiyalarini yangidan vujudga keladigan bank aksiyalariga almashtirish tartibi belgilanishni nazarda tutuvchi qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnoma tuzadilar. Qo‘shilishda ishtirok etayotgan har bir bank kuzatuv kengashi qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnomani va topshirish dalolatnomasini tasdiqlash to‘g‘risidagi masalalarni aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi muhokamasiga qo‘yadi.

Yangidan vujudga keladigan bankning ustavini tasdiqlash va kuzatuv kengashini saylash qo‘shib yuborishda ishtirok etayotgan barcha banklar aksiyadorlarining umumiy qo‘shma yig‘ilishida amalga oshirilib, bu yig‘ilish ta’sis yig‘ilishi hisoblanadi. Aksiyadorlar umumiy qo‘shma yig‘ilishida ovoz berish tartibi banklarni qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnomada belgilanishi mumkin.

Yangidan vujudga kelgan bank ro‘yxatdan o‘tgan va banklarning davlat reestrida qayta tashkil etilayotgan banklar

faoliyatini to‘xtatish to‘g‘risidagi yozuv kiritilgan vaqtdan boshlab qo‘shib yuborishda ishtirok etayotgan banklar qayta tashkil etilgan hisoblanadi.

Banklarni qo‘shib yuborish natijasida yangidan vujudga kelgan bankning yuridik yig‘majildiga qo‘shib yuborishda ishtirok etgan banklarning qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnomasi va topshirish dalolatnomalari kiritib qo‘yiladi.

Banklar qo‘shib yuborilganda har bir bankning huquq va majburiyatlari topshirish dalolatnomasiga muvofiq yangidan vujudga kelgan bankka o‘tadi.

Markaziy bank qo‘shib yuborish natijasida yangidan bank vujudga kelgani va qayta tashkil etilgan banklar faoliyati to‘xtatilgani to‘g‘risidagi axborotni o‘z rasmiy veb saytida e’lon qiladi.

Banklarni qo‘shib olish. Banklarni qo‘shib olish deganda bir yoki bir necha bankning huquq va majburiyatlarini boshqa bankka bergan holda ularning faoliyatini to‘xtatish tushuniladi.

Qo‘shib olinayotgan bank va u qo‘shilayotgan bank qo‘shib olish tartibi va shartlari, shuningdek, qo‘shib olinayotgan bank aksiyalarini qo‘shib olish amalga oshirilayotgan bank aksiyalariga almashtirish tartibini belgilashni nazarda tutuvshi shartnoma tuzadilar. Har bir bank kuzatuv kengashi qo‘shib olishda ishtirok etayotgan banklar aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi muhokamasiga qo‘shib olish shaklida bankni qayta tashkil etish va qo‘shib olish to‘g‘risidagi shartnomani tasdiqlash masalasini qo‘yadi. Qo‘shib olinayotgan bank kuzatuv kengashi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga topshirish dalolatnomasini tasdiqlash masalasini ham kiritadi.

Qo‘shib olishda ishtirok etayotgan banklar aksiyadorlarining qo‘shma umumiy yig‘ilishi ustavga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish va bank kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Aksiyadorlar qo‘shma umumiy yig‘ilishida ovoz berish tartibi qo‘shib olish to‘g‘risidagi shartnomada belgilanadi.

Qo‘shib olishda ishtirok etayotgan banklar Banklarning davlat reestrida qo‘shib olinayotgan bank faoliyatini to‘xtatish to‘g‘risidagi yozuv kiritilgan vaqtdan boshlab qayta tashkil etilgan

hisoblanadi (huquqiy vorisi va qayta tashkil etish shakli koʻrsatilgan holda). Markaziy bank qoʻshib olayotgan bankning ustaviga kiritilgan tegishli oʻzgartirish va qoʻshimchalarni roʻyxatga oladi.

Markaziy bankka taqdim etilgan hujjatlarning bir nusxasi qoʻshib olinayotgan bank yuridik yigʻmajildiga kiritiladi.

Qoʻshib olinayotgan bankning barcha huquq va majburiyatlari topshirish dalolatnomasiga muvofiq qoʻshib olinayotgan bankka oʻtadi.

Markaziy bank qoʻshib olingan bankning qayta tashkil etilgani va uning faoliyati toʻxtatilgani toʻgʻrisidagi axborotni oʻz rasmiy veb saytida e'lon qiladi.

Bankni boʻlish. Bankni boʻlish deganda uning huquq va majburiyatlarini yangi vujudga keladigan banklarga bergan holda faoliyatining toʻxtatilishi tushuniladi.

Boʻlish shaklida qayta tashkil etilayotgan bank kuzatuv kengashi aksiyadorlar umumiy yigʻilishi muhokamasiga bankni boʻlish shaklida qayta tashkil etish, ushbu qayta tashkil etishning tartibi va shartlari, yangi banklarni tashkil etish va qayta tashkil etilayotgan bank aksiyalarini yangidan vujudga kelayotgan banklar aksiyalariga almashtirish tartibi kabi masalalarni kiritadi.

Boʻlish shaklida qayta tashkil etilayotgan bank aksiyadorlari umumiy yigʻilishi boʻlish shaklida qayta tashkil etish, yangi banklarni tashkil etish, qayta tashkil etilayotgan bank aksiyalarini yangidan vujudga kelayotgan bank aksiyalariga almashtirish tartibi toʻgʻrisida qaror qabul qiladi hamda taqsimlash balansini tasdiqlaydi.

Boʻlish natijasida vujudga keladigan har bir bank aksiyadorlari ta'sis yigʻilishi bank ustavini tasdiqlaydi va kuzatuv kengashi a'zolari va boshqaruv raisini saylaydi.

Yangidan vujudga kelgan banklar roʻyxatdan oʻtkazilishi va bir vaqtning oʻzida ularga litsenziya berilishi hamda qayta tashkil etilgan bank faoliyati toʻxtatilgani toʻgʻrisidagi yozuv (huquqiy vorislar va qayta tashkil etish shakllari koʻrsatilgani holda) Banklarning davlat reestriga kiritilishi bilan bir paytda bank qayta tashkil etilgan hisoblanadi.

Bank bo‘linganda uning huquq va majburiyatlari taqsimlash balansiga muvofiq yangi vujudga kelgan ikki yoki undan ortiq banklarga beriladi.

Markaziy bank bo‘lish natijasida yangidan bank vujudga kelgani va qayta tashkil etilgan bank faoliyati to‘xtatilgani to‘g‘risidagi axborotni o‘zining rasmiy veb-saytida e’lon qiladi.

Bankni ajratib chiqarish. Bankni ajratib chiqarish deganda qayta tashkil etilayotgan bank faoliyati to‘xtatilmagani holda uning huquq va majburiyatlarining bir qismini bir yoki bir necha banklar tashkil etilib, ularga berilishi tushuniladi.

Ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilayotgan bank kuzatuv kengashi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi muhokamasiga ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish, ajratib chiqarish tartibi va shartlari, yangi bankni tashkil etish, qayta tashkil etilayotgan bank aksiyalarini ajratib chiqarilayotgan bank aksiyalariga almashtirish va bunday almashtirish tartibi, bank ustaviga ajratib chiqarish shaklida bank qayta tashkil etilgani, bank ustav kapitali to‘g‘risidagi axborotni o‘zida ifodalagan o‘zgartirishlar kiritish va shuningdek, taqsimlash balansini tasdiqlash to‘g‘risidagi masalalarni kiritadi.

Ajralib chiqish shaklida qayta tashkil etilayotgan bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi bankni qayta tashkil etish, qayta tashkil etish tartibi va shartlari, bank aksiyalarini ajralib shiqayotgan bank aksiyalariga almashtirish va bunday almashtirish tartibi, ajralib chiqish shaklida bank qayta tashkil etilgani to‘g‘risidagi axborotni o‘zida ifodalagan bank ustaviga o‘zgartirishlar kiritish va qayta tashkil etish natijasida kamaytirilgan bank ustav kapitali, shuningdek, taqsimlash balansini tasdiqlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Ajratib chiqarish natijasida yuzaga kelgan bank aksiyadorlari ta’sis yig‘ilishi banklarning kuzatuv kengashi a’zolari va boshqaruv raisini saylaydi hamda bankning ustavini tasdiqlaydi.

Yangidan vujudga kelgan banklar Banklarning davlat reestriga ro‘yxatga olingan (ajratilgan bank ko‘rsatilgani holda) va bir paytda ularga litsenziya berilgan vaqtdan boshlab bank qayta tashkil etilgan hisoblanadi.

Bank tarkibidan bir yoki bir necha banklar ajratib chiqarilganda, qayta tashkil etilgan bankning huquq va majburiyatlarining bir qismi taqsimlash balansiga muvofiq, ularning har biriga o‘tadi.

Markaziy bank ajratib chiqarish natijasida yangidan banklar vujudga kelgani to‘g‘risidagi axborotni o‘z rasmiy veb saytida e’lon qiladi.

Markaziy bankning talabiga binoan bankni qayta tashkil etish. Bank tomonidan banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilgan va bankning olib borayotgan faoliyati respublika bank tizimida raqobatni pasayishiga sabab bo‘lgan taqdirda, Markaziy bank mazkur bankdan bankni qayta tashkil etishni talab qilish huquqiga ega.

Markaziy bankning bankni qayta tashkil etish to‘g‘risidagi talabi qabul qilinganidan so‘ng 30 kundan oshmagan muddatda bank kuzatuv kengashi tomonidan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi chaqiriladi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi Markaziy bank talabiga asosan bankni qayta tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi va qayta tashkil etish rejasini tasdiqlaydi. Bankni qayta tashkil etish rejasi bankning moliyaviy holatini yaxshilash yoki bank kreditorlari va omonatchilari manfaatlariga xavf soluvchi va (yoki) soladigan qoidabuzarliklarni bartaraf etish chora tadbirlarini o‘z ichiga olishi lozim.

Agar bank Markaziy bank talabida belgilangan muddatda bankni qayta tashkil etmasa yoki qayta tashkil etish rejasi bankning moliyaviy holatini yaxshilash yoki qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha yetarli chora-tadbirlarni o‘z ichiga olmasa, Markaziy bank qonunchilik hujjatlariga muvofiq har qanday to‘g‘rilovchi chora-tadbirlar qo‘llash, shu jumladan, bankka vaqtinchalik boshqaruvchini tayinlash yoki bankni majburiy tugatish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish huquqiga ega.

1.5. Tijorat banklarini tugatish

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 78-moddasiga asosan tijorat banklari

quyidagi hollarda faoliyatini to‘xtatish yoki faoliyatini tugatish mumkin:

- bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining bankni ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi qarori;
- Markaziy bank boshqaruvining bankni majburiy tugatish haqidagi qarori asos bo‘ladi.

Bankning faoliyatini tugatish va bankni tugatish, shu jumladan, ixtiyoriy shaklda tugatish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Bankni tugatish Banklarning davlat reestriga tegishli yozuv kiritilgan kundan e’tiboran tamomlangan deb va bank tugatilgan deb hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 98-101-moddalariga muvofiq tijorat banklari aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan yoki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki bankdan bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya qaytarib olingan hollarda tugatilishi mumkin.

Bankni tugatish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- moddiy nazorat va inventarlash;
- aktivlarni tekshirish;
- aktivlarni baholash va sotish;
- sotuvdan tushgan tushumlarni joylashtirish;
- tugatish jarayonini yakunlash.

Markaziy bank bankni tugatish jarayonini nazorat qilib turishi shart. Ushbu maqsadlarda Markaziy bank muntazam ravishda bank aktivlarini baholash, bu aktivlarni tugatish va daromadlarni taqsimlash to‘g‘risida hisobotlar olib turadi.

Tugatish komissiyasi raisi etib tayinlagan shaxs yoki likvidator sifatida yollanayotgan yuridik shaxs rahbari, shuningdek, likvidatorning bosh buxgalteri sifatida yollangan shaxs va tugatish komissiyasining boshqa a’zolari Markaziy bankning banklar rahbarlari va bosh buxgalterlariga nisbatan qo‘ygan malaka talablariga mos kelishi lozim. Likvidator, ekspertlar va tugatish jarayonida band bo‘lgan boshqa shaxslar

faoliyatiga haq to‘lash shartlari likvidator tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda ishlab chiqiladigan tugatish rejasida qayd etiladi.

Ixtiyoriy tugatish. Ixtiyoriy tugatish bank aksiyadorlari (ishtirokchilari) umumiy yig‘ilishining ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi qarori asosida, kreditorlar va omonatchilarning talablarini qanoatlantirish imkoniyati mavjud bo‘lganda hamda Markaziy bankning ruxsati olinganda amalga oshiriladi.

Bankni ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo‘lgan aksiyadorlar ovozlarining to‘rtdan uch qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Bank Markaziy bankka aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan bankni ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida darhol yozma shaklda xabar berishi shart.

Bankni ixtiyoriy tugatishga ruxsat olish uchun bank aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining mazkur qarori qabul qilinganidan keyin besh kundan kechiktirmay Markaziy bankka quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda ariza beradi:

- bankni tugatish to‘g‘risida aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tugatish sabablari ko‘rsatilgan holda qabul qilingan qaror;

- aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan, tugatish jarayonini, kreditorlarning va omonatchilarning talablarini qanoatlantirish tartib-taomillari va muddatlari doirasidagi tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan tugatish rejasi;

- ixtiyoriy tugatishga ruxsat berish to‘g‘risida Markaziy bankka ariza bilan murojaat etilgan paytdagi talablarni qanoatlantirish uchun mablag‘lar yetarli ekanligini tasdiqlovchi balans hisoboti;

- tugatish komissiyasining tarkibi to‘g‘risidagi axborot va boshqa zarur ma’lumotlar.

Bankni tugatish komissiyasi oldindan Markaziy bank bilan kelishilgan holda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tayinlanadi. Agar tugatish komissiyasi tayinlanmagan bo‘lsa,

bankni tugatish bo‘yicha komissiya Markaziy bank boshqaruvining qarori bilan tashkil etiladi.

Markaziy bank bankni ixtiyoriy tugatishga ruxsat berish to‘g‘risidagi arizani olgan kundan e’tiboran ikki oy ichida taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqadi va quyidagi shartlar bajarilgan bo‘lsa, bankni ixtiyoriy tugatish uchun ruxsat beradi, agar:

- bankni ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi qaror qonunchilikka muvofiq;
- bank to‘lovga layoqatli bo‘lsa;
- bank tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda to‘liq va yetarli ma’lumotlar mavjud bo‘lsa;
- taqdim etilgan tugatish rejasi kreditorlar va omonatchilarning talablari to‘liq qanoatlantirilishi uchun imkoniyatlar bo‘lishini ta’minlasa;
- bank Markaziy bankning so‘rovnomasiga ko‘ra bankni ixtiyoriy tugatishga ruxsat berish shartlari bajarilganligini aniqlash uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha hujjatlarni belgilangan muddatda taqdim etgan bo‘lsa.

Markaziy bank salbiy qaror qabul qilgan taqdirda ixtiyoriy tugatishga ruxsat berish rad etilgani to‘g‘risidagi asoslantirilgan qarorni bankning kuzatuv kengashiga yetkazadi. Zarur hollarda Markaziy bank tugatish rejasi va jadvalining qayta ko‘rib chiqilishini yoki qo‘shimcha hujjatlar va axborot taqdim etilishini talab qilishi mumkin.

Markaziy bank ixtiyoriy tugatish uchun ruxsat berganidan keyin bank litsenziyasini chaqirib oladi.

Agar ixtiyoriy tugatish jarayonida bank to‘lovga layoqatsiz ekanligi aniqlansa, tugatish komissiyasi zudlik bilan Markaziy bankka xabar berishi hamda bankning moliyaviy ahvolini tasdiqlovchi tegishli hisobot va hujjatlarni taqdim etishi kerak.

Markaziy bank hujjatlarni ko‘rib chiqadi va qonunda belgilanganidek layoqatsizlik asoslaridan birontasi mavjud bo‘lgan taqdirda, bankning to‘lovga layoqatsizligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi va majburiy tugatish jarayonini boshlab yuboradi.

Majburiy tugatish. Bank Markaziy bank boshqaruvining litsenziyani chaqirib olish to‘g‘risidagi qarori asosida majburiy tugatiladi.Bankni majburiy tugatish chog‘ida tugatish komissiyasi Markaziy bank tomonidan tayinlanadi.

Markaziy bank tugatish komissiyasi tarkibiga Markaziy bank xodimlarini kiritishga haqli.

Tugatish komissiyasining vakolatlari. Tugatish komissiyasi tayinlangan paytdan e'tiboran bank ishlarini boshqarish bo'yicha, shu jumladan, bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va boshqaruvi vakolatlari ushbu komissiyaga o'tadi.

Tugatish komissiyasi tayinlangan sanadan e'tiboran ikki kun ishida ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, bankning rasmiy veb-saytida bank tugatilganligi, shu jumladan, uning omonatchilari va kreditorlari tomonidan talablarni qanoatlantirish to'g'risidagi arizalarni berish tartibi va muddatlari to'g'risidagi e'lonni chop etishi shart. Talablarni taqdim etish muddati bank tugatilganligi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan kundan e'tiboran ikki oyni tashkil etadi va mazkur muddat tugaganidan so'ng tugatish komissiyasi tomonidan talablar qabul qilinmaydi.

Tugatish komissiyasi qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq axborotni ham oshkor qilishi kerak.

Tugatish komissiyasi litsenziya chaqirib olingan kundan e'tiboran ikki oy ishida kreditorlarni aniqlash hamda debitorlik qarzlarini va Markaziy bankning majburiy zaxiralar jamg'armasida depozitga qo'yilgan mablag'larni olish choralarini ko'radi. Mazkur mablag'lar birinchi navbatda tugatilayotgan bankning qarzlarini jismoniy shaxslarning talablari asosida to'lashga qaratiladi, bundan bankka aloqador bo'lgan shaxslar bundan mustasno bo'ladi.

1-bobga oid nazorat savollari:

- Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish iqtisodiy asoslarini keltiring.
- Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish huquqiy asoslarini keltiring.
- Qanday shartlar bajarilganda banklar faoliyatini olib borishgalitsenziya beriladi?
- Litsenziya chaqirib olinishi mumkinmi?
- Markaziy bankning tijorat banklarining tashkil etilish jarayonidagi rolini asoslang.
- Tijorat banklarining ustav kapitali minimal miqdoriga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering.
- Tijorat banklarining vazifalarini tushuntiring.

II BOB. TIJORAT BANKLARINING PASSIV OPERATSIYALARI TARKIBI VA ULARNING JOYLASHISHI

2.1. Tijorat bankining resurslari, ularning tarkibi va tavsifi.
2.2. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari va ularning turlari.
2.3. Tijorat bankining kapitali, uning tarkibi va yetarliligiga qo‘yilgan talablar.
2.4. Bank kapitali va uning funksiyalari.

Tayanch iboralar: Bank resurslari, passiv operatsiyalar, kredit resurslari, bankning o‘z mablag‘lari, jalb qilingan mablag‘lar, depozitlar, nodepozit operatsiyalar, banklararo kreditlar, bankning emitentlangan mablag‘lari, muddatli depozitlar, kapital yetarliligi, bank kapitali, bank kapitali funksiyalari

2.1. Tijorat bankining resurslari va ularning tarkibi va tavsifi

Banklar ish faoliyatida shunday amaliyot mavjudki, tijorat banklari, boshqa xo‘jalik subyektlari kabi o‘zining xo‘jalik va tijorat faoliyatini ta’minlash uchun ma’lum miqdorda pul mablag‘lariga, ya’ni resurslariga ega bo‘lishlari talab etiladi. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablariga asosan bank resurslarini tashkil etish, bu – bank faoliyatini bir maromda olib borishning asosiy garovi hisoblanadi.

Tijorat bankning asosiy vazifalaridan biri, bu – bo‘sh pul mablag‘larini mumkin qadar ko‘proq jalb qilish va ularni foyda keltiruvchi aktivlarga joylashtirishdan iborat.

Bu o‘rinda, eng avallo, tijorat banklariga oid resurslarga tavsif beradigan bo‘lsak, resurs bu – fransuzsha «ressourse» so‘zidan olingan bo‘lib, pul mablag‘lari, yordamchi mablag‘, imkoniyat, zaxira, mablag‘ va imkoniyatlar manbayi, daromadlar manbayi, xomashyo degan ma’nolarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Bundan tashqari, iqtisodiy manbalarda «resurs» so‘zi turli xil ma’nolarda, ya’ni tabiat resurslari, moliyaviy resurslar, iqtisodiy

resurslar, inson resurslari va boshqa koʻrinishlarda tez-tez uchrab turadi. Shundan kelib chiqib, iqtisodiy resurslarni jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida taqsimlanadigan iqtisodiy imkoniyatlarining asosiy elementlaridan biri deb hisoblashimiz mumkin.

Bu oʻrinda resurslardan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning aniq maqsadlariga erishishda foydalaniladi. Iqtisodiy resurslar asosiy qismi, bu moliyaviy resurslar boʻlib, bu resurslar iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlash uchun foydalaniladigan pul-kredit va byudjet mablagʻlarini tashkil qiladi.

Moliyaviy resurslarning asosiy manbayi boʻlib, Vaqtinchalik boʻsh turgan pul mablagʻlari, soliqlar, jismoniy shaxslarning pul mablagʻlari, chek-depozit emissiyasi bilan bogʻliq mablagʻlar va boshqalar hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot izlanishlarida va bank mablagʻlarining shakllanishi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlarda «bank resurslari», «kredit resurslari», «depozit resurslari», «bank passivlari» kabi tushunchalarni uchratishimiz mumkin va bu tushunchalarga mualliflar oʻzlarining turlicha ta'riflari orqali izoh berganliklarining guvohi boʻlamiz.

Moliyaviy resurslarining zarurligi bank faoliyatini tashkil qilish va olib borish jarayonida namoyon boʻladi. Banklar tashkil qilinishining ilk bosqichlarida banklardan, avvalambor, oʻz kapitalining mavjud boʻlishi va banklar keyingi faoliyatlarini olib borishlari uchun esa mablagʻlar jalb qilinishi talab qilinadi. Shu boisdan, tijorat banklari resurslari mohiyatini ta'riflaganda nafaqat ularning qaysi manbalar hisobidan tashkil qilinganligini e'tiborga olish, balki u mablagʻlar bankning maqsadli faoliyati uchun zarur va muhimligini hamda ularning samaradorligiga erishishni ham koʻzda tutish lozim.

Tijorat banklari resurslarini puxta oʻrganish uchun ularni guruhlarga ajratib tasniflash lozim. Toʻgʻri, bank resurslarining turkumlanishi ularni boshqarishda jiddiy oʻzgarish yaratmaydi, ammo ularni oʻrganishning tizimli yondashuvini vujudga keltirish uchun asos yaratadi.

Bank resurslarining shakllanishi jihatidan tasniflanishi iqtisodchi-olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi. Bu boradagi

oʻtkazilgan ilmiy tadqiqotlarda koʻrinadiki, iqtisodchi olimlar V.I. Bukato va Evlevlar oʻzlarining «Banki i bankovskie operatsii v Rosii» kitobida «bank resurslarini shakllanishi jihatidan ikkiga boʻlib oʻrgangan, ya'ni bank resurslari bankning oʻz kapitali va jalb qilingan mablagʻlardan iborat», deb ta'kidlaydilar. Taniqli iqtisodshi olim O.Lavruchinga tijorat banklarining resurslari bankning ixtiyorida boʻlgan oʻz va jalb qilingan resurslarining yigʻindidir. Yana bir tadqiqotchi Maslenshenkov Y.S. «Finansoviy menejment v kommersheskom banke» kitobida keltirishicha: «bank resurslari oʻz va jalb qilingan mablagʻlardan tashkil topadi».

Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi.

Shu bilan birga tijorat banklarining aktiv operatsiyalari koʻlami, resurslar hajmiga bogʻliq boʻladi. Bunday holat resurslarni jalb qilish boʻyicha banklar oʻrtasida raqobatni keltirib chiqaradi.

Shundan kelib chiqib, bank resurslari tijorat banki faoliyatini keng olib borishga asos boʻlib, bankka ma'lum miqdorda daromad keltira olish qudratiga ega boʻlgan zaxira va imkoniyatdir.

Tijorat banklari oʻzining kredit siyosatini ishlab chiqqanda yoki uzoq davrga oʻz faoliyatining strategik yoʻnalishlarini belgilaganda shu zaxira va imkoniyatlarning koʻlamini keng koʻrib chiqishi va resurslarni oʻz faoliyat yoʻnalishlarining daromad manbalari sifatida nazarda tutishi lozim.

Chet el adabiyotlarida mablagʻlarni jalb qilish operatsiyalarini nafaqat tijorat banklari, balki moliyaviy kompaniyalar, jamgʻarma kassalari, turli xil fondlar ham bajaradi degan fikrni uchratish mumkin.

Ammo ta'kidlash joizki, fondlarning faoliyati va maqsadi bilan tijorat banklarining faoliyati va maqsadi bir xil emas.

Yuqorida tavsiya qilingan tavsiflar banklar faoliyati uchun zarur boʻlib, tijorat banklari oʻzida mavjud boʻlgan resurslarni qaysi manbadan, qanday qiymatda, qancha muddatga jalb qilinganligi toʻgʻrisida yaqqol tasavvurga ega boʻladi.

Bundan tashqari, bu tavsiflar asosida tijorat banklari mablagʻlar qaysi subyektga tegishli ekanligi va bu subyektning moliyaviy ahvoli, unga shu mablagʻlar qaysi muddatga zarurligi

yoki boshqacha qilib aytganda ularning likvidlilik, ishonchlilik darajasi, shu mablag‘lar bo‘yicha mavjud risklar va ularning darajasining aniqlashga va shu omillar asosida chora-tadbirlarni amalga oshirib banklarning resurs bazasini barqaror ushlab turishga yordam beradi.

Shunday qilib, tijorat banklari, boshqa xo‘jalik subyektlari kabi o‘zining xo‘jalik va moliyaviy faoliyatini ta’minlash uchun ma’lum miqdorda pul mablag‘lariga, ya’ni resurslariga ega bo‘lishlari zarur ekan.

Tijorat bankining asosiy vazifalaridan biri bo‘sh pul mablag‘larini mumkin qadar ko‘proq jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi maqbul aktivlarga joylashtirishdan iborat.

Bank faoliyatining o‘ziga xosligi shundaki, uning resurslari asosan o‘z mablag‘lari hisobidan emas, balki jalb qilingan mablag‘lar hisobidan shakllanadi. Barcha bank resurslarining qariyb 70-80 foizini jalb qilingan va 20-30 foizini banklarning o‘z mablag‘lari ulushi tashkil etadi. Banklarning mablag‘larni jalb qilish qobiliyati tijorat banki tomonidan likvidlik ko‘rsatkichlari, shu jumladan, o‘z kapitali hajmiga bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar asosida tartibga solinadi.

Bank resurslariga banklarning o‘z mablag‘lari, shuningdek, asosan faol operatsiyalar uchun foydalaniladigan qarz va qarz mablag‘lari kiradi.

Tijorat bankining o‘z mablag‘lari - bu bank tomonidan - uning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, tijorat va xo‘jalik faoliyatini ta’minlash maqsadida tashkil etilgan turli fondlar, shuningdek bankning joriy yil va o‘tgan yillar natijalari bo‘yicha olgan foydasi. Bu o‘rinda bankning o‘z mablag‘lari tijorat bankidagi aksiyadorlarning holatini ifodalaydi.

Bankning o‘z mablag‘lari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ustav kapitali;
- zaxira fondi;
- maxsus maqsadli fondlar;
- kredit risklari va qimmatli qog‘ozlarning amortizatsiyasini qoplash uchun zaxiralar;
- ijtimoiy rivojlanish uchun mablag‘lar;
- joriy foyda, taqsimlanmagan foyda.

Tijorat bankining jalb qilingan mablag‘lari – bu bankka doimiy ravishda taqdim etiladigan, ushbu mablag‘lar egalariga daromadlarni (foizlar, dividendlar shaklida) to‘lash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan va amalda egalariga qaytarilmasligi mumkin bo‘lgan mablag‘lardir. Masalan, jalb qilingan resurslar soniga aksiyalar chiqarish, ustav kapitaliga qo‘shimcha badallar, tekin asosda maqsadli davlat tomonidan moliyalashtirish kiradi.

Tijorat bankining qarz mablag‘lari – bu ma’lum muddatga olingan va foizlar bilan to‘lanishi shart bo‘lgan mablag‘lar, ya’ni bu vaqtinchalik moliyaviy yordam sifatida olingan mablag‘lardir. Qarzga olingan mablag‘lar tijorat bankiga o‘z mijozlaridan kelib tuchadi va bank qarz oluvchi vazifasini bajaradi. Qarzga olingan mablag‘lar qatoriga boshqa tijorat banklari, davlat kreditlari, jismoniy va yuridik shaxslarning depozitlari, obligatsiyalar kiradi.

Tijorat banklarining qarz mablag‘larining asosiy qismini - depozitlar, ya’ni mijozlar – jismoniy va yuridik shaxslarning bankka qo‘ygan mablag‘lari tashkil etadi.

Depozit bo‘lmagan (depozitsiz) qarz mablag‘lari – bu bank kreditlar (banklararo kreditlar, Markaziy bankdan olingan kredit) shaklida yoki pul bozorida o‘z qarz majburiyatlarini sotish orqali oladigan mablag‘lar.

Shunday qilib tijorat banki kredit resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari yordamida shakllanib, bank balansining passiv qismida ikki katta guruhga bo‘lib hisobga olinadi. Ular: banklarning o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘laridir. Jalb qilingan resurslarni ba’zi hollarda ikkiga bo‘lib qaraladi.

Birinchisi, bu jalb qilingan depozitlar, ikkinchisi, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurslardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya’ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi.

Tijorat bankining passiv va aktiv operatsiyalari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli, passivlarning tarkibi va xarakteri ko‘p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o‘z ifodasini topadi. Shu bilan birga, resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o‘zgarishi ham

ta’sir qiladi.

Tijorat banki kredit resurslarining asosiy qismini bank mijozlarining mablag‘lari tashkil qiladi. Bank boshqa mablag‘larini jalb qilish uchun, avvalambor me’yoriy hujjatlar talablari bo‘yicha, o‘z kapitalining yetarlilik darajasi miqdorini shakllantirishi lozim.

Tijorat banklari bajarayotgan natijasida, banklarning daromadlari vujudga keltiriladi.

Bank kredit resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa, o‘z navbatida banklar faoliyatini doimiyligiga asos hisoblanadi. Shu sabab o‘tish iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan deyarli barcha mamlakatlarda tijorat banklari kredit resurslarini shakllantirish tizimida tubdan o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Bunday o‘zgarishlarga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi. Bular:

- banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishining ta’minlanishi va bu o‘z navbatida kredit riskini kamaytirganligi;
- iqtisodiyotda noto‘lovlar muammosining mavjudligi va kreditning qaytarilmasligi oqibatida, tijorat banklarining zarar ko‘rish darajasining oshishi;
- aholi qo‘lidagi omonatlarning o‘sishi;
- korporativ qimmatli qog‘ozlar bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalardir.

Banklarda mavjud bo‘lgan mablag‘lardan foydalanish imkoniyatiga va ularning manbalariga qarab bank resurslari o‘z resurslariga va qarz (sotib olingan) resurslarga bo‘linadi.

Bank resurslariga bank kapitalidan tashqari ma’lum vaqt davomida bank ixtiyorida bo‘lgan jalb qilingan depozitlarni, boshqa banklardagi depozit va vakillik hisob raqamidagi qoldiqlarni, forvard valyuta kursi va kliring bo‘yicha qoldiqlarni ham kiritish mumkin.

Undan tashqari, bankning ixtiyorida mavjud bo‘lgan resurslar uning amalga oshirilishi mo‘ljallanayotgan aktiv operatsiyalar uchun yetarli bo‘lmasa, zarur miqdordagi mablag‘larni Markaziy bankdan, nobyudjet fondlardan, resurslar bozoridan sotib olishi yoki qarzga olishi mumkin.

Shunday qilib, o‘z mablag‘lari va jalb qilingan yoki sotib olingan

mablag‘lari yig‘indisi tarkibiy shakllanish jihatdan tijorat banklarining resurs bazasini tashkil qiladi. Xalqaro bank amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantiruvshi asosiy manbalarga o‘z kapitalidan tashqari quyidagilar kiradi: yuridik va jismoniy shaxslarning depozit hisob varaqlaridan qoldiqlari; bank tomonidan yuridik shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan veksellar va depozit sertifikatlar; olingan banklararo kreditlar; vakil bank tomonidan oshilgan “Nostro” depozit hamda valyuta hisob varaqasidagi mablag‘lar va boshqa manbalar.

2.2.Tijorat banklarining passiv operatsiyalari turlari va ularning balansda joylashishi

Tijorat bankining passiv operatsiyalari bankka resurslarni jalb qilish bilan bog‘liq bo‘lib, bu kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun asos bo‘ladi. Passiv operatsiyalar tijorat banklari uchun muhim ahamiyatga ega, Chunki ular yordamida banklar pul bozorlarida kredit resurslarining asosini tashkil qiladi.

Tijorat banklarida faoliyatining boshqa xo‘jalik yuritish subyektlaridan farqli xususiyati shundaki, agar korxona, tashkilotlar o‘z faoliyatini olib borishda xarajatlarining aksariyat qismini o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirsa, banklar faoliyatida esa ularning o‘z mablag‘lari yoki kapitali shu bankning 15-20 foiz ehtiyojini qoplaydi. Bu holat bozor munosabatlarining faol ishtirokchisi bo‘lgan banklarning moliyaviybarqarorligi va likvidliligi uning resurslari tarkibidagi o‘z mablag‘lari salmog‘iga, faoliyatining ko‘lami esa jalb qilingan mablag‘larga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Tijorat banklari passiv operatsiyalarni amalga oshirish orqali resurslarni shakllantirish imkoniyati va huquqi, boshqacha qilib aytganda, Chetdan mablag‘larni jalb qilish chegarasi Markaziy bank tomonidan belgilanadi va muvofiqlashtiriladi hamda u bankning qanday tashkiliy-huquqiy shaklda subyekt sifatida faoliyat yuritayotganligi, uning o‘z mablag‘lari hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Bank resurslari tarkibida davlat mablag‘larining mavjud emasligi banklarning passiv operatsiyalari yordamida, ular resurslari hajmini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bankning passiv operatsiyalari yordamida xo‘jalik oborotida bo‘lgan bo‘sh pul mablag‘lari bank resurslariga jalb etiladi.

Shunday qilib passiv operatsiyalar nafaqat bank resurslarini shakllantirish uchun, balki pul muomalasining barqarorligini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Banklarning o‘z mablag‘lari hajmining yuqori bo‘lishi banklar faoliyati barqarorligini ta’minlashning asosi hisoblanadi. Bankni tashkil qilishning ilk bosqichidagi xarajatlar, bank binosi, texnika-texnologiya, dasturiy ta’minotlari, xodimlarining ish haqi bilan bog‘liq xarajatlarning barchasi bankning o‘z mablag‘lari hisobidan qoplanadi. Bank faoliyati uchun zarur bo‘lgan rezervlar, fondlar ham bankning o‘z mablag‘lari hisobidan shakllanadi.

Passiv operatsiyalar banklarga muomalada bo‘lgan mablag‘larni safarbar qilish imkonini beradi. Keyin shakllangan resurs bazasi asosida bank tizimi aktiv operatsiyalarni amalga oshirib, yangi resurslarni yaratadi. Binobarin, tijorat banklarining kreditlash operatsiyalari hajmini oshirish imkoniyati jalb qilingan mablag‘lar miqdoriga bog‘liq bo‘ladi.

Umumiy bank amaliyotida tijorat banklarining passiv operatsiyalarining to‘rtta asosiy shakli mavjud:

- ustav fondiga badallar;
- mablag‘larni shakllantirish yoki ko‘paytirish uchun bank foydasidan ajratmalar;
- depozit operatsiyalari (mijozlardan olingan mablag‘lar);
- kreditlar, qarzlar va boshqa kreditor – yuridik shaxslardan mablag‘lar jalb qilish.

Passiv operatsiyalarning dastlabki ikki shakli tufayli kredit resurslarining birinchi katta guruhi – bankning o‘z resurslari shakllanadi. Passiv operatsiyalarning quyidagi ikki shakli resurslarning ikkinchi yirik guruhini – jalb qilingan va olingan kredit resurslarini tashkil qiladi.

Tijorat banklarining ustav kapitaliga qo‘shilgan badallar uning yuridik shaxs sifatidagi faoliyatining asosini tashkil qiladi.

Tijorat bankining sof foydasidan ajratmalar majburiy ravishda zaxira fondini va alohida operatsiyalarni amalga oshirish uchun rezervlarni shakllantirishga yo‘naltiriladi. Shuningdek, tijorat banki

oʻz xohish-istaklaridan kelib chiqqan holda boshqa ijtimoiy va boshqa fondlarni ham shakllantirishi mumkin.

Bankning depozit operatsiyalari unga mijozlardan (jismoniy yoki yuridik shaxslardan) olingan mablagʻlar asosida resurslar majmuasini shakllantirish imkonini beradi. Ushbu mablagʻlar mijozlar tomonidan tijorat bankida oshilgan hisobvaraqlarda saqlanadi.

Tijorat banklarining manbalariga banklararo kreditlar va Markaziy bankdan olingan kreditlar ham kiradi.

Tijorat banklarining resurslari bankning oʻz mablagʻlari jalb qilingan va emitentlashgan mablagʻlar hisobidan shakllanadi.

Yuqorida keltirilgan passiv operatsiyalarning birinchi va ikkinchi shakllarida banklarning oʻz mablagʻlari yuzaga keladi va qolgan oxirgi ikki shaklida kredit resurslarining ikkinchi qismi jalb qilingan resurslar yuzaga keladi.

Banklarning oʻz mablagʻlariga - bankning ustav kapitali, rezerv kapitali, maxsus fondlar, moddiy ragʻbatlantirish fondi, boshqa har xil tashkil qilingan fonddar va taqsimlanmagan foydasi kiradi. Banklarning oʻz mablagʻlari ishida asosiy oʻrinni bankning oʻz kapitali egallaydi. Bankning ustav kapitali summasi bank ustavida koʻrsatiladi va bank ishini boshlashning boshlangʻich nuqtasi hisoblanadi.

Tijorat banklarini tashkil qilishning shakllariga qarab bankning ustav kapitali ham har xil tashkil topadi. Agar bank aksiyadorlik jamiyati tariqasida tashkil qilinadigan boʻlsa, ustav kapitali yoki fondi aksiyalar chiqarish va joylashtirish yoʻli orqali tashkil topadi. Banklarning ustav kapitali summasi qonun yoʻli bilan chegaralanmaydi. Banklarning barqaror faoliyatini ta’minlash maqsadida uning minimal miqdori belgilab beriladi.

Bankning ustav kapitali uning balansining passivida koʻrsatiladi. Ustav fondi summasining oshirilishi bank aksiyadorlik umumiy majlisida hal qilinadi. Banklarning ustav kapitali ularning majburiyatlarini bajarishning asosi boʻlib xizmat qiladi.

Bank kreditlar hisobidan banklarning ustav kapitalini tashkil qilish mumkin emas.

Banklar tashkil qilinganda ustav kapitalining tarkibi moddiy mablagʻlardan va pul mablagʻlaridan tashkil topadi. Bank

faoliyatining boshlang‘ich bosqichlarida bankning o‘z mablag‘lari hisobidan birinchi navbatdagi bank xarajatlari (yer, bino, asbob-uskuna, ish haqi) qoplanadi.

Banklarning o‘z mablag‘lari uzoq muddatli aktivlarga qo‘yilmalar qilishning asosiy manbasi hisoblanadi. Odatda, Markaziy bank tijorat banklari uchun banklarning o‘z mablag‘lari bilan chetdan jalb qilingan resurslar o‘rtasida chegarani belgilab beradi. Banklarning aksiyador kapitali quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topishi mumkin.

Bular:

- o‘z aksiyador kapitali – bu kapital oddiy va imtiyozli aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan, taqsimlanmagan fondi hisobidan yuzaga keladi;
- har xil ko‘zda tutilmagan holatlar uchun tashkil qilingan rezervlar;
- bankning uzoq muddatli majburiyatlari (uzoq muddatli veksel va obligatsiyalar) bo‘lishi mumkin.

Banklarning rezerv kapitali yoki rezerv fondi foydadan ajratmalar hisobiga hosil bo‘ladi va u ko‘zda tutilmagan zararlar hamda qimmatli qog‘ozlar kursining tushishi natijasidagi yo‘qotishlarni qoplash uchun mo‘ljallangan.

Taqsimlanmagan foyda – rezerv fondiga ajratmalar va dividendlar to‘langanidan so‘ng qoladigan foydaning bir qismidir. Banklarning o‘z mablag‘lari tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Banklarning o‘z kapitali hissasining kamayishi ba’zi hollarda banklarning sinishiga olib keladi.

Bank resurslari tarkibida aholining omonat qo‘yilmalari muhim rol tutadi. Ular to‘liq summaga yoki bo‘lib-bo‘lib qo‘yiladi va berilishi mumkin. Omonatchi va bank o‘rtasidagi mablag‘ qo‘yishi bilan bog‘liq munosabat omonat daftarshasini berish bilan tasdiqlanadi. Banklar to‘lovchilik asosida turli xil maqsadli qo‘yilmalarni, muddatli yoki talab qilish hamda olish mumkin bo‘lgan jamg‘armalar qabul qiladilar.

Banklar mablag‘larni jalb qilish imkoniyatlari chegaralangan bo‘lib, barcha mamlakatlarda bu jarayon Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turiladi. Jalb qilingan mablag‘lar tijorat banklari

kredit resurslarining asosiy qismini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank kapitali bilan jalb qilingan mablag‘lar orasidagi nisbatni bir qator zaruriy me’yorlar yordamida tartibga soladi.

Tijorat banklari jamlanma balansida bank kapitali quyidagi ko‘rinishda joylashadi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining jamlanma balansini 2023-yil 1-fevraldagi yildagi holati

Ko‘rsatkichlar nomi	01.02.2022-y.		01.02.2023-y.		O‘zgarish (foizda)
	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	
Aktivlar					
Kassadagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari	12 637	2,9%	18 476	3,3%	46,2%
Markaziy bankdagi mablag‘lar	22 368	5,1%	32 719	5,9%	46,3%
Boshqa banklardagi mablag‘lar-rezident	13 234	3,0%	18 143	3,2%	37,1%
Boshqa banklardagi mablag‘lar-norezident	21 150	4,9%	41 924	7,5%	98,2%
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar	22 368	5,1%	31 909	5,7%	42,7%
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo‘yicha majburiyatlari	1 230	0,3%	1 485	0,3%	20,7%
Kredit qo‘yilmalari, (sof)	313 671	72,1%	379 676	68,0%	21,0%
Asosiy vositalar, (sof)	10 397	2,4%	14 314	2,6%	37,7%
Aktivlar bo‘yicha hisoblangan foizlar	9 858	2,3%	12 825	2,3%	30,1%
Bankning boshqa xususiy mulklari	1 344	0,3%	2 995	0,5%	122,8%
Boshqa aktivlar	6 520	1,5%	4 027	0,7%	-38,2%
Jami aktivlar	**434 777**	**100%**	**558 494**	**100%**	**28,5%**
Majburiyatlar					
Depozitlar	149 561	41,1%	214 197	44,8%	43,2%
Markaziy bankning vakillik hisobvarag‘i	479	0,1%	570	0,1%	19,0%
Boshqa banklarning mablag‘lari-rezident	13 420	3,7%	18 848	3,9%	40,4%
Boshqa banklarning mablag‘lari-norezident	4 424	1,2%	24 311	5,1%	449,5%

Olingan kreditlar va lizing operatsiyalari	170 243	46,8%	189 849	39,7%	11,5%
Chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar	10 593	2,91%	10 984	2,3%	3,7%
Subordinar qarzlar	4 841	1,3%	6 666	1,4%	37,7%
To‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar	3 552	1,0%	4 881	1,0%	37,4%
Boshqa majburiyatlar	6 806	1,9%	7 503	1,6%	10,2%
Jami majburiyatlar	**363 919**	**100%**	**477 808**	**100%**	**31,3%**
Jami kapital					
Ustav kapitali	54 874	77,4%	59 946	74,3%	9,2%
Qo‘shimcha kapital	676	1,0%	997	1,2%	47,6%
Zaxira kapitali	7 605	10,7%	7 310	9,1%	-3,9%
Taqsimlanmagan foyda	7 703	10,9%	12 432	15,4%	61,4%
Jami kapital	**70 858**	**100%**	**80 686**	**100%**	**13,9%**

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining ustav kapitali joriy yilda o‘tgan yilga nisbatan sezilarli oshgan. Zaxira kapitali esa 3.9 foizga kam jamlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, tijorat banklarining jami kapitali 10 trln. so‘mga yoki 13.9 foizga o‘sish kuzatilgan.

Tijorat banklarining jalb qilgan mablag‘larining asosiy qismini depozitlar tashkil etadi. Depozitlar omonatchilar tomonidan qo‘yilgan yoki operatsiyalar jarayonida bank hisobvarag‘ida ma’lum vaqtgacha saqlanadigan mablag‘lar hisobidan shakllantiriladi. Depozit operatsiyalarga – bankning jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag‘larini depozitlarga, ma’lum bir muddatga yoki talab qilib olinguncha depozitga jalb qilish bilan bog‘liq operatsiyalari kiradi.

Depozit operatsiyalarga, odatda banklar passivlarining 95% gacha to‘g‘ri keladi. Depozit operatsiyalarini amalga oshirishning asosi bo‘lib, bank balansining likvidligi va uning tijorat manfaati hisoblanadi.

Odatda, bank resurslari tarkibida omonatlar ulushining tahlili asosida mamlakat bank tizimiga bo‘lgan aholi ishonchining qay darajada ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi. Shu o‘rinda respublikamiz bank tizimida aholi omonatlari qoldig‘i o‘sish tendensiyasiga ega ekanligini aytib o‘tish lozim.

Depozitlar summasining o‘sishi bir vaqtning o‘zida tijorat

banklari ja’mi kapitalining ham ortishini shart qilib qo‘yadi. Shu bilan birga tijorat banklarining kreditlash potentsiali ham ortadi.

Tijorat banklari resurslari tarkibida muddatli depozitlar muhim moliyaviy manba hisoblanib, bank resurslari barqarorligi ko‘p jihatdan shu manbalarning ulushini yuqoriligiga bog‘liq.

O‘zbekiston tijorat banklari resurslari tarkibida depozit mablag‘lari hisobidan shakllantirilayotgan mablag‘larining ulushi xalqaro bank amaliyotidagi darajadan ancha past. Odatda, xalqaro bank amaliyotida ushbu ko‘rsatkich kamida 60-65 foizni tashkil etadi.

Pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli depozitlar jalb qilinishini yanada rag‘batlantirish maqsadida majburiy rezervlar normasi, yuridik shaxslarning muddati 1 yilgacha bo‘lgan depozitlari uchun – 15 foiz, muddati 1 yildan 3 yilgacha bo‘lgan depozitlari uchun – 12 foiz, muddati 3 yildan ortiq bo‘lgan depozitlari uchun – 10,5 foiz miqdorida qilib belgilandi.

Bank resurslarining aksariyat qismini jalb qilingan mablag‘lar tashkil etishi bilan banklar iqtisodiyotning boshqa subyektlaridan ajralib turadi. Odatda, bankning o‘z mablag‘lari 20%gacha yetadi, boshqa tijorat korxonalarida esa bu ko‘rsatkich 50-60%ni tashkil etadi.

2.3. Tijorat bankining kapitali, uning tarkibi va yetarliligiga qo‘yilgan talablar hamda samaradorligini oshirish yo‘llari

Tijorat banklari resurslari tarkibida o‘z kapitali kamroq ulushga ega bo‘lsa-da, uning bank faoliyati uchun ahamiyati juda kattadir. Bank kapitalining ushbu ahamiyatidan kelib chiqib unga qisqacha to‘xtalish maqsadga muvofiqdir.

«Kapital» termini (lotincha sapitalis – bosh, asosiy) asosiy mol-mulk ma’nosini anglatadi. Bank kapitali o‘z ichiga ustav kapital, qo‘shilgan kapital, rezerv kapitali hamda taqsimlanmagan foydani oladi. Bank kapitali bankning o‘z mablag‘lari tushunchasi bilan tenglashtiriladi.

Bank kapitaliga berilgan iqtisodiy ta’riflarda uning iqtisodiy

mohiyatini ochib beruvchi u yoki bu jihatlari ifodalangan.

Xorijlik iqtisodshi Kris Barltropning bank kapitalini «qimmatli» manba sifatida e'tirof etadi. Kapitalning «qimmatliligi» shundan iboratki, bank o'z kapitalini shakllantirish va uning miqdorini oshirib borish maqsadida oddiy aksiyalarni chiqarish, ularni moliyaviy bozorlarda joylashtirish va ushbu jarayon bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarni amalga oshiradi. Ushbu jarayon tijorat banki xarajatlarining oshishiga va foydasining kamayishiga olib keladi.

Tijorat bankining o'z kapitali tushunchasini keng ochib berish uchun shuni aytib o'tish kerakki, bank nazariyasida bank o'z mablag'i va o'z kapitali tushunchalari farq qiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan «O'z mablag'i» tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, u bankning ichki faoliyati jarayonida tashkil topgan barcha passivlarni (bankning ustav, zaxira va boshqa fondlari, bank tashkil qilingandagi zaxiralarni, taqsimlanmagan foyda va joriy yil foydasini) o'z ichiga oladi. Bankning o'z kapitali deganda, bankning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga qaratilgan, maxsus tashkil qilinadigan fond va zaxiralarni tuchunimiz kerak. Bank kapitaliga ustav kapitali, zaxira kapitali, ta'sis foydasi, bank ixtiyorida qoldirilgan o'tgan va joriy yilda taqsimlanmagan foydasi, turli risklarni qoplash uchun tashkil qilingan zaxiralar kiradi va u bank faoliyatida muhim funksiyalarni bajaradi.

Bankning o'z kapitali – hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadigan kattalik. U iqtisodiy ma'nosiga ko'ra bank kapitali funksiyalarini bajaradigan o'zlik mablag'larni ishiga oladi.

Bankning o'z kapitali – bank vaqtinsha jalb qilgan qarz mablag'laridan farqli o'laroq, bevosita bankning o'ziga tegishli bo'lgan mablag'lardir. Bank kapitalining boshqa korxonalar kapitalidan farqi shundaki, bankning o'z kapitali aylanma mablag'larining 10-20 foizini, korxonalarda esa u taxminan 50-60 va undan ortiq foizni tashkil qiladi.

Bank kapitaliga bankning o'z mablag'larining asosiy elementlari kiradi, ya'ni qonunchilikka muvofiq tashkil topgan asosiy fondlar, bank faoliyatini ta'minlash maqsadida ichki

manbalar hisobiga tashkil topgan zaxiralar kiradi. Ular quyidagi shartlarga javob berishi kerak.

- bank faoliyatining barqarorligi;
- kreditor huquqlari bo‘yicha subordinatsiyalanganlik;
- qayd qilib yozilgan daromadlarning yo‘qligi.

Tijorat banklari kapitalining minimal miqdori xalqaro Bazel qo‘mitasining talablariga ko‘ra asosiy (birinchi darajali) va qo‘shimcha (ikkinchi darajali) kapitaldan iborat bo‘lib, u regulyativkapital deb ham yuritiladi. Regulyativ kapital – bank faoliyatini boshqarish va iqtisodiy me’yorlar hisob-kitobini o‘tkazish maqsadida hisoblash yo‘li bilan aniqlanadigan bank kapitalidir.

O‘zbekiston Respublikasi banklari faoliyatida ham regulyativ kapital I darajali kapital va II darajali kapitaldan tashkil topgan. Amaliyotda I darajali kapital regulyativ kapitalning 75 foizini yoki undan ortig‘ini tashkil etishi lozim. II darajali kapital miqdori I darajali kapital miqdoridan oshib ketsa, kapitalning oshib ketgan qismi kapital hisobiga olinmaydi yoki kiritilmaydi.

I darajali kapital (regulyativ kapitalni 60% dan kam bo‘lmagan qismi) tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. to‘liq to‘langan va muomalaga chiqarilgan oddiy aksiyalar;
2. nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar.

I darajali kapitalga kiritilmagan aralash turdagi majburiyatlar, jumladan, imtiyozli aksiyalar agarda ular quyidagi shartlarga javob bersalar, II darajali kapitalga kiritilishi mumkin:

- to‘liq to‘langan bo‘lishi kerak;
- garov bilan ta’minlanmagan;
- bank tugatilganda ularga doir talablar bank depozitorlari talablari qondirilganidan so‘ng qondirilishi;
- aksiya egasining tashabbusi bilan va oldindan olingan Markaziybank ruxsatisiz to‘lanishi mumkin emas;
- bankning har qanday zararlarini qoplashi va bankni to‘lovga qobiliyatsiz deb e’lon qilish huquqini bermasligi;
- agar bank oxirgi 3 chorak mobaynida foyda olmagan bo‘lsa, emitent xohishiga ko‘ra yoki oddiy va imtiyozli aksiyalar

bo‘yicha dividendlar (foizlar) to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishda ushbu majburiyatlarga doir dividendlar (foizlar)ni to‘lash muddati kechiktirilishi mumkinligi;

- subordinar qarz, bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo‘lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so‘ng I darajali kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak.

II darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz to‘lash muddati etib kelgunga qadar, oxirgi 5 yil davomida yiliga 20 foizga kamayib borishi shart. II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- garov ta’minotiga ega bo‘lmaslik;
- bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar bo‘yicha talablar depozitorlar talablari qondirilganidan so‘ng amalga oshirilishi;
- boshlang‘ish to‘lov muddati 5 yildan ortiq bo‘lishi;
- bankning ustav kapitalidagi valyuta qismiga teng bo‘lgan valyuta aktivlarini qayta baholanish hisobiga tashkil etilgan devalvatsiya uchun zaxiralar.

Kapitaldan chegirmalar kapital yetarliligi koeffitsientlari hisoblanguncha amalga oshirilishi kerak.

I darajali kapitaldan chegirmalar nomoddiy aktivlar, shu jumladan, Gudvillni o‘z ichiga oladi. “Gudvill” – xaridor tomonidan bank sotib olinayotganda, uning sof aktivlari qiymatidan yuqori to‘lanadigan summa sifatida ta’riflanadi (barcha aktivlarning bozor narxi va barcha majburiyatlarning bozor narxi o‘rtasidagi farq gudvillni tashkil qiladi).

Regulyativ kapitaldan chegirmalar quyidagilardan iborat:

- birlashmagan nobank shu’ba moliya korxonalari kapitaliga investitsiyalar, jumladan, bunday korxonalar kapitalini tashkil qiluvchi ularning har qanday aksiyalari va qarz majburiyatlari;
- birlashmagan nobank nomoliyaviy korxonalar kapitaliga investitsiyalar, jumladan, bunday korxonalar kapitalini tashkil etuvchi har qanday qimmatli qog‘ozlar va qarz majburiyatlari;
- birlashmagan banklar kapitalining har qanday vositalariga investitsiyalar.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi jami kapitali monandlilik darajasini quyidagi ma’lumotlarda ko‘rishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi jami kapitali monandlilik darajasi

Ko‘rsatkichlar nomi	01.02.2022 y.		01.02.2023 y.	
	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda
I darajali kapital	64 302	89,2%	75 061	87,9%
Asosiy kapital	64 107	88,9%	74 904	87,8%
Qo‘shimcha kapital	195	0,3%	157	0,2%
II darajali kapital	7 802	10,8%	10 290	12,1%
Jami regulyativ kapital	72 104	100%	85 351	100%
Kapital monandlilik darajasi	17,4%		17,7%	
I darajali kapital monandlilik darajasi	15,5%		15,6%	

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rib turganimizdek, I darajali kapital afzal o‘rinda bo‘lib, 2023-yil 1-fevral holatiga 75061 mlrd. so‘m yoki jami kapitalning 87.9 foizini tashkil etmoqda.

Banklarning rezerv kapitali yoki rezerv fondi foydadan ajratmalar hisobiga hosil bo‘ladi va u ko‘zda tutilmagan zararlar hamda qimmatli qog‘ozlar kursining tushishi natijasidagi yo‘qotishlarni qoplash uchun mo‘ljallangan.

Shuningdek, **“Kapital zaxiralar”** tushunchasi – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan so‘ng sof foyda hisobiga shakllangan zaxiralarni anglatadi. Zaxiralardan bank faoliyatida vujudga keladigan turli zararlarni ular yuzaga kelishi bilanoq hech qanday cheklashlarsiz qoplash uchun foydalaniladi.

Kapital yetarliligini hisoblashda, shuningdek, **“Umumiy zaxiralar”** tushunchasi ham ishlatiladi va u bank faoliyati davomida umuman yoki biror-bir faoliyat turi (kreditlash, investiyiyalash) natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash (masalan, yaxshi kreditlar bo‘yicha zarar ko‘rib qolinsa) uchun, lekin ayrim muayyan operatsiyalar bo‘yicha zararlarni qoplashga mo‘ljallanmagan zaxiralar hisoblanadi.

“Maxsus zaxiralar” «Substandart», «Qoniqarsiz», «Shubhali» va «Umidsiz» deb tasniflangan kredit va lizing operatsiyalari yoki boshqa alohida muayyan aktivlar bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash uchun zaxira tashkil qilinadi.

Taqsimlanmagan foyda. Taqsimlanmagan foyda – rezerv fondigaajratmalar va dividendlar to‘langanidan so‘ng qoladigan foydaning birqismidir. Bu hisob varag‘i bankning butun faoliyati davomida olgan foydasining taqsimlanmagan qismi hisobini yuritish uchun mo‘ljallangan. U yillik sof foyda, boshlang‘ich qiymatiga nisbatan qayta baholanganda qo‘shimcha qiymat kabi hisob raqamlarni o‘z ishiga oladi. Agar bank moliyaviy hisobot yakunlariga ko‘ra foyda bilan chiqsa, ushbu hisob raqam kredit qoldiq bilan yopiladi.

Boshlang‘ich qiymatga nisbatan qayta baholanganda qo‘shimchaqiymat hisob varag‘i, inflyatsiya natijasida bank asosiy vositalari qiymati qayta baholanganda ularning boshlang‘ich va bozor qiymatlar o‘rtasidagi ijobiy farq, ya’ni boshlang‘ich bahosiga nisbatan qo‘shimcha qiymatining summasi aks ettiriladi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkich bu - bank kapitalining yetarliligi va uni barqaror manbalar hisobidan shakllantirilganligidir.

Tijorat banklari kapitalining yetarliligi deganda, odatda, bankning to‘lovga qobilligi va likvidligini ta’minlash imkonini beradigan kapitalning zaruriy minimal darajasi tushuniladi.

Bugungi kunda tijorat banklari bajarayotgan barcha operatsiyalar bevosita yoki bilvosita bank kapitalining yetarliligi va uning sifatiga bog‘liq bo‘lib, har qanday tijorat bankining to‘lovga qobilligini va risklardan holiligini baholashda bank kapitalining

yetarliligi asosiy omil hisoblanadi.

Tijorat banklarining yetarli miqdorda bank kapitaliga ega bo‘lishi, ularning to‘lovga qobilligi va likvidligini ta’minlash, shuningdek, faoliyati davomida duch keladigan risklardan zarar ko‘rmay chiqib ketish imkoniyatini beradi.

Hozirgi davrda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarida tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirishda va uning yetarlilik darajasini belgilashda xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlardan asos sifatida foydalanilmoqda.

Bazel qo‘mitasi faoliyatining asosiy yo‘nalishi bank tizimi uchun o‘z kapitaliga sifat va miqdor jihatdan yetarli talablarni o‘rnatish yo‘li bilan mustahkam faoliyatni ta’minlashdan iboratdir. Bu o‘rinda asosiy hujjat bo‘lib, 1988-yilda Markaziy bank vakillari tomonidan ishlab chiqilgan va 1993-yilda amaliyotga joriy qilingan kapital va risk bo‘yicha Bazel-1 kelishuvi hisoblanib, unda kapital yetarliligi me’yorini hisoblash uslubi keltirilgan.

Kapital yetarliligini aniqlash bo‘yicha ishlab chiqilgan mazkur uslub kapital summasi bilan bank aktiv operatsiyalarining riskliligi o‘rtasida o‘rnatilgan bog‘liqlikka asoslanadi. Ushbu bog‘liqlik o‘z kapitalini riskka tortilgan aktivlarning jami miqdoriga yoki potensial kreditlar, investitsiyalar hamda boshqa qo‘yilmalar bo‘yicha yo‘qotishlarning ja’mi miqdori nisbati bilan aniqlanadi.

Ushbu standartda kapital sifat jihatidan ikkita yirik qismga ajratilgan va ularning har biriga nisbatan yetarlilik darajasi aniqlangan.

Bazel standarti bo‘yicha tijorat banklari kapitalining yetarliligi aniqlanayotganda ularning aktivlari risk darajasiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Shuningdek, ushbu standart tijorat banklarining balansdan tashqari aktivlarining risk darajasini ham hisobga olgan holda kapital yetarliligini ta’minlashni nazarda tutadi.

Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo‘yicha Xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standart va uning takomillashtirilgan varianti bo‘lgan Bazel-II kelishuvida tijorat banklari kapitali tarkibini shakllantirishga bevosita ta’sir qiluvchi talablar mavjud.

Xalqaro Bazel standarti bo‘yicha banklarning asosiy kapitali barqaror moliyalashtirish manbalaridan tashkil topishi lozim.

Bazel- II talablarini joriy etish bo‘yicha Markaziy bank asosiy rol o‘ynaydi. Yangi talablar Markaziy bank tomonidan belgilangan me’yoriy hujjatlarda, risk – menejment usullarida va texnologiyalarda ham aks ettirilishi lozim. Tijorat banklari passiv operatsiyalari hajmi, barqarorlik darajasi va shakllanish manbalari ularning moliyaviy va iqtisodiy samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

2.4. Bank kapitali va uning funksiyalari

Tijorat banklari kapitalining umumiy xususiyatlarni ko‘rib chiqar ekanmiz, uning asosiy funksiyalarini ham ajratib ko‘rsatishimiz zarur bo‘ladi. Bu funksiyalar: himoya, operativlik va tartibga solish funksiyalaridir.

Bank omonatchilari manfaatlarini himoya qilish bank kapitalining asosiy funksiyasi hisoblanadi. Chunki bank aktivlarining asosiy qismi omonatchilar hisobiga tashkil topadi.

Himoya funksiyasi zarar ko‘rish xavfi tug‘ilganda aktiv rezervlar shakllantirish yo‘li orqali bankning to‘lov qobiliyatini saqlab qolish imkoniyatini beradi.

Garchi bunday xarajatlarni qoplash uchun maxsus rezervlar mavjud bo‘lsa-da, katta salbiy hodisalar yuz berganda rezervlar etmay qolishi va aynan shu paytlarda aksionerlik kapitalining ma’lum bir qismi ishlatilishi mumkin.

Bunday holatlarda faqat obligatsiyalarni sotishdan tushgan tushumlar evaziga bankning joriy xarajatlarini qoplash mumkin emas, Chunki obligatsiyalarning o‘zi qarzdorlik guvohnomasidir. Albatta, bankrotlik yuz berganda yoki bank faoliyati to‘xtatilganda, barcha mol-mulki auksionda sotiladigan holati mustasno.

Himoya funksiyasi zarar ko‘rish xavfi tug‘ilganda aktiv zaxiralar shakllantirish orqali bankning to‘lov qobiliyatini saqlab qolish, mabodo bank tugatiladigan bo‘lsa, omonatchilarga kompensatsiya to‘lash imkoniyatini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, bankning keyingi faoliyat ko‘rsatishiga keng yo‘l oshib beradi. Lekin shuni e’tiborga olishimiz kerakki, tijorat banklari ko‘pgina korxonalardan farqli o‘laroq o‘zlarining to‘lovga qobiliyatligini joriy bank daromadi hisobiga

ta’minlaydilar va faqatgina zararning bir qismi o‘z kapitali hisobiga qoplanishi mumkin.

Tijorat banki kapitali o‘ziga xos himoya yostig‘i rolini o‘ynab, yirik, ko‘zda tutilmagan xarajatlar sharoitida bankka o‘z operatsiyalarini davom ettirish imkoniyatini beradi. Shu kabi chiqimlarni moliyalashtirish uchun bankning o‘z kapitali ichiga kiruvchi turli xil zaxira fondlar mavjud. Lekin mijozlarning ssudalarni ommaviy qaytarilmasligi yuz berganda, zararni qoplash uchun aksionerlik kapitalining bir qisminigina ishlatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bank o‘z kapitalining mavjudligi uning ishonchligi va likvidliligining birinchi shartidir.

Bank kapitalining himoya funksiyasiga qaraganda, **operativlik funksiyasi** ikkinchi darajali bo‘lib hisoblanadi. U bankning o‘z mablag‘larini yer, bino, inshoot, jihozlarni qoplash uchun moliyaviy zaxiralarni shakllantirishga ajratishni o‘z ichiga oladi. Bu moliyaviy resurslar manbayi bank ishi faoliyatining birinchi bosqichlarida, ta’sischilarning birinchi navbatdagi xarajatlarni amalga oshirishlarida juda keraklidir. Bank rivojlanishining keyingi bosqichlarida bank kapitalining roli muhim bo‘lib, bu mablag‘larning bir qismi to‘g‘ri zaxiralarni tashkil qilish uchun uzoq muddatli aktivlarga sarflanadi.

Garchi zararni qoplashning asosiy manbayi foyda jamg‘arish bo‘lsa ham zararni qoplash uchun yangi aksiyalar chiqarish yoki uzoq muddatli qarz olish mumkin.

Tijorat banklari asosiy ko‘rsatkichlarida banklar kapitali to‘g‘risidagi ma’lumotlarni quyidagi jadvalda ham ko‘rishimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval

Tijorat banklari asosiy ko‘rsatkichlarining 2023-yil 1-fevral holatida banklar kapitali to‘g‘risidagi ma’lumotlar, mlrd. so‘m

m №	Bank nomi	Aktiv		Kredit		Kapital		Depozit	
		summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	Summa	ulushi, foizda
Jami		**558 494**	**100%**	**391 109**	**100%**	**80 686**	**100%**	**214 197**	**100%**
Davlat ulushi mavjud banklar		**436 022**	**78%**	**324 114**	**83%**	**62 344**	**77%**	**133 754**	**62%**
1	O‘zmilliybank	118 192	21,2%	87 370	22,3%	16 547	20,5%	37 624	17,6%

2	O‘zsanoatqurilishbank	66 162	11,8%	48 959	12,5%	7 887	9,8%	14 660	6,8%
3	Agrobank	54 742	9,8%	44 733	11,4%	9 513	11,8%	12 578	5,9%
4	Asaka bank	50 078	9,0%	36 662	9,4%	6 550	8,1%	13 714	6,4%
5	Ipoteka bank	42 590	7,6%	32 516	8,3%	6 037	7,5%	15 821	7,4%
6	Xalq banki	32 728	5,9%	21 613	5,5%	5 353	6,6%	14 157	6,6%
7	Qishloq qurilish bank	24 636	4,4%	20 374	5,2%	2 989	3,7%	8 559	4,0%
8	Mikrokreditbank	17 601	3,2%	13 208	3,4%	3 648	4,5%	5 489	2,6%
9	Aloqa bank	16 420	2,9%	9 153	2,3%	1 803	2,2%	7 818	3,7%
10	Turon bank	12 654	2,3%	9 454	2,4%	1 871	2,3%	3 262	1,5%
11	Poytaxt bank	221	0,0%	72	0,0%	145	0,2%	72	0,0%
Boshqa banklar		**122 472**	**22%**	**66 995**	**17%**	**18 342**	**23%**	**80 443**	**38%**
12	Kapital bank	29 196	5,2%	16 185	4,1%	2 817	3,5%	24 116	11,3%
13	Hamkor bank	16 951	3,0%	11 396	2,9%	2 645	3,3%	6 755	3,2%
14	Ipak yo‘li bank	12 986	2,3%	8 263	2,1%	2 156	2,7%	6 412	3,0%
15	Orient Finansbank	11 372	2,0%	5 387	1,4%	1 738	2,2%	7 021	3,3%
16	O‘zKDB bank	8 582	1,5%	2 068	0,5%	933	1,2%	7 269	3,4%
17	Trast bank	8 250	1,5%	3 524	0,9%	1 695	2,1%	6 257	2,9%
18	Invest Finans bank	7 469	1,3%	4 988	1,3%	937	1,2%	5 801	2,7%
19	Aziya Alyans bank	6 272	1,1%	2 212	0,6%	595	0,7%	5 037	2,4%
20	Tenge bank	4 154	0,7%	2 288	0,6%	1 167	1,4%	1 407	0,7%
21	Davr bank	4 020	0,7%	3 229	0,8%	669	0,8%	1 809	0,8%
22	Anor bank	3 602	0,6%	2 201	0,6%	351	0,4%	3 064	1,4%
23	Tibisi bank	2 129	0,4%	1 618	0,4%	575	0,7%	1 466	0,7%
24	Ziraat bank	2 111	0,4%	1 082	0,3%	418	0,5%	1 226	0,6%
25	Universal bank	1 866	0,3%	874	0,2%	349	0,4%	1 352	0,6%
26	Garant bank	1 617	0,3%	1 139	0,3%	288	0,4%	774	0,4%
27	Ravnaq bank	837	0,1%	330	0,1%	131	0,2%	605	0,3%
28	Eron Soderot bank	465	0,1%	21	0,0%	410	0,5%	30	0,0%
29	Uzum bank	226	0,0%	0,0	0,0%	135	0,2%	10	0,0%
30	Madad invest bank	218	0,0%	183	0,0%	185	0,2%	30	0,0%
31	Smart bank	100	0,0%	0,0	0,0%	100	0,1%	0,0	0,0%
32	O‘zagroeksportbank	48	0,0%	6	0,0%	46	0,1%	0,6	0,0%

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, respublikamiz tijorat banklari kapitali ulushida davlat ulushi mavjud banklar 77 foizni egallab turibdi. Boshqa banklar esa bor-yo‘g‘i 23 foiz ulushli kapital bilan faoliyat yuritmoqdalar. Xususiy banklar orasida “Kapital bank” va “Hamkorbank” afzal ravishda yuqori o‘rinda turib, muvofiq holda 3.5 va 3.3 foizni tashkil etmoqda.

Bank kapitali tartibga soluvchi funksiyani ham bajaradi. Bank kapitali ko‘rsatkichi yordamida bank faoliyatiga baho berish va nazorat qilish mumkin. Odatda, bank kapitaliga uning minimal miqdori, aktivlar me’yori va boshqa bank aktivlarini sotib olish shartlari bo‘yicha talablar qo‘yiladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o‘rnatilgan iqtisodiy me’yorlar, asosan, bankning o‘z kapitali hajmidan kelib chiqadi.

Tartibga soluvchi funksiyaga kapitalni ssuda va investitsion operatsiyalarni chegaralash maqsadida ishlatish ham kiradi.

Banklar faoliyatida muammoli kreditlarning katta miqdori, sof zararlar, aktivlarning katta miqdorda o‘sishi, foiz stavkalari bo‘yicha yuqori darajali tavakkalchilikning yuzaga kelishi va boshqa tavakkalchilik holatlari banklarning kapital miqdorini talab qilingan miqdorda ushlab turishni taqozo etadi. Shu bois, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 42-moddasiga muvofiq Markaziy bank banklardan tavakkalchiliklarning eng yuqori miqdorlariga va kapitalning monandligiga, tavakkalchiliklarni boshqarish bo‘yicha bankda qo‘llanilayotgan tartib-taomillarning samaradorligiga hamda ularni qo‘llash izchilligiga bankning rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirishni talab qilishi mumkin.

Tavakkalchilik darajasi hisobga olingan aktivlar summasi hisob-kitob qilinganda barcha balansdan tashqari vositalar hisobga olinadi, ichki bozorda tuzilgan forvard, svop bitimlari, sotib olingan opsionlar va shunga o‘xshash boshqa (derevativ) vositalar bundan mustasno.

Balansdan tashqari moddalarning tavakkalchilik toifasi quyidagicha aniqlanadi:

• balansdan tashqari moddaning to‘lanmagan qoldig‘i kreditni hisoblash omiliga ko‘paytiriladi. Olingan natija balansdan tashqari moddaning balans ekvivalenti bo‘lib, unga balans hisob raqamlari qoidalariga muvofiq tegishli tavakkalchilik darajasi belgilanadi. Agar balansdan tashqari vosita yoki uning qismi kafolatlansa yoki garov bilan ta’minlansa, tavakkalchilik darajasini belgilash kontrpartnyorga emas, balki kafolat turi va tavsifiga bog‘liq bo‘ladi. Past tavakkalchilik omili balansdan tashqari vositaning Markaziy bank uchun qulay garov yoki kafolat bilan ta’minlangan yoki kafolatlangan ma’lum bir qismiga qo‘llanishi mumkin.

Masalan, bank tijorat buyurtmachi nomidan 10 mln. so‘mlik alohida depozit hisob raqami bilan ta’minlangan moliyaviy zaxira akkreditivni chiqardi. Bunday akkreditivlar bo‘yicha kreditni hisoblash omili quyida ko‘rsatilganidek, 100 foiz miqdorida belgilanadi.

Bankda alohida depozit hisob-raqami bilan ta’minlangan

balans aktivlari 0 foiz miqdorida balans tavakkalchiligi darajasiga ega.

Balansning yakuniy tavakkalchilik darajasi 10 million so‘mni kreditni hisoblash omiliga 1,00 (100 foiz) va 0 foizli tavakkalchilik toifasiga ko‘paytirish orqali aniqlanadi. 100 foizli kreditni hisoblash omili qo‘llanadigan balansdan tashqari moddalarga quyidagilar kiradi:

- nomidan kafolatlar yoki zaxira akkreditivi berilgan bank mijozi bitim va boshqa majburiyatlarga muvofiq holda uchinchi tomon majburiyatlarni qoplashga layoqatsiz bo‘lsa, bankning uchinchi tomonga to‘lovlar to‘g‘risidagi yuridik jihatdan chaqirib olinmaydigan majburiyatlarini o‘zida aks etgan bevosita kredit o‘rnini bosuvshilar, jumladan, umumiy kafolatlar, zaxira akkreditivlari va boshqa shunga o‘xshash bitimlar;

- qayta sotib olish haqidagi kelishuv yoki belgilangan shartlarda aktivlarni bankka qaytarish haqidagi kelishuvga muvofiq sotilgan aktivlar;

- aktivlarni kelajakda ma’lum bir muddatga sotib olish majburiyati.

50 foizli kreditni hisoblash omili qo‘llanadigan balansdan tashqari moddalar quyidagilardan iborat:

- bitim kafolatlari yoki muayyan bitimga nisbatan akkreditivlar singari bitimlar bilan bog‘liq majburiyatlar. Bu majburiyatlar, agar nomidan majburiyatlar chiqarilgan bank mijozi nomoliyaviy tijorat majburiyatlarini amalga oshira olmagan bo‘lsa, bankning uchinchi shaxsga kompensatsiya to‘lash bo‘yicha chaqirib olinmaydigan majburiyatlari hisoblanadi.

Masalan, mol yetkazib beruvchi yoki subpudratchi sifatida ma’lum bir funksiya bajarilishini kafolatlovshi akkreditiv va boshlang‘ich to‘lov muddati bir yildan ortiq bo‘lgan kredit liniyasi yoki shunga o‘xshash kelishuv singari kredit berishga doir majburiyatlarning bajarilmagan qismidir.

Foizli kreditni hisoblash omili qo‘llaniladigan balansdan tashqari moddalar quyidagilardan iborat:

- tovarlarni yetkazib berish bilan ta’minlangan hujjatli akkreditiv singari savdo bilan bog‘liq majburiyatlar. Ular qisqa muddatli yoki o‘zini-o‘zi tugatuvchi bo‘lishi kerak;

- boshlang‘ich to‘lov muddati bir yil va undan kam bo‘lgan kredit liniyasi yoki shunga o‘xshash kelishuv singari kredit berishga doir majburiyatlarning bajarilmagan qismi.

Derivativ (hosilaviy) vositalar.

Bank tomonidan forvard kelishuvlari, svoplar, opsionlar va shunga o‘xshash hosilaviy shartnomalar amalga oshirilganda, u bitimlar to‘liq nominal qiymatida kredit tavakkalchiligiga uchramaydi. Agar shartnoma majburiyatlari kontragentlar tomonidan bajarilmagan bo‘lsa, bank uchun naqd pul mablag‘lari oqimini almashtirishning potensial qiymati tavakkalchilik hisoblanadi.

Ichki bozorlar Bazel kelishuvi talablariga muvofiq bozor asosida bitimlar qiymatini belgilash uchun yetarli darajada rivojlanmasa va banklar bunday operatsiyalarni o‘tkazishga tayyorligini ko‘rsata olmasa, banklar ichki va tashqi bozorlarda aksiyadorlik kapitali, oltindan tashqari boshqa qimmatbaho metallar va boshqa tovarlarga asoslangan forvard va svop kelishuvlari, opsionlar va boshqa shunga o‘xshash hosilaviy bitimlar tuzishga haqli emas.

Hosilaviy vositalarni o‘z ichiga oluvchi operatsiyalarni amalga oshirish uchun ruxsatnoma Markaziy bank tomonidan beriladi.

Hozirgi kunda foiz stavkasi va valyuta bilan bog‘liq barcha shartnomalar uchun banklar “dastlabki tavakkalchilikka moyillik usuli” (DTMU)ni qo‘llashlari mumkin.

Bu usulga muvofiq qo‘shimcha ravishda kapital bilan ta’minlash miqdori shartnoma turi, uni to‘lash sanasi va nominal qiymatidan kelib chiqqan holda qayta hisoblash omili yordamida aniqlanadi. Bu usul asosiy omili to‘lash muddati, foiz stavkalari hamda narxlar tavsifi va ularning o‘zgaruvchanligi bo‘lgan bitim narxlarini tashkil etishda bozor qonuniyatlari asosida yondashishni tan olmaydi.

Bozor asosida yondoshish shartnomani aniqroq baholash imkonini beradi. Biroq DTMU usuli barcha banklar tomonidan bozor usulidan foydalanish uchun sharoitlar yaratilguncha qo‘llanishi shart.

Banklar kelgusi davr yillarida soliqlar to‘langandan so‘ng qoladigan sof foydadan ajratmalar ajratish orqali quyida keltirilgan

koʻrsatkichlardan kam boʻlmagan miqdorda kapitalni koʻpaytirish boʻyicha barcha choralarni koʻrishlari lozim.

Bank aksiyadorlariga dividendlar hisobot yili yakunlar va oraliq devident toʻlanayotgan davr uchun moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud boʻlgan taqdirda hamda kapitalni oshirishga ajratmalar amalga oshirilgandan soʻng toʻlanadi.

Dividendlar ehtimoliy zararlarni qoplash zaxirasi shakllantirilgandan hamda Markaziy bank talablariga muvofiq tuzatishlar amalga oshirilgandan soʻng toʻlanishi mumkin.

Banklar quyidagi hollarda dividend toʻlash (eʼlon qilish) toʻgʻrisida qaror qabul qilish huquqiga ega emas:

- butun ustav kapitalini toʻliq shakllantirmagan holda (qoʻshimcha emissiya qilish yoʻli bilan uni koʻpaytirish bundan mustasno);

- dividendlar toʻlash paytida bank iqtisodiy noshorlik (bankrotlik) alomatlariga ega boʻlsa yoki koʻrsatilgan alomatlar bankda dividendlar toʻlash natijasida paydo boʻlsa;

- bank sof aktivlari qiymati uning ustav va zaxira kapitali summasidan kam boʻlsa;

- Markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy normativlarni buzish, shuningdek, agar dividendlar toʻlash natijasida iqtisodiy normativlar buzilib, buning oqibatida omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga jiddiy xavf tugʻilishi mumkin boʻlsa;

- bankka nisbatan Markaziy bankning dividendlar toʻlashni toʻxtatish toʻgʻrisida talabi mavjud boʻlsa.

Bank Kengashi har yili bankning kredit va investitsiya siyosatining asosiy yoʻnalishlarini ishlab chiqish va tasdiqlash chogʻida foydadan kapitalni oshirishga yoʻnaltiriladigan ajratmalar miqdorini eʼtiborga olgan paytdan boshlab 30 kun ishida Markaziy bankka koʻrib chiqish uchun taqdim etilishi kerak.

Yuqorida aytilgan bank kapitalining funksiyalaridan xulosa qilib aytsak, bankning oʻz kapitali – bank tijorat faoliyatining asosidir. U bank mustaqilligini va turli risklar boʻyicha salbiy oqibatlarning oldini olish manbayi boʻlib, uning moliyaviy barqarorligini taʼminlaydi.

II bobga oid nazorat savollari:

- Bank resurslarining mohiyati va tarkibini ifodalang.

-Banklarning passiv operatsiyalari deganda nimani tushunasiz?

-Passiv operatsiyalarning shakllarini tavsiflang.

-Bank aktiv operatsiyalarining turlarini sanang.

-Jalb qilingan resurslarning tarkibini tushuntiring.

-Tijorat banklarining o‘z mablag‘lariga qanday mablag‘lar kiradi?

-Tijorat banklari kapitali qanday tashkil qilinadi, tarkibi nimalardan iborat?

- Tijorat banklarining kapitali miqdori qanday aniqlanadi va unga ta’sir qiluvchi omillarni sanang.

-Depozitlar nima, ularning qanday turlarini bilasiz?

-Tijorat banklarida resurs yetishmovchiligini qanday yo‘llar bilanhal qilish mumkin?

III BOB. TIJORAT BANKLARINING AKTIV OPERATSIYALARI TARKIBI VA ULARNING JOYLASHISHI

3.1. Bank aktivlari, ularning mohiyati va mazmuni.
3.2. Bank aktivlari tarkibi va ularning balansda joylashishi.
3.3. Bank aktivlarining sifat darajasi.
3.4.Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularni boshqarish.

Tayanch iboralar: Bank aktivlari, standart aktivlar, daromad keltiruvchi aktivlar, daromad keltirmaydigan aktivlar, bank aktivlari tarkibi, yuqori likvidli aktivlar, maxsus zaxiralar, nolikvid (past likvidli) aktivlar, aktiv operatsiyalar, aktivlarning sifat darajasi.

3.1. Bank aktivlari, ularning mohiyati va mazmuni

Tijorat bankining aktiv operatsiyalari, ya'ni o'zining qarz va qarzga olingan bank resurslarini bozorga joylashtirish operatsiyalari uning faoliyatining muhim va hal qiluvchi qismini tashkil etadi. Shu munosabat bilan shuni ta'kidlash kerakki, aynan aktiv operatsiyalar tijorat bankiga asosiy daromad keltiradi va shuning uchun har qanday bank uchun bunday operatsiyalarning o'rni juda katta. Bundan tashqari, aktiv operatsiyalar bankning nafaqat rentabelligini, balki likvidligini ham ta'minlashga imkon beradi.

"Aktiv" so'zi lotincha "astivus" so'zidan olingan bo'lib "faol, ta'sirshan, ishshan" ma'nosini bildiradi. Iqtisodiy manfaat odatda aktivlarda pul oqimi shaklida namoyon bo'ladi. Naqd puldan tashqari har qanday resurs aktivga aylanishi uchun alohida yoki biron bir boshqa resurs bilan birgalikda bevosita yoki bilvosita pul oqimini taminlashi zarur.

Bank aktivlari, bankning aktiv amaliyoti natijasida shakllanadi, ya'ni bank balansini likvid holda ushlab turib, o'z va jalb qilgan mablag'larini foyda olish maqsadida joylashtirish faoliyatini taminlaydi. Bank aynan aktiv amaliyotlari natijasida daromadning asosiy qismini oladi.

Aktiv operatsiyalar yordamida banklar iqtisodiy faoliyat jarayonida jalb qilingan moliyaviy resurslarni kapitalga muhtoj bo‘lgan bozor ishtirokchilariga yo‘naltiradi. Shunday qilib, tijorat banklari aktiv operatsiyalar orqali iqtisodiyotning eng istiqbolli tarmoqlariga kapital oqimini ta’minlaydi, ishlab chiqarishga investitsiyalar hajmini oshirishga, innovatsiyalarni joriy etishga, tarkibiy o‘zgartirishlarni amalga oshirishga va sanoatning barqaror o‘sishiga yordam beradi va hokazo.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalari – daromad olish maqsadida bankning o‘z va qarz mablag‘larini joylashtirishdir. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, aktiv bank operatsiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- kredit, naqd pul, valyuta, qimmatbaho myetallar va qimmatbaho toshlar bilan operatsiyalar;
- uchinchi shaxslarga bank kafolatlari va kafolatlarini berish, ularning naqd pul bilan bajarilishini ta’minlash;
- uchinchi shaxslardan naqd pul bilan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish;
- pul mablag‘lari va boshqa mol-mulkni ishonchli boshqarish, lizing, faktoring, forfyeyting operatsiyalari, qimmatli qog‘ozlarga bank qo‘yilmalari;
- boshqa operatsiyalar.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni ularning berilayotgan tasnifida namoyon bo‘ladi.

Turiga qarab tijorat banklari aktiv operatsiyalari ssuda, hisob-kitob, kassa, investitsiya va aksiyadorlik, komissiya, kafolatlarga bo‘linadi.

Kredit operatsiyalari - bu qarz oluvchiga muddatlilik, to‘lov, to‘lov asosida pul mablag‘larini taqdim etish bo‘yicha operatsiyalardir. Qonunchilikka ko‘ra, kredit operatsiyalari quyidagilarga tenglashtiriladi:

- kreditlar (ssudalar) berish, omonatlarni joylashtirish, shu jumladan banklararo kreditlar (depozitlar, ssudalar), mablag‘larni joylashtirish, shu jumladan kredit shartnomasi bo‘yicha taqdim etilgan qarzdorlik qimmatli qog‘ozlari, aksiyalar va veksellarni olish (qaytarish) bo‘yicha talablarni qo‘yish;

- veksellarni hisobga olish;

- tijorat banki tomonidan byenyefisiarga bank kafolatlari bo‘yicha asosiy qarzdan undirilmagan summalarni to‘lash;

- tijorat bankining pul talabini boshqa shaxsga o‘tkazishga (faktoring) qarshi moliyalashtirish operatsiyalari bo‘yicha pul talablari;

- bitim bo‘yicha olingan huquqlar (da’volar) bo‘yicha tijorat bankining talablari (da’voni topshirish);

- ikkilamchi bozorda sotib olingan ipotyeka bo‘yicha tijorat bankining talablari;

- to‘lov muddati kechiktirilgan holda (moliyaviy aktivlarni yetkazib berish) moliyaviy aktivlarni sotish (sotib olish) operatsiyalari bo‘yicha tijorat bankining talablari;

- to‘langan akkreditivlar bo‘yicha to‘lovchilarga tijorat bankining talablari (qoplanmagan eksport va import akkreditivlari bo‘yicha);

- REPO operatsiyalari (to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari);

- tijorat bankining (lizing beruvchining) moliyaviy lizing (lizing) operatsiyalari bo‘yicha lizing oluvchiga nisbatan da’volari.

Hisob-kitob operatsiyalari – bu mijozlarning kontragentlar oldidagi majburiyatlarini to‘lash bo‘yicha operatsiyalar.

Kassa operatsiyalari – bu naqd pul berish bo‘yicha operatsiyalar.

Investitsiya operatsiyalari - tijorat bankining o‘z mablag‘larini qo‘shma tijorat faoliyatini amalga oshirish uchun qimmatli qog‘ozlarga va nobank tuzilmalarining aksiyalariga qo‘ygan operatsiyalari.

Qimmatli qog‘ozlar (investitsiyalardan tashqari) bilan uyushgan (birja) va tashkillashtirilmagan bozorlarda amalga oshiriladigan operatsiyalar *birja operatsiyalaridir.* Birja operatsiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- veksellar bilan - ularni sotib olish va protyest kiritish, inkasso, aksept, indossamyent, veksel topshiriqlarini berish, veksellarni saqlash va boshqalar uchun;

- fond birjalarida ro‘yxatga olingan qimmatli qog‘ozlar bilan - dilyer va broker;

- hosilaviy moliyaviy vositalar bilan.

Komissiya operatsiyalari tijorat banki tomonidan mijozlar

nomidan, ularning topshirig‘iga va hisobidan amalga oshiriladi va komissiyalar shaklida daromad keltiradi. Bularga mijozlarga yuridik va boshqa xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha debitorlik, mablag‘lar o‘tkazish, savdo va komissiya, trastni undirish bo‘yicha operatsiyalar kiradi.

Kafolat operatsiyalari - kredit tashkiloti tomonidan kafillikda ko‘rsatilgan shartlar yuzaga kelganda mijozning qarzini uchinchi shaxsga to‘lash uchun kafillik yoki kafillik beradigan, komissiya daromadlarini keltirib chiqaradigan operatsiyalar.

Xavf darajasiga qarab aktiv operatsiyalar *standart* (xavf darajasi - 0%), *nostandart* (xavf darajasi - 1 dan 20% gacha), *muammoli* (xavf darajasi - 21 dan 50% gacha), *shubhali* (xavf darajasi - 51 dan 99% gacha) bo‘linadi.), *umidsiz* (xavf darajasi - 100%).

Mablag‘larni joylashtirish xususiyatiga qarab operatsiyalar quyidagilarga bo‘linadi: *birlamchi* (mablag‘larni to‘g‘ridan-to‘g‘ri joylashtirish, masalan, banklararo kredit berish), *ikkilamchi (*maxsus fondlarga bank badallari bilan bog‘liq) va *investitsiya. Investitsiya* - (bank mablag‘larini asosiy vositalarga, qimmatli qog‘ozlar investitsiya portfeliga kiritish, boshqa tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish).

Daromad darajasi bo‘yicha operatsiyalar *daromad keltiruvchi* (yuqori ryentabellik, past rentabellik, barqaror yoki beqaror daromad keltiruvchi) va *daromad keltirmaydigan* (foizsiz kreditlar, veksellar, mablag‘lar chiqarish, majburiy zaxiralarga ajratmalar va boshqalar) ga bo‘linadi .

Likvidlik darajasi bo‘yicha aktiv operatsiyalar tezkor (kassa operatsiyalari), joriy (30 kungacha bo‘lgan muddatga kredit va hisob-kitob operatsiyalari) va uzoq muddatli likvidligi bilan tavsiflangan operatsiyalarga, shuningdek, likvid bo‘lmagan operatsiyalarga bo‘linadi.

Valyuta turi bo‘yicha aktiv operatsiyalar so‘m va xorijiy valyutadagi operatsiyalarga bo‘linadi.

Muddati bo‘yicha qisqa muddatli (1, 7 va 30 kunga; 3, 6, 9 va 12 oyga), uzoq muddatli (bir yildan ortiq, 3 yilgacha, 3 yildan ortiq) va ochiq muddatli faol operatsiyalar (talab bo‘yicha) ajratilgan.

Amalga oshirish vaqtiga ko‘ra aktiv operatsiyalar

muntazam va tartibsiz bo‘lishi mumkin.

Hisoblardagi pul oqimiga qarab aktiv operatsiyalar schyotlar bo‘yicha (balansdan tashqari) bog‘liq (balans) va bog‘liq bo‘lmagan pul oqimlariga bo‘linadi.

3.2. Bank aktivlari tarkibi va ularning balansda joylashishi

Aktivlar tarkibi deganda, odatda, bank balansining turli sifatdagi aktivlari moddalarining balans summasiga nisbati tushuniladi. Shu bilan birga, tijorat banki aktivlarining sifati uning aktivlarining quyidagi tuzilishi bilan belgilanadi:

- likvidlik;
- autiv operatsiyalarni diversifikatsiya qilish;
- daromad keltiruvchi aktivlar hajmi;
- xavfli aktivlar hajmi;
- muhim va nuqsonli aktivlar hajmi;
- aktivlarning o‘zgaruvchanligi belgilari.

Bank faoliyatida kredit tashkiloti aktivlarining umumiy qabul qilingan tasnifi ularni quyidagi toifalarga bo‘ladi:

- kassadagi naqd pul va ekvivalent mablag‘lar;
- qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar;
- kreditlar;
- binolar va jihozlar.

Bankning o‘z majburiyatlarini bajarish uchun kundalik ehtiyojini ta’minlash uchun tijorat banki aktivlari tarkibi likvidlikning sifat talablariga mos kelishi kerak. Shu maqsadda, tijorat bankining barcha aktivlari muddatiga qarab likvidlik darajasiga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi:

- tijorat bankining bir lahzada likvidligini ta’minlovshi yuqori likvidli aktivlar;
- likvid aktivlar;
- uzoq muddatli likvidli aktivlar.

Yuqori likvidli aktivlar – bu keyingi kalendar (operatsion) kun ishida olinishi kerak bo‘lgan va bank tomonidan darhol talab qilinishi mumkin bo‘lgan moliyaviy aktivlardir. Zarur bo‘lganda, ushbu aktivlar pul mablag‘larini darhol olish uchun tijorat banki tomonidan sotilishi mumkin.

Bankning yuqori likvidli aktivlariga quyidagilar kiradi:

- aktivlar mavjudligi;
- qimmatbaho metallar;
- Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar;
- Markaziy bankga qo‘yilgan depozitlar;
- tijorat (norezident) banklardagi talab qilib olinmagan depozitlar;
- davlat qarziga investitsiyalar;

Markaziy bankning obligatsiyalariga investitsiyalar va boshqalar.

Likvid aktivlar bank tomonidan olinishi kerak bo‘lgan va keyingi 30 kalendar kuni ichida talab qilinishi mumkin bo‘lgan moliyaviy aktivlardir. Zarur hollarda likvid aktivlar bank tomonidan keyingi 30 kalendar kuni ishida pul mablag‘larini olish uchun sotilishi mumkin.

Tijorat bankining likvid aktivlariga quyidagilar kiradi:

- barcha yuqori likvidli aktivlar;
- qimmatbaho metallar;
- korrespondent banklardagi, shu jumladan, norezident banklardagi vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar;
- norezident banklardagi xorijiy valyutadagi vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar;
- keyingi 30 kalendar kuni ishida muddati tugaydigan so‘m va xorijiy valyutadagi kreditlar ;
- keyingi 30 kun ishida muddati tugaydigan depozitlar va boshqa mablag‘lar.

Uzoq muddatli likvidli aktivlari qarz oluvchining bir yildan ortiq to‘lov muddati bilan tavsiflanadi, shuningdek, muddati o‘tgan kreditlarni ham o‘z ichiga oladi.

Tijorat bankining uzoq muddatli likvidli aktivlari bir yildan ortiq muddatga qolgan quyidagi resurslarni o‘z ichiga oladi:

- kreditlar, shu jumladan, muddati o‘tgan;
- joylashtirilgan depozitlar va mablag‘lar (shu jumladan qimmatbaho metallar);
- bank tomonidan berilgan 50% kafolatlar va kafolatlar.

Agar aktivlar tarkibiga kengroq yondashadigan bo‘lsak, aktivlvr tarkibi bu – bank balansidagi sifat va iqtisodiy mazmun

jihatidan farq qiluvchi aktiv moddalarining balans summasiga nisbati tushuniladi. Ushbu tuzilma aktiv operatsiyalarning tarkibi va xususiyati, likvidligi, rentabelligi, riskliligi, shuningdek, bankning passiv va aktiv operatsiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash imkonini beradi.

Agar aktivlar tarkibini bank faoliyatining asosiy turlari bo‘yicha guruhlashdan foydalansak, ularning tuzilishi bo‘yicha quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkin:

- kredit tashkilotlarining aktiv operatsiyalarida birinchi o‘rinni kredit operatsiyalari, ikkinchi o‘rinni qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar, uchinchi o‘rinni pul mablag‘lari egallaydi;

- boshqa aktivlarning ulushi buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi, ular asosiy vositalarga (bino va inshootlarga) qo‘yilgan mablag‘lardan tortib hisob-kitob operatsiyalarigacha bo‘lgan keng doiradagi operatsiyalarni o‘z ichiga oladi;

- kredit tashkilotlari aktivlari tarkibidagi farqlar ko‘p jihatdan milliy xususiyatlar, jumladan, bank va buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, tashqi muhitning ta’siri bilan belgilanadi.

Shu o‘rinda amaliyot ham ko‘rsatadiki, tez o‘zgaruvchan tashqi muhitda va tez-tez takrorlanadigan moliyaviy inqirozlarda ko‘plab tijorat banklarining aktivlari tuzilishi beqaror bo‘lishi kuzatiladi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar – bank aktivlarining asosiy moddalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki bank o‘z faoliyatini tashkil qilish uchun moddiy bazaga, operatsiyalarni bajarish uchun shart-sharoitga ega bo‘lishi lozim. Bankning asosiy vositalariga bino - inshootlar, kapital qurilish uchun bank tomonidan qilingan xarajatlar, ofis va ish mebeli, jihozlar, kompyuter va boshqa hisoblash texnikasi aloqa vositalari kabilar kiradi. Markaziy bank belgilagan me’yorlar tijorat bankining kapital xarajatlari miqdorini bank aktivining 10 foiz miqdorida cheklaydi

Tijorat banklarining aktivlari o‘ziga xos belgilariga ko‘ra likvidlik va risk darajasiga qarab hamda daromad keltirishiga qarab bir necha guruhlarga bo‘linadi.

Bank balansida aktivlar likvidlik darajasiga qarab aks

ettiriladi va likvidlik darajasiga qarab ular quyidagi 3 guruhga:

- yuqori likvidli aktivlar;
- likvidli aktivlar;
- nolikvid (pastlikvidli) aktivlarga bo‘linadi.

Yuqori likvidli aktivlar - bu moliyaviy aktivlar, bir necha kun ishida oladigan yoki tezda realizatsiya qilib pul mablag‘lariga aylanadigan aktivlar tushuniladi. Bularga kassadagi pul mablag‘lari, Markaziy bankdagi korrschyotdagi mablag‘lar hamda yetakchi rivojlangan banklarda vakillik hisobraqamdagi mablag‘lar.

Likvidli aktivlar - bunga o‘rtacha darajadagi likvid aktivlar kiradi. Bularga - 30 kun ishida realizatsiya qilinadigan va pulga aylanadigan aktivlar kiradi. Qisqa muddatli aktivlarga tez sotiladigan veksellar va boshqa qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlar, hukumatning qimmatli qog‘ozlari kiradi.

Past likvidli aktivlarga - qiyinchilik bilan pulga aylanadigan aktivlar kiradi, bular: uzoq muddatli kreditlar, investitsiyalar, qiyin sotiladigan bino va inshootlar hamda muddati o‘tgan qarzlar kiradi.

Yuqori risk darajasiga ega aktivlar (risk koeffitsienti - 100 foiz) quyidagilardan iborat:

- bank tomonidan berilgan barcha kreditlar, jumladan, tadbirkorlik tuzilmalari, qishloq xo‘jalik, ishlab chiqarish korxonalariga berilgan kreditlar, shuningdek, iste’mol va ipoteka kreditlari;
- bankning asosiy vositalari, inshootlari, jihozlari va shaxsiy ko‘chmas mulki;
- boshqa barcha aktivlar.

Daromad keltirishga qarab bank aktivlari: daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo‘linadi.

Daromad keltiruvchi aktivlar:

Daromad keltiruvchi aktivlarni baholash muhim ahamiyatga ega. Ular kredit salohiyatining asosini va bankning ssuda portfelini tashkil etadi. Daromad tahlili sifat ko‘rsatkichiga nisbatan miqdor ko‘rsatkichiga ko‘proq tegishlidir, shu sababdan u bank faoliyatini baholashdaa katta ahamiyatga ega. Bank kapitalini oshirish va kredit potensialini mustahkamlash uning mustaqilligiga bog‘liqdir. Bankning daromadi asosan kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi, kredit

qo‘yilmalari hajmi va bank likvidligiga bog‘liq. Tijorat banki aktivlarining asosiy qismini, odatda mijozlarga berilgan kreditlar va banklararo kreditlar tashkil etadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarga quyidagilar kiradi:

1. Qisqa va uzoq muddatli ssudalar (aholiga, mijozlarga, boshqa banklarga).

2. Muddati o‘tib ketgan ssudalar bo‘yicha qarzlar va foizlar.

3. Faktoring, lizing, forfeyting, trast operatsiyalaridan olinadigan daromadlar.

4. Qimmatli qog‘ozlar operatsiyalaridan olinadigan daromadlar.

5. Berilgan kafolat va topshiriqnomalar keltiradigan daromadlar.

Daromad keltirmaydigan aktivlar:

Bank aktivlari hajmida daromad keltirmaydigan aktivlarning salmog‘i yuqori bo‘lishi bankning resurslar bazasida samarasiz aktivlarni mavjudligini izohlaydi va likvidlik darajasiga ta’sir qiladi. Bankka daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarni tahlil qilish, ularrning funksiyalarini iqtisodiy sharoitga bog‘liq holda aktivlarni tarkibini o‘zgartirib turish kerakligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Agar tijorat banklari o‘zlarining balanslari tarkibini o‘zgartirmasa, bu so‘zsiz bank zarariga olib keladi.

Daromad keltirmaydigan aktivlarga quyidagilar kiradi:

- pul aktivlari guruhi;
- asosiy vositalar ;
- kapital xarajatlar;
- barcha moddiy aktivlar va boshqa aktivlar;
- nomoddiy aktivlar kiradi.

3.3. Bank aktivlarining sifat darajasi

Tijorat banki aktivlarining sifati uning likvidligi, diversifikatsiya darajasi, foydali aktivlar ulushi, aktivlar tavakkalchilik darajasi va boshqalar bilan belgilanadi.

Shuning uchun aktivlar sifatini baholashning mohiyati - yuqoridagi belgilarning har biri uchun ularning tuzilishini

aniqlashdan iborat.

Likvidlik darajasiga ko‘ra, barcha bank aktivlari balansidagi yuqori likvidli, likvidli aktivlar va uzoq muddatli likvidli aktivlarning ulushi hisoblab chiqiladi va baholanadi. Shu bilan birga, bir qator mualliflar sanab o‘tilgan aktivlar turlari bilan bir qatorda binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalarni, shuningdek, shubhali deb tasniflangan qarzlarni o‘z ichiga olgan likvid bo‘lmagan aktivlar toifasini ham ajratib ko‘rsatishadi.

Aktivlarni diversifikatsiya qilish darajasi bank resurslarini joylashtirishning turli yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimlanishiga, shu jumladan iqtisodiyot tarmoqlarining faol operatsiyalariga jalb qilingan investitsiyalar hajmiga, kredit dasturlari turlarining soniga, bir qarz oluvchiga to‘g‘ri keladigan kapitalning konsentratsiyasiga va boshqalarga bog‘liq.

Xavflilik darajasiga ko‘ra, ya’ni yo‘qotish ehtimoli bo‘yicha barcha aktivlarni 5 guruhga bo‘lish kerak: risksiz (yo‘qotish ehtimoli 0%), past xavfli aktivlar (10% gacha), o‘rtacha xavf (20% gacha), yuqori xavf bilan (70% gacha) va yuqori xavf (100%). Har bir sanab o‘tilgan aktivlar guruhining ulushini hisoblash tijorat banki tomonidan olib borilayotgan kredit siyosatining tavakkalchilik darajasini va natijada uning likvidlik salohiyatini ko‘rsatadi.

Daromad darajasiga qarab aktivlarni guruhlar bo‘yicha tahlil qilish tijorat bankining o‘z resurslarini eng foydali aktivlarga joylashtirish qobiliyatini baholash imkonini beradi. Yuqorida tavsiflangan aktivlar sifati belgilarini hisobga olgan holda, amaliy baholash jarayonida quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Aktivlarning ishlash koeffitsienti (AKK_1) - aktivlarning umumiy summasida daromad keltiruvchi aktivlarning qanchalik ulushga ega ekanligini ko‘rsatadi va formula bo‘yicha hisoblanadi.

$$AKK_1 = \frac{A_d}{A}, \qquad (3.1)$$

bu yerda A_d - daromad keltiradigan aktivlar. Ushbu aktivlarga kreditlar, banklararo kreditlar, diskontlangan veksellar, qimmatli qog‘ozlar, boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlaridagi qoldiqlar kiradi; A - tijorat bankining jami aktivlari. 65-75% oralig‘ida AKK_1

qiymati maqbul deb hisoblanadi.

Aktivlarni diversifikatsiya qilish koeffitsienti (AKK_2) - (3.2) formula bo‘yicha hisoblanadi va bank aktivlarining bozor tarmoqlari va qarz oluvchilar bo‘yicha taqsimlanish darajasini ko‘rsatadi. Ushbu koeffitsientning qiymati qanchalik yuqori bo‘lsa, faol operatsiyalarning risklari shunchalik ko‘p diversifikatsiya qilinadi va shuning uchun bank aktivlarini yo‘qotish xavfi kamayadi.

$$AKK_2 = \frac{A_D - A_b}{A_D}, \qquad (3.2)$$

bu yerda A_b - bir hil aktivlar.

Investitsion faollik koeffitsienti (AKK_3) - (3.3) formula bo‘yicha aniqlanadi va daromad keltiruvchi aktivlarning umumiy miqdorida mijozlarga berilgan kreditlar ulushini ko‘rsatadi. Koeffitsientning yuqori darajasi bankning mamlakat milliy iqtisodiyotiga investitsiyalarga yo‘naltirilganligini tavsiflaydi. Aksincha, koeffitsientning past qiymati bank mablag‘larini iqtisodiyotning real sektoriga emas, balki boshqa operatsiyalarga (banklararo kreditlar, qimmatli qog‘ozlar va Chet el valyutasi bilan chayqovchilik) yo‘naltirishini ko‘rsatadi.

$$AKK_3 = \frac{K_B}{A_D}, \qquad (3.3)$$

bu yerda K_B - tijorat banki mijozlariga berilgan kreditlar.

Kredit sifati koeffitsienti (AKK_4) - (3.4) formula bo‘yicha hisoblanadi va tijorat banki tomonidan berilgan barcha kreditlar sifatini tavsiflaydi. Koeffitsientning past qiymati berilgan kreditlar ishida muddati o‘tgan kreditlar muhim o‘rinni egallashini ko‘rsatadi.

$$AKK_4 = \frac{Q - Q_M}{Q}, \qquad (3.4)$$

bu yerda Q_M - muddati o‘tgan qarz miqdori; Q - kredit qarzining umumiy summasi (shu jumladan muddati o‘tgan).

Ushbu ko‘rsatkichlarni hisoblash natijalariga ko‘ra, har bir tijorat banki o‘z aktivlari tarkibini u yoki bu sifat belgilariga ko‘ra optimallashtirish bilan bog‘liq muayyan boshqaruv qarorlarini qabul qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, tijorat banki o‘z aktivlari holatini ichki tahlil qilish uchun o‘zining sifat ko‘rsatkichlari va ularning

maksimal ruxsat etilgan qiymatlarini belgilashi mumkin.

Oxirgi o‘tgan yillarda respublika bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasining tijorat banklari aktivlarini, shu jumladan, kredit portfellarini yanada o‘sishini va sifatini yaxshilashni ta’minlash, tavakkalchilikni baholash tizimini takomillashtirish maqsadida bank tavakkalchiliklarini boshqarishda chuqur omilli tahlilni amalga oshirishning aniq mexanizmini joriy qilish, zaxiralarni shakllantirish, kredit portfelini diversifikatsiyalashlarni ko‘zda tutgan holda banklar aktivlari sifati monitoringini takomillashtirish, shuningdek, muammoli qarzdorlik paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan chora-tadbirlar qabul qilingan edi.

Bank aktivlarining sifat darajasi quyidagicha belgilandi:

№	Aktivlar	Zaxira
1	Standart	1 %
2	Substandart	10 %
3	Qonikarsiz	25 %
4	Shubhali	50%
5	Umidsiz	100%

Bank aktivlari bo‘yicha o‘rnatilgan sifat darajalariga tavsif beriladigan bo‘lsa ular quyidagicha bo‘ladi:

Standart. Ushbu aktivlar bo‘yicha qarzlarning o‘z muddatida to‘lanishi shubha tug‘dirmaydi. Qarz oluvchi moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi, u yetarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga hamda barcha mavjud majburiyatlar, jumladan, mazkur qarzni qondirish uchun yetarli pul mablag‘lari oqimiga ega.

Qarz oluvchi amalda bajariladigan, jumladan, bozorda raqobatlasha olish, yaxshi mahsulot ishlab chiqarishga doir strategik rejani taqdim etadi va o‘z mahsulotlari uchun marketing rejasiga ega bo‘ladi. Qarzdor mavqeyini baholash kreditga doir to‘lovlar tarixi, garovning bozorda sotilishi (mulk va ko‘chmas

mulk, kafolat) kabi omillarni oʻz ichiga qamrab oladi. Garov "yaxshi ta'minlangan" kredit mezonlariga mos keladi. Garov amaldagi qonunchilikka muvofiq notarial jihatdan puxta tasdiqlangan boʻlishi va zarur hollarda tegishli mulk bitimini roʻyxatdan oʻtkazish uchun belgilangan tartibda roʻyxatga olinishi lozim. Bank kredit qaytarilmagan holda cheklovlarsiz va erkin ravishda uni garov hisobidan undirib olishi mumkin.

Ta'minotga doir taqdim etilayotgan barcha hujjatlar qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi kerak.

"Standart" deb tasniflangan kreditlarda ular qaytarilmasligi alomatlari boʻlmaydi. Foizlar muddati oʻtgan ssudalar "Yaxshi" deb tasniflanishi mumkin emas.

Substandart. Substandart toifaga kiritilgan aktivlar berilishida ikkilamchi toʻlov manbasi (kafolat yoki garov bilan) puxta ta'minlangan boʻlishi lozim.

Umuman olganda qarzdorning moliyaviy ahvoli barqaror hisoblanadi, lekin ayrim noqulay vaziyatlar yoki yoʻnalishlar mavjud boʻlib, agarda ular bartaraf etilmasa, qarzdorning kreditni oʻz vaqtida toʻlash qobiliyatiga nisbatan shubha uygʻonishi mumkin. Shu bilan birga moliyaviy ahvol yoki garovni nazorat qilish borasida bir munsha shubhalar boʻlishi mumkin.

Kredit hujjatlarida yetarlisha axborot boʻlmagan yoki garov ta'minoti boʻyicha hujjatlari boʻlmagan "Standart" kreditlar (aktivlar) ham "Substandart" aktivlar sifatida tasniflanishi mumkin. "Standart" sifatida tasniflangan aktivlar boʻyicha bank qaytarilmagan asosiy qarz summasining 10 foizi miqdorida zaxiralar tuzishi shart.

Qoniqarsiz. Qoniqarsiz aktivlar aniq ifodalangan kamchiliklar belgilariga ega boʻlib, bu holat dastlabki shartnomaga muvofiq qarz qaytarilishi shartlarining bajarilishiga shubha uygʻotadi.

"Substandart" sifatida tasniflangan kreditlarda qarz toʻlashning dastlabki manbayi qarzga xizmat koʻrsatish uchun yetarli darajada boʻlmaydi va bank qarzni qaytarish uchun qoʻshimcha manbalar (garovdan undirish va qarzdor tomonidan ssuda qaytarilmaganda garovni sotish, asosiy fondlarni sotish singari manbalar)ni qidirishga majbur boʻladi,

Ta’kidlash joizki, substandart aktivlar ishonchli joriy moliyaviy ahvol va qarz oluvchining to‘lov qobiliyati bilan himoyalanmagan. Substandart aktivlar odatdagiga nisbatan qoniqarli joriy moliyaviy axborotning yo‘qligi yoki garov hujjatlarining yetarli emasligi bilan bog‘liq bo‘lgan tavakkalchilik darajasi ancha yuqori bo‘lgan kreditlarni ifodalaydi.

Shuningdek, quyidagi muammo yoki xususiyatlardan kamida bittasi mavjud bo‘lsa, aktiv to‘lov muddati to‘lgunicha substandard sifatida tasniflanishi mumkin:

- asosiy to‘lov manbalari qarz to‘lash uchun yetarli emas, bank garovga qo‘yilgan mulkni sotish, qarz oluvchining boshqa asosiy mablag‘larini sotish, to‘lanishi lozim bo‘lgan boshqa qarz mablag‘larini qayta moliyalash kabilarni hisobga olgan holda qo‘shimcha to‘lov manbalarini topishi kerak;
- qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag‘larining mo‘ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplash uchun yetarli bo‘lmagan hollarda;
- qarz oluvchi kapitali ko‘p darajada yetarli bo‘lmagan korxona bo‘lgan taqdirda;
- ushbu sohaga nisbatan yo‘nalish va istiqbollar barqaror bo‘lmagan holda;
- kreditlar (aktivlar), garov qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo‘lmaganda asosiy qarzning to‘lanmagan summasiga teng bo‘lgan holda (ya’ni kredit qisman ta’minlangan bo‘lsa).

"Substandart" sifatida tasniflangan aktivlar bo‘yicha bank asosiy qarzning to‘lanmagan summasining 25 foiziga teng bo‘lgan zaxiralarni shakllantirishi lozim.

Shubhali. Shubhali kreditlar substandart deb tasniflanuvshi kreditlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo‘lib, mavjud sharoitda aktivlarning to‘liq qaytarilishini shubha ostiga qo‘yadi va kam ishonchli qilib qo‘yadi. Ziyon ko‘rish ehtimoli yuqori bo‘lgan, lekin ayrim ijobiy omillari mavjud bo‘lgan ushbu kreditlar sharoit oydinlashguncha “shubhali” deb tasniflanmaydi.

Quyidagi omillarning kamida bittasi mavjud bo‘lsa, aktiv “shubhali” deb, tasniflanishi mumkin:

- “substandart” aktivlarning hech bo‘lmaganda bironta

koʻrsatkichi, shuningdek, ayrim boshqa noqulay tavsiflari mavjud boʻlsa (bozorda oson sotiluvchan garovning mavjudligi yoki qarz oluvchining bankrot deb e'lon qilinishi);

- yaqin kelajakda aktivning qisman toʻlanishi ehtimolining mavjudligi, shuningdek, ushbu paytda aktivning "umidsiz" deb tasniflanishi zarur emasligi;

- foizlar va asosiy qarz boʻyicha toʻlash jadvaliga binoan toʻlanmagan toʻlovlar mavjudligi.

Aktivni "umidsiz" deb tasniflashga imkon beruvchi muhim omillarga quyidagilar kiradi:

- bank aktivlar boʻyicha ayrim toʻlov turlarini yoki hech boʻlmaganda, qisman toʻlovlarni oladi;

- bank garovni undirib olish boʻyicha huquqiy xatti-harakatlarni qoʻllay boshlaydi va ta'minot sotuvini oʻz vaqtida amalga oshiradi (90 kun ishida);

- qarzdor tomonidan keyinchalik aktivni toʻliq ta'minlaydigan qoʻshimcha ta'minotni taqdim etish harakatlarining amalda boshlanishi.

"Shubhali" deb tasniflangan aktivlar boʻyicha bank asosiy qarz toʻlanmagan summasining 50 foizi miqdorida zaxirani tashkil etishi shart.

Umidsiz. Umidsiz deb tasniflangan kreditlarga qaytarilmaydigan kreditlar kiradi. Qiymati juda pastligi tufayli bank aktivlari sifatida ularning hisobini yuritish maqsadga muvofiq emas deb hisoblanadi. Bunday tasniflash kreditlarda umuman hech qanday tugatiladigan qiymat mavjud emasligini bildirmaydi. Lekin banklar oʻz balanslarida bu qarzdorlikning hisobini yuritishni davom ettirishlari maqsadga muvofiq emas.

Bank garovga olingan mulkni sotish orqali bunday qarzdorlikni bartaraf etish choralarini koʻrishi yoki uni qaytarish choralarini qoʻllashi kerak.

Quyidagi muammolar yoki tavsiflarning kamida biri mavjud boʻlganda aktiv "umidsiz" deb tasniflanadi:

- shartnoma jadvaliga muvofiq oraliq toʻlovlarni toʻlash kuni 180 va undan ortiq kunga kechiktirilgan boʻlsa;

- aktiv shartnomada belgilangan muddatda toʻlanmagan boʻlsa;

- sudda ishni koʻrish jarayonida boʻlgan aktivlar;

- qarz oluvchining yomon moliyaviy ahvoli va toʻlovga qodir emasligi sababli toʻlash muddati uzaytirilgan aktivlar boʻlsa;

- qarz oluvchi va lizing oluvchidan undirilgan mol-mulk bank maqsadlarida foydalanilmaydigan hamda garovga qoʻyilgan mol-mulkka boʻlgan huquqlardan foydalanish yoʻli bilan bank balansiga qabul qilingan kundan boshlab uch oylik muddatda bank tomonidan realizatsiya qilinmagan boʻlsa.

Aktiv shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmasligidan dalolat beruvchi dalillar yoki alomatlar mavjud boʻlganda ushbu aktiv ham "umidsiz" deb tasniflanadi.

Umidsiz deb tasniflangan aktivlar boʻyicha bank asosiy qarzning toʻlanmagan summasining 100 foizi miqdorida zaxiralar yaratishi kerak.

3.4. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularni boshqarish

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari bu - daromad olish maqsadida bankning oʻz va qarz mablagʻlarini joylashtirishdir. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari – bu, birinchi navbatda, ularning kredit operatsiyalari, investitsiya operatsiyalari, tijorat bankining mol-mulkini shakllantirish bilan bogʻliq operatsiyalar, kassa-hisob operatsiyalari va boshqalardir. Tijorat banklari oʻzining joriy faoliyatini amalga oshirish, muddatikelgan, jalb qilingan jamgʻarma mablagʻlarini qaytarib berish, turli operatsion xarajatlarni, jumladan, xodimlarga ish haqi va boshqa material hamda xizmatlarga toʻlovlarni amalga oshirish uchun kassasida yetarli miqdorda pul mablagʻiga ega boʻlishi lozim.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari oʻz shakli, ahamiyati va yoʻnalishi, iqtisodiy mohiyati, likvidligi, risk va daromad darajasiga qarab turlicha oʻrin va ahamiyatga ega. Bankning aktiv operatsiyalari quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- kredit, naqd pul, valyuta, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan operatsiyalar;

- uchinchi shaxslarga bank kafolatlari va kafolatlarini berish,

ularning naqd pul bilan bajarilishini ta’minlash;

- uchinchi shaxslardan naqd pul bilan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish;

- pul mablag‘lari va boshqa mol-mulkni ishonchli boshqarish, lizing, faktoring, forfeyting operatsiyalari, qimmatli qog‘ozlarga bank qo‘yilmalari;

- boshqa operatsiyalar.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni ularning tasnifida namoyon bo‘ladi.

Turiga qarab tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ssuda, hisob-kitob, kassa, investitsiya va aktsiyadorlik, komissiya, kafolatlarga bo‘linadi.

Kredit operatsiyalari - bu qarz oluvchiga muddatlilik, to‘lov, to‘lov asosida pul mablag‘larini taqdim etish bo‘yicha operatsiyalar. Kredit operatsiyalari quyidagilarga tenglashtiriladi:

- kreditlar (ssudalar) berish, omonatlarni joylashtirish, shu jumladan banklararo kreditlar (depozitlar, ssudalar), mablag‘larni joylashtirish, shu jumladan, kredit shartnomasi bo‘yicha taqdim etilgan qarzdorlik qimmatli qog‘ozlari, aksiyalar va veksellarni olish (qaytarish) bo‘yicha talablarni qo‘yish;

- veksellarni hisobga olish;

- tijorat banki tomonidan benefitsiarga bank kafolatlari bo‘yicha asosiy qarzdan undirilmagan summalarni to‘lash;

- tijorat bankining pul talabini boshqa shaxsga o‘tkazishga (faktoring) qarshi moliyalashtirish operatsiyalari bo‘yicha pul talablari;

- bitim bo‘yicha olingan huquqlar (da’volar) bo‘yicha kredit tashkilotining talablari (da’voni topshirish);

- ikkilamchi bozorda sotib olingan ipoteka bo‘yicha tijorat bankining talablari;

- to‘lov muddati kechiktirilgan holda (moliyaviy aktivlarni yetkazib berish) moliyaviy aktivlarni sotish (sotib olish) operatsiyalari bo‘yicha tijorat bankining talablari;

- to‘langan akkreditivlar bo‘yicha to‘lovchilarga tijorat bankining talablari (qoplanmagan eksport va import akkreditivlari bo‘yicha);

- REPO operatsiyalari (to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari);

- tijorat bankining (lizing beruvchining) moliyaviy lizing (lizing) operatsiyalari bo‘yicha lizing oluvchiga nisbatan da’volari.

Hisob-kitob operatsiyalari - bu mijozlarning kontragentlar oldidagi majburiyatlarini to‘lash bo‘yicha operatsiyalar.

Kassa operatsiyalari - bu naqd pul berish bo‘yicha operatsiyalar.

Investitsiya operatsiyalari - tijorat bankining o‘z mablag‘larini qo‘shma tijorat faoliyatini amalga oshirish uchun qimmatli qog‘ozlarga va nobank tuzilmalarining aksiyalariga qo‘ygan operatsiyalari.

Qimmatli qog‘ozlar (investitsiyalardan tashqari) bilan uyushgan (birja) va tashkillashtirilmagan bozorlarda amalga oshiriladigan operatsiyalar birja operatsiyalaridir. Birja operatsiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- veksellar bilan - ularni sotib olish va protest qilish, inkasso, domimiliatsiya, aksept, indossament, veksel topshiriqlarini berish, veksellarni saqlash va boshqalar uchun;

- fond birjalarida ro‘yxatga olingan qimmatli qog‘ozlar bilan - diler va broker;

- hosilaviy moliyaviy vositalar bilan.

Komissiya operatsiyalari kredit tashkilotlari tomonidan mijozlar nomidan, ularning topshirig‘iga va hisobidan amalga oshiriladi va komissiyalar shaklida daromad keltiradi. Bularga mijozlarga yuridik va boshqa xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha debitorlik, o‘tkazuvshanlik, savdo va komissiya, trastni undirish bo‘yicha operatsiyalar kiradi.

Kafolat operatsiyalari - kredit tashkiloti tomonidan kafillikda ko‘rsatilgan shartlar yuzaga kelganda mijozning qarzini uchinchi shaxsga to‘lash uchun kafillik yoki kafillik beradigan, komissiya daromadlarini keltirib chiqaradigan operatsiyalar.

Xavf darajasiga qarab faol operatsiyalar standart (xavf darajasi - 0%), nostandart (xavf darajasi - 1 dan 20% gacha), muammoli (xavf darajasi - 21 dan 50% gacha), shubhali (xavf darajasi - 51 dan 99% gacha) bo‘linadi), umidsiz (xavf darajasi - 100%).

Mablag‘larni joylashtirish xususiyatiga qarab operatsiyalar quyidagilarga bo‘linadi: birlamchi (mablag‘larni to‘g‘ridan-to‘g‘ri

joylashtirish, masalan, banklararo kredit berish), ikkilamchi *(*maxsus fondlarga bank badallari bilan bog‘liq), investitsiya (bank mablag‘larini asosiy vositalarga, qimmatli qog‘ozlar investitsiya portfeliga kiritish, boshqa tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish).

Daromad darajasi bo‘yicha operatsiyalar daromad keltiruvchi (yuqori rentabellik, past rentabellik, barqaror yoki beqaror daromad keltiruvchi) va daromad keltirmaydigan (foizsiz kreditlar, veksellar, mablag‘lar chiqarish, majburiy zaxiralarga ajratmalar va boshqalar) ga bo‘linadi.

Likvidlik darajasi bo‘yicha faol operatsiyalar tezkor (kassa operatsiyalari), joriy (30 kungacha bo‘lgan muddatga kredit va hisob-kitob operatsiyalari) va uzoq muddatli likvidligi bilan tavsiflangan operatsiyalarga, shuningdek, likvid bo‘lmagan operatsiyalarga bo‘linadi.

Valyuta turi bo‘yicha faol operatsiyalar so‘m va xorijiy valyutadagi operatsiyalarga bo‘linadi.

Muddati bo‘yicha qisqa muddatli (1, 7 va 30 kunga; 3, 6, 9 va 12 oyga), uzoq muddatli (bir yildan ortiq, 3 yilgacha, 3 yildan ortiq) va ochiq muddatli faol operatsiyalar (talab bo‘yicha) ajratilgan.

Amalga oshirish chastotasiga ko‘ra faol operatsiyalar muntazam va tartibsiz bo‘lishi mumkin.

Hisoblardagi pul oqimiga qarab faol operatsiyalar schyotlar bo‘yicha (balansdan tashqari) bog‘liq (balans) va bog‘liq bo‘lmagan pul oqimlariga bo‘linadi.

Tijorat banklarining kassali aktivlariga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlari quyidagilarda ko‘rinadi:

- kassali aktivlarning likvidlilik darajasi nisbatan juda yuqori bo‘lganligi sababli ularning daromadlilik darajasi sezilarli darajada pastdir;

- kassali aktivlar moliya bozorlari rivojlanmagan mamlakatlarda tijorat banklari balansining likvidliligini ta’minlash imkonini beradigan yagona aktivlar guruhi hisoblanadi;

- kassali aktivlar mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishiga, moliya bozorlarining segmentlaridagi o‘zgarishlarga nisbatan sezilarli darajada ta’sirshan bo‘lgan aktivlar hisoblanadi.

Tijorat banklarining aylanma kassasidagi naqd pullar xalqaro bank amaliyotida daromad keltirmaydigan aktiv hisoblanadi. Shu

bilan bir qatorda, tijorat banklarining Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisobvaraqlarining qoldiqlari ham daromad keltirmaydi, chunki dunyoning koʻpchilik mamlakatlarida markaziy banklar mazkur hisobvaraqlarining qoldiqlariga foiz toʻlamaydi.

Tijorat banklarining kassali aktivlarining tarkibida ularning boshqa banklardagi «Nostro» vakillik hisobvaraqlarining qoldiqlari bank uchun sezilarli harajatni yuzaga keltiradi, chunki boshqa banklar «Nostro» vakillik hisobvaraqlarini yuritganligi uchun komission toʻlov oladilar.

Inkassatsiya jarayonidagi pul mablagʻlariga kelsak, ularning daromadlilik darajasi juda past boʻlib, bu holat undiriladigan komission toʻlov stavkasining past ekanligi bilan izohlanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning koʻpshiligida moliya bozorlari zaif rivojlangan boʻlib, bu holat tijorat banklarining likvidliligini ta'minlashga salbiy ta'sir koʻrsatadi. Masalan, qimmatli qogʻozlar bozorining rivojlanmaganligi tijorat banklari aktivlarining bir qismini yuqori likvidli qimmatli qogʻozlarga qilingan investitsiyalar hisobidan shakllantirish imkonini bermaydi.

Tijorat banklari aktivlarining likvidlilik darajasiga koʻra ikkinchi guruhini ularning qimmatli qogʻozlarga qilgan investitsiyalari egallaydi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning bank amaliyotida hukumatning qimmatli qogʻozlariga qilingan bank investitsiyalarini yuqori salmoqqa ega ekanligining asosiy sabablari quyidagilardan iboratdir:

- hukumatning qimmatli qogʻozlari yuqori likvidlilik xususiyatiga ega. Chunki ularga nisbatan qimmatli qogʻozlar bozorida doimiy xarakterga ega boʻlgan barqaror talab mavjud. Bu esa, hukumatning qimmatli qogʻozlari hisobidan tijorat banklarining likvidliligini ta'minlash imkonini beradi;

- hukumatning qimmatli qogʻozlari qat'iy belgilangan foizda bankka daromad keltiradi. Demak, ular bankning foizli daromadlari hajmini oshirish imkonini beradi, bu esa ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zaruriy shartidir.

Yuqoridagi ma'lumotlardan koʻrinadiki, rivojlangan xorijiy davlatlarda tijorat banklari qimmatli qogʻozlar portfelida veksellar

bilan bog‘liq aktivlar yuqori salmoqni egallaydi. Buning boisi shundaki, birinchidan, tijorat veksellari indossament orqali bir subyektdan ikkinchi subyektga uzatilish xususiyatiga ega.

Bu esa, ularni to‘lov vositasi sifatidagi rolini oshishiga olib keladi. Ikkinchidan, tijorat banklari vekselni o‘zlarida diskont stavkasi bo‘yicha hisobga olish yo‘li bilan real daromad oladilar. Bundan tashqari, tijorat banklari hisobga olingan veksellarni Markaziy bankka qayta hisobga oldirish yo‘li bilan Markaziy bank kreditlarini olish imkoniga ega bo‘ladilar.

Hissali ishtirok shaklidagi bank investitsiyalari Germaniya va Yaponiya tijorat banklari amaliyotida keng rivojlangan. Ushbu mamlakatlarning tijorat banklari mijozlarining ustav kapitalida ishtirok etish yo‘li bilan ular faoliyatini boshqarish jarayonlariga ta’sir etishni o‘z faoliyatlarining ustivor yo‘nalishlaridan biri deb hisoblaydilar.

Ayni vaqtda, shuni e’tirof etish lozimki, investitsiyalar ichida risk darajasi eng yuqori bo‘lgan investitsiya shakli hissali ishtirok shaklidagi investitsiya hisoblanadi. Chunki oddiy aksiyalarga dividend sof foyda hisobidan to‘lanadi. Sof foyda esa barcha xarajatlar moliyalashtilgandan so‘ng hosil bo‘ladi.

Demak, rivojlangan xorijiy davlatlarning tijorat banklarida qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning asosiy qismi hukumatning va korporatsiyalarning tijorat qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalariga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston Respublikasida esa buning teskarisidir.

Qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarni daromadlilik darajasiga ko‘ra ikki yirik guruhga bo‘lish mumkin:

- tijorat qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalar.
- hukumatning qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalar.

Tijorat qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalarning daromadlilik darajasi juda yuqori, shu sababli, ularning risk darajasi yuqori.

Hukumatning qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalarning likvidlilik darajasi yuqori, shu sababli, ularning daromadlilik darajasi past.

Korxona va tashkilotlar hamda shaxslarga ajratilgan kreditlar: Mubolag‘asiz, bankning yirik aktivi bo‘lib kreditlar

hisoblanadi. Mablag‘larni turli kredit operatsiyalariga joylashtirayotgan bank boshqaruvi mijozning kreditga bo‘lgan talabini qondirish bilan birga daromad olish birinchi galdagi vazifa deb hisoblaydi. Ma’lum kredit bitimining likvidlilik darajasi ikkinchi darajali ahamiyatga ega.

Shuningdek, bank boshqaruvi mablag‘larning “kredit portfeli” ishida taqsimlanish masalasini ham hal etishi lozim, ya’ni muddatli xaridlarni, savdo sanoat kompaniyalarini, ko‘chmas mulk va boshqalarni kreditlash kabi turlar o‘rtasida. Bunday taqsimlanishning asosi bo‘lib kreditlarning nisbiy daromadliligi, shuningdek, turli turdagi kreditlarga bo‘lgan talab hisoblanadi.

Shunday qilib, tijorat banklari aktiv operatsiyalarining asosiy maqsadi yuqori foyda olish va bank faoliyati likvidligi hamda barqarorligini ta’minlashdan iborat bo‘ladi.

III bobga oid nazorat savollari

- Bank aktivi deganda nimani tushunasiz va u qanday tarkibga ega?
- Daromad keltiruvchi aktivlarga tushuncha bering.
- Daromad keltirmaydigan aktivlarga tushuncha bering.
- Bank aktivi deganda nimani tushunasiz va u qanday tarkibga ega?
- Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar qanday toifalarga bo‘linadi?
- Bank aktivining sifati qanday ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi?
- Bank aktivlari qanday toifalar bo‘yicha tasniflanadi?
- Bank aktivlari daromad keltirishiga qarab qanday guruhlarga bo‘linadi?
- Likvidlilik darajasiga qarab bank aktivlari qaysi guruhlarga bo‘linadi?
- Bank aktivlarining sifat darajasi deganda nimani tushunasiz?

IV BOB. TIJORAT BANKLARINING VALYUTA OPERATSIYALARI

4.1. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari va uning huquqiy asoslari.

4.2. Valyuta operatsiyalari va ularning turlari.

4.3. Valyuta kursining mohiyati va uning turlari.

4.4. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar.

4.5. O'zbekiston Respublikasi ichki valyuta bozorida xorijiy valyutani sotish va sotib olish tartibi.

Tayanch iboralar. Valyuta kursi, kotirovka, ochiq valyuta pozitsiyasi, valyuta siyosati, foiz dinamikasi, diskont, sotuv kursi, xarid kursi, valyuta real kursi, SPOT, SVOP, tratta kvota, forvard, fyuchers, qisqa valyuta pozitsiyasi, uzun valyuta pozitsiyasi.

4.1. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari va uning huquqiy asoslari

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari O'zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi 2019-yil 22-oktyabrdagi O'RQ-573-sonli Qonuni, yangi tahrirdagi 0'zbekiston Respublikasining «Markaziy banki to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» hamda «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi 14.07.2021-yildagi O'RQ-701-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonunlari talablariga muvofiq 0'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziyaga asosan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 30-iyundagi 449-sonli qaroriga asosan «Birjadan tashqari valyuta bozoridagi operatsiyalar» vakolatli banklar tomonidan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar asosida bozor kursi bo'yicha amalga oshirilishi belgilab berilgan. Yoki O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 29-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" 18/5-son qarori

bilan O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari belgilab berildi.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari ularning mijozlari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarning tashqi iqtisodiy faoliyati va aloqalari orqali vujudga keladi. Mijozlar xalqaro aloqalarning quyidagi shakllarida ishtirok etadilar:

- xalqaro savdoda importyor va eksportyor sifatida;
- kapitalni olib kirish va olib chiqish.

Shu bilan birga:

- boshqa davlatlar hududida korxonalar qurish;
- boshqa mamlakatlar hududida korxonalar faoliyatini moliyalashtirish;
- qo‘shma korxonalar tashkil etish;
- xalqaro kreditlar, moliyaviy ko‘maklarni taqdim etish yoki olish va boshqalar.

Yuqorida ta’kidlangan barcha shu kabi aloqalar pul (kapital) harakati bilan bog‘liq bo‘lib, bir valyuta boshqa valyutaga ayirbosh qilinadi. Bugungi kunda dunyoning barcha davlatlari talabini birdek qondira oladigan yagona pul birligi mavjud emas va har bir davlat shartnomadagi kelishuvga asosan o‘z milliy pul birligi yoki boshqa davlat pul birligida xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishi mumkin.

Xorijiy valyuta importyorlarga xorijdan sotib olingan tovarlar va xizmatlarga to‘lash uchun kerak bo‘lsa, eksportyorlar valyutaga o‘z tovarlarini sotadilar va xizmatlar ko‘rsatadilar. Tomonlar tijorat banklarining mijozlari bo‘lganligi bois ular o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning hisob-kitoblari banklar tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonlarda banklar mijozlari hisobidan zarur hollarda o‘z mablag‘lari (kreditlar berish) hisobidan hisob-kitob, valyuta operatsiyalarini amalga oshiradilar.

Banklar o‘z xalqaro operatsiyalarida turli davlatlarning xo‘jalik subyektlari korxona, tashkilotlari, moliyaviy muassasalari bilan pul mablag‘larini o‘tkazish va qabul qilish, xalqaro kreditlarni taqdim etish va olish, valyuta almashtirish, xalqaro qimmatli qog‘ozlarning savdo-sotiqlari va boshqalar bilan shug‘ullanadilar.

Tijorat banklarining litsenziya olish uchun topshirgan

hujjatlariga asosan ularning valyuta operatsiyalarini o‘tkazishga tayyorgarlik darajasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan talabnomalar asosida aniqlanadi. Bunda tijorat bankning faoliyati malakaviy (bank xodimlarining xalqaro iqtisodiy, valyuta, kredit, hisob-kitob va boshqa xalqaro moliyaviy munosatlar normalarini, xorijiy tillarni bilishi hamda tajribaga ega ekanligi va boshqa ko‘nikmalar) va texnik talablar (bank texnik-texnologik va boshqa jihatlardan imkoniyati mavjudligi) jihatdan o‘rganiladi.

Valyuta operatsiyalarini o‘tkazishga ruxsat beruvchi litsenziya quyidagi maxsus shartlarga rioya etilgandagina beriladi:

- tijorat banki tashkil etilgandan boshlab bir yildan ortiq muddat faoliyat ko‘rsatgan bo‘lishi;
- tijorat banki Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan barcha normativlarni bajarishi;
- valyuta operatsiyalarini o‘tkaza oladigan, jumladan, xorijiy tillarni biladigan malakali xodimlarga ega bo‘lishi;
- bank valyuta operatsiyalarini o‘tkazish unga kerakligini isbotlay olishi (o‘z mijozlari talablari hisobiga);
- valyuta operatsiyalarini o‘tkazish uchun kerakli moddiy-texnik bazaga ega bo‘lishi (kassa, sklad, hisob-kitob markazi) lozim.

Valyuta operatsiyalarini o‘tkazish uchun beriladigan litsenziyalar ikki turga (Bosh litsenziya va Ichki litsenziya) bo‘linadi.

1. Bosh litsenziya tijorat banklariga O‘zbekiston Respublikasi hududida hamda chet elda xorijiy valyutadagi operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beradi.

2. Ichki litsenziya tijorat banklariga O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasidagi operatsiyalarni to‘la yoki cheklangan doirada amalga oshirish uchun berilgan huquqdir.

Chet el valyutasida operatsiyalar o‘tkazish uchun bosh yoki ichki litsenziyaga ega bo‘lgan bank vakolatli bank deb ataladi va bu bank qonun talablariga muvofiq litsenziya shartlari asosida o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

Banklar quyidagi valyuta operatsiyalarini amalga oshiradi:

- xorijiy valyutalarni sotish va sotib olish;

-mijozlar valyuta hisob raqamini yuritish va depozitlarga valyuta mablag‘larini jalb qilish;

-valyutada xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish;

-valyutada kreditlar berish va boshqalar.

Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari rasmiy valyuta kursiga asoslanadi.

Chet el valyutasidagi bank operatsiyalari murakkabligi va tavakkalchiligining ortib borishi darajasiga qarab ham turlarga bo‘linadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 30-apreldagi “Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 8/1-son qarori bilan “Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish” qoidasida ochiq valyuta pozitsiyasi uchun quyidagi limitlar o‘rnatilgan:

- ixtiyoriy valyutada ochiq valyuta pozitsiyasi limiti har bir operatsion kun oxirida valyutali banklarda regulyativ kapitalning 5%idan oshmasligi va bankning umumiy ochiq valyuta pozitsiyasining limiti har operatsion kunning oxirida uning bank regulyativ kapitalining 20%idan oshmasligi lozim;

- summali ochiq valyuta pozitsiyasida uzun valyuta pozitsiyasi ko‘rinishi o‘rnatiladi. Valyutani sotish va sotib olishda bank faqat ochiq valyuta pozitsiyasidan foydalanmaydi. Kunora banklarda umumiy valyuta pozitsiyasi «Nostro» schyoti bo‘yicha olib boriladi.

Quyidagilarga ko‘ra, ular to‘lovi foydalanadigan kungacha o‘rnatiladi. Agar to‘lovlar kirim bilan qo‘shilib ketsa, bir schyotdan boshqa schyotga mablag‘larni o‘tkazishda xatolikka yo‘l qo‘yilsa, bunda bank kun ora ochiq maxsus schyot bo‘yicha tekshirish o‘tkazadi.

4.2. Valyuta operatsiyalari va ularning turlari

Valyuta operatsiyalari keng ma’noda - xorijiy valyutada ko‘rsatilgan hujjatlar va operatsiyalarni rasmiylashtirish va to‘lash bo‘yicha harakatlar ketma-ketligi bo‘lsa, tor ma’noda - chet el valyutasini sotib olish va sotish bo‘yicha operatsiyalardir.

Yuridik va jismoniy shaxslar (rezidentlar, norezidentlar), shuningdek, valyuta bozorlaridagi va xalqaro hisob-kitoblar sohasidagi munosabatlarning vositachilari va ishtirokchilari valyuta munosabatlarining subyektlari hisoblanadi.

Valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

- rezident tomonidan valyuta qiymatlarini sotib olish va begonalashtirish, ulardan to‘lov vositasi sifatida foydalanish;
- mamlakatning bojxona hududidan valyuta qiymatlarini olib kirish va olib chiqish hamda chet el valyutasini o‘tkazish.

Chet el valyutasi bilan operatsiyalar joriy valyuta operatsiyalari va kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalariga bo‘linadi. Joriy operatsiyalar 180 kun ishida yakunlanadi va cheklovlarsiz amalga oshiriladi. Bu davrdan ko‘prog‘i esa kapital harakati bilan bog‘liq operatsiyalar mavjud bo‘lib, ular yuqori risk bilan tavsiflanadi. Ularning cheklovlari quyidagilarga qaratilgan:

✓ oltin-valyuta zaxiralarining sezilarli qisqarishiga yo‘l qo‘ymaslik;

✓ milliy valyuta kursidagi keskin o‘zgarishlarni yumshatish;

✓ to‘lov balansining barqarorligini ta’minlash.

Joriy valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi.

Rezidentlar o‘rtasidagi valyuta operatsiyalari:

✓ *bojsiz savdo do‘konlarida hisob-kitoblar;*

✓ *xalqaro tashishlarda transport vositalarining yo‘nalishi bo‘yicha tovarlarni sotish va yo‘lovshilarga xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha hisob-kitoblar;*

✓ *komissionerlar (agentlar, ishonchli vakillar) va komitentlar (prinsipiallar) o‘rtasidagi bitimlarning komissionerlar (agentlar, ishonchli vakillar) tomonidan norezidentlar bilan shartnomalar tuzish va bajarish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishda;*

✓ *tovarlarni topshirish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish;*

✓ *axborot va intellektual faoliyat natijalarini uzatish;*

✓ *transport ekspeditsiyasi, tashish va sharter (sharter) shartnomalari bo‘yicha hisob-kitoblar;*

✓ *mamlakatdan eksport qilinadigan yoki olib kiriladigan tovarlarni tashish uchun hisob-kitoblar;*

✓ *mamlakat hududi orqali yuklarni tranzit tashish uchun*

hisob-kitoblar;

✓ *yuklarni sug‘urtalash shartnomalari bo‘yicha hisob-kitoblar;*

✓ *davlat nomidan chiqarilgan tashqi qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar (depozitariylarda bunday qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlar hisobga olinishi sharti bilan);*

✓ *valyutani sotib olish va sotish;*

✓ *yuridik shaxslarning tashqi qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari (depozitariylarda bunday qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlar hisobga olingan holda);*

✓ *milliy valyutada hisob-kitoblar;*

✓ *eksportdan valyuta tushumining bir qismini majburiy sotish;*

✓ *byudjetga majburiy to‘lovlar (soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar);*

✓ *tovarlar va xizmatlar uchun transferlar (eksport, import);*

✓ *vakolatli banklar o‘rtasida ular tomonidan o‘z nomidan va o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan operatsiyalar.*

Rezidentlar va vakolatli banklar o‘rtasidagi valyuta operatsiyalari quyidagilar bilan bog‘liq:

✓ *kreditlar va qarzlarni olish va qaytarish, foizlar va penyalarni to‘lash bilan;*

✓ *rezidentlarning mablag‘larini bank hisobvaraqlariga (bank depozitlariga) qo‘yish (talab qilib olish sharti bilan va ma’lum muddatga) va rezidentlarning bank hisobvaraqlaridan (bank depozitlari) mablag‘larini olish (talab qilib olish bo‘yicha va belgilangan muddatga);*

✓ *bank kafolatlari bilan hamda rezidentlar tomonidan kafillik va garov shartnomalari bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi bilan;*

✓ *rezidentlar tomonidan vakolatli banklardan veksellarni sotib olish, ularni to‘lash uchun taqdim etish, to‘lovni qabul qilish, penyalarni undirish, shuningdek, rezidentlar tomonidan veksellarni begonalashtirish bilan;*

✓ *jismoniy shaxslar tomonidan naqd va naqd bo‘lmagan xorijiy valyuta va cheklarni (shu jumladan, yo‘l cheklarini) sotib olish va sotish bilan;*

✓ *xorijiy davlatning banknotlarini almashtirish bilan;*

✓ *xorijiy banklarga naqd xorijiy valyutani va jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun emas,*

balki cheklarni (shu jumladan, yo‘l cheklarini) inkasso qilish uchun qabul qilish bilan;

✓ *vakolatli banklarga komissiya to‘lash bilan.*

Norezidentlar o‘rtasidagi valyuta operatsiyalari :

✓ *hisobvaraqlardan Chet el valyutasini o‘tkazish (depozitlardan);*

✓ *mamlakat hududida mahalliy qimmatli qog‘ozlar bilan ular amalga oshirilganda maxsus hisobdan foydalangan holda operatsiyalar;*

✓ *maxsus bank hisobvaraqlarini oshish (bank depozitlari).*

Kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalariga rezidentlar va norezidentlar o‘rtasidagi quyidagi operatsiyalar kiradi :

✓ *tovarlarni eksport qilishda norezidentlarga uch yildan ortiq muddatga kechiktirilgan to‘lovni ta’minlovshi rezidentlar shartlari bo‘yicha hisob-kitoblar va o‘tkazmalar;*

✓ *mamlakat hududidan tashqarida rezidentlar tomonidan amalga oshirilgan qurilish va pudrat ishlari uchun norezidentlarga besh yildan ortiq muddatga kechiktirilgan to‘lovni ta’minlaydigan rezidentlar shartlari bo‘yicha hisob-kitoblar va ushbu ishlarni bajarish uchun pul o‘tkazmalari;*

✓ *tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan norezidentlarga 180 kalendar kundan ortiq muddatga kechiktirilgan to‘lovni ta’minlovshi rezidentlar shartlari bo‘yicha hisob-kitoblar va o‘tkazmalar;*

✓ *rezidentlar norezidentlarga 180 kalendar kundan ortiq muddatga tijorat kreditlari berganda hisob-kitoblar va o‘tkazmalar;*

✓ *rezidentlar tomonidan norezidentlarga tovarlarni olib kirishda avans to‘lovi shaklida uch yildan ortiq muddatga tijorat kreditlari berilganda hisob-kitoblar va o‘tkazmalar;*

✓ *rezidentlar norezidentlardan ulushlar, depozitlar, mol-mulkdagi ulushlarni (yuridik shaxslarning ustav yoki ustav kapitali, pay fondi (kooperativ)) olganida hisob-kitoblar va o‘tkazmalar;*

✓ *norezidentlar bilan tuzilgan oddiy sheriklik shartnomalari bo‘yicha rezidentlar tomonidan badallar kiritish;*

✓ *rezidentlar tomonidan maxsus hisobvaraqlar oshish va ulardan foydalanish;*

✓ *yuqoridagi barcha operatsiyalar uchun bron qilish.*

Bajarilish muddatliligi bo‘yicha valyuta operatsiyalari kassali va muddatlilikka bo‘linadi. Bularga valyuta qiymatlarini sotib olish va sotish bo‘yicha operatsiyalar kiradi:

- valyuta ayirboshlash operatsiyalari;
- kassa operatsiyalari (ikki kunlik muddat bilan - spot operatsiyalari);
- forvard bitimlari (muddati bir oy, uch oy, olti oy, bir yil, bir yildan ortiq);
- muddatga tuzilgan fyuchers shartnomalari;
- REPO operatsiyalari, teskari REPO.

Subyektlar bo‘yicha rezidentlar va norezidentlar bilan operatsiyalar va Markaziy bank va vakolatli banklar tomonidan tartibga solinadigan operatsiyalarga bo‘linadi.

Vakolatli banklar umumiy Markaziy bank litsenziyasiga ega bo‘lib, quyidagi valyuta operatsiyalarini amalga oshirishi va nazorat qilishi mumkin:

- jismoniy va yuridik shaxslardan mablag‘larni depozitlarga jalb qilish (talab qilib olish bo‘yicha va ma’lum muddatga);
- jismoniy va yuridik shaxslarning o‘z nomidan va o‘z mablag‘lari hisobiga jalb qilingan mablag‘larini (talab qilib olish bo‘yicha va ma’lum muddatga) joylashtirish;
- jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini oshish va yuritish;
- jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, vakolatli vakillik banklari va xorijiy banklar nomidan ularning bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- jismoniy va yuridik shaxslarga pul mablag‘lari, veksellar, to‘lov, hisob-kitob hujjatlari va kassa xizmatlarini inkasso qilish;
- naqd va naqdsiz shaklda xorijiy valyutani sotib olish va sotish;
- bank kafolatlarini berish;
- jismoniy shaxslar nomidan bank hisobvaraqlarini oshmasdan pul o‘tkazmalarini amalga oshirish (pochta jo‘natmalaridan tashqari).

Tijorat banklari o‘z operatsiyalarini o‘z mablag‘lari hisobidan, mijoz operatsiyalarini - mijozlar topshirig‘i bilan amalga

oshiradilar.

Maqsadliligiga ko‘ra, valyuta operatsiyalarining barcha turlari tovar va tovar bo‘lmagan (notijorat) operatsiyalarga bo‘linadi.

Savdo operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

- ✓ tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlar;
- ✓ yuridik shaxslar va banklar tomonidan valyuta qiymatlarini sotib olish va sotish (shartlar va kassa operatsiyalari);
- ✓ eksport-import operatsiyalari uchun bank va tijorat kreditlari.

Notovar *(*savdodan tashqari) operatsiyalarga jismoniy shaxslarning tadbirkorlik xususiyatiga ega bo‘lmagan naqd valyutani, yo‘l cheklari va akkreditivlarini, plastik kartochkalarini oldi-sotdisi bo‘yicha barcha operatsiyalari va hisob-kitoblari kiradi.

Valyuta operatsiyalari aktiv va passiv bo‘lishi mumkin. Aktiv valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

- ✓ tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini kreditlash;
- ✓ banklarga kreditlar berish;
- ✓ konvertatsiya operatsiyalari (svop, spot, forvard);
- ✓ valyuta arbitraji;
- ✓ naqd pul operatsiyalari.

Passiv valyuta operatsiyalaridan quyidagilarni aniqlash mumkin:

- ✓ Chet el valyutasida joriy hisobvaraqlarni oshish va yuritish;
- ✓ xorijiy valyutadagi depozitlarni jalb qilish;
- ✓ olingan xorijiy valyutadagi kreditlar;
- ✓ xorijiy valyutadagi qimmatli qog‘ozlarni chiqarish.

Hajmi qarab valyuta operatsiyalari katta va kichik operatsiyalarga bo‘linadi. Yirik valyuta operatsiyalari qonun bilan tartibga solinadi, masalan, bu o‘rinda limitlar belgilanadi: ochiq valyuta operatsiyalari bo‘yicha (kapitalga nisbatan bankning valyuta pozitsiyasi bo‘yicha 10%), naqd pulni chet elga olib chiqish, o‘tkazish va boshqalar.

Shakli bo‘yicha naqd valyuta ayirboshlash operatsiyalari (valyuta ayirboshlash operatsiyalari va spot naqd valyuta operatsiyalari) va naqd bo‘lmagan valyuta operatsiyalari (barcha boshqa operatsiyalar)ga bo‘linadi.

Ochiq valyuta pozitsiyasiga ta’siri bo‘yicha ta’sir etuvchi va ta’sir qilmaydigan valyuta operatsiyalariga farqlanadi.

Valyuta pozitsiyasining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi operatsiyalar quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- foizlarni hisoblash va xorijiy valyutadagi operatsion daromadlarni olish;
- foizlarni hisoblash va operatsion xarajatlarni, shuningdek, xorijiy valyutadagi o‘z mablag‘larini sotib olish xarajatlarini to‘lash;
- pul mablag‘larini zudlik bilan yetkazib berish (bitim tuzilgan kundan boshlab ikkinchi ish bank kunidan kechiktirmay) va ularni bir muddatga (bitim tuzilgan kundan boshlab ikki ish bank kunidan ortiq) yetkazib berish bilan konversion operatsiyalari, shu jumladan, naqd chet el valyutasi bilan operatsiyalar;
- muddatli operatsiyalar (forvard va fyuchers operatsiyalari, svop operatsiyalari va boshqalar), ular bo‘yicha chet el valyutasida talab va majburiyatlar mavjudligidan qat’i nazar bunday operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitob shakllari;
- chet el valyutasidagi boshqa operatsiyalar va boshqa valyuta qiymatlari bilan operatsiyalar, qimmatbaho metallar bilan operatsiyalar bundan mustasno;
- valyuta bozorining hosila moliyaviy vositalari (jumladan, valyuta bozori) bilan operatsiyalar, agar ushbu operatsiyalarning shartlari u yoki bu shaklda xorijiy valyutalarni yoki boshqa valyuta qiymatlarini ayirboshlash (konvertatsiya qilish) nazarda tutilgan bo‘lsa.

Yuqori riskli valyuta operatsiyalariga kapital harakati, savdo, kredit va debitorlik qarzlarini to‘lash bilan bog‘liq operatsiyalar kiradi. O‘rtacha riskli valyuta operatsiyalariga kafillik operatsiyalari, bron bilan kredit operatsiyalari (50%) kiradi. Depozitlar va depozitlarni jalb qilish bo‘yicha notijorat operatsiyalari, chet el valyutasida hisob-kitoblarni yuritish va hisob-kitob operatsiyalari past riskni o‘z zimmasiga oladi.

To‘lov shakllariga ko‘ra eksport-import operatsiyalarida qo‘llaniladigan hujjatlashtirilgan valyuta operatsiyalari (akkreditivlar, inkasso, o‘tkazmalar) maxsus guruhga bo‘linadi.

Hujjatli akkreditiv – buyurtmachi mijozning (importerning)

talabiga binoan akkreditiv oshgan bankning (emitent bankning) eksportyor (benefitsiar) foydasiga akkreditivda koʻrsatilgan hujjatlar boʻyicha toʻlovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi. Operatsiyaning mohiyati: *eksportchi* eksport tushumini oʻz vaqtida olish kafolatiga ega, importyor yetkazib berish vaqtida toʻlaydi.

Hujjatli inkasso shaklidagi hisob-kitoblarda emitent bank ishonchli boshqaruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni toʻlovchiga (importerga) pul mablagʻlarini qabul qilish va olish uchun taqdim etish majburiyatini oladi. Operatsiyaning mohiyati: hujjatlarni tekshirish (inkasso topshirigʻi va tovar hisobi), akseptni qabul qilish toʻgʻrisidagi (oldindan yoki keyingi), xarajatlarni toʻlash.

Bank oʻtkazmasi - bu bir bankdan boshqa bankka pul oʻtkazuvchiga maʼlum summani toʻlash boʻyicha topshiriq. Bank oʻtkazmalarining iqtisodiy asoslanishi tovarlar (xizmatlar, ishlar, intellektual mulk) qanday toʻlanishiga bogʻliq; ular yetkazib berilgunga qadar (avans toʻlovlari) yoki eksportyor tomonidan olinganidan keyin (ochiq hisobvaraq koʻrinishidagi hisob-kitoblar).

4.3. Valyuta kursining mohiyati va uning turlari

Iqtisodiy globallashuv jarayonida tashqi iqtisodiy munosabatlar rivojlanib borishi bilan turli mamlakatlarning valyutalari qiymatining oʻzaro nisbatini oʻlshashni taqoza etmoqdaki, shu sababli valyuta kursi valyuta tizimining muhim elementi boʻlib hisoblanadi.

Valyuta kursining zaruriyati quyidagilarda ifodalanadi:

- tovarlar va xizmatlar bilan savdo qilishda, kapital va kreditlar harakatida valyutalarni oʻzaro almashtirish uchun va bunda eksporter kelib tushgan chet el valyutasini milliy valyutaga almashtiradi. Chunki boshqa mamlakatlarning valyutalari mazkur davlat hududida qonuniy xarid qilish va toʻlov vositasi sifatida muomalada aylana olmaydi. Importyor chet eldan sotib olgan tovarlarini toʻlash uchun milliy valyutani chet el valyutasiga almashadi. Qarzdor esa qarzini toʻlash uchun va tashqi qarzlar boʻyicha foizlarni toʻlash uchun chet el valyutasini sotib oladi;

- jahon va milliy bozor baholarini taqqoslash, shuningdek,

milliy va chet el valyutalarida ifodalangan turli mamlakatlarning baho koʻrsatkichlarini taqqoslash uchun;

- firma va banklarning chet el valyutasidagi hisobvaraqlarini vaqti-vaqti bilan qayta baholash uchun valyuta kursi zarur.

Valyuta kursi – bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida yoki xalqaro valyuta birliklarda ifodalangan bahosidir. Tashqi valyuta kursi almashuv qatnashchilari uchun valyuta bozoridagi talab va taklif nisbati orqali aniqlanadigan bir valyutani boshqasiga qayta hisoblash koeffitsientidir. Biroq valyuta kursining qiymat asosi boʻlib valyutaning xarid qobiliyati hisoblanadi. Valyutaning xarid qobiliyati investitsiya, tovar va xizmatlarning oʻrtacha milliy narxlari darajasini ifodalaydi. Bu iqtisodiy (qiymat) kategoriyasi tovar ishlab chiqarishga tegishli boʻlib, u tovar ishlab chiqaruvchilar va jahon bozori oʻrtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi.

Qiymat tovar ishlab chiqarish iqtisodiy shartlarining keng koʻlamli ifodasi boʻlgani uchun, turli mamlakatlarning milliy pul birliklarining taqqoslanishi qiymat munosabatiga asoslanadi va u ishlab chiqarish va almashuv jarayonlarida yuzaga keladi. Tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar hamda sotib oluvchilar valyuta kursi yordamida milliy narxlarni boshqa mamlakat narxlari bilan solishtiradilar.

Taqqoslash natijasida mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarish yoki xorijda investitsiyani rivojlantirishning foydaliligi darajasi koʻrinadi. Qiymat qonuniga qanchalik amal qilinmasin, oxir-oqibat valyuta kursi uning ta’siriga boʻysunadi. Valyuta kursi valyutaning real kurs nisbatlari koʻrinadigan milliy va jahon iqtisodiyotlarining oʻzaro aloqasini ifodalaydi.

Tovarlar jahon bozorida sotilayotganida milliy mahsulot qiymatini internatsional oʻlchovlari asosida jahon talabiga ega boʻladi. Shuningdek, ushbu tovarlarning jahon xoʻjaligi doirasida almashinishida valyuta kursi vositachi boʻladi.Valyuta kursining qiymat asosi shu bilan shartlanadiki, oxirgi navbatda jahon narxlariga asoslangan ishlab chiqarishning internatsional bahosi jahon bozoriga asosiy tovar yetkazib beruvchi mamlakat ishlab chiqarishning milliy baholariga tayanadi.

Valyuta kurslari tasnifi

Kurs o‘rnatish mezonlari	Valyuta kursining turlari
Belgilash turi bo‘yicha	Suzuvchi, qat’iy belgilangan, aralash
Hisoblash usuli bo‘yicha	Paritet, haqiqiy kurs
Nisbat bo‘yicha	Kross kursi, to‘g‘ri, egri (teskari), fiksing
Bitim turi	Spot - kurs, muddatli bitim (forvard) kursi
O‘rnatish joyi	Rasmiy (MB), tijorat (banklar), qora bozor
Valyutaning xarid qobiliyati	Paritetiga nisbatan paritetli, oshirilgan, kamaytirilgan kurs
Bitim qatnashchilari bo‘yicha	Sotib olish kursi (sotib oluvchi uchun), sotish kursi (sotuvchi uchun)
Inflyatsiyani hisobga olish bo‘yicha	Real kurs,nominal kurs, o‘rtacha

Xalqaro kapital harakatining tez o‘sishi bilan tovarlarga, shuningdek, moliyaviy aktivlarga nisbatan valyutaning xarid qobiliyati valyuta kursiga ta’sir ko‘rsatadi.

Turli mamlakatlarning valyutalari va xalqaro pul birliklari tuzilgan xalqaro bitimlariga xizmat ko‘rsatish jarayonida valyuta kursi aniqlanadi.

Kapitalning xalqaro harakatining tez o‘sishi bilan bog‘liq ravishda valyuta kursini o‘zgarishiga valyutaning tovarlarni xarid qilish qobiliyati bilan birga moliyaviy aktivlarni xarid qilish qobiliyati ham ta’sir ko‘rsatadi.

Qonuniy normalarga va amaliyotga mos holda birjada Chet el valyutasining kursining qimmatli qog‘ozlar kursini yoxud tovarlar bahosini o‘rnatilishi katirovkalash deb ataladi yoki qisqacha qilib aytganda valyuta kursini o‘rnatish katirovkalash deb ataladi. Jahon amaliyotida katirovkalashning 2 xil usuli mavjud:

1) To‘g‘ri katirovkalash. Agar xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko‘rsatilsa, ya’ni milliy valyutada xorijiy

valyutaning bir birligiga to‘g‘ri keladigan miqdor ko‘rsatilsa, bu to‘g‘ri katirovkalash deb ataladi.

2) Egri (teskari) katirovkalash. Bunda bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutalardagi miqdori o‘rnatiladi, ya’ni bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutadagi bahosi ko‘rsatiladi, masalan; «Spot-kurs» bu naqd (kassa) bitimlarining kursidir.

SPOT-kurs - bu bir mamlakat pul birligining shartnoma tuzilgan vaqtda o‘rnatilgan baho bo‘yicha boshqa mamlakatlar pul birliklarida ifodalangan bahosidir.

Bunda valyutani valyuta bitimi tuzilgan kundan boshlab 2 ish kunida almashtirib berish shart hisoblanadi.

«Forvard» kurs - bu muddatli valyuta bitimlarining kursidir.

Forvard kursi valyutani kelajakda aniq bir kunga yetkazib berish sharti bilan sotilish va xarid qilish bahosini o‘zida ifoda etadi. Forvard bitimlari odatda valyuta kurslarining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan risklarni bartaraf qilish maqsadida ishlatiladi. Bitim tuzilayotgan paytda forvard kursda aniqlanadi va ana shu kurs bo‘yicha valyuta sotiladi yoki sotib olinadi.

Sotuvchi kursi - bankning valyutani sotish kursi. Xaridor kursi - bankning valyutani sotib olish kursi. Bu kurslar o‘rtasidagi farq marja deb ataladi va u xizmat xarajatlarini qoplashga va ma’lum darajada foyda olishga sarflanadi.

Valyutaning eng muhim xarakteristikasi bu - uning konvertirlanganligidir. Konvertirlanganlik darajasiga ko‘ra valyuta kursi 3 ga bo‘linadi:

1. Erkin «suzib» yuruvchi;
2. Cheklangan darajada «suzib» yuruvchi;
3. Qayd etilgan valyuta kurslari.

Erkin «suzib» yuruvchi valyuta kursi ma’lum valyutaga bo‘lgan bozor talabi va taklifi ta’sirida o‘zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSH dollari, Yaponiya iyenasi, Angliya funt sterlingi, yyevro kabi valyutalar jahon valyuta ayirboshlashida keng ishtirok etadi.

Cheklangan darajada «suzib» yuruvchi valyuta kurslarining o‘zgarishi ayrim valyutalar yoki bir guruh valyutalar (valyuta savati) kursi o‘zgarishiga bog‘liq. Misol uchun, «Uchinchi dunyo»ning ko‘pchilik mamlakatlari o‘z valyutalarini AQSH

dollariga, Yyevropa mamlakatlarining yyevrosiga va boshqa boshqa xorijiy valyutalarga bog‘laydilar.

Cheklangan darajada “suzib” yuruvchi valyuta kurslari kiritilgan mamlakatlar o‘z valyutalarining tebranish chegarasini o‘zlari hamkorlik qilayotgan mamlakatlar bilan kelishib oladilar.

Qayd etilgan valyuta kursi – bu xorijiy valyutada ifodalangan milliy pul birligining davlat tomonidan rasmiy o‘rnatilgan bahosi bo‘lib, unga valyuta bozorlaridagi talab va taklifning o‘zgarishi ta’sir qilmaydi. Hozirgi vaqtda qayd etilgan valyuta kursi kam rivojlangan mamlakatlarda yoki iqtisodiy jihatdan tashqi bozorga yetarli darajada kirib bormagan mamlakatlarda, ularning moliya tizimini va milliy ishlab chiqarishini kuchli xorijiy raqobatchilaridan himoya qilish va ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qo‘llaniladi.

Barcha mamlakatlar ma’lum muddatda o‘z valyuta kurslari to‘g‘risidagi axborotni e’lon qilib boradilar. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasi ish yakunlari matbuotda, televideniyeda e’lon qilib boriladi. Bunda nominal valyuta kursi belgilanadi. Lekin kuchayib borayotgan inflyatsiya sharoitida jahon bozorida milliy mahsulotga bo‘lgan talabni, uning raqobatdoshligini aniqlashda milliy va xorijiy tovarlar baholari o‘rtasidagi nisbatini ham bilish kerak bo‘ladi. Ya’ni milliy valyutaning real almashtirish kursini hisoblab chiqish kerak.

Real kurs = nominal kurs, bu - o‘z mamlakatida ishlab chiqarilgan tovarlar bahosi, xorijiy tovarlar bahosi. Bu tenglikni umumiy ko‘rinishda shunday yozish mumkin. Real valyuta kursining nominal valyuta kursi baholar darajasi nisbatlari past valyuta kursida milliy tovarlar nisbatan arzonroq, xorijiy tovarlar esa nisbatan qimmatroq turishini ko‘rsatadi. Shuning uchun eksport o‘sib boradi, import esa qisqarib boradi va aksincha, yuqori real valyuta kursida milliy tovarlar nisbatan qimmatroq, xorijiy tovarlar esa nisbatan arzonroq turadi. Natijada import o‘sib, eksport qisqarib boradi.

4.4. Valyuta kursiga ta’sir etuvchi omillar

Har qanday baho kabi valyuta kursi valyutaga talab va taklif ta’sirida asosiy qiymatidan (ya’ni valyutaning xarid qilish qobiliyatidan) nari-beri siljiydi. Bunday talab va taklifning o‘zaro mosligi bir qator omillarga bog‘liq. Valyuta kursining ko‘p omilliligi uning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan bog‘liqligini, jumladan, qiymat, narx, pul, foiz, to‘lov balansi va boshqalar bilan bog‘liqligini aks ettiradi. Shuningdek, ularning murakkab birikuvi va ba’zi omillarning eng muhim omil sifatida yuzaga chiqishiga olib keladi. Bu omillar ichida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

Inflyatsiya sur’atlari. Valyutalarning xarid qobiliyatlari bo‘yicha ularning o‘zaro nisbati o‘zida qiymat qonunini aks ettirib, valyuta kursini aniqlash vositasidir. Shu sababli, valyuta kursiga inflyatsiya sur’atlari ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakatda inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, milliy valyuta kursi shunchalik past bo‘ladi (agar boshqa omillar qarshi ta’sir ko‘rsatmasa).

Inflyatsiya oqibatida pul qadrsizlanishi mamlakatda pulning xarid qobiliyatining pasayishiga va inflyatsiya sur’atlari nisbatan iqtisodiy rivojlanishi past mamlakatlarning valyutalari kursidan tuchib ketishiga sabab bo‘ladi.

Bunday moyillik, odatda, o‘rta va uzoq muddatli rejada kuzatiladi. Valyuta kursining tenglashtirilishi, uni sotib olish qobiliyatining paritetiga moslashtirish o‘rtacha ikki yil davomida amalga oshiriladi. Bu shu bilan izohlanadiki, valyuta kursining kundalik kotirovkasi faqatgina uni sotib olish qobiliyatiga asosan amalga oshirilmay, unga shuningdek, boshqa omillar ham ta’sir etadi. O‘tgan asrning 80-yillarida ko‘pinsha valyuta kursining paritetidan 30%dan ortiq miqdorda siljishi yuz berib turar edi.

Lekin spekulyativ va konyukturaviy omillar ta’siridan ozod bo‘lgan valyuta kurslarining o‘zaro nisbati qiymati qonuniga muvofiq tarzda pul birliklarining xarid qobiliyati o‘zgarishi bilan o‘zgaradi. Valyuta kursining inflyatsiya sur’atlariga bog‘liqligi, ayniqsa, tovar-xizmatlar va kapitallarni xalqaro ayirboshlash hajmi katta bo‘lgan mamlakatlarda kuchliroqdir.

Sababi shundaki, valyuta dinamikasi va inflyatsiya sur’ati o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlik, valyuta kursining eksport baholarda

hisob-kitob qilishda yuzaga keladi. Jahon bozori narxlari internatsional qiymatning puldagi ifodasini aks ettiradi.

Import narxlariga kelsak, tegishli valyuta paritetida hisob-kitob qilish unchalik qulay kelmaydi, chunki uning o‘zi valyuta kursi dinamikasiga bog‘liq. Sanoati rivojlangan mamlakatlar bunday hisob-kitob uchun ulgurji baholar indeksidan foydalangani ma’qulroq.

Chunki bu mamlakatlarda ulgurji ichki savdo va eksport ma’lum darajada mos keladi. Boshqa mamlakatlarda ushbu indeksga ko‘pgina eksport qilinadigan tovarlar kirmaydi. Chakana narxlar asosidagi bunday hisob-kitob noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin, chunki u jahon savdo obyekti bo‘lmagan bir qator xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Oxirgi paytlarda jahon bozorida real xarid qobiliyatiga mos ravishda stixiyali tarzda milliy valyuta kurslarining tenglashishi yuz bermoqda. Real valyuta kursi ikki mamlakat narxlari darajasi nisbatiga ko‘paytirilgan nominal kurs sifatida aniqlanadi.

To‘lov balansi holati. Aktiv to‘lov balansi milliy valyuta kursining ko‘tarilishiga olib keladi, chunki unga chet el qarzdorlari tomonidan talab ortadi. Passiv to‘lov balansi milliy valyuta kursining pasayishiga moyillik yaratadi, unda qazdorlar milliy valyutani chet el valyutasiga o‘z tashqi majburiyatlarini qoplash maqsadida sotadilar. To‘lov balansining nobarqarorligi tegishli valyutaga talab va taklifning sakrash tarzida o‘zgarishiga olib keladi. Zamonaviy sharoitlarda xalqaro kapital harakatining to‘lov balansiga va natijada valyuta kursiga ta’siri ko‘paydi.

Turli mamlakatlarda foiz stavkalarining har xilligi. Bu omilning valyuta kursiga ta’siri 2 ta asosiy holat bilan tushuntiriladi.

Birinchidan, mamlakatda foiz stavkalarni o‘zgarishi xalqaro kital harakatining boshqa shartlarida ham ta’sir qiladi. Boshqacha qilib aytganda, foiz stavkasining ko‘paytirilishi chet el kapitalining oqib kelishini, uning pasayishi esa kapitalning (milliy kapitalni ham) chet elga oqib chiqib ketishini rag‘batlantiradi. Kapitallar harakati, ayniqsa, spekulyativ «qaynoq» pullar harakati to‘lov balanslarining nobarqarorligini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, operatsiyalarni amalga oshirganda banklar

milliy va jahon bozorlaridagi foiz stavkalaridagi farqni e’tiborga oladilar. Ular foyda olish maqsadida chet el bozorida arzonroq kredit olib (pastroq stavkada) hamda milliy kredit bozoriga, agar foiz stavkalari yuqori bo‘lsa, chet el valyutasini joylashtirishni afzal ko‘radilar.

Valyuta bozori faoliyati va spekulyativ valyuta operatsiyalari. Agar qandaydir bir valyuta kursi pasayishga moyil bo‘lsa, firma va banklar vaqtdan unumli foydalanib, uni yaxshiroq valyutaga sotadilar. Bunda kuchsizlashgan valyuta pozitsiyasi yanada yomonlashadi. Valyuta bozorlari iqtisod va siyosatdagi o‘zgarishlardan, kurs nisbatlari siljishidan tez ta’sirlanadi. Shu bilan birga, ular valyuta spekulyasiyasi imkoniyatlarini va stixiyali tarzdagi «qaynoq» pullar harakatini kengaytiradi.

Ma’lum bir valyutani yyevrobozorda va xalqaro hisob-kitoblarda ishlatish darajasi. Masalan, bank operatsiyalarining 60-70%ni dollarda, yevroda amalga oshirilishi shu valyutalarga bo‘lgan talab va taklif masshtablarini belgilaydi. Valyuta kursiga valyutaning xalqaro hisob-kitoblarda ishlatilish darajasi ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘tgan asrning 90-yillari boshida xalqaro to‘lovlarning 55%ini neft, uchun hisob-kitoblarning 86-90%ini, tashqi qarzdorlikning 70%i dollarda amalga oshirilgan. Shu sababli, davriy neftga narxning o‘sishi, hattoki dollarning xarid qilish qobiliyati tushgan sharoitlarda ham davlat qarzlari bo‘yicha to‘lovlarning o‘sishi dollar kursining ko‘tarilishiga imkon beradi.

Valyuta kursi nisbatiga xalqaro to‘lovlarning tezlashishi yoki sekinlashishi ham ta’sir qiladi. Milliy valyuta kursining pasayishiga umid bog‘lab, importyorlar kurs ko‘tarilishi oqibatida zarar ko‘rmaslik maqsadida, kontragentlariga chet el valyutasida to‘lovlarni tezroq amalga oshirishga harakat qiladilar. Milliy valyutani mustahkamlashda esa ular chet el valyutasidagi to‘lovlarni sekinlashtirishga harakat qiladilar. «Lidz end legz» nomli bunday usul to‘lov balansi va valyuta kursiga ta’sir ko‘rsatadi.

Milliy va jahon bozorlarida valyutaga ishonch darajasi. U mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy holat bilan, shuningdek, valyuta kursiga ta’sir qiluvchi yuqorida ko‘rsatilgan omillar bilan aniqlanadi. Shuningdek, dilerlar nafaqat hozirgi vaqtdagi iqtisodiy

oʻsish surʼatlari, inflyatsiya, valyutaning xarid qobiliyati darajasi, valyutaga boʻlgan talab va taklif nisbatini, balki ularning dinamikasi istiqbollarini ham hisobga oladilar. Baʼzida hattoki savdo va toʻlov balansi haqidagi maʼlumotlar yoki saylov natijalari qanday boʻlishi talab va taklif nisbatiga, valyuta kursiga bogʻliq.

Valyuta siyosati. Valyuta kursining davlat boshqaruvi va bozor boshqaruv oʻrtasidagi nisbat valyuta kursi dinamikasiga taʼsir qiladi. Valyuta bozorlarida valyutaga talab va taklif mexanizmi orqali valyuta kursining shakllanishi oqibatida kurs nisbatlarining kuchli oʻzgarishi roʻy beradi.

Bozorda real valyuta kursi yuzaga keladi (iqtisodiy holatni, pul aylanishi, moliya, kredit va muayyan valyutaning ishonchliligining ifodalovshi koʻrsatkich). Valyuta kursini davlat boshqaruvi valyuta-iqtisodiy siyosatidan kelib chiqqan holda, uning koʻtarilishi yoki tushishiga yoʻnaltirilgan.

Shu maqsadda maʼlum bir valyuta siyosati oʻtkaziladi. Shunday qilib, valyuta kursining shakllanishi – murakkab, koʻp omilli jarayon boʻlib, milliy va jahon iqtisodiyoti va siyosatining oʻzaro aloqasiga asoslanadi. Shu sababli, valyuta kursini prognoz qilishda yuqorida aytib oʻtilgan kursni shakllantiruvchi omillar hamda maʼlum shart-sharoitga bogʻliq ravishda ularning valyutalar nisbatiga koʻp tomonlama taʼsiri hisobga olinadi. Valyuta kursi takror ishlab chiqarishda ham faol rol oʻynaydi. Tadbirkor valyuta kursi yordamida oʻz ishlab chiqarish xarajatlarini jahon bozori narxlari bilan solishtiradi. Bu alohida korxona va mamlakatlarning tashqi iqtisodiy operatsiyalari natijalarini koʻrishga imkon beradi.

Valyuta kursi eksport va import baholari nisbatiga, firmalar raqobatbardoshligiga korxonalar foydasiga taʼsir qiladi. Valyuta kursi yoki milliy valyuta bahosi har qanday boshqa Tovar bahosi kabi erkin boshqariladigan, oʻrnatiladigan boʻlishi mumkin. Shuning uchun uni erkin suzib yuruvchi, cheklangan darajada suzib yuruvchi va qayd etilgan valyuta kurslariga ajratiladi.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi maʼlum boʻlgan bozor talabi va taklifi taʼsirida oʻzgarib turishi mumkin. Masalan, AQSH dollari, yevro, Yaponiya iyenasi, Angliya funt sterlingi kurslari. Shu bois, bu valyutalar jahon valyuta ayriboshlashida keng ishtirok etadi.

Cheklangan darajada suzib yuruvchi valyuta kurslarining o‘zgarishi ayrim valyutalar yoki valyuta savati kursi o‘zgarishiga bog‘liq. Misol uchun, «uchinchi dunyo»ning ko‘pchilik mamlakatlari o‘z valyutalarini AQSH dollariga, yevroga va boshqa xorijiy valyutalarga bog‘laydilar. Cheklangan darajada suzib yuruvchi valyuta kurslari kiritilgan mamlakatlar o‘z valyutalarining tebranish chegarasini hamkorlik qilayotgan sheriklari bilan kelishib oladilar.

Qayd etilgan valyuta kursi - bu xorijiy valyutada ifodalangan milliy pul birligining davlat tomonidan rasmiy o‘rnatilgan bahosi bo‘lib, unga valyuta bozori talab va taklifning o‘zgarishi ta’siri qilmaydi. Hozirgi vaqtda qayd etilgan valyuta kursi ham rivojlangan malamlakatlarda yoki iqtisodiyoti tashqi bozorga yetarli darajada kirib bormagan mamalakatlarda ularning moliya tizimini va milliy ishlab chiqarishni kuchli xorijiy raqobatshilardan himoya qilish va quvvatlash maqsadida qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan valyuta siyosati, bevosita hukumat tomonidan ishlab chiqilgan islohotlar strategiyasiga muvofiq holda olib borilmoqda. Davlat tomonidan valyutaviy huquqlarni himoyalashga doir mustahkam qonunchilik va institutsional asosni yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rgan holda davlat bosh islohotchi sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Bu shuningdek, valyuta bozori infratuzilmasini yaratishga doir aniq maqsadga yo‘naltirilgan siyosatning amalga oshirilishida ham namoyon bo‘lmoqda. Shu tarzda davlat islohotlarining murakkab bosqichlarida islohotlarni ancha oshirishga qodir bo‘lgan yetakchi kuch ekanligini ko‘rsatmoqda. Davlat shuningdek, bir qator maxsus davlat organlarini tashkil etish yo‘li bilan islohotlarni tartibga solishni amalga oshirmoqda. Albatta, Markaziy bank davlat banki sifatida bu borada muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining ”Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonuni 23-moddasiga ko‘ra, quyidagilar valyuta nazorati organlari hisoblanadi: jumladan, Markaziy bank, Moliya vazirligi, Davlat Soliq Qo‘mitasi, Davlat Bojxona Qo‘mitalaridir. Ularni har biri o‘z vazifa va funksiyalarga egadir. Vakolatli banklar esa valyuta nazorati agentlari hisoblanadi.

4.6. O‘zbekiston Respublikasi ichki valyuta bozorida xorijiy valyutani sotish va sotib olish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi ichki valyuta bozorida Chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshirish valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha litsenziyaga ega bo‘lgan banklar tomonidan o‘tkaziladi.

Valyuta litsenziyasiga ega bo‘lgan banklar Chet el valyutasini sotish va sotib olish huquqiga egadirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 30-apreldagi “Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 8/1-son qarori bilan “Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish” qoidasida ochiq valyuta pozitsiyasi uchun quyidagi limitlar o‘rnatilgan:

- ixtiyoriy valyutada ochiq valyuta pozitsiyasi limiti har bir operatsion kun oxirida valyutali banklarda o‘z mablag‘ining 50% idan oshmasligi va bankning umumiy ochiq valyuta pozitsiyasining limiti har operatsion kunning oxirida uning o‘z mablag‘larining 20% idan oshmasligi lozim;

- summar ochiq valyuta pozitsiyasi uzun valyuta pozitsiyasi ko‘rinishida o‘rnatiladi. Valyutani sotish va sotib olishda bank faqatgina ochiq valyuta pozitsiyasidan foydalanmaydi, kunora banklarda umumiy valyuta pozitsiyasi «Nostro» hisob varag‘i bo‘yicha olib boriladi. Agar to‘lovlar kirim bilan qo‘shilib ketsa, bir hisobdan boshqa hisob varag‘i mablag‘larni o‘tkazishda xatolikka yo‘l qo‘yilsa, bunda bank kunora ochiq maxsus hisob varag‘i bo‘yicha tekshirish o‘tkazadi.

Chet el valyutasini sotish va sotib olishda bank valyuta pozitsiyasi limitiga rioya qilishi kerak. Bank valyuta operatsiyalarini bajarganda valyuta zaxiralarining bir qismini sarflaydi. Bunda bankning xorijiy valyutalar bo‘yicha majburiyati va talablari orasidagi nisbat o‘zgaradi. Bankning xorijiy valyutalarni sotish va sotib olish jarayonidagi valyutalar bo‘yicha talab va majburiyatlari nisbati holati banklarning valyutaviy holati yoki valyuta pozitsiyasi deyiladi. Valyutaviy holat ochiq va yopiq bo‘lishi mumkin.

Xohlagan bir valyuta bo‘yicha ochiq valyuta pozitsiyasi

deganda bankning shu xorijiy valyuta bo‘yicha aktivlarining majburiyatlaridan oshgan summasi tushuniladi. Ochiq valyuta pozitsiyasi 2 ga bo‘linadi. Bular: uzun valyuta pozitsiyasi va qisqa valyuta pozitsiyasi. Agarda bankning sotib olgan valyutasi bo‘yicha aktivlari va talablari uning shu valyuta bo‘yicha passiv va majburiyatlaridan yuqori bo‘lsa, bankda mazkur valyuta bo‘yicha holat uzun valyuta pozitsiyasi deyiladi. Aksincha, aniq bir valyuta bo‘yicha passivlar va majburiyatlar aktivlar va talablardan yuqori bo‘lsa, ya’ni xorijiy valyutani sotish uni sotib olishdan yuqori bo‘lsa, valyuta pozitsiyasi qisqa bo‘ladi.

Agar valyuta bo‘yicha talablar va majburiyatlar teng bo‘lsa, valyuta pozitsiyasi yopiq bo‘ladi. Tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyasi doimo risk bilan bog‘liq. Valyuta kursining o‘zgarishi natijasida bank valyutani sotib olishda yoki sotishda yo‘qotishlarga uchrashi mumkin. Bu esa bankning ma’lum miqdorda mablag‘ining yo‘qotilganligidan dalolat beradi.

Valyuta pozitsiyasining umumiy summar holati (summasi) deganda barcha valyutalar bo‘yicha uzun (qisqa) pozitsiyalar umumiy summasi tushuniladi.

Agar bank operatsion kun davomida valyuta operatsiyalarini olib borishda ochiq valyuta pozitsiyasi bo‘yicha qo‘yilgan limitdan ortiq operatsiya amalga oshirgan, ya’ni valyutani ko‘p sotib olgan bo‘lsa, u holda valyuta pozitsiyasi ortiq sotib olingan valyutani sotib yuborish yo‘li bilan balanslashtirib yopiladi.

Vakolatli banklar ochiq valyuta pozitsiyasi limitiga hisoblangan foizlar, ko‘chmas mulk, qimmatli qog‘ozlar va boshqa moddiy qiymatliklarni sotish yoki sotib olish bilan bog‘liq valyuta operatsiyalarini ham amalga oshiradi. Vakolatli banklar o‘zlarining joylardagi filiallari uchun ochiq valyuta pozitsiyasining chegarasini mustaqil belgilashlari mumkin. Lekin filiallar bo‘yicha belgilangan ochiq valyuta pozitsiyasining yig‘indisi bank bo‘yicha uning o‘z mablag‘larining 20%idan oshmasligi lozim.

Vakolatli banklar har oyda oyning 3-kunigacha Markaziy bankka o‘zlarining ochiq pozitsiyalari va unga rioya qilinganligi to‘g‘risida hisobot berishlari lozim.

IV bobga oid nazorat savollari:

- Valyuta bo‘yicha sotuvchi va sotib oluvchi kurslar haqida nimalar deya olasiz?
- Valyuta operatsiyalari jarayonida qanday turdagi shartnomalar tuziladi?
- Valyuta arbitraji nima maqsadda o‘tkaziladi?
- Banklarning valyutaviy holati deganda nimani tushunasiz?
- Valyuta operatsiyalarini bajarish zarurati nimada?
- Tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob operatsiyalarida qanday turdagi hisob shakllari qo‘llaniladi?
- Valyuta kursi nima va uning turlarini tushuntiring.
- Xalqaro hisob-kitob shakllarini sanang va ularning mohiyatinitushuntiring.
- Valyuta sotish va sotib olish qoidalarini izohlang.
- Valyuta kursiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
- Naqd xorijiy valyutani sotish, sotib olish qanday amalga oshiriladi?

V BOB. TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BILAN OPERATSIYALARI

5.1. Qimmatli qog‘ozlar tushunchasi va uning turlari. Qimmatli qog‘ozlar bozori va uning ishtirokchilari.
5.2. Qimmatli qog‘ozlar bozorida bank faoliyati turlari
5.3. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari
5.4. Tijorat banklarining moliya bozori uchun o‘z qimmatli qog‘ozlarini chiqarishlari.
5.5. Qimmatli qog‘ozlar bozorida tijorat banklarining vositachilik faoliyati. REPO, anderrayting va trast operatsiyalari

Tayanch iboralar. Qimmatli qog‘ozlar, depozit, sertifikat, depozitariy, aksiya, obligatsiya, foizli qimmatli qog‘ozlar, anderrayting, kliring, veksellar, qimmatli qog‘ozlar hosilalari, konsalting, broker, diller, makler, trast, xazina majburiyatlari, sertifikatlar, REPO, trast operatsiyalari.

5.1. Qimmatli qog‘ozlar tushunchasi va uning turlari. Qimmatli qog‘ozlar bozori va uning ishtirokchilari

Qimmatli qog‘oz – o‘zi bilan bog‘liq mulkiy huquqlarni aks ettiradigan hujjatdir, u daromad manbayi bo‘lib xizmat qiladi, bozorda muomalada yuritilishi va oldi-sotdi vositasi bo‘lishi mumkin. Jahon amaliyotida qimmatli qog‘ozlarning har xil turlari ishlatilmoqda.

Qimmatli qog‘ozlar bozori kredit munosabatlari bilan birgalikda, o‘z qiymatiga ega bo‘lgan, sotish, sotib olish va to‘lovini amalga oshirish mumkin bo‘lgan maxsus hujjatlar (qimmatli qog‘ozlar)ga egalik qilish bilan ham bevosita bog‘liq.

Qimmatli qog‘ozlar o‘zida mulkchilik huquqini mujassamlashtirgan bozorda erkin aylanadigan, sotib olish, sotish va boshqa bitimlarning obyekti bo‘ladigan, doimiy va bir martalik daromad olish manbayi bo‘lib xizmat qiladigan, pul kapitalining bir ko‘rinishidagi hujjatdir.

Qimmatli qog‘ozlar turli subyektlar tomonidan chiqarilishi mumkin. Umumiy holda bu emitentlar 5 guruhga bo‘linadi:

- Hukumat;
- Davlat korxonalari;
- Xususiy sektor;
- Markaziy bank;
- Chet el subyektlari.

Hamma qimmatli qog‘ozlarni davlat, xususiy yoki xalqaro qimmatli qog‘ozlarga ajratish mumkin. Xususiy sektor tomonidan chiqarilayotgan qimmatli qog‘ozlar tarkibiga turli ishlab chiqarish korxonalari, tijorat banklari, investitsion banklar, investitsion fondler va boshqalarning qimmatli qog‘ozlari alohida o‘rin tutadi. Xalqaro qimmatli qog‘ozlar ularning hisoblanadigan valyuta va emitentlari bo‘yicha bo‘linadi.

Qimmatli qog‘ozlar muomalada bo‘lish hududiga ko‘ra regional (mahalliy), milliy va xalqaro qimmatli qog‘ozlarga bo‘linadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 96-moddasiga binoan qimmatli qog‘ozlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- chek;
- depozit va jamg‘arma sertifikatlari;
- bankning taqdim qiluvchiga pul beriladigan jamg‘arma daftarchasi;
- konosament;
- obligatsiyalar;
- veksellar.

Qimmatli qog‘ozlarning bu turlariga qisqacha ta’rif bersak, aksiya - bu qimmatli qog‘oz bo‘lib:

- harakat muddati cheklanmagan;
- huquqiy yoki jismoniy shaxs tomonidan aksionerlik jamiyatiga muayyan hissa qo‘shgan ulushini va mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini guvohlovchi;
- aksiya bo‘yicha divident ko‘rinishida foyda olish huquqini beruvchi aksiyadorning shu jamiyat boshqarish ishiga qatnasha olishini tasdiqlovchi yuridik hujjatdir.

Qimmatli qog‘ozlar jahonning katta bir boyligi hisoblanib,

boshqa boyliklarga nisbatan ham umumiy qiymati bo‘yicha, ham hajmi bo‘yicha oldingi o‘rinlarga chiqmoqda. Qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarib, pullarni bir necha o‘n yillar yoki umuman muddatsiz foydalanishga olish mumkin.

Bu korxona va tashkilotlar uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etib, ularga ishlab chiqarish hamda moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun bank ssudalaridan foydalanmasdan turib pul resurslarini jalb qilish imkoniyatini beradi. Chunki barqaror bo‘lmagan iqtisodiyot va pulning qadrsizlanishi sharoitida bank qisqa muddatli kreditlarni berishni afzal ko‘radi.

Qimmatli qog‘ozlar aholi uchun ham juda katta ahamiyatga ega, ular pullarni qo‘lda ushlab turmasdan, qimmatli qog‘oz olib, ularga egalik qilish yo‘li bilan o‘z jamg‘armalari hisobiga daromad oladilar va korxonalarni boshqarishda amalda ishtirok etadilar.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlari va aholi vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larini omonatga qo‘yishdan ko‘ra qimmatli qog‘ozlarga sarflashlari ma’lum afzalliklarga ega, masalan, sarflangan mablag‘lar muddatidan ilgari foydalanish zarurati tug‘ilganda uni sotishi hamda undan qulay va hech qanday sarf-xarajatsiz to‘lov vositasi yoki kredit olish uchun garov sifatida foydalanishi mumkin.

Qimmatli qog‘ozlar bozori va uning ishtirokchilari quyidagilardir:

Fond birjasi – qimmatli qog‘ozlar bilan oldi-sotdisi o‘tkaziladigan joy. Fond birjasidagi qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni shartli ravishda 3 turga bo‘lish mumkin:

- brokerlik operatsiyalari;
- dillerlik operatsiyalari;
- market-meykerlik.

Brokerlik operatsiyalari - mijozning topshirig‘iga asosan va uning pul mablag‘lari evaziga amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Dillerlik operatsiyalari - tashkilot o‘z nomidan va o‘z pul mablag‘i evaziga amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Market-meykerlik fond bozorida emitentlarga ko‘rsatiladigan xizmat turi. Bu xizmatlarga quyidagilar kiradi:

- sotib olish va sotish kotirovkalarini bir maromda ushlab turish;

- aksiyalar likvidligini ushlab turish;
- moliyaviy maslahatlar;
- aksiyalarni emissiyaga va bozorga taklif qilishda boshqarish;
- maqsadli sotib olish yo‘li bilan aksiyalarga sun’iy talabni tashkil etish;
- emitentning aksiyalarini sotib oladigan jiddiy investorlarini jalb qilish.

Fond birjasining asosiy vazifalari:

- qimmatli qog‘ozlarning bir maromda muomalada bo‘lishining zarur sharoitini ta’minlash;
- qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan talab va takliflar o‘rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarni, ya’ni bozor bahosini belgilash; qimmatli qog‘ozlar va qimmatli qog‘ozlar bozori qatnashchilarini kasb mahoratini yuqori darajada saqlab borish;
- muntazam ravishda narx aniqlanishiga, indeksatsiya o‘zgarishiga, savdo-sotiq vaqti, qimmatli qog‘ozlar, shartnomalarning miqdoriga va boshqa ko‘rsatkichlarga doir axborotlarni, birjaning holatini va uning rivojlanishiga doir taxminiy shartlarni e’lon qilish.

Hozirgi vaqtda, rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda 150 dan ortiq fond birjasi bo‘lib, ulardan o‘n ikkitasi eng yirik birja sifatida xalqaro qimmatli qog‘ozlar bozorining asosini tashkil etadi. Bularga Nyu-York, London, Tokio, Frankfurt, Tayvan, Seul, Syurix, Parij, Chikago, Kuala-Lumpur, Gonkong, Istambul fond birjalaridir.

Xalqaro fond birjalarining infratuzilmasida yuzaga kelgan muhim o‘zgarishlardan biri birjalar o‘rtasida mijoz uchun raqobat kurashining kuchayganligi hisoblanadi. Uning isboti sifatida bozorning professional ishtirokchilari sonining tobora oshib borayotganligini ko‘rsatish mumkin.

XX asrning 80-yillarida Angliya SEAQ International yuzaga keladi. Bu nafaqat ingliz korxonalarining aksiyalarini, balki ular bilan birga, boshqa yevropalik emitentlar hamda amerikalik va yaponiyalik emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni oldi-sotdi qilish maqsadida tashkil etilgan dilerlik bozori hisoblanadi. Undan keyin Bryusselda yuqori texnologiyali kompaniyalarning aksiyalarini oldi-sotdi qilish amalga oshiriladigan Yevropa savdo tizimi – ESDAQ yuzaga keladi.

XX asrning 90-yillarida muqobil savdo tizimlari - | INSTINET va TRADEPOINT yuzaga keladi. Bularning birinchisi litsenziyali brokerdiler bo‘lsa, ikkinchisi Angliyadagi litsenziyali investitsiya birjasi hisoblanadi.

90-yillarning ikkinchi yarimida elektron kommunikatsiya tarmog‘i – Elektronic communiction networks yuzaga keladi. Ushbu tizim AQSHning an’anaviy birja xizmatlaridan qoniqmasdan, investitsiya kompaniyalarining tashabbusi va ishtiroki bilan yuzaga keladi.

Xalqaro qimmatli qog‘ozlar bozorining yuqorida qayd etilganprofessional ishtirokchilari va ularga xizmat ko‘rsatuvchi kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi, provard natijada, ular o‘rtasidagi raqobat muhitini keskinlashuviga olib keladi. Buning natijasida ko‘satilayotgan xizmatlar uchun olinadigan to‘lovlarning kamayishi yuz beradi. Ular mijozlarga an’anaviy birjalar yopilgandan keyin ham savdo qilish imkoniyatini yaratadi, investitsiyalar uchun turli xildagi instrumentlar foydalanishni taklif qiladi va kotirovkalarni sir tutilishi kafolatlaydi.

2000-yilning boshiga kelib G‘arbiy Yevropadagi barcha yirik fond birjalari to‘liq elektron birjalarga aylanadi. Bu esa o‘z navbatida, savdo ishtirokchilari sonini keskin oshirish, savdo chiqimlarini kamaytirish imkonini beradi.

Bir qator mamlakatlarda fond birjalari o‘zlarining raqobat pozitsiyalarini mustahkamlamoqda. Bu holat moliyaviy bozorlarning xizmatlaridan foydalanuvchilar uchun bir necha xizmat turlarini bir joyda markazlashtirayotganligida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Parij, Amsterdam, Frankfurt, Xelsinki, Bryussel birjalari birlamchi va ikkilamchi bozorlarni, hosila institumentlari bozorlarini, kliring va hisob-kitoblarni birlashtiradi.

Xalqaro qimmatli qog‘ozlar bozorining infratuzilmasidagi ikkinchi jiddiy o‘zgarishlar birja ittifoqlarini tuzish jarayonlarining boshlanganligi va tobora chuqurlashib borayotganligi hisoblanadi.

Birja ittifoqlarini tuzish yo‘lidagi dastlabki qadam 1997-yilda Benilyuks birjasining tuzish orqali qo‘yildi. Ushbu birjani tuzish to‘g‘risidagi shartnomaning imzolanishi bir vaqtning o‘zida uchta birjaga kross-a’zolik huquqini ta’minladi. Hamkorlik hosila

instrumentlari bozorlariga (forvard, fyuchers, opsion bozorlari), kliring va hisob-kitoblar jarayoniga ham tarqaldi.

Ayni vaqtda, AQSHning birjadan tashqari savdo tizimi NASDAQ global ahamiyatiga ega bo‘lgan xalqaro qimmatli qog‘ozlar bozoriga aylanib bormoqda. U amerika bozorida muvaffaqiyatli tarzda faoliyat yuritish bilan birga, jahonning 10 ta yirik fond birjasidan biri sifatida e’tirof etilmoqda. NASDAQ aksiyalar savdosining hajmi va o‘sishi sur’ati bo‘yicha Nyu-York fond birjasini ortda qoldirdi.

Qimmatli qog‘ozlarni birjalarda joylashtirish yoki undan chiqarish qator operatsiyalar orqali amalga oshiriladi.

Listing - bu qimmatli qog‘ozlarni birjaga qo‘yish, ya’ni joylashtirishdir. Qimmatli qog‘ozlar listingga qo‘yilgan bo‘lsa, birja ro‘yxatidan o‘tgan bo‘lsa, ularni savdoga qo‘yish mumkin.

Delisting - bu qimmatbaho qog‘ozlarni birjaning yoki kompaniyaning o‘z qaroriga binoan ro‘yxatdan chiqarilishi, ya’ni listing imtiyozlaridan to‘la mahrum bo‘lishidir.

Birjada qimmatli qog‘ozlar bilan oldi-sotdi operatsiyalarini faqatvositachilar bajaradi. Ularga jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, investitsiya kompaniyalari, brokerlik firmalarning topshirig‘i bilan brokerlar bitimlarni amalga oshirib qimmatli qog‘ozlarni sotib oladi yoki o‘zinig hisobidan keyinchalik qayta sotish uchun xarid qiladi.

Fond birjasiga qimmatli qog‘ozlar olib kelinmaydi. Uning borligini broker qo‘lidagi hujjatlar, sertifikatlar bilan tasdiqlashi zarur. Birjada qimmatli qog‘ozlar to‘plarda savdoga qo‘yiladi. Birjada faqat listingda qayd qilingan qimmatli qog‘ozlar sotiladi.

Baho fond birjasida talab va taklifdan kelib chiqqan holda ochiqdan ochiq o‘rnatilib, birja tablosida e’lon qilib turiladi. Birjada uch tomon qatnashadi. Bir tomonda birja, emitentlar va tadbirkorlar, ikkinchi tomonda vositachilik haqi evaziga mijozlarning topshirig‘ini bajaruvchi brokerlar va uchinchi tomon qimmatli qog‘ozlarga muhtoj shaxslar. Har uchala tomonning manfaatini birlashtiruvchi joy - bu fond birjasidir.

Birja kotirovkasi - bu birjada sotiladigan qimmatli qog‘ozlarning e’lon qilingan narxi.

Birja indekslari - bu qimmatli qog‘ozlarning birjadagi

harakatini ifodalovchi koʻrsatkich.

Professionallar fond bozorida faoliyat koʻrsatish jarayonida turli «oʻyinlarni» qoʻllaydilar.

«Ayiqlar» oʻyini - daromad olish maqsadida qimmatli qogʻozning bozor narxini pasaytirishga qaratilgan jarayon.

Professional ma'lum qimmatli qogʻozning bozor narxini pasayishini oldindan sezgan holda uni ma'lum muddatga qarzga olib turadi. Qarzga olingan qimmatli qogʻozning narxi pasaymasdan payt poylab darrov sotib yuboriladi.

Qarz muddati yetib kelgan qimmatli qogʻozning narxi pasayib ketadi va shu pasaygan narx boʻyicha «ayiq» qarzga olgan qimmatli qogʻoz uchun oʻz qarzini toʻlaydi. Bunda, «ayiq»ning daromad qarzga olingan qimmatli qogʻozni sotish narxi va qarzni toʻlash vaqtida uning bahosi tafovuti koʻrinishida ifodalanadi.

«Buqa» - qimmatli qogʻozlarni naqd pulga sotib oladi va ularni qimmatroq narxda sotish maqsadida bozor narxining koʻtarilishini poylab turadi.

5.2. Qimmatli qogʻozlar bozorida bank faoliyati turlari

Iqtisodiyotning tobora globallashib borishi asnosida tijorat banklarining qimmatli qogʻozlar bozoriga bevosita va bilvosita shaklda faol ishtiroki kuzatilmoqda. Agar iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda bu boradagi amaliyotlar kuzatilsa, Yaponiya, AQSH va Kanadada ularning fond bozorlaridagi oʻrni qonun bilan tartibga solinadi, shuning uchun banklar investitsiya va vositachilik faoliyatida ishtirok etishning bilvosita usullaridan foydalanadilar (ishonch kompaniyalari, brokerlik firmalari bilan hamkorlik qilish, investitsiya kompaniyalari va banklarni kreditlash). Qimmatli qogʻozlar bilan barcha turdagi operatsiyalarni amalga oshirishga qonuniy ruxsat berilgan mamlakatlarda banklar emitent, vositachi va investor sifatida ishlaydi.

Boshqa bir davlat, jumladan, Rossiyada qimmatli qogʻozlar bozorining aralash modeli tanlangan, unda tijorat banklarining ham, nobank investitsiya institutlarining ham teng huquqli mavjudligidir. Qimmatli qogʻozlar bozorida tijorat banklari oʻzlarining chiqarilgan va chiqarilmaydigan qimmatli

qog‘ozlarining emitentlari, qimmatli qog‘ozlarni o‘z mablag‘lari hisobidan sotib oluvchi investorlar va qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish, depozitariy hisobga olish va ularni boshqarish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshiruvchi vositachilar sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

Tijorat banklari emitent sifatida emissiyaviy (aksiyalar, obligatsiyalar, opsionlar) va chiqarilmaydigan (sertifikatlar, veksellar) qimmatli qog‘ozlarni chiqaradilar.

Tijorat banklari o‘z aksiyalarini chiqarish orqali aksiyadorlik jamiyati sifatida harakat qiladilar. Tijorat banklari obligatsiyalar, sertifikatlar va veksellarni chiqarishda o‘zlarining asosiy maqsadlaridan biri – pul mablag‘larini jamg‘arish va to‘lov vositalarini yaratishni amalga oshiradilar.

Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarda vositachi sifatida mijozning topshirig‘iga ko‘ra ularni sotish, qayta sotish, saqlash va daromad (dividendlar, foizlar) olishni komissiya evaziga amalga oshiradi. Qimmatli qog‘ozlarni boshqarish bo‘yicha maxfiy operatsiyalar keng tarqaldi.

Banklar qarz oluvchilarning qimmatli qog‘ozlarini kreditlar uchun garov sifatida qabul qilishlari mumkin. Garov muddati davomida qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromad olish tartibi qarz oluvchi va bank o‘rtasidagi kredit shartnomasida belgilanadi.

So‘nggi yillarda tijorat banklari davlat qimmatli qog‘ozlari bozorining faol ishtirokchisi bo‘lib kelmoqda.

Bundan tashqari, banklar depozitariy sifatida aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar hisobini, aksiyadorlar reestrini yuritishi mumkin.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida ishlash uchun tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisi sifatida quyidagi faoliyat turlarini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lishi kerak:

- diler;
- depozitariy;
- qimmatli qog‘ozlarni boshqarish;
- brokerlik, shu jumladan jismoniy shaxslar bilan operatsiyalar.

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan barcha

operatsiyalari quyidagicha guruhlash mumkin:

- banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan o‘z operatsiyalari;
- investitsiya, savdo;
- kafolat operatsiyalari;
- ishonchli operatsiyalar;
- depozitariy operatsiyalar.

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan o‘z operatsiyalari bank tashabbusi bilan uning nomidan va uning hisobidan amalga oshiriladi. Ular investitsiyalar va savdo operatsiyalariga bo‘linadi. Bank mustaqil treyder sifatida ishlaydi, o‘z portfeli uchun qimmatli qog‘ozlarni sotib oladi yoki ularni sotadi. Banklar turli birjalarda bir xil qimmatli qog‘ozlar kurslarining farqidan daromad olish maqsadida savdo operatsiyalarini amalga oshiradilar.

Tijorat banklari investitsiya kompaniyalari sifatida qatnashib, uchinchi shaxslar foydasiga qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish uchun kafolatlar berishi mumkin. Bu qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bilan shug‘ullanuvshi investitsiya kompaniyalari yoki emissiya konsorsiumlari uchun xavfni sug‘urta qilishning bir turidir.

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati tobora ko‘proq rivojlanmoqda. Yirik tijorat banklari trast operatsiyalari uchun bo‘limlar oshadi. Mulkni boshqarish huquqi asosida tijorat banki tuzilgan shartnomalar yordamida mijozlarning qimmatli qog‘ozlari va mablag‘larini boshqarishi mumkin. Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha trast operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

- qimmatli qog‘ozlarni dastlabki joylashtirish (emissiyani tashkil etish, mijozlar nomidan qimmatli qog‘ozlarni dastlabki joylashtirish - anderrayting);
- aksiyadorlar reestrini yuritish va qimmatli qog‘ozlar bilan tuzilgan bitimlarni ro‘yxatga olish;
- aksiyadorlarga yillik daromadni to‘lash (naqd yoki naqd bo‘lmagan shaklda yoki qimmatli qog‘ozlardan olingan daromadlarni qayta investitsiyalash yo‘li bilan);
- mijozlar nomidan aktivlarni boshqarish (mijoz nomidan va uning hisobidan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish, shartnomaga

muvofiq qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirish, mijoz nomidan qimmatli qog‘ozlarni sotish);

- depozitariy xizmatlar (DEPO hisoblarini yuritish, qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblar).

Qimmatli qog‘ozlar bozorida bankning qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog‘ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish O‘zbekiston Respublikasining 05.11.2019-yildagi O‘RQ-580-sonli «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunining 5-moddasida aks ettirilgan.

Bu qonunga ko‘ra, O‘zbekistonda tijorat banklarining bank operatsiyalarini amalga oshirish to‘g‘risidagi litsenziyasi banklarga qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, sotish, sotib olish, hisobini yuritish, saqlash va boshqa operatsiyalarni quyidagi turlarini amalga oshirish imkoniyatini beradi:

- to‘lov hujjati (veksel, chek) funksiyasini bajarish;
- pul mablag‘larini jamg‘arma va bank schyotlariga jalb qilish (depozit va jamg‘arma sertifikatlari)ni mo‘ljallamoq.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olingan bosh litsenziyaga muvofiq, tijorat banklari fond bozorida operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida tijorat banklari faoliyati turlichadir.

Brokerlik faoliyati - bu qimmatli qog‘ozlar bilan ishonchli shaxs yoki komissiya a’zosi sifatida bitim tuzish, topshiriq shartnomasi yoki komissiya asosida amalga oshadi.

Dillerlik faoliyati - bu qimmatli qog‘ozlarni o‘zining hisobidan sotish - sotib olish bitimini amalga oshirish.

Depozitar faoliyati - bu qimmatli qog‘ozlar sertifikatlarini saqlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatish yoki qimmatli qog‘oz huquqini o‘tkazish va hisobini yuritish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish.

Depozitariya xizmatidan foydalanuvshi tomon deponent deyiladi.

Deponent nomiga qimmatli qog‘ozlar harakatining hisobini yurituvchi depo schyoti ochiladi. Qimmatli qog‘ozlar bilan banklararo operatsiyalarni amalga oshirish uchun banklar bir-

birlarida depo («loro» va «nostro») schyotlari oshadilar.

Depozitar va mijoz oʻrtasida qimmatli qogʻozlarni ochiq yoki yopiq saqlash yoʻllari aks ettirilgan shartnoma tuzilgan boʻlishi mumkin. Qimmatli qogʻozlarni ochiq saqlash usuli - bu qimmatli qogʻozlarga egalik qilish huquqini shunday qayd etish usuliki, qaysiki, deponent depozitariyga alohida belgilarsiz (nomer, razryad, seriya) faqatgina ma'lum miqdordagi qimmatli qogʻozga topshiriq berishi mumkin.

Saqlashning yopiq usulida depozitariy depo schyotidagi mavjud aniq qimmatli qogʻoz boʻyicha deponentning barcha topshiriqlarini qabul qilish va bajarishga majbur.

Ishonchli boshqaruv boʻyicha faoliyat (trast) bankning oʻz nomidan amalga oshiriladi va egaligi jihatidan boshqa shaxsga tegishli boʻladi, ishonchli boshqaruvni quyidagilar bilan amalga oshirish mumkin:

- qimmatli qogʻozlar bilan;
- pul mablagʻlari bilan (qimmatli qogʻozga investitsiya qilish uchun moʻljallangan boʻlsa);
- qimmatli qogʻozlarni boshqarish jarayonida qoʻlga kiritilgan pul mablagʻlari va qimmatli qogʻozlar bilan.

Trast (agentlik) xizmatlari tijorat banklari bilan mijoz oʻrtasidagi shartnoma asosida koʻrsatiladi. Qimmatli qogʻozni saqlash uchun depo schyoti ochiladi. Koʻrsatilgan xizmat uchun bank komission haq undiradi.

Trast operatsiyalari mablagʻlar va qimmatli qogʻozlar egalariga investitsion noaniqlikni bartaraf etish, investitsiyalar xavfini kamaytirish imkonini beradi, banklar uchun ular banklarning oʻz hisobvaragʻidagi qimmatli qogʻozlar bilan operatsiyalarga qaraganda kamroq xavflidir.

Tijorat banki, shuningdek, qimmatli qogʻozlar bilan bajarilgan operatsiyalar uchun toʻlovni oʻrnatadi va buning uchun qimmatli qogʻozlar portfelining shakllanishi va uni boshqarish uchun ularga doimiy axborotlar oqimi va ish tahlili kerak boʻladi, hamma investor ham bu muammoni oʻzi hal qila olmaydi. Maxsus trast boʻlimlariga ega boʻlgan banklar xavfsizlik, daromadlilik va likvidlilik talablariga javob beradigan qimmatli qogʻozlar portfelini shakllantirishga yordam beradilar.

Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlarni birlamchi joylashtirish bo‘yicha ham xizmatlar ko‘rsatishi mumkin:

- aksiyalarni moliya bozoriga joylashtirish (anderrayting);
- aksionerlar reestrlarini yuritish;
- yillik foydani to‘lash.

Tijorat banklarida kliring faoliyati – bu o‘zaro majburiyatlarni aniqlash bo‘yicha (yig‘im, taqqoslash, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha bitim axboroti korrektirovkasi va ular bo‘yicha buxgalteriya hujjatlarini tayyorlash) va qimmatli qog‘ozlar taklifi bo‘yicha hisobotdir.

5.3. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari

Qimmatli qog‘ozlar bozori kredit munosabatlari bilan birgalikda, o‘z qiymatiga ega bo‘lgan, sotish, sotib olish va to‘lovini amalga oshirish mumkin bo‘lgan maxsus hujjatlar (qimmatli qog‘ozlar)ga egalik qilish bilan ham bevosita bog‘liq. Qimmatli qog‘ozlar o‘zida mulkchilik huquqini mujassamlashtirgan bozorda erkin aylanadigan, sotib olish-sotish va boshqa bitimlarning obyekti bo‘ladigan, doimiy va bir martalik daromad olish manbayi bo‘lib xizmat qiladigan, pul kapitalining bir ko‘rinishidagi hujjatdir.

“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi va «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi qonunlari hamda qimmatli qog‘ozlarga oid **“**Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonunga asosan tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozoridagi qonun talablari asosida qator faoliyat turlarini olib borishlari mumkin**.**

“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunga binoan tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozorida:

- qimmatli qog‘ozlar (veksel, aksiya, obligatsiyalar, depozit sertifikatlar v.b.)ni chiqarish;
- qimmatli qog‘ozlar hisobini yuritish.
- qimmatli qog‘ozlarni sotib olish, sotish, saqlash, ular bilan turli operatsiyalarni amalga oshirish;
- mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog‘ozlarni boshqarish;

- tovar yetkazib berish va xizmat ko‘rsatishdan kelib chiqadigan talab huquqini olish, bunday talablarni inkassatsiya qilish;
- mijozlar ishonib topshirgan operatsiyalarga mablag‘larni jalb etish, joylashtirish va hokazo ishlarni bajarish;
- fond bozori ishtirokchilariga bu borada bank faoliyati yuzasidan maslahatlar berish kabi operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

Bu faoliyat turlarini amalga oshirish borasida tijorat banklari uchun cheklashlar yo‘qligi sababli ular fond bozorida haqiqiy qatnashchi- investitsion institut sifatida ish yuritadi. Banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari ko‘p maqsadlarni ko‘zlagan holda amalga oshiriladi. Shu bois banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatdan asosiy maqsadlari:

- qimmatli qog‘ozlar chiqarish asosida kredit va hisob-kitob faoliyati yuritish uchun qo‘shimcha pul resurslarini jalb qilish;
- qimmatli qog‘ozlarga sarflangan va o‘z investitsiyalaridan bankka to‘lanadigan foiz va dividendlar evaziga va qimmatli qog‘ozlarning kurs qiymati oshishi tufayli foyda olish;
- mijozlarga qimmatli qog‘ozlar operatsiyalariga doir xizmatlar ko‘rsatishdan foyda olish;
- erkin raqobat asosida bankning xizmat sohasini kengaytirish hamda korxona va tashkilotlarning kapitallarini boshqarishda ishtirok etish evaziga yangi mijozlarni jalb qilish;
- bankning qimmatli qog‘ozlari orqali resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanish;
- bankning likvidli mablag‘lariga qo‘yilmalarning daromadliligini ta’minlagan holda likvidlik zaruriy zaxirasini saqlab borish;
- mijozlarning qimmatli qog‘ozlarni me’yorida olib-sotishdan hamda moliyaviy risklarni qimmatli qog‘ozlar hosilalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar orqali sug‘urta qilish kabilardan iborat.

Depozitar operatsiyalar - hisobga olish registrlarida depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq bajariladigan operatsiyalar.

Nyetting - mijozning barcha pul talablarini uning barcha pul majburiyatlariga nisbatan hisobga olish orqali amalga oshiriladigan kliring usuli.

Tijorat banklari, odatda, bank mablag‘lariga sotib olish rejalashtirilayotgan qimmatli qog‘ozlar turlari, investitsiyalarni amalga oshirish muddatlari, emitentning moliyaviy ahvoli, qimmatli qog‘ozlarga qilingan qo‘yilmalarning risk darajasi, diversifikatsiyalanganligi, qimmatli qog‘ozlarning sifati va barqarorligining kafolatlariga e’tibor berishi lozim.

Banklar qimmatli qog‘ozlar emissiya qilganda emissiyaning maqsadi (masalan, ustav fondini shakllantirish, likvidlikni saqlash, qarz mablag‘larini jalb qilish va h.k.), bank chiqaradigan qimmatli qog‘ozlar turlari va muddatlari, ularning likvidliligi, qarz majburiyatlarining o‘z vaqtida qoplanishi va boshqa jihatlarini chuqur tahlil qilishi zarur.

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar qo‘yilmalariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan cheklov va talablar o‘rnatilgan bo‘lib, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, tijorat banklarining likvidliligini va to‘lovga layoqatliligining barqaror holatini saqlab turish hamda mijozlar oldidagi majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash hisoblanadi. Bular quyidagilardan iborat:

- bankning muayyan yuridik shaxs ustav kapitaliga, shuningdek, ushbu yuridik shaxsning boshqa qimmatli qog‘ozlariga kiritgan investitsiyalari miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak;

- bankning yuridik shaxslar ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog‘ozlarga kiritgan investitsiyalari miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 50 foizidan oshmasligi kerak;

- oldi-sotdi uchun qimmatli qog‘ozlarga kiritilgan bank investitsiyalari miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak.

Yuqorida keltirilgan banklar tomonidan qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalarni amalga oshirishlariga doir cheklovlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2018-yil 18-avgust, 27/12-son bilan tasdiqlangan “Tijorat banklari tomonidan

qimmatli qog‘ozlar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirishlar ”gi Qarorida aniq belgilab qo‘yilgan.

Mazkur Nizom talablariga mamlakatimiz iqtisodiyotida olib borilayotgan chuqur islohotlar natijasida hukumat tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmonlar bilan o‘zgartirishlar kirilgan.

Shuningdek, tijorat banklarining aksiyalari bo‘yicha jismoniy shaxslarning dividend tarzida olgan daromadlari 2010-yilning 1-yanvariga qadar soliqqa tortishdan ozod qilingan edi. Bu o‘z navbatida tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozorida ham investor, ham emitent sifatida faol ishtirok etishiga va boshqa xizmat turlarini (investitsiya vositachisi, invesitsiya aktivlarini boshqaruvchi va investitsiya maslahatshisi) taklif etishini rag‘batlantiradi.

Shuningdek, ushbu qarorga asosan, 2008-yilning 1-yanvaridan boshlab 3 yil muddatga yuridik shaxslarning tijorat banklarining depozitlariga va qarz qimmatli qog‘ozlariga 1 yildan ortiq muddatga joylashtirishdan olingan foizli daromadlari soliqqa tortishdan ozod etildi.

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faol ishtirokini shu bilan izohlash mumkinki, bugungi kunda ular sarmoya miqdori likvidlilik va barqarorlilik bo‘yicha yagona raqobatbardosh investorlar hisoblanadi. Ular vositachilik faoliyatini olib borgan holda boshqa iqtisodiy agentlarga nisbatan ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Banklarning yana bir ustunligi shundaki, ular iqtisodiy xatar, bozordagi ahvolni malakali tahlil qilishi mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish moliyaviy resurslarning fond bozorida tijorat banklarining faol ishtirokida taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozorida quyidagi operatsiyalarni amalga oshirishiga ruxsat etilgan:

- qimmatli qog‘ozlar (veksel, aksiya, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari va boshqalar) chiqarish;

- qimmatli qog‘ozlarni sotib olish, sotish, saqlash ular bilan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish;

- tovar yetkazib berish va xizmat ko‘rsatishdan kelib chiqadigan talab huquqini olish, bundan talablarni inkassatsiya qilish;

- mijozlar ishonib topshirgan operatsiyalarni: mablag‘larni jalb etish va joylashtirish, qimmatli qog‘ozlarni boshqarish va hokazo ishlarni bajarish;

- fond bozori ishtirokchilarga bu boradagi bank faoliyati yuzasidan maslahatlar berish.

Bank siyosati ko‘plab maqsadlarni ko‘zlagan holda yuritiladi. Banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatidan asosiy maqsadlari quyidagilardan iboratdir:

1. Qimmatli qog‘ozlar chiqarish asosida an’anaviy kredit va hisob-kitob faoliyati yuritish uchun qo‘shimcha pul resurslari jalb etish;

2. Qimmatli qog‘ozlarga sarflangan o‘z investitsiyalaridan bankka to‘lanadigan foiz va dividendlar evaziga va qimmatli qog‘ozlarning kurs qiymati oshishi tufayli foyda olish;

3. Mijozlarga qimmatli qog‘ozlar operatsiyalariga doir xizmatlar ko‘rsatishdan foyda olish;

4. Erkin raqobat asosida bankning ta’sir sohasini kengaytirish hamda korxona va tashkilotlarning kapitallarida qatnashish evaziga yangi mijozlarni jalb etish;

5. Tanqis resurslardan bahramand bo‘lish huquqini beradigan va bankniki bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlar orqali shunday resurslardan foydalanish;

6. Bankning likvidlik mablag‘lariga qo‘yilmalarning daromadligini ta’minlagan holda likvidlik zaruriy zaxirasini saqlab borish;

7. Mijozlarning qimmatli qog‘ozlarni me’yorida olib sotishdan hamda moliyaviy tavakkalchiliklarini qimmatli qog‘ozlar hosilalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar orqali sug‘urta qilish.

Banklar moliya bozori, ya’ni qimmatli qog‘ozlar bozorida ishtirok etish davrida fond birjalari bilan tengma-teng ravishda faoliyat olib bormoqda va buni amalga oshirish jarayonida bir qancha operatsiyalarni amalga oshirib keladi.

Bizga ma’lum, hozirgi kundagi O‘zbekiston Respublikasidagi barcha banklar universal banklar hisoblanadi. Bu banklar birgina qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha bir qancha operatsiyalarni bajarishga qodir. Shu bilan birgalikda, banklar bir vaqtning o‘zida ham emitent, ham vositachi, ham investor sifatida moliya bozorida ishtirok etadi.

Qayd etib o‘tilganidek, qimmatli qog‘ozlar bozorining barcha qatnashchilari orasida banklar shu bilan farqlanadiki, ular bir vaqtning o‘zida fond bozorining qonunchilik bilan ruxsat berilgan deyarli barcha moliyaviy vositalarida: aksiya, obligatsiya, depozit sertifikatlari va veksellarda emitentlar sifatida qatnashishi mumkin.

Har bir bank emissiya siyosati (qimmatli qog‘ozlarni chiqarish) to‘g‘risida ishlab chiqilgan va Bank kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizomiga ega bo‘lishi kerak, unda majburiy tartibda quyidagi masalalar aks ettirilgan bo‘lishi lozim:

- bank emissiya faoliyatining strategiyasi va maqsadlari (ustav kapitalini shakllantirish, likvidlikni qo‘llab-quvvatlash, qarz mablag‘larini jalb etish);
- bank tomonidan chiqarilishi rejalashtirilayotgan qimmatli qog‘ozlar turi va xillari, emissiya muddatlari;
- qimmatli qog‘ozlar likvidliligi va aylanishini qo‘llab-quvvatlash;
- qarz majburiyatlarining o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash.

Investitsion va moliyaviy maslahat berish. Banklar ko‘p sonli mijozlariga ega bo‘lib, ularga nafaqat kredit hisob-kitob xizmati ko‘rsatadi, balki ularga chet el sarmoyadorini tanlash, sarmoyadorlarga investitsiya obektlarini tanlash bilan bog‘liq bo‘lgan investitsion konsalting sohasidagi xizmatlar ko‘rsatishni ham amalga oshiradi.

Bunda banklar texnik-iqtisodiy jihatdan asoslab berilgan, potensial samaradorlik bahosini o‘z ichiga olgan investitsiya loyihalarini ishlab chiqadi, xalqaro andozalarga muvofiq loyiha hujjatlarni tayyorlaydi, amalga oshiriladigan loyihalar doirasida marketing tadqiqotlari olib boradi.

Bunda eng maqbul emissiya portfellarini shakllantirish, investitsiyalarni jalb etish dasturlarini ishlab chiqish, mijozning

oʻziga kerak boʻlgan pul mablagʻlarini jalb etishi uchun yordam beradigan vositalarni tanlash, qimmatli qogʻozlar emissiyasi uchun biznes-rejalarni ishlab chiqish, moliyaviy vositalarning har xil turlari boʻyicha olinadigan daromadlari taxmin qilish va h.k. muhim bank xizmatlaridir.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarni diversifikatsiya qilish, qoʻshimcha daromad manbalarini kengaytirish va likvidlik balansini saqlash maqsadida qimmatli qogʻozlar bilan investitsiya operatsiyalarini amalga oshiradilar. Qonun va me'yoriy hujjatlarga muvofiq, oʻz nomidan, oʻz hisobidan va oʻz tashabbusi bilan qimmatli qogʻozlarni har qanday oldi-sotdisi investitsiya bitimi hisoblanadi. Bank sohasida sarmoya deganda, odatda, davlat va xususiy korxonalarning qimmatli qogʻozlariga nisbatan uzoq muddatga investitsiya qilish tushuniladi. Tijorat banklari investitsiya operatsiyalarini oʻz mablagʻlari, jalb qilingan va jalb qilingan mablagʻlar hisobidan amalga oshiradilar.

Qimmatli qogʻozlarni sotib olayotganda banklar tavakkalchilik, likvidlik, rentabellik darajasini hisobga oladi.

Investitsion risk – bu fond bozoridagi oʻzgarishlar ta'sirida qimmatli qogʻozning bozor qiymatining mumkin boʻlgan pasayishidir. Qimmatli qogʻozlar xavfini kamaytirish odatda qaytarish hisobiga amalga oshiriladi. Xavf va daromadning maqbul kombinatsiyasi investitsiya portfelini sinchkovlik bilan tanlash va doimiy monitoring qilish orqali ta'minlanadi.

Bankning investitsion portfeli daromad olish va likvidlikni saqlash maqsadida sotib olingan qimmatli qogʻozlar yigʻindisidir. Uni boshqarish orqali banklar likvidlik va rentabellik oʻrtasidagi muvozanatga erishishga intiladi. Bankning investitsion portfelining hajmini belgilovchi omillar uning hajmi va uni boshqarish sifati hisoblanadi. Investitsion portfelning tuzilishi mamlakat fond bozorida sotiladigan qimmatli qogʻozlarning turiga bogʻliq. Bu hukumat, mahalliy hokimiyat organlari va yirik korxonalar tomonidan chiqarilgan qimmatli qogʻozlardir.

Bankning investitsion operatsiyalari ma'lum bozor risklari bilan bogʻliq boʻlib, ular quyidagilarga olib keladi:

- investitsiya qilingan mablagʻlarning toʻliq yoki qisman yoʻqotilishiga;

- inflyatsiya sur’atlarining oshishi bilan qimmatli qog‘ozlarga joylashtirilgan mablag‘larning qadrsizlanishiga;

- investitsiya qilingan mablag‘lar bo‘yicha kutilayotgan daromadning to‘liq yoki qisman olinmaganligi;

- daromad olishda kechikishlar;

- sotib olingan qimmatli qog‘ozlarga egalik huquqini qayta ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq muammolar paydo bo‘lishiga.

Qimmatli qog‘ozlarning qadrsizlanishidan yo‘qotishlarni kamaytirish uchun tijorat banklari zaxiralarni yaratishi zarur bo‘ladi.

Bank qimmatli qog‘ozlari uzoq muddatli manfaatlarni ko‘zlaydigan investorlar uchun ham, vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larini jamlovchilar uchun ham ancha manfaatli qo‘yilma obyektidir. Uzoq muddatga mo‘ljallangan maqsadlarni amalga oshirish ko‘zlanganda yirik va o‘rta tijorat banklarining aksiyalariga mablag‘lar investitsiyalash eng yuqori samara berishi mumkin.

5.4. Tijorat banklarining moliya bozori uchun o‘z qimmatli qog‘ozlarini chiqarishlari

Tijorat banklarining aksiyalarni chiqarishi va ro‘yxatga olish tartibi. Banklar qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiradigan operatsiyalari uchun qonun bo‘yicha qimmatli qog‘ozlar bozorini nazorat etuvchi organning maxsus ruxsati talab qilinmaydi, shu sababli, banklar bu operatsiyalarni amalga oshirish uchun Markaziy bank tomonidan berilgan umumiy litsenziya asosida bajaradi. Qonunlarda tijorat banklariga aksiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari va jamg‘arma sertifikatlari, veksellari kabi qimmatli qog‘oz turlarini chiqarishga ruxsat beriladi. Banklar ustav fondlarini shakllantirish maqsadida aksiyalar chiqaradi.

Banklar qarz mablag‘lari jalb etish uchun o‘zining qarz majburiyatlari – obligatsiyalar, depozit va depozit sertifikatlari, veksellar chiqaradilar. Bundan tashqari, ular qimmatbaho qog‘ozlar hosilalari chiqarishi mumkin. Faqat yirik sanoat korxonalarining aksiyalarigina bank qimmatli qog‘ozlari bilan

raqobatlasha oladi.

Tijorat banklari aksiyalar, opsionlar va o‘z qarz majburiyatlari uchun qimmatli qog‘ozlarning quyidagi turlarini chiqarishi mumkin:

- obligatsiyalar;
- sertifikatlar;
- veksellar.

Tijorat banklari tomonidan aksiyalarni, obligatsiyalarni va opsionlarni chiqarish tartibi qonunchilik va me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ular O‘zbekiston Respublikasining 03.06.2015-yildagi O‘RQ-387-sonli “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining buyrug‘ining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 30.08.2009-yilda ro‘yxatdan o‘tgan “Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish” qoidalari va boshqalardir.

Reestr qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha davlat vakolatli organi — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (keyingi o‘rinlarda – ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ) tomonidan shakllantiriladi va yuritiladi.

Tijorat banklari, agar ular aksiyadorlik jamiyati shaklida tuzilgan bo‘lsa, ustav kapitali shaklida o‘z kapitalini shakllantirish maqsadida aksiyalar chiqaradilar.

O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va ro‘yxatga olish tartibini o‘rnatildi. Qimmatli qog‘ozlarni chiqarilish hajmi va investorlar sonidan qat’i nazar qimmatli qog‘ozlarning barchasini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish shart etib qo‘yildi.

Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish tartibining bosqichlari:

- qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- qimmatli qog‘ozlarni chiqarish bo‘yicha tasdiqlash;
- qimmatli qog‘ozlar chiqarishni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;
- qimmatli qog‘ozlar chiqarishni Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysida hisobga olish;

- qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi axborotni qonunchilik hujjatlari va mazkur qoidalarda belgilangan tartibda oshkor qilish;

- chiqarilishdagi qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish;

- ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga qimmatli qog‘ozlarni chiqarish natijalari to‘g‘risida bildirishnoma taqdim etish.

Aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etilgan tijorat banklari ustav kapitalini aksiyadorlar tomonidan sotib olingan aksiyalarning nominal qiymatidan hamda faqat hujjatli va hujjatsiz shakldagi nomlangan aksiyalar, oddiy va imtiyozli aksiyalardan shakllantiradi.

Agar ularga egalik qilish bilan bog‘liq mulkiy huquqlarni amalga oshirish uchun ulush egasining nomi emitentning hisob kitoblarida yoki uning nomidan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha professional faoliyat bilan shug‘ullanuvshi tashkilotda ro‘yxatdan o‘tkazilishi zarur bo‘lsa, aksiyalar nominal hisoblanadi. Ro‘yxatdan o‘tgan qimmatli qog‘oz bir egadan ikkinchisiga o‘tkazilganda reestrga tegishli yozuvlar kiritiladi.

Bank aksiyalarining birinchi chiqarilishi butunlay oddiy nomdagi aksiyalardan iborat bo‘lishi kerak. Ustav kapitalini ko‘paytirishda banklar oddiy va imtiyozli (ustav kapitali miqdorining 25 foizidan ko‘p bo‘lmagan) aksiyalarni chiqarish huquqiga ega. Ikkinchisi, agar bu imtiyozli aksiyalarga ovoz berish huquqini beruvchi bankning ustav hujjatlariga zid bo‘lmasa, boshqa nominal qiymatga ega bo‘lishi mumkin.

Aksiyalar chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, agar ular cheklanmagan miqdordagi shaxslar yoki 500dan ortiq shaxslarning ilgari ma’lum bo‘lgan doirasi o‘rtasida joylashtirilgan bo‘lsa, prospektni ro‘yxatdan o‘tkazish bilan birga amalga oshiriladi.

Bank tomonidan aksiyalarni chiqarish tartibi qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini ro‘yxatdan o‘tkazish prospektni ro‘yxatdan o‘tkazish bilan birga olib borilishiga qarab farqlanadi.

Emitent aksiyadorlik jamiyati shaklida tuzilayotganda barcha aksiyalar uning muassislari orasida joylashtirilishi lozim.

Emitent aksiyadorlik jamiyati shaklida tuzilayotganda muassislar o‘rtasida joylashtirilishi lozim bo‘lgan aksiyalarning

tiplari, ular bo‘yicha to‘lov miqdori, shakli va tartibi, shuningdek, ustav kapitalining miqdori qonunchilik hujjatlari talablarini hisobga olgan holda uni tuzish to‘g‘risidagi ta’sis shartnomasi yoki emitent ustavi bilan belgilanadi.

Aksiyalarni qo‘shimcha chiqarish faqat emitentning ilgari joylashtirilgan barcha aksiyalari to‘liq to‘langandan keyingina amalga oshirilishi mumkin. Aksiyalarni qo‘shimcha chiqarish to‘g‘risidagi qaror faqat emitent ustaviga kiritiladigan aksiyalarning oldingi chiqarilishi natijalariga ko‘ra joylashtirilgan va e’lon qilingan aksiyalar sonining yangi miqdoriga nisbatan kiritilgan o‘zgarishlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan keyin qabul qilinishi mumkin.

Aksiyalarning nominal qiymati O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanishi lozim.

Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun emitent ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

a) quyidagilar ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza:

tashkilot nomi;

tashkilotning yuridik manzili;

qimmatli qog‘ozlarning soni, ko‘rinishlari va turlari;

bir dona qimmatli qog‘ozning nominal qiymati;

chiqarilishning umumiy hajmi;

qimmatli qog‘ozlar chiqarilishining tartib raqami;

qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha hujjatlarni ko‘rib chiqish uchun to‘lov summasi, to‘lov qog‘ozi sanasi va raqami (qonunchilikda ko‘rsatilgan holatlar bundan mustasno);

emitentning mas’ul xodimi haqida ma’lumot va uning aloqa ma’lumotlari;

b) mazkur qoidalarga muvofiq rasmiylashtirilgan qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror (uch nusxada);

v) mazkur qoidalarga muvofiq rasmiylashtirilgan risola (uch nusxada) (qimmatli qog‘ozlar ommaviy joylashtirilgan taqdirda);

g) qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risida qaror chiqarilganligini tasdiqlovchi aksiyadorlarning yoki jamiyat

ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi bayonnoma nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma agar mazkur qaror aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilingan bo‘lsa — ovoz berishda ishtirok etgan aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi a’zolarining familiyasi, ismi, shariflari ko‘rsatilgan yig‘ilish bayonnoma nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma;

d) qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorning tasdiqlanganligini tasdiqlovchi aksiyadorlarning yoki jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi bayonnoma nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma, kuzatuv kengashi tomonidan qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risida qaror tasdiqlangan taqdirda esa – ovoz berishda ishtirok etgan aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi a’zolarining familiyasi, ismi, shariflari ko‘rsatilgan yig‘ilish bayonnoma nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma;

e) risola tasdiqlanganligini tasdiqlovchi aksiyadorlarning yoki jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi bayonnomasi nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma, aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi tomonidan risola tasdiqlangan taqdirda esa - ovoz berishda ishtirok etgan kuzatuv kengashi a’zolarining familiyasi, ismi, shariflari ko‘rsatilgan yig‘ilish bayonnomasi nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma;

j) qimmatli qog‘ozlarning chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik uchun belgilangan yig‘im to‘langanligi to‘g‘risidagi to‘lov hujjati (qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

Arizalarga hujjatlar ro‘yxati ilova qilinib, nusxalar va varaqlar soni ko‘rsatiladi.

Ariza tashkilot rahbari hamda bosh hisobchisi tomonidan imzolanishi kerak.

Ro‘yxatga oluvchi bank quyidagi hollarda qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etishi mumkin:

- emitent bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonun hujjatlarini va qimmatli qog‘ozlarni chiqarish uchun ro‘yxatga olish hujjatlarini tuzish va qayta ishlash tartibini buzish;

- ro‘yxatga olish hujjatlarini to‘liq taqdim etmaslik;

- ro‘yxatga olish hujjatlarida ishonchsiz yoki aksiyalarni chiqarish shartlari amaldagi qonunchilik, bank qoidalari va yo‘riqnomalariga mos kelmaydi degan xulosaga kelish imkonini beruvchi ma’lumotlarning mavjudligi;

- bank tomonidan qimmatli qog‘ozlar chiqarilishidan oldingi kundagi choraklik hisobot ma’lumotlariga ko‘ra iqtisodiy standartlarga rioya qilmaslik.

Agar emissiya natijalari bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatkichlar bajarilgan bo‘lsa, ro‘yxatga oluvchi organ aksiyalarni chiqarishga ruxsat berishi mumkin.

Banklar aksiyalar uchun to‘lovni qabul qilishlari mumkin:

- milliy va xorijiy valyutadagi naqd pullarda;
- bank faoliyati uchun zarur bo‘lgan, qurilishi tugallangan bino ko‘rinishidagi, bank ishtirokchilariga tegishli bo‘lgan va avtomatik rejimda ishlaydigan bankomatlar va terminallar, mijozlardan naqd pul olish va ularni saqlash uchun mo‘ljallangan moddiy boyliklar tarzida.

Ro‘yxatga olingan kundan boshlab dastlabki ikki yil ishida moddiy boyliklarning ulushi ustav kapitalining umumiy miqdorining 20%dan, kelajakda esa 10%dan oshmasligi kerak.

Amaldagi banklar o‘z mablag‘lari hisobidan aksiyalarning qo‘shimcha chiqarilishini to‘lashlari mumkin:

- aksiya mukofoti;
- moddiy boyliklarni qayta baholashdan tushgan mablag‘lar;
- o‘tgan yillardagi taqsimlanmagan foyda qoldiqlari.

Birinchi chiqarilgan aksiyalar tijorat banki (uning hududiy filiallari) tomonidan bank ta’sischilariga davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma berilgan kundan boshlab 30 kalendar kundan kechiktirmay joylashtirilishi kerak. Boshqa hollarda muddat aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror bilan, lekin ushbu qimmatli qog‘ozlarning qo‘shimcha chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab bir yildan kechiktirmay belgilanadi.

Emissiya natijalari to‘g‘risidagi hisobot Markaziy bankning tegishli bo‘linmasiga taqdim etiladi. Aksiyalarning birinchi chiqarilishi to‘g‘risidagi hisobot doimiy bank litsenziyasini olish uchun hujjatlar bilan bir vaqtda taqdim etiladi.

Ro‘yxatga oluvchi qimmatli qog‘ozlar chiqarilishining hisoboti va natijalarini ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etishi mumkin, ya’ni emissiya haqiqiy emas deb topiladi va emissiyaning o‘zini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bekor qilinadi. Aksiyalarning chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bekor qilinganda emitent bank xaridorlarga ulardan olingan mablag‘lar va moddiy boyliklarni qaytaradi.

Emissiya natijalari to‘g‘risidagi hisobotni ro‘yxatdan o‘tkazgandan so‘ng, emitent bank emissiya natijalarini ilgari e’lon qilingan bosma organda e’lon qiladi.

Tijorat banklari tomonidan obligatsiyalar chiqarish tartibi. Tijorat banklari aktiv operatsiyalar uchun qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish uchun obligatsiyalar chiqarishi mumkin**.** **Obligatsiya -** emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat’iy belgilangan foizni olishga bo‘lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi.

Obligatsiyalarni chiqarishning majburiy sharti bu bank tomonidan chiqarilgan barcha aksiyalarning (aksiyadorlik banki uchun) to‘liq to‘lanishi yoki ishtirokchilar tomonidan bankning ustav kapitalidagi ulushlarining to‘liq to‘lanishi (aksiyadorlik shaklida tashkil etilgan bank uchun) lozim. Aksiya va obligatsiyalarni bir vaqtda chiqarish qonun bilan taqiqlanadi.

Obligatsiyalar nominal va taqdim etuvchiga, qog‘ozda *va* naqd pulsiz shaklda chiqariladi. Obligatsiyalarning minimal to‘lov muddati – bir yil. Bir emissiya doirasida obligatsiyalar turli narxlarda sotilishi mumkin (yagona joylashtirish bahosi talabi ularga nisbatan qo‘llanilmaydi).

Obligatsiyalar qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda belgilangan muddatda, lekin ularning chiqarilishi ro‘yxatga olinganidan keyin bir yildan kechiktirmay nominal qiymatida yoki chegirma bilan sotiladi.

Tijorat banklari tomonidan sertifikat va o‘z veksellarini chiqarish tartibi. Depozit yoki jamg‘arma sertifikati omonatchi yoki

uning vorisi belgilangan muddat tugaganidan keyin omonat (depozit) summasini va u bo‘yicha foizlarni olish huquqini tasdiqlovchi emitent-bankning pul mablag‘larini depozitga qo‘yganligi to‘g‘risidagi yozma ma’lumotnomalari asosida beriladi. Da’voni (sessiyani) topshirishni rasmiylashtirish uchun nominal jamg‘arma (depozit) sertifikati yoki unga qo‘shimcha varaqlar - qo‘shimchalar bo‘lishi kerak.

Depozit sertifikatlari yuridik shaxslarga, omonat sertifikatlari faqat jismoniy shaxslarga sotish uchun chiqariladi. Ikkala turdagi sertifikatlar so‘mda beriladi. Sertifikat muddatli kafolatdir. Depozit sertifikatlari muomalasining maksimal muddati - bir yil, jamg‘arma sertifikatlari - uch yil.

Depozit va jamg‘arma sertifikatlari daromad ta’minoti turlari sifatida sotilgan tovarlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitob yoki to‘lov vositasi bo‘lib xizmat qila olmaydi. Bunday sertifikatlarni bir egadan boshqasiga o‘tkazishda cheklovlar mavjud. Depozit sertifikati faqat yuridik shaxsdan yuridik shaxsga, jamg‘arma sertifikati faqat jismoniy shaxsdan jismoniy shaxsga o‘tkazilishi mumkin.

Tijorat banklarida o‘z veksellarini chiqarish banklarga yig‘ilgan mablag‘lar miqdorini ko‘paytirishga, mijozlarga esa universal to‘lov vositasini olish imkonini beradi.

Veksel - bu veksel egasiga to‘lash muddati tugagach ma’lum miqdorda pul to‘lash bo‘yicha vekselning (bankning) so‘zsiz pul qarzini bir tomonlama majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog‘oz.

Bank veksellari bir qator shubhasiz afzalliklarga ega:

- tijorat banklarida emissiya qoidalari va shartlarini majburiy ro‘yxatdan o‘tkazmaslik;
- ketma-ket va bir martalik tartibda chiqarish;
- jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tovarlar va xizmatlar uchun to‘lov vositasi sifatida foydalanish;
- cheklovsiz indossament orqali o‘tkazish;
- kredit olishda garov sifatida foydalanish;
- indossantlarning birgalikdagi javobgarligi bilan ta’minlangan likvidlikning oshishi;
- milliy va chet el valyutalarida chiqarish.

Tijorat banklari veksellarni talab bo‘yicha va taqdim etish

vaqtini koʻrsatgan holda chiqaradilar. Foizli, chegirmali va foizsiz veksellar mavjud. Foizli veksellar birinchi veksel egasiga yoki uning merosxoʻriga toʻlash uchun bankka taqdim etilganda veksel summasi va toʻlanishi kerak boʻlgan foiz daromadini, diskont veksellarni - diskont daromadini olish huquqini beradi. *Foizsiz veksel* boʻyicha veksel egasi sotilgan vekselning nominal qiymatini oladi. Valyutadagi veksel - bu xorijiy valyutadagi toʻlov hujjati boʻlib, valyuta qiymatlariga taalluqlidir va veksellar bilan operatsiyalar oʻz navbatida valyuta operatsiyalari deb hisoblanadi.

5.5. Qimmatli qogʻozlar bozorida tijorat banklarining vositachilik faoliyati. REPO, anderrayting va trast operatsiyalari

Banklarning qimmatli qogʻozlar bilan operatsiyalari boshqa turdagi boshqa operatsiyalardan tashkil topishi mumkin. Bizga ma'lumki hozirgi vaqtga kelib banklar qimmatli qogʻozlar bilan ishtiroki fond birjalarida yetakchi oʻrinlarni egallab kelmoqda. Biz bu kabi oʻzgarishlarni quyidagi ma'lumotlar asosida koʻrishimiz mumkin. Qimmatli qogʻozlar bozoridagi bank faoliyati rangbarangdir.

Depozitar xizmat koʻrsatish. Bu vazifa xorijiy banklar amaliyotida mavjud. Tijorat banki, depozitariydagi kabi mijozning qimmatli qogʻozlarini saqlaydi, ularga boʻlgan huquqlarini hisobga oladi, ularning harakati hisobini yuritadi. Qimmatli qogʻozlarni saqlash uchun banklar mijozlarga "depo" hisobraqamini ochadi va depozitar xizmat koʻrsatish shartnomasiga muvofiq ular boʻyicha qonunchilikda ruxsat etilgan barcha operatsiyalarni amalga oshiradi. Banklar har xil turdagi korxonalar, shu jumladan, investitsiya fondlari uchun depozitariy vazifalarini amalga oshirishi mumkin.

Oʻzbekistonda qonunchilikka muvofiq depozitar faoliyat faqat ixtisoslashgan investitsiya muassasalari-depozitariylar tomonidangina amalga oshirilishi mumkin. Banklar ushbu vazifani bajarish huquqiga ega emas.

Bir qancha mamlakatlarda banklar boshqaruvchi kompaniyalar vazifasini bajaradi. Ushbu vazifalarni banklar

mijozlar bilan tuziladigan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi. Bunda bank mijozning qimmatli qog‘ozlar portfeli va uning barcha investitsiyalarini shakllantiradi hamda boshqaradi. Bu borada banklar investitsiya fondlariga ham xizmat ko‘rsatishi mumkin.

Trast xizmatlari. Bu - banklar faoliyatining keng tarqalgan sohasidir. Tijorat banklari tarkibida ushbu operatsiyalarni bajarish uchun maxsus trast-bo‘limlar tuziladi. Ular xususiy mulkdorlar, shuningdek, firma va aksiyadorlik jamiyatlari uchun trast operatsiyalarini amalga oshiradi.

Ularga aktivlar (mulk)ni tasarruf etish, aksiyadorlik jamiyatlari ishini boshqarish, vositachilik xizmati ko‘rsatish kabilar kiradi.

Aktivlarni tasarruf etish. Bu – guruh operatsiyalarining eng ko‘p tarqalganlariga pensiya, o‘zaro va boshqa maqsadli fond (jamg‘arma)larni boshqarish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar kiradi.

Mazkur holda trast - bo‘limning ishi mablag‘larni biror maqsadli fondga va trast to‘g‘risidagi shartnomaga asosan oluvchilarga pul to‘lash uchun mablag‘larni to‘plash, jamg‘arish (akkumulyatsiyalash)dan iborat. Alohida shaxslar uchun trast-bo‘lim vasiyatnoma bo‘yicha ishonchli shaxsga (vasiyatnoma ijroshisi sifatida) xizmat ko‘rsatishi mumkin. Bir qancha hollarda trast-bo‘lim firma tomonidan chiqarilgan obligatsiyalarning saqlanishini ta’minlaydigan qimmatli qog‘ozlar egasi bo‘lishi ham mumkin.

Kompaniya ishlarini yoki alohida shaxsning mulkini boshqarish. Bunday boshqarish vaqtinchalik, muvaqqat xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Korxona qayta tashkil etilayotgan, qo‘shilayotgan, sanatsiya qilinayotgan vaqtda katta tashkiliy, moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechiradi yoki bankrot bo‘ladi. Shunday paytda trast-bo‘lim ishonchli shaxs sifatida kreditorlarga qarzlarni, byudjetga to‘lanmagan soliqlarni to‘laydi, korxonani tugatishga oid hujjatlarni rasmiylashtiradi, vakolatlik vazifalarini bajaradi va h.k.

Xususiy shaxsning mulkini boshqarish trast bitim asosida yoki sud farmoyishi bo‘yicha, odatda, ishonchli shaxs yoki uchinchi shaxs (masalan, layoqatsiz) bo‘lgan benefitsiar foydasiga amalga

oshiriladi. Mazkur holda bank oʻz nomidan ish tutib, mulkning har xil turlarini boshqaradi, mablagʻlarning samarali qoʻyilishini taʼminlaydi, bunday qoʻyilmalardan tushadigan daromadni va trast bitimning asosiy summasini tasarruf etadi.

Agentlik xizmatlari. Bunda bank muayyan muddatga tuzilgan shartnoma asosida prinsipal deb ataluvchi oʻz mijozi nomidan va uning topshirigʻi boʻyicha harakat qiladi. Bu holda bank mulkni tasarruf etish huquqiga ega boʻlmaydi; mulkni tasarruf etish huquqi prinsipalning oʻzida qoladi. Vositachilik xizmatlari qimmatliklarni seyflarda saqlashdan iborat boʻlib, bunda bank mijozning topshirigʻi boʻyicha qimmatliklarni oladi, saqlaydi va beradi yoki seyflarni ijaraga beradi, mijozning oʻzi bu seyflarda oʻz qimmatliklarini, shu jumladan, qimmatli qogʻozlarini saqlaydi.

Bank vositachilik xizmatlarini koʻrsatib, mijozning aktivlarini saqlaydi: uning koʻrsatmalariga asosan harakat qilib, aksiyalar boʻyicha dividendlar, obligatsiyalar boʻyicha foizlar olish, obligatsiyalarni toʻlash, qimmatli qogʻozlarni almashtirish va h.k.ga doir operatsiyalarni bajaradi.

Nihoyat, vositachilik xizmati koʻrsatish doirasida prinsipal aktivlarini boshqarish amalga oshiriladi, bunda bank mijozning topshirigʻi boʻyicha investitsiyalashni amalga oshiradi, mijoz nomidan shartnomalar tuzadi, qimmatli qogʻozlarni beradi, ssudalar oladi, cheklar yozib beradi va imzolaydi, veksellarni indossatsiya qiladi, qimmatli qogʻozlar portfelining holatini tahlil qiladi, mijoz portfelida mavjud boʻlgan qimmatli qogʻozlar kurslarini kuzatib boradi, qimmatli qogʻozlar oldi-sotdisini amalga oshiradi, ularning sugʻurtasini rasmiylashtiradi va h.k.

Aksiyadorlar reestri (roʻyxati)ni yuritish. Odatda, bunday xizmat koʻp sonli aksiyadorlariga ega boʻlib, bank mijozlaridan hisoblangan aksiyadorlik jamiyatlari foydalanadi. Aksiyadorlarning reestrini yuritib, bank aksiyadorlik jamiyati qatnashchilarining tarkibi, unda kuchlarning joylashishi, aksiyalar harakati va h.k. toʻgʻrisida axborot oladi.

Veksel operatsiyalari - bank operatsiyalarining eng keng tarqalgan turidir. Ularga veksellar hisobini yuritish, veksellarni qayta hisoblash, vekselga ssuda berish, veksellarni inkasso qilish, veksellar domitsilyasiyasi, veksellarni avallash, veksellar aksepti,

veksellar bilan amalga oshiriladigan forfeyting operatsiyalari kiradi.

Veksellar hisobini yuritish - bu veksel egasi tomonidan vekselni bankka indossament bo‘yicha to‘lov muddati kelguniga qadar berish (sotish) va buning evaziga hisob yuritish foizi yoki diskont deb ataladigan muayyan foiz chiqarib tashlangan holda, veksel summasini olishdir.

Forfeyting operatsiyalari. Forfeyting - bu mol (tovarlarni) yetkazib berish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha talablar qo‘yish huquqini olish, ushbu talabga doir operatsiyalarni bajarish va uni inkasso qilish xatarini qabul qilishdir.

Forfeyting, odatda, eksportyordan importyor tomonidan akseptlangan tijorat veksellarini sotuvchiga qaytib kelmasdan sotib olish shaklidagi tashqi savdo operatsiyalarini kreditlashda qo‘llanadi.

Brokerlik faoliyati - bu qimmatli qog‘ozlar bilan ishonchli shaxs yoki komissiya a’zosi sifatida bitim tuzish, topshiriq shartnomasi yoki komissiya asosida amalga oshadi.

Dillerlik faoliyati - bu qimmatli qog‘ozlarni o‘zining hisobidan sotish-sotib olish bitimini amalga oshirish.

Kliring faoliyati - bu faoliyat o‘zaro majburiyatlarni aniqlash bo‘yicha (yig‘im, taqqoslash, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha bitim axboroti korrektirovkasi va bular bo‘yicha buxgalteriya hujjatlarini tayyorlash) va qimmatli qog‘ozlar taklifi bo‘yicha hisobotdir.

Aksionerlik tijorat banki o‘zining shaxsiy qimmatli qog‘ozlarini ustav kapitalini oshirish yoki mablag‘larni o‘zlariga jalb qilish maqsadida chiqarishlari mumkin. Shu yo‘l bilan bank qimmatli qog‘ozlar bozoriga moliyaviy vositachi (broker), moliyaviy investor (diler) va qimmatli qog‘ozlar emitenti sifatida qatnashishi mumkin.

REPO operatsiyasi - bu qimmatli qog‘ozlarni keyinchalik yuqoriroq bahoda sotish (sotib olish) majburiyati bilan sotib olish (sotish). REPO shartnomasining birinchi qismida sotuvchi kreditlanadi va ikkinchi qismida pul mablag‘lari egasiga ortig‘i bilan qaytariladi. Qimmatli qog‘ozlar egaligini huquqiy berish ma’lum vaqtga kreditni ta’minlangan qiladi va riskni kamaytiradi.

Haqiqiy REPO va sotuv turidagi REPO qayta sotib olish bilan

farqlanadi. Haqiqiy REPO faqatgina tomonlar oʻrtasida REPO bitimini tuzish toʻgʻrisidagi bosh shartnoma boʻlgandagina tuziladi. Bunday shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlarini hamda ular oʻrtasidagi hisob-kitob qoidalari aniq koʻrsatiladi. Haqiqiy REPOning foizli daromadlari sotish va qaytib sotib olish turidagi REPOnikidan yaqqol farq qiladi.

REPO operatsiyalari katta makroiqtisodiy ahamiyatga ega, chunki ular bank tizimining likvidligini boshqarish va ochiq bozorda operatsiyalar doirasini kengaytirish uchun ishlatiladi. Tijorat banklari vaqtinchalik boʻsh resurslarni kamroq xavf bilan joylashtirishlari mumkin.

REPO - bu ikki qismdan iborat moliyaviy operatsiya. Bitimda ishtirok etuvchi tomonlardan biri boshqa tomonga qimmatli qogʻozlarni sotadi va shu bilan birga ma'lum bir sanada yoki boshqa tomonning iltimosiga binoan ularni qaytarib sotib olish majburiyatini oladi.

Qayta sotib olish majburiyati ikkinchi shaxs tomonidan oʻz zimmasiga olgan qayta sotish majburiyatiga mos keladi. Qimmatli qogʻozlarni qayta sotib olish dastlabki sotish narxidan farq qiladigan narxda amalga oshiriladi. Narxlar oʻrtasidagi farq - bu REPOning birinchi qismida qimmatli qogʻozlarni xaridor (mablagʻlarni sotuvchi) sifatida harakat qilgan tomon olishi kerak boʻlgan daromad. Amalda sotuvchining daromadi REPO stavkasi bilan belgilanadi, bu esa REPO operatsiyasining samaradorligini boshqa moliyaviy operatsiyalar bilan solishtirish imkonini beradi.

REPO operatsiyalari odatda shartnoma asosida amalga oshiriladi. REPO operatsiyalari qimmatli qogʻozlar bilan ta'minlangan ssuda sifatida ham ta'riflanadi (bu qimmatli qogʻozlar bilan "ta'minlangan" kredit berish).

Yaroqlilik muddati boʻyicha REPOlar uch turga boʻlinadi:

1. Tun (bir kun uchun);
2. Ochiq (operatsiya davomiyligi aniq belgilanmagan);
3. Shoshilinch (bir kundan ortiq, belgilangan muddat bilan, masalan, yetti kun).

Foiz stavkasi REPO muddati bilan bogʻliq.

Anderrayting operatsiyalari. Investitsiya kompaniyasi faoliyatining asosiy yoʻnalishlaridan biri anderrayting - qimmatli

qogozlarni xarid qilish yoki ularni sarmoyadorlar oʻrtasida joylashtirish kafolatini berish hisoblanadi. Anderraytingga quyidagilar kiradi: qimmatli qogʻozlarni chiqarish shartlarini belgilash, ularning yangi nashrlarini tayyorlash, qimmatli qogʻozlarni keyin sarmoyadorlarga qayta sotish uchun emitentlardan sotib olish, ularni joylashtirish kafolatini berishni tashkil etish.

Anderrayter - bu qimmatli qogʻozlarga xizmat koʻrsatuvchi va ularning birlamchi joylashtirilishiga kafolat beruvchi, qimmatli qogʻozlarni keyinchalik xususiy sarmoyadorlarga qayta sotish uchun emitentdan sotib oluvchi investitsiya muassasasidir.

Investitsiya kompaniyalari tomonidan anderraytingning amalga oshirilishini quyidagi asosiy bosqichlarga boʻlish mumkin:

- qimmatli qogʻozlarni muomalaga chiqarishga tayyorlash, shu jumladan, emitent va bunga koʻmaklashuvshi boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda nashrlarni rejalashtirish, muomalaga chiqariladigan qimmatli qogʻozlarni baholash, emitent hamda nazarda tutilayotgan sarmoyadorlar oʻrtasida aloqalarni oʻrnatish va h.k.;

- qimmatli qogʻozlarni taqsimlash, shu jumladan, emissiyaning bir qismini yoki butun summasini sotib olish, qimmatli qogʻozlarni sarmoyadorlarga sotish, mazkur qimmatli qogʻozni joylashtirish vaqtida uning bozor narxini qoʻllab-quvvatlash;

- sotilgandan keyingi davrda qimmatli qogʻozning kursini ma’lum vaqt mobaynida qoʻllab-quvvatlash (odatda bir yil);

- qimmatli qogʻozning kurs qiymati oʻzgarishini tahlil va nazorat q ilish, unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash.

Trast operatsiyalari. Trast-ingliz tilida “ishonch” degan ma’noni bildiradi. Bank jismoniy va yuridik shaxslardan pul mablagʻlarini ma’lum bir muddatga jalb qilib, shu muddat ishida ishonch olingan mablagʻni yuqori foyda olib keladigan operatsiyalarga joylashtiradi. Trast operatsiyalari bank ishida va banklarning sanoat va iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan aloqalarida katta rol oʻynaydi.

Trast operatsiyalarini banklarda paydo boʻlish tarixi yana bir bor tijorat banklariga boʻlgan ishonchni katta ekanligidan dalolat beradi. Sababi shundaki, juda badavlat insonlar tomonidan hali

balog‘at yoshiga etmagan farzandlari nomiga qoldirilayotgan boyliklarni, ularning vafotidan so‘ng boshqarish muammosini yuzaga kelishi banklarnig trast operatsiyalarini paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Banklar ushbu mablag‘lari fazandlar balog‘at yoshiga etgunga qadar, ishonchli tarzda boshqaradilar.

Trast operatsiyalari asta-sekin banklarning korporativ mijozlari bilan bo‘ladigan munosabatlariga ko‘chdi. Mijoznnig qimmatli qog‘ozlari portfelini yoki ushbu portfelning bir qismini hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan pul mablag‘larini boshqarish tijorat banklarining trast operatsiyalari tashkil qiladi.

Tijorat banklari trast operatsiyalarini amalga oshirish tufayli: birinchidan, qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish, birjadagi operatsiyalarda foydalanishi mumkin bo‘lgan uzoq muddatli moliyaviy resurslardan bahramand bo‘la oladi; ikkinchidan, trast operatsiyalariga bog‘liq bitimlarni banklar o‘z mijozlarining shartnomalari asosida amalga oshiradi, shuning uchun bitimlar qonunlar bilan cheklanmaydi; uchinchidan, bank qimmatli qog‘ozlarni boshqarishdan komission mablag‘lar olib, o‘zi boshqarayotgan qimmatli qog‘ozlardan tushayotgan foydadan o‘z ulushini oladi; to‘rtinchidan, bank o‘z sarmoyalari bilan emas, balki o‘zgalar sarmoyalari bilan operatsiyalar o‘tkazadi va faqat trast shartnomasi doirasidagina javobgar bo‘ladi, asosiy tavakkalchilik esa qimmatli qog‘ozlar egasining zimmasida bo‘ladi.

Tijorat banklari xilma-xil trast operatsiyalarini bajarishi mumkin:

- mijozlarning pul mablag‘larini boshqarish, mijozlarning fond portfellarini shakllantirish va qimmatli qog‘ozlar paketlarini boshqarish;
- meroslar va xususiy trastlarni tasarruf etish, agentlik vazifalarini bajarish;
- obligatsiyalar chiqarish va to‘lov muddati kelganda obligatsiyalarni to‘lash fondlarini boshqarish;
- dividentlarni to‘lashga qimmatli qog‘ozlarni saqlashga, ularning harakatini hisobga olishga, ularni boshqa qimmatli qog‘ozlarga almashtirib olishga oid, agentlik vazifalarini amalga oshirish;
- qimmatli qog‘ozlarga va qimmatli qog‘ozlar operatsiyalariga

oid tavakkalchilikni sug‘urtalashda vositachilik qilish, qimmatli qog‘ozlar operatsiyasi yuzasidan buxgalterlik hisobi yuritish va hisobotlar tuzish, qimmatli qog‘ozlar emitenti uchun transfert bo‘yicha agent (qimmatli qog‘ozlarni ro‘yxatga oluvchi) vazifasini bajarish va boshqalardir.

V bobga oid nazorat savollari:

- Qimmatli qog‘ozlar bozori nima?
- Qimmatli qog‘ozlarning mohiyati, zarurligi va turlarini tushuntiring.
- Qimmatli qog‘ozlarni belgilari bo‘yicha tasniflang.
- Investitsiya portfeli nima va unga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
- Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bilan qanday operatsiyalarni bajaradi?
- Veksellar, majburiyatlar va obligatsiyalar investitsiya funksiyasini bajarishda qanday o‘rin tutadi?
- Sertifikatlar investitsiya funksiyasini bajara oladimi?
- Qaysi turdagi qimmatli qog‘ozlar vositasida bank investitsiya funksiyasini bajarishni xush ko‘radi?
- Investitsiya vositalarini tanlash jarayoniga qaysi omillar ta’sir ko‘rsatadi?
- Investitsiya portfelini diversifikatsiyalashdan maqsad nima?
- Komission operatsiyalar deganda nimani tushunasiz va ularning qanday turlarini bilasiz?
- Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati va uning turlarini tushuntiring.
- REPO operatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
-Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan bo‘ladigan operatsiyalarida uchraydigan risklarni aniqlang va uni muhokama qiling.
- Trast operatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
- Trast operatsiyalarining tijorat banklari faoliyatidagi o‘rnini tushuntiring.

VI BOB. TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH MEXANIZMI

6.1. Tijorat banklarida kreditlashni tashkil qilish.
6.2. Kreditlash tamoyillari.
6.3. Tijorat banklarining kreditlash bosqichlari.
6.4. Bank kreditlarining turlari, shakllari va funksiyalari.
6.5. Tijorat bankining kreditlash usullari va ssuda hisobvaraqlarining shakllari.

Tayanch iboralar. Tijorat banklari, kredit, ssuda, marja, kredit subyektlari, foiz, kredit tamoyillari, kredit turlari, kredit riski.

6.1. Tijorat banklarida kreditlashni tashkil qilish

Keng ma'noda kreditlash deganda, tomonlar tomonidan barcha kredit shartlarini majburiy bajarish bilan qarz beruvchidan qarz oluvchiga qarzga olingan summaning o'tishi jarayoni tushuniladi.

Kredit tizimi o'zaro bog'liq bo'lgan uchta elementni o'z ichiga oladi:

- kredit subyektlari;
- kredit berish;
- kreditlash imkoniyatlari.

Kredit tizimining to'liq namoyon bo'lishi nuqtayi nazaridan uchta nomdagi elementning birligi muhim ahamiyatga ega.

Kredit munosabatlari tizimida bevosita kreditlash subyektlariga qarz beruvchi va qarz oluvchi kiradi. Umumiy amaliyotda kreditlash subyektlari kredit shakliga qarab belgilanadi.

Kreditorlar - o'zlarining vaqtincha bo'sh pul mablag'larini ma'lum muddatga qarz oluvchining ixtiyoriga qo'yadigan yuridik va jismoniy shaxslardir. Kredit munosabatlari tizimida bunday subyekt, qoida tariqasida tijorat banki hisoblanadi.

Qarz oluvchi - bu kredit munosabatlarining bir qismi bo'lib, u keyinchalik qaytarilishi sharti bilan ma'lum bir muddatga kredit oladi.

Kreditlash turlariga qarab, ushbu bitimning subyektlari ham farqlanadi, xususan:

1) davlat kreditida - davlat va aholi, davlat va banklar, korxonalar, bank va davlat;

2) tijorat kreditida - xomashyo, tovar yetkazib beruvchi va tovar xaridori. Tijorat banki bunday operatsiyani amalga oshirishda vositachi sifatida qatnashishi mumkin;

2) iste'mol krediti - bank va aholi, savdo kompaniyalari va aholi. Tijorat banki bu o'rinda vositachi sifatida ham qatnashishi mumkin;

3) xalqaro (davlatlararo) kredit – har qanday maqomda bitim subyektlaridan biri (tijorat banki, davlat, korxona) chet el vakili hisoblanadi;

4) bank krediti – bank va korxona, bank va xususiy tadbirkor.

Kreditning har bir shakli kredit munosabatlari subyektlari, ularning manfaatlari va amalga oshirish mexanizmiga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shunday qilib, bank krediti hech qanday vositachisiz faqat ikkita subyektning mavjudligini nazarda tutadi. Birinchi holda, tijorat banki kredit operatsiyalarini amalga oshirayotganda - kreditor, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar esa - qarz oluvchi sifatida chiqadi. Aksincha, tijorat banki kapitalni jalb qilishi kerak bo'lganda, kreditorlar o'z pullarini kredit muassasasiga joylashtirgan jismoniy va yuridik shaxslardir. Bunday holatda tijorat banklari qarz oluvchilar sifatida ishlaydi.

Tijorat banki o'z kreditini taqdim etish va kreditni qaytarish uchun tashkiliy ishlarni hamda real shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi va bu kredit jarayonining barqaror rivojlanishi uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Tijorat banklari kreditlarni taqdim etishda mablag'larning qaytarilishi xavfsizligiga e'tibor qaratadi va ularning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- bevosita;
- bilvosita;
- xavfsiz.

Binobarin, bank amaliyotida garov evaziga, qisman ta'minlangan va ta'minlanmagan kreditlar ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 259-moddasi majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashning quyidagi usullarini belgilaydi:

- neustoyka;

- garov;
- qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish;
- kafillik;
- kafolat;
- zakalat hamda qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ta’minlanishi mumkin.

"Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasi qonunini yangi tahriridagi 63-moddasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bank kreditlarini to‘lashni ta’minlash usullarini aniqlaydi va garov, kafolatlar, kafillik, majburiyatlar asosida va majburiyatlar bajarilishini ta’minlashning qonunda nazarda tutilgan boshqa usullari asosida kreditlar beradi.

Har qanday turdagi garov ta’minotining sifati kreditning maqsadli ishlatilishiga va uning o‘z vaqtida qaytarilishiga ta’sir qiladi.

Qarz oluvchi tomonidan shartnomaga doir majburiyatlar buzilgan taqdirda, banklar taqdim etilgan kreditlarni va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni shartnomada nazarda tutilgan tartibda muddatidan ilgari undirishga, shuningdek, undiruvni qonunchilikda belgilangan tartibda garovga qo‘yilgan mol-mulkka qaratishga haqli.

Qonunda belgilanganidek, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi), ushbu Qonun 7-moddasining uchinchi qismida ko‘rsatilmagan va uning talablariga muvofiq bo‘lmagan aksiyalari hamda ulushlari banklar tomonidan ta’minot sifatida qabul qilinishi mumkin emas.

Bank o‘zgalar pulini jamlab uni o‘z nomidan kreditga beradi. Bu yerda kredit munosabati ikki subyekt o‘rtasida yuzaga keladi: biri pul egasi, ya’ni qarz beruvchi (kreditor) va ikkinchisi, pulga muhtoj, ya’ni qarz oluvchi (qarzdor). Kredit munosabati amalga oshishi uchun uning zarur unsurlari, ya’ni kreditning obyekti va subyekti bo‘lishi lozim).

Kredit subyektlari har xil, bularga korxona, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.

Kreditning obyekti har qanday pul emas, balki faqat vaqtincha bo‘sh turgan, egasi tomonidan ishlatilmay va qarzga berilishi mumkin bo‘lgan puldir. **Bo‘sh pul uch xil bo‘ladi:**

- tadbirkorlar yoki katta puldorlar qo‘lidagi pul, ya’ni pul kapitali;

- aholi qo‘lidagi pul - ertami kech ehtiyojni qondirish uchun to‘plangan pul, egasi qo‘lida kapital emas, balki iste’molini qondirish vositasi;

- davlat ixtiyoridagi pul. Bu ham pul kapitali (davlat korxonasi uchun), ham umumiy iste’mol pulidir.

Tor ma’noda kreditlash obyekti - bu ssuda beriladigan va uning uchun kredit bitimi tuziladigan narsa (turli moddiy boyliklar, xarajatlar va majburiyatlarni qoplash).

Keng ma’noda kreditlash obyekti nafaqat subyektni moddiy, balki butun moddiy jarayonni ham ifodalaydi, bu esa kreditga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi va uning uzluksizligi va tezlashishini ta’minlash uchun kredit bitimi tuziladi.

Bank krediti obyektining umumiy tasnifi uning xususiy va ja’mi bo‘linishini nazarda tutadi.

Obyekt boshqa kreditlardan ajratilganda xususiy bo‘ladi. Masalan, bank o‘z mijozini faqat idishlar yoki konteynerlar, xomashyo yoki tayyor mahsulotlarni to‘plash bilan bog‘liq ehtiyojlar uchun alohida kreditlashi mumkin. Kreditlarning umumiy tarkibida ssudalar umuman xomashyo zaxiralariga emas, balki uning ma’lum bir turining to‘planishi munosabati bilan ajratiladigan holatlar ham mavjud bo‘ladi.

Jamlanma obyekt muayyan xususiy obyektga qarama-qarshidir. Bu bir-biridan ajratilmagan, balki bitta umumiy obyektga birlashtirilgan obyektlar to‘plami bo‘lib, tijorat banklari tomonidan ular uchun kredit beriladi.

Shuningdek, kreditlash obyekti har qanday moddiy qiymat bo‘lishi mumkin emas, balki qarz oluvchining qo‘shimcha - resurslarga bo‘lgan ehtiyoji bo‘ladi.

Shunday qilib, kompaniyaning o‘z mablag‘lari va olinadigan daromadlari joriy yoki kelgusi to‘lovlarni amalga oshirish uchun yetarli bo‘lmaganda, kreditlash obyekti to‘lov aylanmasidagi vaqtinchalik bo‘shliq bo‘lishi mumkin. Qoida tariqasida, bunday bo‘shliqning sabablari obyektiv xarakterga ega bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish, yetkazib berish va sotishning mavsumiyligi, to‘lovlarga bo‘lgan Vaqtinchalik ehtiyojlar bilan bog‘liq. Ba’zi

hollarda kreditga bo‘lgan umumiy ehtiyoj qarz oluvchilar faoliyatidagi kamchiliklarni ifodalovshi subyektiv omillar bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ishlab chiqarishning qisqarishi sharoitida bunday kreditlarning mavjudligi ko‘proq seziladi.

Kredit qarz oluvchi va qarz beruvchi o‘rtasidagi pul mablag‘ini to‘lovlilik, muddatlilik, maqsadlilik va qaytib berishlik asosida vaqtincha foydalanishga berish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlarni o‘zida ifoda qiladi. Tijorat banklari xo‘jalik yurituvchi subyektlarga, ularning mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, shartnoma asosida qisqa va uzoq muddatli kreditlar beradi. Kredit mijozning hisob-kitob varag‘i joylashgan bankda beriladi. Zarar ko‘rib ishlaydigan, nolikvid balansga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga kredit berilmaydi, ilgari berilgan ssudalar esa belgilangan tartibda muddatidan ilgari undirib olinadi. Kredit resurslaridan uzoq muddatli moliyaviy nobarqarorlik, xo‘jasizlik va zararlarni qoplash uchun foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Kredit iqtisodiy munosabatlarning belgilangan tizimi sifatida boshqa pul munosabatlaridan farq qiladi, ya’ni pulning xarajati qaytarib berish sharti bilan amalga oshiriladi.

6.2. Kreditlash tamoyillari

Tijorat banklarida kreditlash jarayoni bir nechta tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- kreditning muddatliligi;
- kreditning qaytarilishligi;
- kreditning ta’minlanganligi;
- kreditning to‘lovliligi;
- kreditning maqsadliligi.

Bank kreditlari muddatiga ko‘ra qisqa muddatli, o‘rta muddatli va uzoq muddatli turlarga bo‘linadi.

Tijorat banklari tomonidan beriladigan qisqa muddatli kredit amal qilish muddati 12 oydan oshmaydigan ssuda bo‘lib, uning muddatining uzaytirilishi kreditlanayotgan tadbirlarni o‘tkazish muddati, ularning qoplanishi va boshqa shartlardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qisqa muddatli ssudalar

kreditlarning boshqa turlariga nisbatan likvidliroq hisoblanadi va 1 yil muddatgacha beriladi. 1 yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar, odatda, uzoq muddatli kreditlar hisoblanadi. Ba'zi davlatlar amaliyotida 1 yildan 3 yoki 5 yilgacha berilgan kreditlar o'rta muddatli kreditlar, 5 yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar uzoq muddatli kreditlar deb qaraladi.

Kreditning muddatlilik tamoyili uning qaytarishlik tamoyili bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Kreditlashning muddatliligi ikki tomonlama xarakterga ega. Birinchidan, kreditning mohiyati vaqtincha foydalanishga berilgan mablag'larning qaytarilishinigina bildirib qolmay, balki bu qaytarilishning aniq muddatlarini belgilashni ham taqozo etadi. Kreditning muddati, **bir tomondan,** foydalanishga berilayotgan kredit resurslarining bo'sh turish muddati bilan belgilansa, **ikkinchi tomondan,** qarz oluvchining mablag'larga bo'lgan vaqtinchalik ehtiyojlarining muddatiga bog'liq. Kreditlash muddatliligining bu ikki tomonlama xarakteri inobatga olinganda, vaqtinchalik foydalanishga berilgan mablag'larni to'liq va belgilangan muddatda qaytarilishini ta'minlash mumkin. Kreditning muddatligiga rioya qilish banklar uchun ham, qarz oluvchilar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Buning hisobiga bank kredit resurslarining aylanishini jadallashtirsa va ulardan oqilona foydalanishga erishsa, xo'jaliklar o'z daromadlarini ko'paytirish, o'z va qarz mablag'laridan foydalanish samarasini oshirishlari mumkin. Kredit muddatini uzaytirish aksariyat hollarda bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Kredit muddati qarz olingan mablag'larning qaysi davrgacha foydalanishini hisobga olgan holda belgilanadi.

Kreditni qaytarish tamoyili kredit xo'jalik subyekti oborotida qolib ketmasligi yoki unga tegishli emasligini va u mablag' egasiga qaytarib berilishi lozimligini aks ettiradi. Bank tomonidan mijozlarga beriladigan har bir so'm pul mablag'lari yana bankka qaytarilishi lozim. Qaytarib berishning iqtisodiy asosi sifatida mablag'larning uzluksiz doiraviy aylanishi hisoblanadi. Qaytarish tamoyilining shunday muhim xususiyati borki, kreditni boshqa tovar-pul munosabatlarining iqtisodiy kategoriyalaridan farqi bo'lgan iqtisodiy kategoriya sifatida

ajratib turadi. Qaytarilish kreditning ajralmas qismi hisoblanadi.

Kreditning ta’minlanganlik tamoyili bo‘lib**,** bunda ssudaning ta’minlanganligi kredit berilishiga asosan qarz oluvchining mulki, moddiy boyliklar zaxiralari, ko‘chmas mulki yoki ishlab chiqarish xarajatlari summasiga mos kelishi bilan belgilanadi. Bu, o‘z navbatida, kreditning o‘z muddatida qaytarilishiga kafolat berilishini tasdiqlaydi. Olingan kredit mablag‘lar korxonada ishlab chiqarish zaxirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot hamda mavjud moddiy boyliklarni ta’minlash uchun beriladi. Bu tamoyil asosan korxonalarga berilgan ssudalar yoki tomonlar majburiyatlari bilan real ta’minlanadi. O‘zbekiston Respublikasida banklar faoliyatining xalqaro bank amaliyotiga yaqinlashib borayotgan sharoitda kreditning ta’minlanganligi sifatida tovar-moddiy boylik va xarajatlardan tashqari garov, kafolat va kafillik kabi shakllari ham amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Bu holat bank risklarini kamaytirgan holda kreditlarning bankka o‘z vaqtida qaytishini ta’minlaydi. Ssudaning o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlash uchun kredit shartnomasiga ko‘ra qarz oluvchi garovga ma’lum qiymatga ega bo‘lgan mol-mulkni qo‘yib rasmiylashtiradi. Agar kredit oluvchi kreditni o‘z vaqtida qaytara olmasa, u holda garovni sotish choralari ko‘riladi. Kredit bo‘yicha ta’minotning miqdori kredit miqdorining 125 foiziga teng bo‘lishi lozim. Xo‘jalik subyektining faoliyati yoki ta’minotga olinayotgan mulkning qiymati nobarqaror bo‘lgan hollarda kredit miqdori garovga qo‘yilgan mulk qiymatining 50-60 foizi miqdorida ham bo‘lishi mumkin.

Kreditlashning to‘lovlik tamoyili - shartnomaga ko‘ra kredit oluvchi korxona o‘z ehtiyoji uchun kreditga olgan pul mablag‘laridan vaqtincha foydalanganligi uchun bankka belgilangan haqni to‘lashi lozim. Amaliyotda bu tamoyil bankning foiz mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Bankning foiz stavkasi bu kreditning «narxidir». Kredit uchun haq to‘lash korxonalarni xo‘jalik hisobiga, shu jumladan, resurslarning ko‘payishiga hamda jalb qilingan mablag‘lardan foydalanishga ta’sir etadi. Bank muassasalari kredit foizi hisobidan o‘z

xarajatlarini qoplaydi. Kredit uchun haq to‘lash tamoyili qarzga olingan mablag‘lardan unumli foydalanish va kreditni qaytarish muddatini tezlashtirish maqsadida korxonaga iqtisodiy ta’sir ko‘rsatish vositasidir. Bank foizi kredit turlariga qarab turlicha belgilanadi. Qaytarilish muddati o‘tib ketgan kreditlar uchun oshirilgan miqdorda foiz olinadi, bu esa qaytarish muddati shartlariga qat’iy ravishda rioya qilishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit to‘lovi miqdorini belgilashda ahamiyat beradigan quyidagi asosiy tamoyillar mavjud:

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga beriladigan ssudalar bo‘yicha o‘rnatilgan bazaviy foiz stavkasi;
- banklararo kredit bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi, ya’ni aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun boshqa banklardan sotib olingan resurslar bo‘yicha;
- turli depozit hisobvaraqlar bo‘yicha mijozlarga bank tomonidan to‘lanadigan o‘rtacha foiz stavkasi;
- bank kredit resurslarining tarkibi (jalb qilingan mablag‘lar hissasi yuqori bo‘lganda kredit narxi ham yuqori bo‘ladi);
- kreditga bo‘lgan talab;
- talab qilinayotgan kredit muddati va kredit turi, ya’ni uning ta’minlanganligiga bog‘liq ravishda risk darajasi;
- mamlakatdagi pul aylanishining muvozanati (inflyatsiya sur’ati yuqori bo‘lsa kredit shunchalik qimmat bo‘ladi, chunki pul qadrsizlanishi tufayli bankning o‘z resurslarini yo‘qotish riski ortadi) v.b.

Kreditning maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyilida aniq xo‘jalik jarayonlarining kredit bilan bog‘liqligi ta’minlanadi. Kreditning mijoz tomonidan maqsadli yo‘naltirilishi tamoyili qarz oluvchi zimmasiga pul mablag‘larini faqat kredit shartnomasida ko‘rsatilgan maqsadlar uchun sarflashni ko‘zda tutadi. Uzoq muddatli kredit maqsadli tarzda aniq qurilish obektlari va asbob-uskunalarni sotib olish uchun beriladi. Kreditlar biznes-reja asosida beriladi. Kreditning maqsadli yo‘naltirilishini ta’minlash uning o‘z vaqtida qaytarilishi uchun real shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bu tamoyilga rioya qilish

bank muassasalari tomonidan qarz oluvchi korxonalarning hisobotlari asosida nazorat qilinadi. Berilgan kredit qarz oluvchi tomonidan boshqa maqsadga ishlatilgan bo‘lsa, u holda belgilangan tartibda kredit muddatidan ilgari qaytarib olinadi va boshqa choralar ko‘rilishi mumkin.

Tijorat bankining kreditlash tamoyillari barchasining amaliyotda yalpi qo‘llanilishi bank va uning aksionerlari hamda mijozlarining manfaatlarini himoyalashga, uning faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarning oldini olishda yordam beradi.

6.3. Tijorat banklarida kreditlash bosqichlari

Tijorat banklari mijozlarga kreditlash operatsiyalarini amalga oshirishni maqsad qilar ekan, eng avvallo, tashkiliy mexanizmni shakllantiradi. Bu esa kreditlash bosqichlarining mazmuni va tashkil etilishini, kredit va u bilan bog‘liq risklarni boshqarishni, kredit infratuzilmasini o‘z ichiga oladi.

Kreditlash bosqichlari quyidagilarga bo‘linadi: tayyorgarlik, kredit berish va qayta ishlash bosqichi, kreditdan foydalanish bosqichi.

Kredit jarayonining o‘zi birinchi kredit berilgan kundan boshlanadi. Bu jarayon shu kunga qadar va undan keyingi davrda kreditor - bank va qarz oluvchi - mijoz tomonidan ish olib boriladi.

Kredit bo‘yicha muzokaralar muayyan qaror qabul qilinishidan ancha oldin boshlanadi. Kredit taklifi ham bankdan, ham mijozdan berilishi mumkin.

Keyingi bosqich - muayyan loyihani ko‘rib chiqish. Iqtisodiy vaziyatning beqarorligi, inflyatsiya tijorat banklaridan mijozning kreditga layoqatliligini, kreditlash obyekti va garovning ishonchliligini, garov va kafolatlarning sifatini baholashda, ayniqsa, ehtiyotkor va tajribali bo‘lishni talab qiladi. Tijorat banklarida bu muammoni hal qilish kredit bo‘limiga yuklatiladi. Tijorat banki tomonidan bank xodimlariga ularning ma’lum bir vakolatlari doirasida mijozlarga kredit berish to‘g‘risida qaror qabul qilishlariga huquq beriladi va loyiha bo‘yicha bank rahbariyati tomonidan huquq berilgan xodimlar xulosasiga ko‘ra mijozga

kredit berish imkoniyati koʻrib chiqiladi va qaror qabul qilinadi.

Tayyorgarlik bosqichidan soʻng kredit hujjatlarini qayta ishlash bosqichi boshlanadi. Bank xodimlari kredit shartnomasini tuzadilar, bankka kredit berish toʻgʻrisida buyruq ishlab chiqadilar, mijoz-qarz oluvchi (kredit ishi) boʻyicha faylni ishga tushiradilar.

Kreditdan foydalanish bosqichida kredit operatsiyalari ustidan nazorat amalga oshiriladi: kredit limitiga (kredit liniyasi) rioya qilish, kreditdan maqsadli foydalanish, kredit foizlarini toʻlash, kreditlarning toʻliqligi va oʻz vaqtida qaytarilishi va hakozolar. Ushbu bosqichda mijozning kreditga layoqatliligi va moliyaviy natijalarini operativ va anʼanaviy tahlil qilish boʻyicha ishlar davom ettiriladi, kerak boʻlganda mijoz bilan muzokaralar olib boriladi va kredit berish shartlari koʻrsatiladi.

Shunday qilib tijorat banklari kreditining asosiy bosqichlariga quyidagilar kiradi:

1) kredit olish uchun arizani koʻrib chiqish va bank mutaxassislarining qarz oluvchi bilan shaxsiy aloqalari;

2) potensial qarz oluvchining kreditga layoqatliligini tahlil qilish va arizaning sifatini baholash;

3) kredit shartnomasini tayyorlash, kreditni qayta ishlash;

4) kreditni toʻlash va kredit shartnomasi shartlarining bajarilishini nazorat qilish.

Birinchi bosqich*:* kredit olish uchun arizani koʻrib chiqish*.* Kredit olish uchun ariza, qoida tariqasida, talab qilinadigan kredit toʻgʻrisida quyidagi dastlabki maʼlumotlarni oʻz ichiga olishi kerak*:*

- kreditning maqsadi;
- kreditning miqdori va valyutasi;
- kredit turi;
- rejalashtirilgan kreditni toʻlash muddati;
- taklif qilingan kredit garovi.

Bank kreditini olish uchun zarur boʻlgan asosiy hujjatlar tijorat banki tomonidan potensial qarz oluvchining kredit qobiliyatini baholash uchun qoʻllaniladi. Umuman olganda, ular quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

1) kredit berish uchun ariza-soʻrovnoma, kafillarning anketalari;

2) daromad darajasini tasdiqlovchi moliyaviy hujjatlar, moliyaviy hisobotlar;

3) pasport (jismoniy shaxslar uchun) yoki ta’sis hujjati, ustav va boshfa huquqiy hujjatlar (yuridik shaxslar uchun);

4) garovga qo‘yilgan mol-mulkka egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari.

To‘ldirilgan kredit arizasi va unga ilova qilingan hujjatlar qarz oluvchining ishonchliligi va moliyaviy barqarorligini tahlil qilish uchun kredit mutaxassisiga taqdim etiladi.

Hujjatlarni qabul qilgandan so‘ng, bank mutaxassisi potensial qarz oluvchi bilan dastlabki suhbatni o‘tkazadi. O‘tkazilgan so‘rovlar natijasida va hattoki olingan og‘zaki javoblar mijoz, kompaniya, so‘ralgan kredit, kreditni to‘lash, kredit ta’minoti, mijozning boshqa banklar bilan munosabatlari to‘g‘risida qo‘shimcha ma’lumot olish va ushbu bankni tanlash sababini aniqlash imkonini beradi.

Olingan faktlarni tahlil qilish va tekshirish asosida bankning kredit qo‘mitasi arizani ko‘rib chiqish yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Ikkinchi bosqich: qarz oluvchining kreditga layoqatliligini tahlil qilish va arizaning sifatini baholash birinchi bosqichda ijobiy qaror qabul qilinganda amalga oshiriladi . Bunday holda, ko‘rsatkichlar tizimi asosida qarz oluvchining kreditga layoqatliligi to‘liq tahlil qilinadi va kredit riski baholanadi.

Uchinchi bosqich: kreditni qayta ishlash. Tijorat banki qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholab, kredit berish masalasi bo‘yicha ijobiy qaror qabul qilgandan so‘ng kredit olish tartibini boshlaydi. Kredit bitimi qarz beruvchi va qarz oluvchi o‘rtasida ssuda shartnomasini tuzish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Kredit shartnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- kreditning maqsadi, muddati, miqdori;
- kredit qiymati - foiz stavkasi (qarzning to‘liq qiymati);
- asosiy qarz summasini va u bo‘yicha foizlarni to‘lash tartibi (grafik shaklida);
- garovni tekshirish turlari va shakllari (mavjud bo‘lsa).

Kredit shartnomasi faqat yozma shaklda tuziladi. Kredit shartnomalarining standart shakllari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tavsiyalarini hisobga olgan holda banklarning o‘zlari tomonidan ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, kredit shartnomasi shartlarining bajarilishini keyingi nazorat qilish va kreditni to‘lash

jarayonini nazorat qilish uchun kredit bitimi va qarz oluvchi to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan kredit fayli tuziladi.

To‘rtinchi bosqich: kreditni to‘lash va kredit shartnomasi shartlarining bajarilishini nazorat qilish.

Ushbu bosqichning maqsadi tijorat banki riskini kamaytirishga qaratilgan kredit monitoringidir. Kredit monitoringi ssudalarning qaytarilishini monitoring qilish tizimini, vazifani hal qilishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilishni o‘z ichiga oladi.

Nazorat protseduralari sifatida:

- kreditni to‘lash muddati yaqinlashayotgani haqida ogohlantiruvshi qo‘ng‘iroqlar;
- shunga o‘xshash SMS-xabar jo‘natish;
- eski sxema bo‘yicha kreditni qaytarishga obyektiv ravishda to‘sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelganligi sababli va boshqalar.

6.4. Bank kreditlarining turlari, shakllari va funksiyalari

Iqtisodiy nuqtayi-nazardan bank ssudasi ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlardan vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larining to‘plash bilan boshqalaridan bu mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojni qondirishni hal etish shaklidir. Tijorat banki bunda vaqtinchalik bo‘sh turgan pul mablag‘larini yo‘naltiruvshi va shuningdek ularni qayta taqsimlashda vositachi qiluvchi shaxs sifatida harakat qiladi.

Jahonda bank amaliyotining kreditlar berishda yagona, umumlashgan tasnifi yo‘q, chunki kreditlarni turli xil shakllari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, ularning urf-odatlariga, aholi orasida ssudalarni berish va qaytarish tarixan shakllangan usullariga bog‘liq bo‘ladi. Shunday bo‘lsa ham banklarning eng ko‘p uchraydigan kredit operatsiyalarini turli xil mezonlar va o‘lchovlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtirish mumkin va bunda bank kreditlari turlarining to‘liq ro‘yxatini quyida keltiramiz:

Ssuda hisobvaraqlari bo‘yicha:

- oddiy;
- maxsus;

- kontokorrent;
- overdraft.

Qarz oluvchi mijozlar guruhi bo‘yicha:

- jismoniy shaxslar:
- yuridiy shaxslar (tarmoq sohalari va tashkiliy-huquqiy shakllari bo‘yicha).

Qarz oluvchi mijozlarni moliyalashtirish tasnifiga ko‘ra;

- imtiyozli kreditlar;
- tijorat asosidagi kreditlar.

Qaysi valyutada taqdim etilishi bo‘yicha:

- milliy valyutada;
- xorijiy valyutada.

Kreditlash maqsadiga ko‘ra:

- iste’mol;
- ishlab chiqarish;
- asosiy kapitalni ko‘paytirish;
- aylanma kapitalni to‘ldirish.

Kreditorlar turi bo‘yicha:

- bank;
- tijorat;
- davlat;
- xalqaro;
- markazlashgan.

Ta’minoti bo‘yicha:

- ta’minlanmagan;
- garov;
- kafolat;
- sug‘urta.

Kreditlashning muddati bo‘yicha:

- talab qilib olingunga qadar;
- qisqa muddatli (1 yilgacha);
- o‘rta muddatli (1-3 yilgacha);
- uzoq muddatli (3 yildan ortiq).

Hajmi bo‘yicha:

- kichik:
- o‘rta;
- yirik.

Kreditni qoplash usullariga koʻra:

- boʻlib-boʻlib toʻlash;
- bitta qilib toʻlash (aniq bir sanada).

Shunday qilib Yuqorida keltirilgan guruhlanish quyidagi belgilarga koʻra bank kreditining tasnifini oshib beradi:

- tijorat banki tomonidan oʻz mijozlariga kredit berish uchun oshilgan kredit hisobvaraqlarining turlari;
- kredit uchun garovning mavjudligi;
- kredit shartlari;
- kredit miqdori;
- toʻlov usullari;
- qarz oluvchilarning turlari;
- moliyalashtirishning tabiati;
- kredit valyutasi (xorijiy valyutada kreditlash faqat tijorat bankining maxsus ruxsatnoma-litsenziyasiga ega boʻlgan taqdirdagina mumkin);
- kreditlash maqsadlari;
- kredit turlari va boshqalar.

Bank kreditining asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

- taqsimlash – mamlakat kredit fondini iqtisodiyot tarmoqlari boʻyicha toʻlovli va qaytariladigan asosda taqsimlash;
- emissiya - kredit muomala vositalarini yaratish va naqd pulni almashtirish;
- nazorat - xoʻjalik yurituvchi subyektlar tomonidan qarz mablagʻlaridan foydalanish samaradorligini nazorat qilish, texnik - taraqqiyotni jadallashtirish. Ushbu funksiya qarz oluvchining moliyaviy holatini nazorat qilish, kreditlash tamoyillariga rioya qilish orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birga kredit toʻrt xil funksiyani bajaradi.

Birinchidan, pulga tenglashtirilgan toʻlov vositalarini (masalan, veksel, chek, sertifikat va b.) yuzaga chiqarib, ularni xoʻjalik aylanmasiga jalb qiladi (veksel - qarz majburiyatnomasi, chek - bankdagi pulni talab qiluvchi hujjat, sertifikat - pul toʻlanganligi va qarz berilganligini tasdiqlovchi hujjat). Kredit tufayli pul muomalasi doirasiga veksel, chek, kredit kartochkalari kabi vositalar kiritilib, naqd pulli hisob-kitoblarni naqd pulsiz operatsiyalar bilan almashtiradi. Bu esa ichki va xalqaro bozordagi

iqtisodiy munosabatlar mexanizmni osonlashtiradi va tezlashtiradi.

Ikkinchidan, qarz berish orqali pul mablag‘larini turli tarmoqlar o‘rtasida qayta taqsimlash bilan ishlab chiqarish resurslarining ko‘shib turishini ta’minlaydi. Qayta taqsimlash funksiyasi yordamida korxonalar, tashkilotlar, shaxsiy va davlat sektorining bo‘sh pul mablag‘lari, daromadlari ssuda kapitaliga aylantiriladi va vaqtincha foydalanishga muayyan to‘lov asosida beriladi. Bu funksiya yordamida ishlab chiqarishdagi mutanosibliklar va pul kapitali harakati boshqarilib turiladi.

Uchinchidan, qarz berish tufayli muomala xarajatlarini tejash imkoniyati tug‘iladi. Ma’lumki, kredit vujudga kelish davridan boshlab haqiqiy pullar (oltin, kumuch) o‘rnini kredit pullari - veksellar, banknotalar, cheklar bajarib kelgan. Ayniqsa, oltin (kumuch)ning monetar roli va uning yo‘qolib borganligi tufayli kreditning bu funksiyasi yordamida naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirib, uning tezkorligi va kam xarajatliligini ta’minlab kelmoqda. Bu funksiya ssuda kapitaliga aylangan qarzning muomalada bo‘lish vaqtining tejalishi uning ishlab chiqarishda bo‘lish vaqtini oshiradi va ishlab chiqarishni kengaytirishga, foydaning ortishiga olib keladi. Xo‘jalik subyektlari pul mablag‘larining kelib tushishi va ishlatilishi o‘rtasidagi vaqt bo‘yicha farq faqatgina ortiqcha mablag‘lar hajmini emas, balki moliyaviy mablag‘larning yetishmovchiligini ham aniqlab beradi. Shu sababli korxona va tashkilotlarning o‘z aylanma mablag‘larining vaqtinchalik yetishmovchiligini to‘ldirish uchun ssudalarni olish keng tarqalib boryapti.

To‘rtinchidan, qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga erishiladi. Masalan, bank krediti hisobidan qurilayotgan qo‘shma yoki xorijiy korxonalar respublikaning va jahon bozorining ehtiyojini qondirsa, bu hol kreditning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi funksiyasining ijobiy amal qilganligidan dalolat beradi va aksincha, kredit xalq xo‘jaligiga turli yo‘llar bilan asossiz ravishda ko‘p berilsa va oqibatda pul massasi ko‘payib, milliy pul qadrsizlansa yoki olingan xalqaro kreditlardan samarali foydalanilmasa va mamlakat o‘zining boshqa daromad manbalari, masalan, oltinini sotish hisobidan kreditni

qaytarsa, bu hol kredit funksiyasining salbiy amal qilganligidan dalolat beradi.

6.5. Tijorat bankining kreditlash usullari va ssuda hisobvaraqlarining shakllari

Tijorat banklari kreditlash tizimining asosiy elementi bo‘lib kreditlash usullari hisoblanadi, chunki ular bu tizimning bir qator elementlari: ssuda schyoti turi, ssuda majburiyatini tartibga solish, qarz mablag‘larini maqsadli ishlatish va ulrni o‘z vaqtida qaytarish tartibini va shaklini nazorat qilish kabilarni belgilab beradi.

Kreditlash usullari deganda, kreditlash tamoyillariga mos ravishda kreditni berish va qaytarish usullari tushuniladi.

Kreditlash usuli - bu banklar tomonidan kredit berish va to‘lash usullari to‘plamidir. Bunda avvaldan uchta usul mavjud bo‘lib kelgan:

- aylanma bo‘yicha kreditlash;
- qoldiq bo‘yicha kreditlash;
- aylanma-qoldiq bo‘yicha.

Aylanma bo‘yicha kreditlashda ssuda kreditlash obyektining harakati, aylanmasini kuzatib boradi. Kreditga bo‘lgan obyektiv ehtiyojning ortishi bilan ssuda hajmi oshadi va bu ehtiyoj kamayishi bilan qoplanib boradi.

Qoldiq bo‘yicha kreditlashda kredit tovar-moddiy zaxiralar qoldig‘i va kreditga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradigan xarajatlar bilan o‘zaro bog‘liqdir. Masalan, korxona o‘ziga kerak bo‘lgan qiymatlarni o‘z moliyaviy manbalaridan sotib olishi va keyin ularni garovga qo‘yib kredit uchun bankka murojaat qilishi mumkin, bu esa qilingan xarajatlarni qoplaydi. Bunday holda, kredit zarur materiallarni sotib olish xarajatlari uchun avans sifatida emas, balki kompensatsiya sifatida tovar-moddiy zaxiralar qoldig‘iga beriladi.

Kreditlash aylanma va qoldiq bo‘yicha birlashtirilganda aylanma-qoldiq usuli shakllanadi: birinchi bosqichda kredit zarurat tug‘ilganda beriladi va ikkinchi bosqichda u qat’iy belgilangan muddatlarda qaytariladi, bu esa chiqarilgan resurslar

miqdoriga muvofiq kelmasligi mumkin.

Tijorat banklari amaliyotida kreditlashning yuqorida keltirilgant 3 usuli: aylanma bo‘yicha, qoldiq bo‘yicha va aylanma-qoldiq usullari bo‘yicha kreditlash tartibi qo‘llanib kelingan. Aylanma usuli bo‘yicha kreditlashning xususiyati shunda ediki, kredit harakati material qiymatliklarning aylanishi, ya’ni kelib tushishi va ishlatishi bilan belgilanar edi. Kreditlashning bunday usuli yangi kredit berish va ilgari berilgan kreditni qaytarish faqatgina vaqt bo‘yicha mos kelishi mumkin edi. Bu yerda kredit to‘lov xarakteriga ega edi, chunki ssuda bevosita ishlab chiqarish xarajatlari, xizmatlarni to‘lab berish uchun yo‘naltirilgan. Qarz mablag‘lari doimiy ravishda xo‘jalik oborotida ishtirok etib, to‘liq oborotdan so‘ng kreditni qaytarish rejaga asosan amalga oshirilgan. Kreditlashning ushbu usuli yordamida xo‘jalik organlari to‘lov oborotining uzluksizligini ta’minlashga erishilgan.

Qoldiq usuli bo‘yicha kreditlashning mohiyati shunda ediki, kreditning harakati kreditlanayotgan moddiy qiymati ularning, ya’ni tovar-mahsulotlar, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari, tayyor mahsulot va yuklab jo‘natilgan tovarlarning qoldiq qiymati bilan bog‘lanar edi. Zaxiralarning me’yordan oshishi kreditga talabni oshirish, kamayishi esa kredit ma’lum qismining qaytarilishi lozimligini ko‘rsatardi. Shu bilan birga, kreditlash usullarida kredit qoplash xarakterga ega edi, chunki zaxira va xarajatlarning me’yordan ortiq qismi o‘z mablag‘lari bilan emas, balki kredit hisobidan qoplanar edi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari yangi tijorat tuzilmalari, ya’ni turli mulkchilik shaklidagi xo‘jalik yuritsh subyektlariga kredit berishda tijorat banklarining xorij amaliyotiga tayanib kreditlashning yangi usullaridan foydalanmoqdalar.

Xorijiy bank amaliyotida kreditlashning ikki usuli ma’lum. Birinchi usulning ahamiyati har bir ssuda individual tartibda ko‘rib chiqilishidadir. Ssuda ma’lum maqsaddagi mablag‘ga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga beriladi. Ushbu usul aniq muddatga ssuda ajratishda qo‘llaniladi.

Ikkinchi usulda ssuda bank tomonidan qarz oluvchiga oldindan belgilab qo‘yilgan kredit limiti bo‘yicha beriladi, bunda qarz oluvchi unga qo‘yilgan to‘lov hujjatini o‘z vaqtida to‘lash majburiyatini oladi.

Kreditlashning ushbu shakli kredit liniyasi deb ataladi. Oshilgan kredit liniyasi kredit hisobiga barcha hisob-kitob pul hujjatlarini bank va mijoz o‘rtasidagi shartnomaga asosan to‘lash uchun 1 yilga ochiladi, ammo kredit liniyasi undan qisqa muddatga ham oshilishi mumkin. Kredit liniyasi muddati davomida mijoz bank bilan qo‘shimcha kelishuv tuzib, istagan vaqtida ssuda olishi mumkin. Lekin bank qarz oluvchining moliyaviy holatini zaiflashganini aniqlasa, mijozga belgilangan limit chegarasida ssuda berishdan bosh tortishi mumkin. Kredit liniyasi, odatda, moliyaviy barqaror va e’tiborli mijozlarga ochiladi. Mijoz iltimosiga binoan kreditlash limiti qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Davom ettiriladigan va ettirilmaydigan kredit liniyalari o‘zaro farqlanadi. Davom ettirilmaydigan kredit liniyasi oshilib ssuda berilgan va qaytarilgandan keyin mijoz va bank o‘rtasidagi aloqalar tugatiladi. Davom ettiririladigan kredit liniyasida kredit belgilangan limit asosida avtomatik ravishda beriladi va qaytariladi. Agar bank tomonidan mijozga kredit liniyasi ma’lum tovarlarga bir shartnoma bo‘yicha bir yil ishida pul to‘lash uchun oshilgan bo‘lsa, kredit liniyasi maqsadli bo‘ladi.

Kreditlash usuli kredit berishda va qaytarishda ishlatiladigan ssuda hisob varag‘ining shaklini tanlab beradi. Banklar kreditlash operatsiyalarini amalga oshirish uchun mijozga ssuda hisobvarag‘ini oshadilar.

Aylanma-qoldiq usul bo‘yicha to‘lovlarni va kreditga layoqatli korxonalarni kreditlash yagona aktiv-passiv, ya’ni kontokorrent hisob varag‘idan amalga oshiriladi. Ushbu hisobvaraq mijozga bo‘lgan yuqori ishonchni bildiradi. Hisobvaraqning debetidan mijozning ishlab chiqarish faoliyati va foydani taqsimlash bilan bog‘liq to‘lovlari o‘tadi, kreditga barcha tushumlar yoziladi. Hisobvaraqning kredit qoldig‘i korxonaning o‘z mablag‘i borligini, debet qoldig‘i esa bankdan

mablag‘ jalb qilinganini bildiradi.

Kredit hisobvarag‘i tijorat bankining berilgan va qaytarilgan kreditlarni hisobga olish uchun oshgan hisobvarag‘idir. Bu hisobvaraq aktiv bo‘lib, hisobvaraqning debetida ssuda qarzining hajmi, hisobvaraqning kreditida - uning qaytarilishi aks ettiriladi. Qarz oluvchining hisob-kitob yoki joriy hisob raqamiga yoki kassa hisobvarag‘iga pul mablag‘lari o‘tkazilganda kredit berilgan hisoblanadi.

Tashkiliy jihatdan ham kreditning harakati (berilishi va qaytarilishi) mijozning bank unga ochadigan ssuda hisobvaraqlarida aks ettiriladi.

Kredit hisoblari umumiy qoidaga ko‘ra tavsiflanadi, ya’ni kredit debet bo‘yicha beriladi, mijozning bank oldidagi qarzi har doim kredit hisobining shap tomonida, debet tomonida ko‘rsatiladi.

Hisobvaraqlarni oshish maqsadiga ko‘ra, ular depozit-ssuda (mijoz bankka qo‘yilgan o‘z mablag‘lari tugashi bilan ma’lum miqdorda kredit olish huquqini oladi) va mablag‘larni sarflash maqsadidagi hisobvaraqlar bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga jamg‘arma-xarajat ssuda hisoblari ajratiladi. Masalan, mijozning omonati muntazam ravishda yangi jamg‘armalar bilan to‘ldiriladi, lekin ularning sarf-xarajatlari har doim tushumlardan oshib ketadi va shuning uchun hisobvaraq qoldig‘i debet bo‘lib qoladi.

Shartnoma hisobi - bu korxonalarning barcha to‘lovlarini aks ettiruvchi hisob. U asosiy ishlab chiqarish faoliyati, asosiy fondlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish xarajatlarini qoplaydi.

Kredit berish shakllaridan qaysi biri, qaysi ssuda hisobi, kredit berish va qaytarishning qaysi usuli ko‘proq mos kelishini bank mijozining o‘zi tanlaydi.

Tijorat banklari kreditlari turlarini tasniflash kredit hisobvaraqlari toifasiga qarab quyidagi bo‘linishlarni nazarda tutadi:

- oddiy (oddiy) ssuda hisobvaraqlari;
- maxsus kredit hisoblari;
- hisobni tekshirish;
- overdraft.

Oddiy (oddiy) kredit hisobvaraqlari tijorat banki tomonidan mijozning bir martalik kreditini hisobga olish uchun ochiladi.

Bunday holda, mijoz bir vaqtning o‘zida bir nechta oddiy kredit hisoblariga ega bo‘lishi mumkin.

Maxsus kredit hisobvarag‘i oldingi turdan farqli o‘laroq, faqat bittasini oshish mumkin. Bunga veksellar bilan bog‘liq operatsiyalarni hisobga olish misol bo‘la oladi .

Tekshiruv hisobvarag‘i - bu kredit va joriy hisobning xususiyatlarini birlashtirgan yagona gibrid hisob. Bu hisobning o‘ziga xosligi shundaki, u bir tomondan bank kreditlari va mijozlar to‘lovlarini aks ettirsa, ikkinchi tomondan tushumlarni aks ettiradi. U debet yoki kredit balansiga ega bo‘lishi mumkin. Tekshiruv hisobvarag‘ida bank har bir qarz oluvchi uchun chekli kredit miqdorini cheklaydigan limitni belgilaydi.

Xo‘jalik yuritishning bozor munosabatlari sharoitida oddiy ssuda hisobvaraqlari keng tarqalgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan xo‘jalik subyektlarini alohida ssuda hisob varag‘i oshish yo‘li bilan kreditlanadi. Ba’zi tijorat banklarida kreditlar «kredit liniyasi oshib» yoki «kredit liniyasi oshmasdan» kreditlash yo‘li bilan ajratilishi mumkin. Tijorat banklari tomonidan kreditlar tovar moddiy boyliklar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning hisob-kitob hujjatlarini to‘lash yo‘li bilan beriladi. Muddati 30 kundan oshmagan davrga, qarzdorning asosiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan akkreditivlar oshish va boshqalar uchun ham kredit mablag‘lari berilishi mumkin.

Kredit bank tomonidan kelishilgan muddatlarda so‘ndirish muddati kelgan majburiyatlar bo‘yicha mablag‘larni mijozning hisob varag‘idan undirib olish orqali, muddatidan oldin qarzdorning topshirig‘iga ko‘ra hisob raqamdagi bo‘sh qoldiq mablag‘larni so‘rab olish, garov mulkini o‘zlashtirish orqali so‘ndirilishi mumkin.

Xo‘jalik subyektining «kredit liniyasi oshib» kreditlash alohida hisobvaraq orqali oldindan kelishib olingan kredit summasi doirasida amalga oshiriladi. Kredit liniyasining hisobidan qarzdorning asosiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan tovar-moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha pul hisob-kitob hujjatlarining to‘lovi amalga oshiriladi.

Kontokorrent hisob varag‘i ochilganda mijozning boshqa hisobvaraqlari yopiladi.

Kontokorrent hisob varag‘ining debet qoldig‘i bo‘yicha mijoz bankka shartnomada kelishilgan stavkada foizlar to‘laydi, kredit qoldig‘i bo‘yicha bank mijozga shartnomaga muvofiq foiz to‘laydi.

Kontokorrent hisob varag‘ining amal qilish muddati 12 oydan oshmasligi lozim. Muddat tugashi bilan mijoz kredit saldosini ta’minlashi kerak. Aks holda, muddat tugagach uni to‘la so‘ndirgunga qadar kredit berish to‘xtatiladi.

Overdraft - agar mijozning joriy hisobvarag‘ida debet qoldig‘i bo‘lsa, belgilangan limit doirasida kredit berish to‘g‘risida shartnoma mavjud bo‘lganda qarz oluvchi tomonidan oshilgan kredit hisobvarag‘idir.

Overdraft kontokorrent kreditning maxsus shakli hisoblanadi. Uning alohida xususiyati shundaki, bank mijozga uning hisob raqamida qisqa davr ishida debet qoldiqqa ega bo‘lishga ruxsat beradi.

Odatda, overdraftdan juda ishonchli mijozlarga foydalanishga ruxsat etiladi. Overdraftda overdraft hisobvaraqqa kelib tushayotgan barcha summalar qarzdorlikni so‘ndirish uchun yo‘naltiriladi, natijada kreditning hajmi kelib tushayotgan mablag‘lar hajmiga qarab o‘zgarishi mumkin. Overdraftda qarzdor har oyning oxiriga overdraft qoldig‘i bo‘yicha kredit qoldig‘ini ta’minlanishi kerak. Agar mijozning shu bankda depozit hisob varag‘i bo‘lsa, undagi mablag‘lar doirasida doimiy debet qoldiqqa ega bo‘lishiga ruxsat beriladi. Aksincha bo‘lsa, mablag‘lar berish kredit to‘la so‘ndirilgunga qadar to‘xtatiladi.

VI bobga oid nazorat savollari:

- Kredit turlari, shu jumladan bank krediti bo‘yicha kreditlash subyektlarini sanab o‘ting.
- Tijorat banki tomonidan kredit berishda garovning roli qanday ekanligini asoslab bering.
- Kreditlashning asosiy tamoyillarini tushuntiring?

- Kreditning ta’minlanganligi deganda nimani tushunasiz?
- Kreditning obyekti va subyektlari nimalardan iborat?
- Kreditlashning qanday usullarini bilasiz?
- Hozir O‘zbekiston Respublikasi amaliyotida kreditlashning qanday usullaridan foydalaniladi?
- Kreditlashning qaysi usuli sizning fikringizsha samaraliroq va nima uchun?
- Oddiy va maxsus kredit hisobvarag‘i, chek va overdraft o‘rtasidagi asosiy farqlarni ko‘rsating
- Bank kreditlashning har bir bosqichining mohiyatini aytib bering.

VII BOB. TIJORAT BANKLARINING FOIZ SIYOSATI

7.1. Tijorat banklarining foiz siyosati va ularning amalga oshirilishi.
7.2. Kredit bo‘yicha foiz stavkalarining shakllanishi va unga ta’sir qiluvchi omillar.
7.3. Foiz stavkalari va ularni hisoblash usullari.
7.4. Tijorat banklarining foiz riski, ularni baholash va boshqarish usullari.

Tayanch iboralar. Tijorat banklari, foiz siyosati, foiz darajasi, marja, diskont, foiz riski, foiz riskini baholash, depozit munosabatlari, real foiz stavkasi, “Preym-reyt”, daromadlar, foiz stavkasi, foiz riski.

7.1. Tijorat banklarining foiz siyosati va ularning amalga oshirilishi

Bank foizlari – bu tijorat bankining kredit munosabatlarida subyektlardan biri bo‘lib qatnashgan holda, olinadigan kredit foizlarining eng rivojlangan shakllaridan biridir va bu tijorat banklarining foiz siyosati orqali tartibga solinadi.

Banklar daromadlarining shakllanishi ularning foiz siyosati orqali amalga oshiriladi. Tijorat banki kredit bera turib mijozning faoliyatini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlab, uning foyda olishi uchun shart-sharoit yaratar ekan, demak, bu orqali o‘zining daromadini ham amalga oshirgan bo‘ladi. Bank boshqaruvida foiz siyosatini ishlab chiqish va boshqarish muhim o‘rin tutadi. Tijorat banklarining foiz siyosati bank umumiy siyosatining muhim elementlaridan biri sifatida bankning pul mablag‘larini jalb qilish va joylashtirish sohasida foizlar o‘rnatish bilan bog‘liq chora-tadbirlar majmuasidan iborat bo‘lib, bankning likvidligi va rentabelligini ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi. Foiz siyosatiga kengroq ta’rif beradigan bo‘lsak, u foiz stavkalarini boshqarish orqali iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar yig‘lndisidir. Shu bois, foiz siyosati bank operatsiyalarining

samarali bo‘lishini va bank faoliyatining barqarorligini ta’minlashning asosi hisoblanib, tijorat bankining sof foiz daromadini ko‘paytirish va bank likvidliligini boshqarishga mo‘ljallanadi.

Tijorat banklari o‘z foiz siyosatini shakllantirishda quyidagi bosqichlarni amalga oshiradilar:

- bankda foizlar bo‘yicha maqsadni belgilab olish;
- bank boshqaruvi va bo‘limlari, rahbarlarining vakolatlarini belgilash;
- bank aktiv va passiv operatsiyalari foiz stavkalarini belgilash va ko‘rib chiqish tartibi bo‘yicha qaror qabul qilish;
- bank operatsiyalari bo‘yicha eng yuqori, eng quyi,imtiyozli foizlar o‘rnatish, ularni differensiyalash tamoyillari va mezonlarini belgilash;
- foiz riski uchun ma’sul bo‘lim va xodimlarni belgilash;
- foiz riskini baholash usullarini, foizlar hisobini yuritish, hisobot berish muddatini tasdiqlash;
- foiz riskini cheklash va oldini olish vositalarini tanlash;
- foiz riskini monitoring qilish.

Tijorat banklarining foiz siyosati va uni amalga oshirishga ichki va tashqi omillar ta’sir ko‘rsatadi. Foiz siyosatiga ta’sir qiluvchi tashqi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moliya bozorining holati;
- mamlakatda mavjud inflyatsiya darajasi;
- banklararo raqobat va bank xizmatlariga bo‘lgan talab;
- pul bozoridagi taklif;
- Markaziy bankning pul-kredit siyosati;
- iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.

Tijorat banklari foiz siyosatiga ta’sir qiluvchi ichki omillarga quyidagilar kiradi:

- bank xizmatlarining ko‘lami va turlari;
- bank mijozlarining tarkibi va moliyaviy holati;
- bank xodimlarining malakasi va tajribasi;
- bank resurs bazasining barqarorligi, miqdori, hajmi, muddati va

h.k.

Banklarning foiz siyosati bankka jalb qilingan resurslar va ularni aktivlarga joylashtirish davomida ularning miqdori, muddati va foizlarida muvofiqlik bo‘lishini ta’minlashga qaratiladi. Jalb qilingan mablag‘lar va ularni aktivlarga joylashtirishda foizlarning nomutanosib bo‘lishi, aktivlar bo‘yicha olingan foizlar jalb qilingan mablag‘lar bo‘yicha foizlar to‘lashga yetarli bo‘lmasdan foiz riskini yuzaga keltirib yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Odatda, passiv operatsiyalar bo‘yicha foiz stavkalarini shakllantirish quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- jalb qilingan resurslar bo‘yicha foiz stavkalari muddati, hajmi, mijoz tavsifi, pul mablag‘lari qaysi valyutada jalb qilinganligi;
- Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi va majburiy rezerv me’yoriga;
- jalb qilingan mablag‘lar bo‘yicha real foiz stavka o‘rnatilganligiga, ya’ni aktiv operatsiyalar bo‘yicha o‘rnatilishi mumkin bo‘lgan foiz stavkasi va marja miqdorini hisobga olgan holda o‘rnatilishiga.

Tijorat banklarining resurslarni jalb qilish bo‘yicha foiz siyosati ularning depozit siyosati singari quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- resurslarni jalb qilish borasida qo‘llaniladigan bank vositalari va usullariga;
- depozit munosabatlarining subyektlari (jismoniy va yuridik shaxslar)ga;
- resurslarni jalb qilish muddatlari (qisqa muddatli, o‘rta muddatli yoki uzoq muddatli foiz siyosati)ga;
- mablag‘larni jalb qilish maqsadlari (investitsiya uchun, kreditlash yoki joriy likvidlikni ta’minlash va h.k.)ga;
- jalb qilingan resurslar bo‘yicha baho siyosati va amalga oshirilgan operatsiyalarning risklilik darajasiga.

Mablag‘larni jalb qilish borasida tijorat banklarining foiz siyosati quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- bankka jalb qilingan mablag‘larning miqdori va bankda saqlanish muddatiga qarab foiz stavkalarini differensiyalash

tamoyili;

- jamg‘armalar bo‘yicha foizlarni differensiyalashda “ijtimoiylik” (bolalar, yoshlar, yosh oilalar, qariyalar uchun, davlat dasturlarida belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha imtiyozli jamg‘armalar) tamoyili;
- bank faoliyatining rentabelligini ta’minlash tamoyili;
- jamg‘armashilar mablag‘larini saqlash va himoya qilish tamoyili.

Aholi jamg‘armalari bank resurslarining bir qismini tashkil etganligi bois ular bo‘yicha foiz stavkalarini o‘rnatishda jamg‘armaning miqdori va muddatiga e’tibor berish lozim. Chunki depozitlar bo‘yicha foiz stavkalarining o‘zgarishi kredit bahosining ham o‘zgarishiga olib keladi.

Tijorat banklarining mablag‘larni jalb qilish borasidagi foiz siyosatining asosiy prinsipi - minimum xarajatlar bilan bank faoliyatini samarali olib borish uchun zarur bo‘lgan optimal miqdor va muddatdagi passivlar tarkibini ta’minlashdan iboratdir.

Tijorat bankining foiz siyosatida mablag‘larni jalb qilishda ularning qiymatiga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi boshqa omillar ham mavjud. Bular:

- Markaziy bankning majburiy zaxiralariga ajratmalar me’yoriy miqdori va ba’zi jalb qilingan mablag‘larning turiga qarab bu me’yorlarning farq qilishi;
- mijozlarni jalb qilish va ularga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bankning operatsion xarajatlari darajasi;
- bank reklamasiga sarflanadigan xarajatlar;
- bank mablag‘larining oborotdan chetlashtirilishi va daromad keltirmaydigan operatsiyalarga jalb qilinishi;
- jalb qilingan mablag‘larning miqdori va muddati, ular bo‘yicha foiz hisoblash va to‘lash tartibi.

Bank resurslarini joylashtirish sohasida bankning foiz siyosatida quyidagilarni inobatga olish lozim:

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi miqdorini;
- resurslarni (tijorat krediti, iste’mol krediti, banklararo kredit, majburiyatlarni to‘lash) joylashtirishning bozor

shartlariga rioya qilish;

- aktiv operatsiyalarning muddati, hajmi, qiymati, valyutasidan kelib qo‘shimcha resurslarni jalb qilish bo‘yicha bankning imkoniyatlari;
- bankning o‘z mijozlari, yuridik va jismoniy shaxslar hamda boshqa banklar bilan hamkorlik munosabatlarini.

Tijorat banklarining **aktiv operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalarini** shakllantirishda quyidagi omillarni inobatga olish lozim:

- markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini;
- bozor konyunkturasini;
- jalb qilingan mablag‘lar bahosini yoki mablag‘larni jalb qilishga sarflangan xarajatlarni;
- bank mablag‘i hisobidan moliyalashtiriladigan loyihaning jozibadorligi yoki risk darajasini;
- mijozning moliyaviy holati, likvidliligi, kreditga va to‘lovga layoqatliligi va boshqalar.

Tijorat bankining kredit siyosati “baho-foyda-foiz” mexanizmiga tayanadi. Kreditga talabning oshib borishi ssuda kapitaliga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi nisbatining o‘zgarishiga olib keladi, ssudalar bo‘yicha foiz stavkalar oshadi. Bu, o‘z navbatida, kredilashning ko‘lami va hajmini ko‘paytiradi, bank tomonidan qo‘shimcha kredit pullar muomalaga chiqariladi, bankning likvidlilik kvotasi kamayadi. Odatda, bank foiz stavkasining yuqori va past chegaralari belgilanadi. Kredit bo‘yicha foiz stavkaning yuqori chegarasi bozor munosabatlari asosida talab va taklifdan kelib chiqib shakllanadi. Foiz stavkasining past chegarasi bankning mablag‘larni jalb qilish bilan bog‘liq xarajatlari va kredit tashkiloti faoliyatini olib borishga ketgan sarflardan kelib chiqib belgilanadi.

Tijorat banklarining resurslarni joylashtirish bo‘yicha foiz siyosatining asosiy tamoyili – aktivlarning balanslashtirilgan tarkibi va joylashtirilgan resurslarning minimal darajadagi riskiga erishgan holda bankning maksimal daromad olishini ta’minlashdan iborat bo‘lib, u quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- mablag‘lami joylashtirish yo‘nalishi, muddati, mijozning

moliyaviy holati, likvidliligi, to‘lovga layoqati, ta’minot darajasiga qarab foizlami differensiatsiyalash;

- bank operatsiyalarining (resurslaming real bahosidan kelib chiqib) rentabelligini ta’minlash;
- yuqori darajada likvidlilikga erishish va uni barqaror uchlash;
- aktiv operatsiyalarga joylashtirilayotgan mijozlar mablag‘larining maksimal qayta kelishiga erishish tamoyillaridir.

Tijorat banklari foiz siyosatini amalga oshirishda foiz marjasini hisoblab boradi. **Foiz marjasi** foizli daromadlar va foizli xarajatlar o‘rtasidagi farqni tashkil etadi yoki bank tomonidan jalb qilingan resurslar uchun amalga oshirilgan to‘lovlar va joylashtirilgan mablag‘lardan olingan foizlar o‘rtasidagi farq foiz marjasi sifatida shakllanadi. Foiz marjasi bank bo‘yicha umumiy hamda alohida olingan moddalar bo‘yicha ham aniqlanishi mumkin. Foiz marjasining salmog‘ini aniqlash uchun foiz marjasi koeffitsienti qo‘llaniladi. Foiz marjasi koeffitsienti tijorat banki marjasining haqiqiy va yetarli bo‘lgan miqdorini ko‘rsatadi. Foiz marjasi miqdorining haqiqiy holati **foiz marjasi koeffitsienti (Khfm)** quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi va u bank foydasida foiz miqdorining hajmi qancha ekanligini ko‘rsatadi:

Khfm = (Of - Tf) / Ao‘q

Bu yerda:

Of - olingan foizlar,

Tf - to‘langan foizlar,

A o‘q - daromad keltiruvchi aktivlarning o‘rtacha qoldig‘i.

Shuningdek, banklarda foiz marjasining minimal yetarlilik darajasini ham aniqlash mumkin.

Bank tomonidan olingan marja uning xarajatlarini qoplashga yetarliligini foiz marjaning yetarlilik koeffitsienti **(Kfme)** orqali aniqlanadi.

(Kfme) = ((Xo - Tf) + (Xba - Xb)) /Ao‘q

Bu yerda:

Xo - operativ xarajatlar,

Tf - to‘langan foizlar,

Xba - boshqaruv apparati xarajatlari,

Xb - boshqa xarajatlar (bankning nokredit xarakterdagi operatsiyalari, inkassatsiya, turli to‘lovlar va boshqalar bo‘yicha xarajatlari), A o‘q - daromad keltiruvchi aktivlarning o‘rtacha qoldig‘i.

Foiz marjasining yetarlilik koeffitsientini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kelajakda foiz marjasi miqdorini prognozlash imkoniyatini beradi. Aktiv operatsiyalar bo‘yicha foizlarning minimal miqdorini shakllantirishda, foiz marjasining yetarli miqdori asos qilib olinadi va ushbu miqdorga inflyatsiyani hisobga olgan holda resurslarning real qiymatini qo‘shish orqali aniqlanadi.

Bank aynan kredit operatsiyalari bo‘yicha ham haqiqiy foiz marjasini hisob-kitob qilishi mumkin. Tijorat banklarining kredit operatsiyalari bo‘yicha foiz marjasi koeffitsienti **(Khfm kred. oper.)ni** quyidagi formula bo‘yicha aniqlashimiz mumkin.

Khfm kred. oper = (Kf - Rtf) / Ko‘q

Bu yerda:

Kf - kreditdan olingan foizlar,

Rtf - kredit resurs bo‘yicha to‘langan foizlar,

K o‘q - shu davrdagi kredit qarzdorlikning o‘rtacha qoldig‘i.

Tijorat banklarining foiz siyosati ular faoliyatining tijorat xarakteri bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli foiz siyosati bankning foyda olishiga yoki foyda olish uchun barcha sharoitlarni yaratishga, depozitlar va kredit operatsiyalari bo‘yicha foizlarni muvofiqlashtirish va ularni bankka foyda keltiradigan darajada o‘rnatish orqali bank operatsiyalari va faoliyati rentabelligini ta’minlash, depozit va ssuda operatsiyalarining summalari, foizlari, muddatlari bo‘yicha bir-biriga aloqadorligi va mutanosibligini ta’minlash, bank balansi likvidligini ta’minlash, foiz riskini minimallashtirish va boshqalarni ta’minlashga zamin yaratadi.

Tijorat banklari foiz siyosatining samaradorligi resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish borasida foizlarni

optimal o‘rnatish va ularni boshqarish orqali yuqori foyda olish bilan birga omonatchilar mablag‘larinining ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlanganligini ta’minlashdan iboratligi bilan belgilanadi.

Banklar foiz siyosatini amalga oshirishda omonatlar bo‘yicha to‘laydigan foizni ularning o‘zlari taqdim etadigan ssudalar uchun oladigan ssuda foizidan pastroq qilib belgilaydi. Sodda qilib aytganda, olingan va to‘langan foizlarning summalari o‘rtasidagi farq banklar foydasining asosini tashkil etadi. Bank foydasiga boshqa turdagi operatsiyalardan ko‘rilgan daromadlar ham kiradi. Bank foydaning bir qismini soliqlarni to‘lashga, o‘z xarajatlarini (bank xizmatshilariga, xodimlariga ish haqi to‘lash, binolarni saqlash, idora chiqimlari, reklama xarajatlari, transport xarajatlari va boshqalar uchun mablag‘ sarflash) qoplashga ishlatadi, soliqlar to‘langandan qolgan qismi esa bankning sof foydasini tashkil etadi.

Tijorat banklari yuqori foyda olish maqsadida o‘zlarining foiz siyosatini yuritadilar. Ammo banklarda yuqori foyda olish imkoniyatlari keng bo‘lsada, ular bu imkoniyatlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanishlari lozim. Chunki yuqori foyda olish doimo yuqori riskli jarayonlarni amalga oshirishni talab etadi. Yuqori risk ostida faoliyat olib borish hamma vaqt ham muvaffaqiyat keltirmasligi mumkin. Birinchidan, yuqori marja ortidan quvish mijozlardan mahrum bo‘lib qolishga olib kelishi muqarrar, chunki ular haddan tashqari yuqori qo‘yilgan foiz stavkali kreditlardan voz kechishlari mumkin. Ikkinchidan, banklararo raqobat sharoitida boshqa tijorat banklari bir qadar samaraliroq ishlar uchun ancha arzon kreditlar taklif etishlari mumkin. Foyda olish qoidasi tijorat banklari faoliyatining asosiy qoidalaridan hisoblanadi va bunday maqsadni qo‘ymagan bank bozor munosabatlari sharoitida to‘laqonli faoliyat ko‘rsata olmaydi.

7.2. Kredit bo‘yicha foiz stavkalarining shakllanishi va unga ta’sir qiluvchi omillar

Kredit bo‘yicha foiz stavkalar pul bozorida kreditga bo‘lgan talab va taklif asosida shakllanadi. Talab va taklifning darajasi

kredit bahosining qimmat yoki arzon bo‘lishiga asos bo‘lishi mumkin. Kredit bahosining asosini u bo‘yicha o‘rnatilgan foiz stavkasi tashkil qiladi, lekin hamma vaqt ham kreditning foizi uning bahosini o‘zida ifoda qila olmaydi. Kreditning bahosi kredit bo‘yicha foiz stavkasidan tashqari turli komission to‘lovlar, ssuda hisobvaraqlarini oshish, yuritish, kredit berish va to‘lash bilan bog‘liq boshqa to‘lovlarni o‘zida aks ettiradi. Ba’zi davlatlarda kreditning bahosi kreditning to‘liq qiymati deb ham yuritiladi.

Kredit foizlari – bu, vaqtincha foydalanish uchun berilgan ssuda kapitalining qiymatidan olinadigan o‘ziga xos o‘rnatilgan bahodir. Kredit foizlarining shakllari kredit turlari, kredit munosabatlari subyektlari, operatsiyalar turlari, kredit berish shartlari va boshqalarga ko‘ra tasniflanadi.

Tijorat banklari kredit munosabatlarida foiz stavkasini hisoblaganda quyidagilarni e’tiborga olishi lozim:

- ta’minlangan ssudalar bo‘yicha moliyaviy barqaror, kreditga layoqatli mijozlar uchun aniq muddatga beriladigan bazaviy foiz stavkasining darajasini;

- har bir kredit shartnomasi shartlarini, mijoz faoliyatining xususiyatlari va boshqa jihatlarni inobatga olgan holda risk uchun qo‘shimcha to‘lovni.

- g‘arb mamlakatlarining pul-kredit munosabatlarida turli xil foiz stavkalari qo‘llaniladi.

1-darajali foiz stavkasi Markaziy bankning qayta moliyalash foiz stavkasi kelib chiqib hisoblanadi. Bu muhim ahamiyatga ega. Stavkaning Markaziy bank tomonidan pasaytirilishi bozorda kredit resurslari taklifining ko‘payishiga va arzonlashishiga olib keladi. Foiz stavkasini pasaytirishdan maqsad - investitsiya harakatini tezlashtirish, mamlakatning iqtisodiy o‘sishiga turtki berishdan iboratdir.

Qayta moliyalash foiz stavkasining oshishi kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarining ham oshishiga, ya’ni kreditning qimmatlashuviga, shu bilan birga, iqtisodiyotda investitsiyalar hajmining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Demak, Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati inflyatsiya darajasi hamda

iqtisodiy oʻsish surʼatlarini hisobga olgan holda, mamlakatning pul-kredit tizimining holatiga qarab olib borilishi kerak.

Tijorat banklarining foiz siyosati ikki asosiy yoʻnalishni oʻz ichiga oladi. Birinchisi, bu bank resurslarini yaratishda mablagʻlarni jalb qilish jarayonida olib boriladigan foiz siyosati, ikkinchisi, banklar tomonidan resurslarni joylashtirish sohasida olib boriladigan foiz siyosatidir.

Tijorat banklari foiz siyosatini oʻzlari mustaqil ishlab chiqadilar va ular amalga oshiradigan operatsiyalariga foizlar oʻrnatishda erkindirlar (ammo foizlar oʻrnatish chegarasi Markaziy bank talablari doirasida boʻlishi lozim).

Bu oʻrinda agar makroiqtisodiy omillar koʻrib chiqiladigan boʻlsa, kredit resurslariga talab va taklif nisbati foiz stavkasini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Resurslarga boʻlgan talab va taklif iqtisodiyotning qayta ishlab chiqarish xususiyatiga, qonunchilik bazasining rivojlanishiga, pul-kredit tartibga solishning qoʻllaniladigan usullariga va investitsion risklarga bogʻliqdir.

Bank foiz stavkalari darajasiga quyidagilar taʼsir qiladi:

- Markaziy bankning pul-kredit siyosati va uning asosiy vositalari hisoblanadigan hisob siyosati, bankning majburiy zaxiralari meʼyorlarini tartibga solish va ochiq bozordagi operatsiyalari;

- inflyatsion kutilmalar (kreditlash davrida pulning sotib olish qobiliyatining pasayishi kreditorga qaytarilgan qarz mablagʻlarining real hajmining pasayishiga olib keladi; banklar faol operatsiyalar boʻyicha foiz stavkalarini oshirish orqali real daromadning pasayishini qoplaydi);

- kredit resurslari bozoridagi raqobat (agar maʼlum bir mintaqadagi tijorat banki pul bozorida yoki maʼlum kredit turlari bozorida monopoliyaga ega boʻlsa, u holda boshqa banklar bozorning ushbu segmentiga kirishidan oldin, bu bozorga nisbatan foiz stavkalarida u afzalliklarga ega boʻladi);

- qimmatli qogʻozlar bozorini rivojlantirish. Davlat va korporativ qarz majburiyatlari uchun uyushgan bozor toʻgʻridan-toʻgʻri bank kreditiga muqobildir, shuning uchun qimmatli qogʻozlar bozorining eng muhim parametrlari (daromadlilik,

bitimlar hajmi, investorlarning kutishlari, infratuzilma holati) va pul bozori bunga bevosita bog‘liqdir;

- milliy iqtisodiyotning ochiqligi, kapitalning xalqaro migratsiyasi, valyuta kursi, mamlakat to‘lov balansining holati;
- xavf omili;
- soliqqa tortish tizimi. Soliq stavkalarini, soliqlarni undirish tartibini o‘zgartirish, imtiyozlar tizimini qo‘llash orqali davlat soliq to‘lovchi ixtiyorida qoladigan sof foyda miqdorini belgilaydi, iqtisodiy jarayonlarni rag‘batlantiradi.

Shu bilan birgalikda, xususiy omillar ham amal qiladiki, ular tijorat bankining bozordagi mavqeyi, faoliyatining xarakteri va qabul qilingan tavakkalchilik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Bozor foiz stavkasining shakllanishi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

FS = Fr + Mi + Mx + Ml + Mr,

Bu yerda,

RO - risksiz operatsiyalar bo‘yicha real foiz stavkasi (agar “nol” inflyatsiya darajasi kutilsa);

Mi - qarz majburiyati muddati uchun inflyatsion kutilmalar darajasiga ekvivalent bo‘lgan mukofot;

Mx — to‘lanmay qolish xavfi uchun mukofot;

Ml — likvidlikni yo‘qotish xavfi uchun mukofot;

Mr - qarz majburiyatining muddatini hisobga olgan holda risk mukofoti.

Risksiz operatsiyalar bo‘yicha real foiz stavkasi **(**Fr) - bozor iqtisodiyoti sharoitida inflyatsion kutilmalar hisobga olinmagan yoki “nol” inflyatsiya darajasida kredit foizlari darajasini belgilovchi makroiqtisodiy omillar majmuasini tavsiflovchi indeks (qisqa muddatli davlat qarzi bo‘yicha stavkalar va boshqalar).

Kredit foizlari darajasiga inflyasion kutilmalar alohida ta’sir ko‘rsatadi. Bozor foiz stavkasini belgilashda avval sodir bo‘lgan inflyatsiya darajasi emas, balki qarz majburiyatini bajarish muddatini hisobga olgan holda kutilayotgan inflyatsiya darajasi muhim ahamiyatga ega.

To‘lanmay qolish xavfi uchun mukofot (Mx) - bu qarz oluvchining kreditga layoqatliligi, shuningdek, kreditlash obyektining xususiyatlari bilan belgilanadi. Uning darajasi, qarz

majburiyatlarining boshqa parametrlari solishtirish mumkin bo‘lgan taqdirda, turli reytinglarga ega (eng yuqoriga nisbatan) qarz oluvchilarning (emitentlarning) qarz majburiyatlari bo‘yicha foiz stavkalari o‘rtasidagi farq sifatida ifodalanishi mumkin.

Likvidlikni yo‘qotish xavfi bo‘yicha mukofot (Ml) – bu qarz majburiyatining likvidligini yo‘qotish ehtimoliga bog‘liq, ya’ni, uning qiymatini yo‘qotmasdan naqd pulga almashtirish imkoniyatidir.

Qarz majburiyatining muddatini hisobga olgan holda risk mukofoti (Mr) uzoq muddatli qarzlar bo‘yicha foiz stavkalarining harakatini qisqa muddatli qarzlarga qaraganda ko‘proq prognoz qilish qiyinligi bilan belgilanadi. Kreditor uzoq vaqt davomida mablag‘larni mustaqil ravishda iste’mol qilishdan bosh tortgan holda, qoplashning yanada yuqoriroq darajasini ko‘zlaydi.

Bankning aktiv operatsiyalari bo‘yicha foizlar uning daromad bazasining eng muhim elementi bo‘lib, jalb qilingan resurslar bo‘yicha foizli xarajatlar asosiy xarajatlarni tashkil qiladi, shuning uchun bank tegishli foiz siyosatini olib borishi uchun bankning foiz siyosatini olingan va to‘langan foizlar bo‘yicha bank pozitsiyasini tavsiflovchi bir qator ko‘rsatkichlar dinamikasini tahlil qilishi zarur.

Foiz marjasi – bu aktivlardan olingan foiz daromadlari va bank majburiyatlari bo‘yicha foiz xarajatlari o‘rtasidagi farqdir. Foiz marjasi sof foiz daromadi kabi aniqlanadi, foiz shaklida daromad keltiruvchi aktivlar hajmiga nisbatan ifodalanadi.

Foiz marjasini (Mf) hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

Mf = (Df - Xf) : Ad x 100%,

Bu yerda,

Mf - davr uchun haqiqiy foiz marjasi;

Df - foizli daromadlar;

Xf – foizlarni to‘lash uchun xarajatlar;

Ad - foiz shaklida daromad keltiradigan aktivlar.

Foiz marjasining hajmiga kredit qo‘yilmalarining hajmi va tuzilishi va ularning manbalari, to‘lov shartlari, qo‘llaniladigan foiz stavkalarining tabiati va ularning harakati, shu jumladan, qayta ko‘rib chiqishning muddatlilik darajasi ta’sir qiladi. Kreditlarni

uzoq muddatli va qisqa muddatli, garovli va yuqori tavakkalli, kreditlash obyektlari bo‘yicha farqlanishi investitsiyalarning har xil daromadliligini belgilaydi. Bank xarajatlari uchun Markaziy bank va boshqa tijorat banklarining resurslari, jalb qilingan depozitlar va boshqa manbalar o‘rtasidagi nisbat muhim ahamiyatga ega.

Foiz siyosatini erkin olib borish uchun tijorat banklari o‘z xizmatlarining ichki qiymati koeffitsiyentini bilishi kerak. U samarali ajratilgan mablag‘larning har bir so‘mi uchun olingan komissiyalar va boshqa daromadlar bilan qoplanmagan xarajatlar miqdorini tavsiflaydi. Ushbu ko‘rsatkich minimal foiz marjasi sifatida belgilanishi mumkin:

Fm = (Xb - Db): Ab x 100%

Bu yerda,

Xb - daromadlar to‘g‘risidagi hisobot ma’lumotlari asosida hisoblash yo‘li bilan belgilanadigan oxirgi hisobot davridagi bank faoliyatini ta’minlash xarajatlari (jalb qilingan resurslar uchun to‘lovlar bundan mustasno);

Db – tijorat bankining boshqa daromadlari (daromadlar, bankning aktiv operatsiyalaridan tushumlar bundan mustasno);

Ab - investitsiya qilingan mablag‘lar (kredit qo‘yilmalari, portfeldagi qimmatli qog‘ozlar, korxonalarga ularning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish uchun berilgan mablag‘lar va boshqalar) hisobidan daromad keltiruvchi bank aktivlari; oxirgi hisobot davri uchun o‘rtacha arifmetik (xronologik) ko‘rsatkich va bank balansi ma’lumotlari asosida hisoblanadi.

7.3. Foiz stavkalari va ularni hisoblash usullari

Foiz stavkasi - ma’lum bir davr uchun, odatda, bir yil uchun ssuda kapitali bo‘yicha foiz to‘lovlarining nisbiy miqdori. Yil uchun foiz to‘lovlarining mutlaq summasining o‘rtacha qarz mablag‘lari miqdoriga nisbati sifatida hisoblanadi.

Kreditning asosiy sharti - olingan qarz uchun haq to‘lash. Bu haq olingan qarz yig‘indisiga nisbatan foiz hisobida olinganidan uni qarz foizi yoki kreditning foiz stavkasi deb yuritiladi. Boshqacha qilib aytganda, kreditning foiz stavkasi berilayotgan kreditga nisbatan foizda belgilanib, kreditning narxini ifoda etadi.

Kredit narxi, odatda bir yil uchun belgilanadi. Foiz stavkasining oʻsishi kreditning qimmatlashuvini, pasayishi esa uning arzonlashganini ifodalaydi.

Bozordagi foizlar darajasining oʻzgarishiga munosabat darajasiga koʻra, qatʼiy va suzib yuruvchi foiz stavkalari farqlanadi.

Qatʼiy foiz stavkalari qarz mablagʻlaridan foydalanishning butun davri uchun ularning darajasini bir tomonlama koʻrib chiqish huquqisiz belgilanadi. Qarz oluvchi va qarz beruvchi uchun bu foiz xarajatlari va daromadlarini bashorat qilish qobiliyatini anglatadi.

Suzib yuruvchi foiz stavkalari - oʻrta va uzoq muddatli kreditlar uchun stavkalar. Ular ikki qismdan iborat: bozor sharoitlariga qarab oʻzgarib turadigan harakatlanuvshi baza (qoida tariqasida, kredit resurslarini yetkazib berishning banklararo stavkalari qoʻllaniladi) va doimiy qiymat, odatda kredit berish yoki qarzdagi qimmatli qogʻozlar muomalasining butun davri davomida oʻzgarmaydi. Ruxsat etilgan mukofotning miqdori bitim shartlariga va uning risk darajasiga bogʻliq.

Markaziy bank tomonidan oʻrnatilgan qoidalarga koʻra, foizlar qatʼiy va oʻzgaruvchan foiz stavkalari yordamida hisoblanishi mumkin. Bunday stavkalar uchun suzib yuruvchi foiz stavkasi asos sifatida ishlatilishi mumkin boʻlgan pul bozori koʻrsatkichlari unchalik keng tarqalmaganligi sababli ichki bozorda suzib yuruvchi foiz stavkalaridan foydalanish keng tarqalmagan.

Elektron kartalar to‘lovlarni amalga oshirish jarayonini soddalashtiradi va tezlashtiradi, telekommunikatsiya liniyalaridan doimiy foydalanishni talab qilmaydi. Ular bo‘yicha

hisob-kitoblar markaziy kompyuterning noto‘g‘ri ishlashi yoki boshqa nosozliklar yuzaga kelganda to‘xtamaydi.

Smart-kartalardan foydalanish bilan bog‘liq muammolar orasida iqtisodchilar ularning narxini ajratib ko‘rsatishadi (bu magnit chiziqli kartalar narxidan yuqori va faqat smart-kartalar ko‘lami kengaytirilgandan keyin kamayishi mumkin).

Lazer kartalar ko‘p funksiyali plastik kartalarning bir turidir. Ularni yaratish va qo‘llash eng yangi texnologiyalarga (lazerli skanerlash) asoslangan. Eng ko‘p ishlatiladigan lazer kartalari AQSHda. Bu kartochkalar katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlashi mumkin va turli tranzaksiyalarni amalga oshirish, tovar va xizmatlar uchun to‘lovdan tortib, ulardan tibbiy maqsadlarda foydalanishgacha, istalgan vaqtda va istalgan sharoitda egasining sog‘lig‘iga tashxis qo‘yish uchun ishlatilishi mumkin. Buning uchun mijoz barmog‘ini xaritadagi sensorga qo‘yishi kerak va monitor ekranida uning sog‘lig‘i ko‘rsatkichlarining dekodlanishi paydo bo‘ladi.

Oxirga paytlarda belgilangan xarid qobiliyatiga ega bo‘lgan arzon kartalar soni ko‘paydi, ular xarid qobiliyatini to‘liq yo‘qotguncha bo‘lib-bo‘lib to‘lash bilan o‘tkaziladi. Store value — turli texnologik tizimlardan foydalanishga asoslangan kartadir. Bu kartochkalarga quyidagilar kiradi:

- xonadon, mehmonxona xonasi, garaj, uy va boshqalar kaliti sifatida ishlatiladigan teshik yoki magnit chiziqli plastik kartochkalar;

- nusxa ko‘shirish uchun plastik kartalar;

- ishga, kutubxonaga, jamoat transportiga shipta, bank qabulxonalariga (avtobanklar) kirish uchun ruxsatnoma sifatida xizmat qiluvchi plastik yoki karton kartalardir.

Bank mijozlari odatda kartalar to‘plamiga ega. Kelajakda ko‘plab kartalar ko‘p maqsadli kartalar bilan almashtiriladi, shuningdek, uyda yoki ish joyida o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish banki sifatida qo‘llaniladi.

Shu bilan birga, xorijiy davlatlarda plastik kartochkalarning ko‘plab asosiy turlari qo‘llaniladi.

Xalqaro to‘lov tizimidagi EUROPAY int kartochkasi 3 xilda bo‘ladi:

- Eurosard I Master Sard Mass;
- Eurosard I Master Sard Gold - shaxsiy odamlar uchun;
- Eurosard I Madter Sard Busness - tashkilot va korxonalarning xodimlari uchun,

Eurosard I Master Sard Mass kartochkasi ikki rejimda harakatda bo‘ladi: debetli (Direst Debit) va oylik limitga asoslangan (Revoluing Sredit).

Eurosard I Master Sard Mass Direst Debit - bu «qimmat bo‘lmagan» xalqaro to‘lov plastik kartochkasidir. Xarajat hisob varag‘ida bo‘lgan qoldiq summasi doirasida bo‘ladi. Kartochka egasi bankning mijozi bo‘lishi mumkin. 3 oy ishida 500 AQSH dollari ekvivalenti miqdorida istalgan xorijiy valyutada puli bo‘lgan mijozlarga oshilishi mumkin. Bank kartochkasiga o‘tkazilgan minnimal miqdor - 1000 AQSH dollari bo‘lishi kerak, shundan 500 AQSH dollari - olinmaydigan qoldiq bo‘lishi lozim.

Eurosard I Master Sard Mass Revoluing Sredit - avtomatik oylik qayta boshlanadigan (revolver kreditli) kredit kartochkasi. Kartochka bo‘yicha chiqim operatsiyalari mijoz tomonidan belgilangan oylik summadan qayta boshlanadi. Kartochkaning egasi bankning xohlagan mijozi bo‘lishi mumkin. 3 oy ishida 500 AQSH dollari ekvivalenti miqdorida istalgan xorijiy valyutada mablag‘i bo‘lgan mijozga shunday kartochkalar oshilishi mumkin. Bank kartochkasida o‘tkazilgan minimal miqdor 3000 AQSH dollari bo‘lishi kerak. Shundan 1500 AQSH dollari - olinmaydigan qoldiq bo‘lishi lozim.

Eurosard I Master Sard Gold - obro‘li kredit kartochkasi bunda uning egasi 3000 AQSH dollari summasigacha kredit olishi mumkin. Kartochkaning egasi bankning doimiy mijozi bo‘lishi mumkin. 6 oy ishida 1000 AQSH dollari miqdorida istalgan xorijiy valyutada mablag‘i bo‘lishi, bank kartochkasiga o‘tkazilgan minimal miqdor 5000 AQSH dollar bo‘lishi lozim.

Eurosard I Master Sard Busness - tashkilot va korxonalarning xizmatshilari uchun hisob-kitob kartochkasi, xodimlarga oylik berish, xizmat safari xarajatlarini to‘lashda qo‘llaniladi. Kartochkaning afzalligi xohlagan naqd pulsiz to‘lov kontrakt to‘lovlarini amalga oshirish mumkin. Kartochka bankning yuridik mijozlariga beriladi. 3 oy ishida 50000 AQSH

dollari ekvivalentidagi xorijiy valyutada oylik pul aylanishiga ega bo‘lgan mijozlarga oshilishi mumkin. YUridik shaxslar o‘z istaklariga binoan bunday kartochkalarning xohlagan miqdorini olishlari mumkin. Bunda maxsus kartochkani hisobvarag‘i ochiladi, barcha kartochkalar summasi limitiga teng bo‘lgan summada. Minimal miqdor har bir kartochka uchun 100 AQSH dollarida olinmaydigan qoldiq bo‘ladi, kartochkalar bepul tayyorlanadi.

VISA SLASSIS – Visa int to‘lov tizimidagi eng yirik to‘lov kartochkasi, dunyoning 20000 ga yaqin banklarini birlashtiradigan plastik kartochkaning eng ko‘p tarqalgan turi hisoblanadi. Minimal miqdori - 3000 AQSH dollari. Shundan 1500 dollar ishlatilmaydigan qoldiq bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonda **VISA** kartani oshish uchun 100 dollar miqdorida o‘z hisob raqamida qoldiqqa ega bo‘lish zarur.

SIRRUS IMAESTRO - Europay to‘lov tizimining debetli kartochkasi juda qulay. Bank kartochkasi hisobvarag‘idagi birinchi oshilishda 100 AQSH dollari ishlatilmaydigan qoldiq bo‘ladi.

GLOBAL SALLING SARD - dunyoning kommunikatsiya, telekommunikatsiya ko‘lpaniyasi GLOBAL ONEning telefon kartochkasi. Kartochka dunyoning 60 dan ko‘p davlatlaridan abonentni chiqarishga va 190 dan ko‘p davlatlardan so‘rov qilishda imkon beradi. Mehmonxonalardan va biznes-markazlardan telefon qilinganda, kartochka ko‘zga ko‘rinarli miqdorda tejashga imkon beradi, binobarin, so‘zlashish narxi GLOBAL ONEtariflariga asosan aniqlanadi. Kartochka 24 soat ishlaydi, so‘zlovshilar uchun to‘lov xalqaro kartochkalar VISA yoki Eurosard Master Sard orqali yozib boriladi. Har oyning oxirida mijoz o‘z qilgan qo‘ng‘iroqlari to‘g‘risida to‘liq hisobot oladi.

9.5. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekistonda 2020-2025-yillarda bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ni “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, shuningdek, xususiy sektor rivojlanishini rag‘batlantirish, banklarning investitsiyaviy jozibadorligini, bank xizmatlari ommabopligi va sifatini oshirish uchun bank sektorini tubdan transformatsiya qilish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-mayda PF-5992-son bilan “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi” Farmoni qabul qilindi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI 2020-2025-YILLARGA MO‘LJALLANGAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BANK TIZIMINI ISLOH QILISH STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA

Moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg‘or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi hamda “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi yangilangan qonunlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish,

banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar koʻrsatilishini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha choralar koʻrilishi lozim.

Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada taʼminlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar koʻrsatishda inson omili taʼsirini kamaytirish boʻyicha tezkor chora-tadbirlar koʻrish talab etilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, maʼrifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, shuningdek, xususiy sektor rivojlanishini ragʻbatlantirish, banklarning investitsiyaviy jozibadorligini, bank xizmatlari ommabopligi va sifatini oshirish uchun bank sektorini tubdan transformatsiya qilish maqsadida:

1. **Quyidagilar Oʻzbekiston Respublikasida bank sektorini isloh qilishning asosiy yoʻnalishlari etib belgilansin:**

moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati koʻrsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklar faoliyatiga xos boʻlmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish;

kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining moʻtadil oʻsishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega boʻlgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini taʼminlash;

davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini,

axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo‘lgan investorlarga tanlov asosida sotish, shuningdek, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va korxonalarni bir vaqtning o‘zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini kamaytirish;

yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko‘rsatish nuqtalari tarmog‘ini rivojlantirish, shuningdek, respublika yagona moliya tizimining o‘zaro to‘ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligini va sifatini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
2020-yil 12-maydagi
PF-5992-son Farmoniga

1-ILOVA

2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish STRATEGIYASI

I. Bank tizimining joriy holati.
II. Bank tizimini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar va muammolar.
1. Islohotlarning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari.
2. Bank tizimining samaradorligini oshirish.
3. Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash.
4. Bank sektorida davlat ulushini kamaytirish.
III. Moliyaviy xizmatlarning ommabopligi va sifatini oshirish.
IV. Xalqaro reytinglarda O‘zbekiston bank tizimining mavqeyini oshirish.
V. Nobank moliya institutlarini rivojlantirish.
1. Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi.
3. Nobank kredit tashkilotlari.
VI. Markaziy bank va prudensial nazoratning roli.

VII. Moliya vazirligining roli va asosiy vazifalari.

Strategiyaning maqsadli koʻrsatkichlari va uni roʻyobga chiqarish ustidan monitoring

2020-2025-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi (keyingi oʻrinlarda — strategiya) Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, maʼrifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq, shuningdek, Jahon bankining mamlakat bank tizimi joriy holatini oʻrganish natijalari boʻyicha asosiy xulosalari va tavsiyalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

Strategiya bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalarini, 2020-2025-yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yoʻnalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy yechimlarni izlash yoʻllarini belgilaydi.

I. *Bank tizimining joriy holati*

Oʻzbekiston Respublikasi bank tizimi bugungi kunda bank xizmatlarining anʼanaviy sohalari — kreditlash, depozit operatsiyalari, hisob-kitob va kassa kabi xizmatlarini koʻrsatuvchi 31 ta tijorat bankidan (keyingi oʻrinlarda — banklar) tashkil topgan.

Mamlakatimiz mustaqilligi davrida banklar davlat ishtirokidagi korxonalarni va davlat rivojlanish dasturlarini imtiyozli foiz stavkalarida moliyalashtirishga faol jalb etgan holda muayyan maqsad va vazifalar uchun tashkil etildi. Natijada imtiyozli kreditlarning bank tizimi umumiy portfelidagi ulushi 60 foizdan koʻproqni tashkil etmoqda.

Bank sektorida davlat ustun mavqega ega — 31 ta bankdan 13 tasining kapitalida davlat ishtiroki mavjud boʻlib, ularning kapitali bank tizimi jami kapitalning 87 foizidan koʻprogʻini, aktivlari esa umumiy aktivlarning 85 foizidan koʻprogʻini tashkil

qiladi.

2017-yilda boshlangan bank sektorini isloh qilishning faol bosqichi valyuta bozorini liberallashtirish, bank faoliyatidagi eskirgan cheklovlarni olib tashlash va banklarni ularga xos bo‘lmagan funksiyalardan ozod qilish, bank xizmatlari ommabopligini oshirishga qaratildi.

2019-yilda bank tizimida bir qator sifat o‘zgarishlari amalga oshirildi. Xususan:

bank ishining zamonaviy standart va tamoyillariga mos keluvchi yangi tahrirdagi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining qabul qilinishi;

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi ishtirokida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarining isloh qilinishi;

davlat dasturlarini Markaziy bankning asosiy stavkasidan kam bo‘lgan stavkalarda kreditlash amaliyotidan voz kechilishi va 2021-yildan kreditlashning bozor shartlariga o‘tilishi;

tadbirkorlikni rivojlantirish davlat maqsadli dasturlari doirasida kreditlashning 3 ta bank — AT Xalq banki, “Agrobank” ATB va “Mikrokreditbank” ATBda jamlanishi;

tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan imtiyozli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmining Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi orqali tashkil etilishi;

bozor tamoyillari asosida ipoteka kreditlari hisobidan aholini uy-joy bilan ta’minlashning yangi tartibi joriy etilishi;

Jahon banki bilan hamkorlikda tijorat banklari faoliyati ustidan prudensial nazorat mexanizmlari va tartib-taomillarini ularning Bazel qo‘mitasi tamoyillariga mos kelishi nuqtayi nazaridan baholashdan o‘tkazilishi.

II. *Bank tizimini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar va muammolar*

Bank sektorida davlatning ustun mavqeyi, banklarning turli davlat dasturlari va korxonalarini moliyalashtirish uchun vositachi sifatida faol jalb qilinishi quyidagi tizimli xatarlar va muammolarga olib keldi:

Jahon bankining “Biznes yuritish” reytingidagi past koʻrsatkichlar — reytingning “Kredit olish” yoʻnalishida Oʻzbekiston 67-oʻrinni egallab turibdi;

yirik tijorat banklarining tarmoqdagi zamonaviy talablarga muvofiq transformatsiya jarayonlarida ortda qolishi, korporativ boshqaruv standartlari, axborot texnologiyalari mahsulotlari, aktivlar va passivlarni boshqarish, mijozlar bilan aloqa qilish boʻyicha zamonaviy usullarni amaliyotga joriy qilishda kechikishi;

davlat ishtirokidagi banklarning ustuvor dasturlar, sektorlar va davlat ulushiga ega korxonalarga bozor stavkalaridan past stavkalarda kreditlar beruvchi an’anaviy “rivojlantirish banklari” vazifasini qisman bajarishi. Chet el valyutasida uzoq muddatli imtiyozli moliyalashtirishning mavjudligi daromad egri chizigʻining pasayishiga olib kelib, bu, oʻz navbatida, davlat ishtirokidagi korxonalar uchun uzoq muddatli kreditlarning qisqa muddatli kreditlardan koʻra arzonroq boʻlishiga sabab boʻladi va ularning milliy valyutada emas, balki chet el valyutasida qarz olishini ragʻbatlantiradi;

aktivlar va passivlar dollarlashuvining yuqori darajasi mavjudligi, kreditlar va depozitlarning yirik kompaniyalar va iqtisodiyotning alohida sektorlarida jamlanishi banklarni valyuta va kredit xatarlariga, shuningdek, likvidlik xavfiga duchor qiladi. 2020-yil boshida xorijiy valyutada nominallashtirilgan kreditlar jami kreditlar hajmining 48 foizini, chet el valyutasidagi depozitlar va fondlar esa jami depozitlar hajmining 44 foizini tashkil etadi. Davlat ishtirokidagi banklar tomonidan berilgan kreditlar umumiy hajmining 36 foizi 10 ta eng yirik qarz oluvchilar hissasiga toʻgʻri keladi;

banklar biznes-modellarining korporativ mijozlarga xizmat koʻrsatishga yoʻnaltirilganligi, nobank moliya tashkilotlari, innovatsiyalar va axborot tizimlarining sust rivojlanganligi sababli moliyaviy ommaboplikning past darajadaligi. Natijada, boshqa mamlakatlarda jismoniy shaxslar va korporativ mijozlarga ajratilgan kreditlar bir me’yorda taqsimlangan bir vaqtda, mamlakatimizda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar jami kredit portfeli hajmining 19 foizini, korporativ mijozlarga ajratilgan kreditlar esa 81 foizni tashkil etmoqda;

nobank kredit tashkilotlari, shu jumladan mikromoliyalashtirish institutlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Buning oqibatida faoliyatini endi boshlayotgan tadbirkorlar qatlamini qamrab oladigan, ularning bosqichma-bosqich bank kreditlarini jalb qila oladigan to‘laqonli biznes darajasigacha “o‘sishiga” imkon yaratuvchi samarali mexanizmlar yaratilmagan.

III. *Islohotlarning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari*

Strategiyaning maqsadi zamonaviy bank tizimini shakllantirish, banklarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va bank xizmatlarining yangi standartlarini joriy etishga qaratilgan bank tizimida kompleks o‘zgartirishlarni amalga oshirishdan iborat.

Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi:

moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, faqatgina bozor talablari asosida kreditlash, banklarning davlat resurslariga bo‘lgan qaramligini kamaytirish, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali infratuzilma yaratish va banklar faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog‘liq bo‘lmagan funksiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish;

kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o‘sishining mo‘tadil darajasiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro miqyosda amaliy tajribaga ega bo‘lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash;

davlat ulushi mavjud bo‘lgan tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalarini va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo‘lgan investorlarga tanlov savdolari asosida sotish, shuningdek, davlat ulushi mavjud bo‘lgan tijorat banklari va korxonalarni bir

vaqtning o‘zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini kamaytirish;

yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini ko‘paytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko‘rsatish nuqtalari tarmog‘ini rivojlantirish, shuningdek, respublikaning yagona moliya tizimidagi o‘zaro to‘ldiruvchi qism sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligini va sifatini oshirish.

1. Bank tizimining samaradorligini oshirish.

Bank tizimi samaradorligini oshirish tadbirkorlik subyektlari va aholining arzon va sifatli moliyaviy xizmatlarga o‘sib borayotgan ehtiyojlarini ta’minlash uchun iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omili hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, strategiya doirasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda:

1) ilg‘or xalqaro tajriba va texnologiyalarni jalb qilish hisobiga bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish va sifatini oshirish;

2) korporativ boshqaruvning ilg‘or standartlari va tajribasini joriy etish orqali banklarda boshqaruvni takomillashtirish, bank boshqaruvi organlari hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini hamda ular tomonidan ma’lumotlarni lozim darajada oshkor etilishini ta’minlash;

3) banklar faoliyatini tijoratlashtirishni oshirish, bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, shuningdek, pul-kredit siyosati instrumentlarining samaradorligini oshirish uchun subsidiyalangan kredit berishdan voz kechish;

4) tijorat banklarining jamg‘armalarni investitsiyalarga safarbar qilish hamda ularni moliyaviy va iqtisodiy nuqtayi nazardan eng samarali sohalarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni ta’minlovchi moliyaviy vositachi sifatidagi rolini oshirish;

5) strategik xorijiy investorlarni jalb qilish va moliya tizimining xalqaro moliya bozorlariga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida bank faoliyatini izchil liberallashtirish va uni

eng yaxshi xalqaro amaliyot bilan uyg‘unlashtirish;

6) nobank kredit tashkilotlarini, shu jumladan, ushbu segmentda raqobatni rivojlantirish, prudensial tartibga solishning tegishli normalarini rivojlantirish orqali, shuningdek, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yengillashtirish hisobiga rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

2. *Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash.*

Bank sektorining moliyaviy barqarorligi va bardoshliligi rejalashtirilgan islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning hamda biznes va aholining milliy bank tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Bank sektori moliyaviy barqarorligini oshirishning strategik maqsadlariga erishish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda:

1) kreditlashning o‘sish sur’atlari mo‘tadilligini ta’minlash va kredit portfeli sifatini yaxshilash;

2) bank sektori nazoratini takomillashtirish va banklarda tavakkalchiliklarni boshqarishning zamonaviy tizimini tatbiq etish;

3) bank tizimi va iqtisodiyotning real sektoridagi davlat ulushi mavjud korxonalarni o‘zaro muvofiq ravishda isloh qilishni ta’minlash, banklar tomonidan davlat korxonalari va tashkilotlari faoliyatini transformatsiya qilishda tijorat asosida faol ishtirok etish, real sektor va moliya sektoridagi o‘zgarishlar uyg‘un tarzda kechishini ta’minlash;

4) banklarning kapitaliga qo‘yiladigan minimal talablarni, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga qo‘ shilishi va respublika bank tizimining xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvini hisobga olgan holda oshirish;

5) eng yaxshi xalqaro tajriba asosida depozitlarni himoyalash tizimini izchillik bilan rivojlantirish.

Ko‘rsatib o‘tilgan chora-tadbirlar doirasida quyidagilar banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi:

davlat ulushi mavjud korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, jumladan ular doirasida mazkur korxonalarni boshqarish, moliyaviy barqarorligini oshirish va

xususiylashtirishning eng maqbul usullari ishlab chiqiladi;

davlat ulushi mavjud banklar aktivlari sifatining mustaqil baholashdan o‘tkazilishi va shu jumladan, harakatsiz kreditlarga amaliy ko‘maklashish orqali ularning kredit portfellari sifatini yaxshilash bo‘yicha choralar ko‘rilishi;

kredit byurolari faoliyati, shu jumladan ularning ma’lumotlar bazalarini uy-joy kommunal xo‘jalik kompleksi, soliq va pensiya tizimlarining axborot tizimlari bilan integratsiyalash orqali rivojlantirilishi;

bank ishini yuritish, shu jumladan korporativ boshqaruv va mijozlarga xizmat ko‘rsatishda ilg‘or xalqaro standartlarni joriy etish tamoyillari asosida moliya sektorining xalqaro integratsiyalashuvi;

nizolarni suddan tashqari hal qilish tartib-taomillari, bankrotlik, majburiy ijro sohalaridagi qonunchilikni va qarzdorlarning insofsiz harakatlaridan banklarni huquqiy himoya qilishning boshqa choralarini takomillashtirish.

3. *Bank sektorida davlat ulushini kamaytirish.*

Tijorat banklarini xususiylashtirish bank tizimini isloh qilishning muhim omili hisoblanadi.

Mazkur vazifani bajarish maqsadida quyidagilar ko‘zda tutilmoqda:

1) kredit tashkilotlarini ularga xos bo‘lmagan funksiyalarni bajarishdan, shuningdek, ortiqcha yuklamalardan ozod qilish orqali ma’muriy yukni izchillik bilan bartaraf etish;

2) zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

3) bank ishida yetarli darajada tajriba, bilim va obro‘ga ega bo‘lgan strategik investorlarni jalb qilgan holda, qator tijorat banklarida davlat ulushini kamaytirish;

4) bank tizimini isloh qilish davrida aholining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish, investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmi (“loyihalar fabrikasi”)ni joriy qilish, bank xizmatlarining hududiy qamrovini ta’minlash maqsadida bir qancha banklardagi davlat ulushini o‘rta muddatli istiqbolda

saqlab qolish;

5) nazorat yuklarini, shu jumladan, banklarning regulyator va davlat organlari bilan axborot almashinuvini takomillashtirish hamda hisobotlarni shakllantirish jarayonlarini soddalashtirish va avtomatlashtirish orqali ularni taqdim etish bilan bog‘liq bo‘lgan yuklarni kamaytirish.

Yirik banklarni xususiylashtirishda asosiy yondashuv ikki bosqichni, shu jumladan 2020-yillarda institutsional o‘zgarishlarni va undan keyingi davrda davlat ulushini strategik investorlarga to‘liq sotishni nazarda tutadi.

Birinchi bosqich davomida banklarni institutsional o‘zgartirish xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni hamda banklarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va tegishli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish uchun xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb qilishni nazarda tutadi.

Xalqaro moliya institutlari bilan keng qamrovli hamkorlik korporativ boshqaruv, biznes-strategiya va operatsiyalarga zamonaviy yechimlarni joriy etishga asoslanadi. Bundan tashqari, ularning ishtiroki potensial strategik investorlar uchun ijobiy belgi hisoblanadi.

Davlat ulushiga ega bo‘lgan banklarni korporativ transformatsiya qilish jarayoni to‘rtta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladi:

1. Korporativ boshqaruvni takomillashtirish:

bank kuzatuv kengashlariga bank sohasida xalqaro tajribaga ega bo‘lgan mustaqil a’zolarni kiritgan holda, ularning tarkibini yangilash, tijorat banklari boshqaruv organlari o‘rtasida vakolat va majburiyatlarni aniq taqsimlash;

samarali nazorat uchun kuzatuv kengashlari huzurida maxsus qo‘mitalarni tashkil etish;

zamonaviy xalqaro tajriba asosida bank boshqaruvining tashkiliy tuzilmasini qayta ko‘rib chiqish, ijro organlari faoliyati sifatini baholash uchun “samaradorlikning eng muhim ko‘rsatkichlari”ni belgilash amaliyotini joriy qilish;

moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tish, minoritar aksiyadorlar, mijozlar va boshqa manfaatdor tomonlarga

ma’lumotlarning yetarli darajada oshkor etilishini ta’minlash;

2. Bank xizmatlari sifatini oshirish va ko‘lamini kengaytirish:

biznes jarayonlarni maqbullashtirish va boshqaruv sifatining xalqaro standartlarini joriy qilish;

tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali kreditlar ajratish jarayonlarini soddalashtirish;

mijozlarga keng ko‘lamli xizmatlarni (moliyaviy maslahat, investitsion banking, faktoring, loyihaviy moliyalashtirish, lizing va boshqalar) taklif etish;

3. Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish:

masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan kontaktsiz to‘lovlar soni va qamrovini kengaytirish;

avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish;

bank ma’lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish;

bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni joriy qilish (fintex, marketpleys, raqamli bank);

4. Kadrlar salohiyatini oshirish:

kadrlarni boshqarishning korporativ strategiyasini takomillashtirish;

bank kadrlarini uzluksiz o‘qitish tizimini joriy qilish;

har bir xodimning faoliyati natijalarini baholash asosida mehnatga haq to‘lashning zamonaviy tizimlariga o‘tish (KPI, bonus).

Bank tizimidagi kadrlar salohiyatini oshirishda Bank-moliya akademiyasi faoliyatini yangicha tashkil etishga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda, yetakchi xorijiy banklar va konsultantlar bilan hamkorlik qilish asosida uzluksiz ta’lim tizimini tashkil etish, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy aloqani ta’minlash nazarda tutiladi.

Ikkinchi bosqich — davlat ulushini xususiylashtirish banklarning transformatsiyasi muvaffaqiyatli yakunlanganidan so‘ng amalga oshiriladi va zarur tajriba, bilim va obro‘ga ega bo‘lgan strategik investorlarga bank aksiyalarini sotishni nazarda tutadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mazkur strategiya

doirasida quyidagi banklarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish koʻzda tutilmoqda:

1) “Ipoteka-bank” ATIB va “Oʻzsanoatqurilishbank” ATBni Xalqaro moliya korporatsiyasining koʻmagida;

2) “Aloqabank” ATBni Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot bankining koʻmagida;

3) “Asaka” ATBni Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining koʻmagida;

4) “Qishloq qurilish bank” ATB va “Turon bank” ATBni xalqaro moliya institutlari va konsalting tashkilotlarini jalb qilish orqali ularni qoʻshib yuborish masalasini koʻrib chiqqan holda.

Mazkur Strategiyani amalga oshirish doirasida AT “Xalq banki” va “Asia Alliance Bank” ATBdagi davlat aksiyalari paketini xorijiy strategik investorlarga sotish koʻzda tutilgan.

Bundan tashqari, AT Xalq bankini xususiylashtirishga tayyorlash jarayonida jamgʻarib boriladigan pensiya tizimini bankdan ajratib olish koʻzda tutilmoqda.

Bank tizimini isloh qilish davrida barcha aholi qatlamlarining moliyaviy xizmatlarga boʻlgan talabini qondirish, bank xizmatlarining hududiy qamrovini ta’minlash maqsadida davlat ishtiroki ustuvor ravishda uchta bankda — “Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ (keyingi oʻrinlarda - Oʻzmilliybank), “Agrobank” ATB va “Mikrokreditbank” ATBda saqlab qolinadi.

Oʻzmilliybank faoliyati ustuvor ravishda strategik korxonalar va investitsiya loyihalariga bozor shartlarida bank xizmatlarini koʻrsatish, shuningdek, keng qamrovli bank mahsulotlarini taqdim etishga qaratilgan tizimli ahamiyatga molik bank sifatida belgilanadi.

Bundan tashqari Oʻzmilliybank xalqaro tajribani inobatga olgan holda, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, koʻrib chiqish, moliyalashtirish va amalga oshirishni qoʻllab-quvvatlashning yagona mexanizmini (“loyihalar fabrikasi”) joriy etish bilan shugʻullanadi.

“Agrobank” ATB va “Mikrokreditbank” ATBning hududlardagi tarmogʻi afzalligini inobatga olgan holda, ularning faoliyati kichik va oʻrta biznesni, qishloq xoʻjaligidagi ishlab

chiqaruvchilarni davlat tomonidan kredit orqali qo‘llab-quvvatlashga, hududlarda, shu jumladan moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish qiyin bo‘lgan olis tumanlarda jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish va kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi.

Bunda, mazkur banklarda quyidagilarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda:

professional kuzatuv kengashlarini shakllantirish, ularga malakali mutaxassislarni jalb qilish;

operatsiyalar va biznes natijalarning samaradorligini kompleks monitoringi tizimini joriy qilish;

tashqi auditorlar va davlat nazorat organlari bilan o‘zaro tizimli hamkorlikni ta’minlash.

Davlat ulushi mavjud bo‘lgan ayrim banklarning faoliyatini diagnostika qilish va moliyaviy ahvolini baholash asosida, me’yoriy talablaridan hamda iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligidan kelib chiqqan holda qonun hujjatlariga muvofiq ularni qayta tashkil etish masalasi ko‘rib chiqiladi.

4. Moliyaviy xizmatlarning ommabopligi va sifatini oshirish.

Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish aholi va tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan, yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmayotgan segmentlar (kam daromadli jismoniy shaxslar, qishloq aholisi, mikrofirma va kichik korxonalar) uchun bankning bazaviy xizmatlaridan (depozit, kredit va to‘lov xizmatlari) foydalanish imkoniyatini kengaytirishni nazarda tutadi.

Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda:

1) Jahon banki ko‘magi bilan moliyaviy ommaboplikni oshirishning aniq va muvofiqlashtirilgan yo‘nalishlarini belgilovchi Moliyaviy ommaboplikni oshirishning milliy strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish;

2) subsidiyalanadigan kredit dasturlarini yetarlicha xizmat ko‘rsatilmayotgan va zaif qatlamlarga yo‘naltirish hamda subsidiyalarni vaqt bo‘yicha cheklash maqsadida davlatning ishtirokini yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmayotgan segmentlarda jamlash;

3) mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida yaxlit va

iqtisodiy samarador moliyaviy vositachilik va mahsulotlar tizimini, jumladan ushbu qatlamlar uchun maqsadli yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega mikrokredit tashkilotlari, lizing, faktoring va moliyaviy texnologik (fintex) kompaniyalar, elektron pul operatorlari, ixtisoslashtirilgan kredit-vositachilarini rivojlantirish.

Banklarning hududlardagi ishtiroki bazaviy bank xizmatlari to‘plamini ko‘rsatuvchi va ko‘p sonli boshqaruv xodimlarini talab qilmaydigan ixcham “bank xizmatlari ofislari” tarmog‘ini barcha hududlarda kengaytirgan holda mavjud filiallar tarmog‘ini maqbullashtirish, shuningdek, “mobil banking” xizmatlarini keng joriy qilish hisobiga ta’minlanadi.

Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda:

ayrim banklar kapitalida davlat ulushi mavjudligidan qat’i nazar banklar faoliyatini amalga oshirish uchun teng sharoitlar yaratish orqali bank sektorida raqobat muhitini ta’minlash;

banklarning yangi, shu jumladan, “raqamli banking” tamoyillariga asoslangan biznes – modellarini joriy qilish; bank xizmatlari ko‘rsatishning xalqaro sifat standartlarini qo‘llash; banklarning operatsion va kapital xarajatlarini optimallashtirish;

birinchi navbatda, yuridik va jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlarini yanada oshirish, shuningdek, banklarning xalqaro kapital bozorlariga chiqishi hisobiga bank tizimiga qo‘shimcha resurslarni jalb qilish;

kichik va o‘rta biznes subyektlariga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning ko‘lami va sifatini, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko‘rsatish orqali oshirish;

ipoteka bozorida aholining oshib borayotgan ehtiyojlarini qanoatlantiruvchi tegishli bank va nobank mahsulotlar turini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali shahar va qishloq joylarida ipotekani kreditlashni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilish.

IV. ***Xalqaro reytinglarda O‘zbekiston bank tizimining mavqeyini oshirish***

Iqtisodiy faoliyatning asosiy o‘rinlaridan birini egallar ekan,

bank tizimining rivojlanish va samaradorlik darajasi koʻrsatkichlari, qoida tariqasida, turli xalqaro reytinglarga kiritiladi va ularning asosiylaridan biri Jahon bankining “Biznes yuritish” reytingi hisoblanadi.

Kreditlar ommabopligini va mazkur reytingda Oʻzbekistonning mavqeyini oshirish maqsadida 2019-2020-yillarda 4 ta qonun va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta qarori qabul qilindi. Ularga muvofiq:

kreditorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish uchun garov mulkiga qoʻyilgan talablar xalqaro amaliyotga muvofiqlashtirildi;

garov reyestriga yozuv kiritilgan sana undiruv navbatini va kreditorning boshqa kreditorlar va uchinchi shaxslarga nisbatan ustuvor huquqini aniqlash uchun asos hisoblanadi;

undiruvni mol-mulkka (mulkiy huquqqa) qaratishning yagona tartibi belgilandi; garovni belgilash va undiruvni unga qaratish tartib-taomillari soddalashtirildi; qarzdor va kreditorga bankrotlik toʻgʻrisidagi ishni koʻrib chiqishning har qanday bosqichida kelishuv bitimi tuzish huquqi berildi; bir turdagi kreditorlar tushunchasi kiritildi.

Qayd etilgan choralar milliy qonunchilikni xalqaro amaliyotga muvofiqlashtirishga, ularni qoʻllash amaliyotini takomillashtirish esa mamlakat reytingini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Jahon banki reytingida mazkur Strategiyaning maqsadli koʻrsatkichlariga erishish uchun quyidagilar koʻzda tutilmoqda:

1. Kredit axboroti manbalarini kengaytirish va koʻchmas mulk obyekti toʻgʻrisidagi ma’lumotlarni kredit reyestrida aks ettirishning yangi mexanizm va vositalarini joriy etish;

2. Qonun hujjatlariga qarz oluvchining qarzini majburiy undirish jarayonida kreditorlarning garov bilan ta’minlangan huquqlarini himoya qilishni takomillashtirishni nazarda tutuvchi oʻzgartirishlar kiritish;

3. Davlat personallashtirish markazi, Davlat soliq qoʻmitasi, Kadastr agentligi, Majburiy ijro byurosi, Adliya vazirligi, shuningdek, kommunal xizmatlar tashkilotlari, sugʻurta kompaniyalari va boshqa xoʻjalik yurituvchi subyektlarning

ma’lumotlar bazasi bilan integratsiyalashgan holda qarz oluvchilarning skoring tizimini yanada takomillashtirish.

v. ***Nobank moliya institutlarini rivojlantirish***

1. *Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi*

Bank sektorining tijoratlashuvini oshirish, unga xususiy kapitalni jalb qilish va mazkur sektorni bosqichma-bosqich xususiylashtirish bo‘yicha vazifalarni amalga oshirish asnosida Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — jamg‘arma) faoliyatini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda Jamg‘armaning faoliyati foiz stavkalarini qoplash va kreditlar bo‘yicha kafilliklar berish orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Bank sektorini isloh qilish jamg‘arma faoliyatini takomillashtirish zaruriyatini kuchaytiradi. Xususan, qarz oluvchining garovga qo‘yilgan mol-mulki bilan bir qatorda kafolatlar bo‘yicha undirishni ko‘zda tutuvchi mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha ishlar olib boriladi. Bundan tashqari, jamg‘arma faoliyatining barqarorligini oshirish, shuningdek, kafilliklar bo‘yicha tabaqalashtirilgan komissiyalarga bosqichma-bosqich o‘tish uchun moliyaviy model ishlab chiqiladi.

Jamg‘armaning korporativ boshqaruvi uning kuzatuv kengashida mustaqil a’zolar, shu jumladan, xususiy sektor yoki ilmiy doira mutaxassislarining ishtiroki hisobiga kuchaytiriladi.

Jamg‘armaning moliyaviy hisobotlari auditorlik tekshiruvidan o‘tadi, shaffoflik va hisobdorlikni oshirish maqsadida budjet ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar e’lon qilinadi.

Tavakkalchiliklarni monitoring qilish va boshqarish sohasida jamg‘armaning salohiyati kuchaytiriladi, shuningdek, banklar tomonidan kredit ajratish jarayonining maqbulligi va to‘g‘riligini baholash metodologiyasi ishlab chiqiladi.

Jamg‘armaning tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi takomillashtirilishi bilan portfelni kafolatlash va unda kutilayotgan yo‘qotishlar asosida turli vositachilik to‘lovlarini undirish mahsulotlari joriy etiladi.

Jamg‘arma operatsiyalari hajmining yanada kengayishi va

bank sektori barqarorligi uchun uning tizimli ahamiyati ortishini hisobga olgan holda, uning faoliyatini samarali prudensial nazorat qilish mexanizmi ishlab chiqiladi.

2. *O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi*

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — O‘TTJ) respublika moliya tizimida muhim o‘rin egallaydi. 2019-yilda investitsiya loyihalari va dasturlari doirasida O‘TTJga banklar tomonidan qayta moliyalashtiriladigan kreditlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri berish bilan, bank tizimi orqali uning resurslarini ajratishni cheklash choralari ko‘rildi.

Shu munosabat bilan, zarur hollarda, xalqaro moliya institutlari ekspertlari va xorijiy konsultantlarni jalb etgan holda O‘TTJ faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida uni yanada isloh qilish bo‘yicha chora-tadbirlar davom ettiriladi.

3. *Nobank kredit tashkilotlari*

Moliyaviy ommaboplikni oshirish bank sektorini isloh qilish bo‘yicha rejalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta’minlovchi omil ekanligini hisobga olib, mazkur strategiya nobank kredit tashkilotlarini (NKT) rivojlantirish bo‘yicha tashabbuslarni shakllantirishni ham ko‘zda tutadi.

Banklarning ustun mavqeyiga qaramay, ular aholining muayyan qatlamlarini qamrab olmaydi, xususiylashtirish jarayonida va xususiylashtirishdan keyin esa ularning faoliyati yuqori daromadli yirik korxonalar va jismoniy shaxslarga yanada ko‘proq qaratilishi mumkin. Bu esa NKT faoliyatini kichik biznes va kam daromadli aholiga xizmat ko‘rsatishga qaratgan holda, ularni rivojlantirish zarurligini taqozo etadi.

Shu munosabat bilan, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda NKTning rolini oshirish uchun o‘rta muddatli istiqbolda Markaziy bank va boshqa vakolatli organlarning sa’y-harakatlari quyidagilarni nazarda tutadi:

NKTning barqaror rivojlanishini rag‘batlantirish uchun litsenziyalash tartib-taomillarini soddalashtirish, tavakkalchilik sohalarini mutanosib ravishda tartibga solish va tegishli infratuzilmadan foydalanish imkoniyatini ta’minlash orqali teng sharoitlarni yaratish yo‘li bilan tomonlarning ishtirok etish

imkoniyatini yengillashtirishga qaratilgan qulay normativ-huquqiy bazani ta’minlash;

nobank moliya xizmatlariga oid mahsulot takliflari, shakl va turlarini, shu jumladan, moliya texnologiyalari sohasida yangi yechimlarni kengaytirish;

tavakkalchilikka yo‘naltirilgan nazoratni qo‘llash, buxgalteriya hisobi qoidalari va talablariga rioya etilishi nuqtayi nazaridan lozim darajada tartibga solish, shuningdek, kredit byurolari bilan o‘zaro hamkorlikni ta’minlash hisobiga prudensial tartibga solishning sifati va qulayligini oshirish;

moliyaviy xizmatlar iste’molchilarining huquqlariga rioya etilishi, shu jumladan “mas’uliyatli kreditlash”, xizmatlar qiymati to‘g‘risida ma’lumotlarning lozim darajada oshkor etilishi, iste’molchilar shikoyatlarini ko‘rib chiqish mexanizmlarining tartibga solinishi nuqtayi nazaridan NKTni tartibga solish;

NKTning bankrotlik tartib-tamoillarini kreditorlarning yo‘qotishlarini kamaytirish maqsadida tartibga solish.

VI. *Markaziy bank va prudensial nazoratning roli*

Kreditlashning yuqori o‘sish sur’atlari saqlanib qolayotgan sharoitda, shuningdek, bank tizimini isloh qilish va xususiylashtirishga tayyorlashda Markaziy bankning bank tizimi regulyatori sifatidagi rolini oshirish orqali lozim darajadagi prudensial nazoratning bo‘lishi moliya tizimi barqarorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Jahon banki bilan birgalikda banklar faoliyatini prudensial nazorat qilish mexanizmlari va tartib-taomillarining Bazel qo‘mitasi “Banklarni samarali nazorat qilishning asosiy tamoyillari”ga muvofiqligi baholandi.

Baholash natijalaridan kelib chiqib, Markaziy bank tomonidan banklarni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish bo‘yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlarni amalga oshiriladi:

davlat ustunlik qilayotgan bank sektoridan xususiy investorlarning roli sezilarli bo‘lgan sektorga bir tekis o‘tishni ta’minlash, shuningdek, banklarga nisbatan xalqaro e’tirof etilgan

minimal standartlar va talablarni belgilash uchun normativ va nazorat bazasini qayta koʻrib chiqish, uni Oʻzbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi va “Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki toʻgʻrisida”gi qonunlariga muvofiq nazorat siklining butun spektri boʻyicha isloh qilish;

sektorning barqarorligi va yaxlitligini saqlab qolish uchun aniq, uzoq muddatli, real strategik tashabbuslar va hayotiy biznes rejalarga ega boʻlgan barqaror ishtirokchilarning bozorga kirishini taʼminlash maqsadida banklarni litsenziyalash qoidalarini qayta koʻrib chiqish;

normativ-huquqiy hujjatlarni Bank nazorati boʻyicha Bazel qoʻmitasining tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqish va tasdiqlash;

tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferlarini joriy qilish orqali kredit portfelining haddan ziyod oʻsib ketishini jilovlash;

banklarning shaffofligiga va banklar tomonidan muntazam ravishda chop etiladigan axborotlarga qoʻyilgan talablarni ishlab chiqish;

nazorat faoliyatiga jalb etilgan xodimlarning salohiyatini doimiy va tizimli ravishda oshirish;

muammolarni barvaqt, xatarlar amalda roʻy berishidan oldin bartaraf etish maqsadida, jumladan banklarning oʻzi tomonidan oldini oluvchi choralar koʻrilishini nazarda tutuvchi tezkor tuzatish harakatlarini (barvaqt javob qaytarish choralari) qoʻllash mexanizmini ishlab chiqish;

nazorat jarayonida va maʼlumotlar almashinuvini amalga oshirishda, shuningdek, hisobotlarni shakllantirishda axborot texnologiyalarining rolini kengaytirish,

banklarning asosiy faoliyat turiga xos boʻlmagan funksiyalarini hamda ularning bank faoliyati hisoblanmaydigan faoliyat bilan shugʻullanuvchi yuridik shaxslarning ustav fondlari (ustav kapitali)da ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish;

konsolidatsiyalashgan nazoratning normativ bazasini ishlab chiqish (shu jumladan bank guruhlarini aniqlash, guruhlarni identifikatsiyalash, konsolidatsiyalashgan hisobot,

konsolidatsiyalashgan asosda prudensial koeffitsientlar);

kapitalning yetarliligi va likvidlik koʻrsatkichi talablariga qat'iy rioya etilishini, shu jumladan mavjud talablarni qayta koʻrib chiqish va ularni Bank nazorati boʻyicha Bazel qoʻmitasining standartlariga muvofiqlashtirish orqali ta'minlash;

korporativ boshqaruv, ichki nazorat va tavakkalchiliklarni boshqarish toʻgʻrisidagi nizomlarni banklar uchun korporativ boshqaruvning umume'tirof etilgan tamoyillari va boshqa ilgʻor tajribalarga muvofiqlashtirish maqsadida qayta koʻrib chiqish;

banklarda stress-testlarning ishonchli tizimiga qoʻyiladigan batafsil talablarni ishlab chiqish, uning natijalarini banklar kapitalining yetarlilik koʻrsatkichlarini va likvidliligini rejalashtirishda qoʻllash;

samarali nazorat olib borish uchun hisobotlarga oid keraksiz va eskirgan talablarni kamaytirish hamda hisobotlarni shakllantirish jarayonini avtomatlashtirish orqali hisobot tizimini takomillashtirish;

eng yuqori tavakkalchilikka ega — yirik, tizimli ahamiyatga molik banklar, yuqori yoki yomonlashayotgan tavakkalchilik-profiliga ega va/yoki biznes faoliyati jarayonida tavakkalchiliklarni boshqarish sifati past boʻlgan va yuqori darajadagi ichki tavakkalchiliklarga ega banklarga nisbatan nazoratga oid resurslarni ajratishni nazarda tutuvchi tavakkalchiliklarni boshqarishga asoslangan nazoratga (tavakkalchilikka yoʻnaltirilgan nazorat) oʻtish;

bank faoliyati uzluksizligi va moliyaviy barqarorlik kabi jamiyat manfaatlari himoyasini ta'minlash maqsadida banklarni tartibga solish va sanatsiyalash hamda omonatlarni sugʻurtalashga oid tegishli tizimni joriy qilish;

xalqaro amaliyotga muvofiq turli tavakkalchiliklarni (konsentratsiya va likvidlik xavfi, kredit, operatsion, valyuta tavakkalchiligi va boshqalar) boshqarish boʻyicha qoʻllanmalarni ishlab chiqish.

VII. *Moliya vazirligining roli va asosiy vazifalari*

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tijorat banklarida davlat ulushi boʻyicha aksiyador vazifasini yuklagan holda davlat ulushi boʻlgan tijorat banklarini transformatsiya qilish

va ularga zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish hamda quyidagi vazifalarni bajarish bo‘yicha mas’uliyat yuklatilgan:

tijorat banklarining rivojlanish strategiyasida belgilangan maqsadli vazifalar va mo‘ljallarning bajarilishini baholash va nazorat qilish, shu jumladan, hukumat qarorlariga muvofiq banklarni kapitallashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini baholash;

tijorat banklarining kuzatuv kengashlarini kuchaytirish uchun xalqaro konsultantlarni maslahatchi sifatida jalb qilish, shuningdek, tijorat banklarining xalqaro moliya institutlari va konsalting kompaniyalari bilan islohotlarni amalga oshirish va xususiylashtirishga tayyorgarlik doirasidagi o‘zaro hamkorligini muvofiqlashtirish;

moliyaviy samaradorlikka, investitsiya va kredit portfeli sifatiga, shuningdek, depozitlarni jalb qilish sohasidagi faolligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan ijro etuvchi (boshqaruv) organlarining samaradorligi mezonlarni ishlab chiqish va o‘rnatish.

Moliya vazirligi davlat ulushiga ega bo‘lgan banklarni transformatsiya qilish yuzasidan o‘ziga taqdim etilgan vakolatlar doirasida quyidagilarni ta’minlaydi:

mazkur strategiyaning maqsad va vazifalariga muvofiq davlat ulushiga ega bo‘lgan banklarni o‘z vaqtida va sifatli transformatsiya qilish hamda ularni xususiylashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish;

banklar ijro etuvchi (boshqaruv) organlari va kuzatuv kengashlari tarkibini, shu jumladan mustaqil a’zolar bilan kuchaytirish, korporativ boshqaruv standartlariga qo‘yiladigan talablarni oshirish, moliyaviy samaradorlik va tavakkalchiliklarni boshqarish sifati mezonlarini belgilash;

banklarni isloh qilish va xususiylashtirishga qadar tayyorlash jarayonlariga jalb qilish uchun xalqaro moliya institutlari va konsalting kompaniyalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish.

Quyidagilar strategiyani amalga oshirish doirasida Moliya vazirligi tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar hisoblanadi:

- tegishli banklar tomonidan mazkur strategiya qoidalariga muvofiq ravishda hamda xalqaro moliya institutlari va

konsalting kompaniyalari bilan o‘zaro hamkorlikda transformatsiya rejalarini ishlab chiqilishini muvofiqlashtirib borish;

- jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini samarali boshqarish va foydalanishni ta’minlash;
- banklarning transformatsiya jarayonini hamda bazaviy tarmoqlar va davlat ishtirokidagi korxonalarda tarkibiy o‘zgartirishlar kiritishni uzviy amalga oshirish va muvofiqlashtirish choralarini ko‘rish.

VIII. *Strategiyaning maqsadli ko‘rsatkichlari va uni ro‘yobga chiqarish ustidan monitoring*

Bank sektorini isloh qilish bo‘yicha belgilangan maqsadlarga o‘z vaqtida erishilishini va qilingan sa’y-harakatlar muvaffaqiyatini baholash maqsadida mazkur strategiya quyidagi maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi:

1) bank tizimi aktivlarining jami hajmida davlat ulushi bo‘lmagan banklar aktivlari hissasini joriy 15 foizdan 2025-yilga kelib 60 foizgacha oshirish;

2) banklar majburiyatlarining umumiy hajmida xususiy sektor oldidagi majburiyatlar hissasini joriy 28 foizdan 2025-yil yakuniga 70 foizgacha oshirish;

3) 2025-yilga kelib davlat ulushi mavjud kamida uchta bank kapitaliga zarur tajriba, bilim va obro‘ga ega bo‘lgan kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish;

4) umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlari hissasini joriy 0,35 foizdan 2025-yilga kelib 4 foizgacha oshirish.

Strategiyaning amalga oshirilishi ustidan tizimli monitoring olib borish, umumiy muvofiqlashtirish, bank tizimini isloh qilishga to‘sqinlik qiluvchi muammoli masalalarni tezkor ko‘rib chiqish va hal etish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladi.

IX bobga oid nazorat savollari:

- Tijorat banklari tomonidan ko‘rsatiladigan an’anaviy va noan’aviy xizmat turlari tushuntirib bering.
- Mijozlarga ish joyida va uyida masofaviy xizmat ko‘rsatish

nima?

- Internet-banking xizmatlar haqida ma’lumot bering.
- Banklarning mijozlar uylarida va ish joylarida xizmat ko‘rsatishning qanday turlarini bilasiz?
- «Bank mijoz» tizimining mohiyati nimadan iborat?
- «Bank mijoz» tizimining ishlash tartibi qanday?
- Plastik kartochkalardan foydalanish tartibini tushuntiring.
- Elektron hamyon nima?
- Identifikatsiya kartochka nima uchun zarur?
- Internet orqali bank xizmatlarini bajarish mumkinmi?
- Xorijiy davlatlarda plastik kartochkalarning turlari va qo‘llanilishi haqida nimalarni bilasiz?
- Plastik kartochkalarning to‘lov tizimidagi o‘rnini gapirib bering.

X BOB. TIJORAT BANKLARINING FAKTORING OPERATSIYALARI

10.1. Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari va uning mohiyati.
10.2. Faktoring operatsiyalarining turlari va ularni o‘tkazish tartibi.
10.3. Faktoring xizmati bo‘yicha shartnoma va uning tarkibi.
10.4. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini rivojlantirish masalalari.

Tayanch iboralar. Tijorat banklari, faktoring operatsiyalari, faktoring xizmatlari, maxsus faktoring kompaniyalari, mol yetkazib beruvchi, mol sotib oluvchi, qarzdorlik, ochiq faktoring, yopiq faktoring, debitor, kreditor, regress huquqi, kichik biznes korxonalari.

10.1. Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari va uning mohiyati

Faktoringning asosiy maqsadi - o‘z mijozlarining debitor qarzdorligini inkassasiya qilish va ularga tegishli bo‘lgan to‘lovlarni ular hisobiga undirib berishdan iborat.

Faktoring savdo vositachilarning, keyinchalik esa savdo banklarining operatsiyasi sifatida XVI-XVII asrlarda vujudga kelgan. Faktoring operatsiyalari tovarlarni kreditga sotish, ya’ni ular uchun to‘lovlarni ma’lum kelishilgan muddatdan, keyin kechiktirib to‘lanishiga asoslangan tijorat krediti asosida vujudga kelgan. Ingliz tilidan “fastor” so‘zi «maklyer, vositachi» degan ma’noni anglatadi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan faktoring, shubhasiz, vositachilik bilan bog‘liq operatsiya hisoblanadi. Faktoringni vositachilik faoliyatining turi deb qarashning asosi shundaki, bunda faktoring kompaniyasi ma’lum to‘lovlar evaziga mol yetkazib beruvchi korxonaga tovarlarni sotish yoki xizmatlarni ko‘rsatish orqali, unga tegishli bo‘lgan pul mablag‘larini mol sotib oluvchilardan undirib olish (debitor

qarzdorlikni inkassasiya qilish) huquqini oladi. Shu sabab faktoringga aylanma kapitalni kreditlashning bir turi sifatida ham qarash mumkin. Faktoring asosan kichik va o‘rta korxonalarning faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noto‘lovlarning oldini olish maqsadida qo‘llaniladi. Bunday operatsiyalar banklar, maxsus faktoring kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqacha qilib aytganda, faktoringda bank yoki faktoring kompaniyasi ma’lum haq evaziga o‘z mijozining boshqa mijozga bo‘lgan yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, xizmatlar uchun haq to‘lash majburiyatlari (qarzi)ni sotib oladi va zudlik bilan, eng uzog‘i 2-3 kun davomida talabning 60-85 foizini avans taraqasida o‘z mijozi, ya’ni mol yetkazib beruvchi (xizmat ko‘rsatuvchi)ga to‘lab beradi. To‘lovning qolgan 30-10 foizini kelgusida shartnomaga asosan faktoring xizmatini ko‘rsatayotgan tashkilot (bank) xaridordan ushbu qarzlarni undirib olgandan keyin mijozga to‘lab beriladi va bank (faktor)ga tegishli bo‘lgan komissiya va foizlar ushlab qolinadi. Jahon amaliyotida faktoring deganda, tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida bank (faktor) tomonidan mijozga ko‘rsatiladigan bir qator boshqa komission-vositachilik xizmatlar ham tushuniladi. Faktoring operatsiyasini amalga oshirishda odatda uch subyekt qatnashadi**.** Bular:

- faktor-vositachi (tijorat banki yoki faktoring kompaniyasi);
- mol yetkazib beruvchi;
- mol sotib oluvchi.



Faktoring operatsiyasini o‘tkazish jarayonlari

1. Bank (faktor) va mol yetkazib beruvchi o‘rtasida faktoring xizmati bo‘yicha shartnoma tuzish;

2. Mol yetkazib beruvchi (MYB) tomonidan mol sotib oluvchiga tovar jo‘natish, xizmatlar ko‘rsatish;

3. MSO tomonidan yetkazib berilgan tovar va xizmatlarning hujjatlarni bank (faktor)ga berish yoki faktor tomonidan ularni (debitor qarzdorlik) sotib olish;

4. Bank (faktor) tomonidan MYBga tovar yoki xizmatlar haqini (60-85 foiz)to‘lab berish;

5. MYB va MSO o‘rtasida tuzilgan shartnoma bo‘yicha tovar va xizmatlarga to‘lash muddati yetib kelganda, bank to‘lovni MSOdan undirib oladi;

6. Bank (faktor) tomonidan komissiya to‘lovlarini ushlab qolgan holda to‘lovning qolgan qismi (15-40 foizi)ni MSOga o‘tkazib berish.

Faktoring operatsiyasini amalga oshirganlik uchun komissiya to‘lovi ikki asosiy omilga bog‘liq bo‘ladi:

birinchidan, MYBning faktoring operatsiyasiga jalb qilingan pul mablag‘larining oboroti va summasiga;

ikkinchidan, faktoring uchun jalb qilingan kredit resurslarining miqdori va foiz stavkasiga bog‘liq. Odatda, faktoring bo‘yicha komissiya to‘lovi bank (faktor) tomonidan mijozga to‘lab berilgan pul mablag‘lariga kunlik foiz stavka o‘rnatish va uni undirish orqali amalga oshiriladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta’sirida ko‘pgina mamlakatlarning iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan noto‘lovlar faktoring operatsiyalarining ahamiyati va dolzarbligini yanada oshirdi.

Faktoring operatsiyasi pul mablag‘larini undirish bo‘yicha majburiyatni va to‘lamaslik riskini o‘zida ifodalaganligi bois, u riskli operatsiyalar qatoriga kiradi. U risk bilan bog‘liq bo‘lsa-da, lekin yuqori foydali bank biznesi, moliya markyetingining samarali vositasi, iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy jarayonlarga mos bo‘lgan bank operatsiyalarining intyegrasiyalashgan shakllaridan biri hisoblanadi. Faktoring operatsiyalari xalqaro iqtisodiy munosabatlarida ham qo‘llanilib, uni xalqaro kreditning shakli sifatida qarash

mumkin. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda eksportyorning importyorlarga bo‘lgan pul talablari maxsus faktoring kompaniya tomonidan sotib olinadi (inkassasiya qilinadi).

XX asrning 50-yillaridan boshlab, Amerika banklari tomonidan to‘lovlarning to‘xtab qolishi, to‘lay olmaslik, shuningdek, eksportyorlarning kreditlarga bo‘lgan ehtiyojining o‘sishi faktoring operatsiyalarining rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

1988-yilda xususiy huquqni unifikasiyalash Xalqaro instituti tomonidan qabul qilingan xalqaro faktoring to‘g‘risidagi konvyensiyaga asosan quyidagi 4 ta belgidan kamida 2 tasini qondirgan operatsiya faktoring hisoblanishi mumkin. Bular quyidagilar:

1. Qarz majburiyatlarini oldindan to‘lab berish shaklida kreditlash jarayonining yuzaga kelishi;
2. Mol yetkazib beruvchining buxgaltyeriya hisobi, ayniqsa, sotuv hisobining tizimli yo‘lga qo‘yilganligi va yuritilishi;
3. Mol yetkazib beruvchi qarzning inkassasiya qilinganligi;
4. Mol yetkazib beruvchini kredit riskidan sug‘urta qilish.

O‘zbekiston Respublikasida faktoring operatsiyalari XX asrning 90-yillaridan boshlab tijorat banklari amaliyotida qo‘llanilib kelinmoqda. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 4-moddasiga binoan uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish, uchinchi shaxslardan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish va boshqalar banklar tomonidan faktoring operatsiyalarni amalga oshirishga huquqiy asos yaratib berildi.

Faktoring quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Subyektning qarz majburiyatlarini kreditlash orqali uning joriy faoliyatini moliyalashtirish, faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, manfaatlarini himoya qilish;
2. MSOdan pul mablag‘larini undirish;
3. MYBga berilgan kredit berish ustidan monitoring yuritish;
4. Kredit riskining oldini olish v.b.



Faktoring va uning turlari

10.2. Faktoring operatsiyalarining turlari va faktoring operatsiyalarini o‘tkazish tartibi

Qadimda, aynan o‘rta asrlarda savdogarlar guruhi ishlab chiqaruvchilar uchun noma’lum bozorlarda tovarlarni sotish bo‘yicha vositachi sifatida ishtirok etgan va shu asnoda tovarli faktoringga asos solingan.

Xalqaro amaliyotda faktoringning quyidagi turlari mavjud:

- ochiq va yopiq faktoring;
- regress huquqi bilan (ryecoursye factoring) va regress huquqisiz (non ryecoursye factoring);
- moliyalashtiriladigan va moliyalashtirilmaydigan;
- ichki (domestic factoring) va xalqaro faktoring (international factoring) va boshqalar.

Bank ishi rivojlanishning ilk davrlarida faktoringning 2 ko‘rinishi shakllangan. Bular **ochiq yoki konvension (disclosed faktoring) va yopiq, cheklangan (undisclosed faktoring) faktoringlardir.** Tarixan, birinchi marta ochiq faktoring vujudga kelgan.

Zamonaviy sharoitlarda ochiq faktoring mijozlarga moliyaviy xizmat ko‘rsatishning mukammal shakli hisoblanadi. **Ochiq faktoringda** debitor, ya’ni MYB (tovar hujjatlarida

koʻrsatish orqali) toʻlovni amalga oshirishda bank-faktor qatnashishi toʻgʻrisida MSOni ogohlantiradi va tovar pulini undirishga oid barcha hujjatlar (debitor qarz hujjatlari) bankka ishlab berish uchun topshiradi. **Yopiq faktoringda** hisob-kitoblarda bank ishtirok etishi, debitorning bank bilan faktoring xizmat koʻrsatish toʻgʻrisida shartnomasi mavjudligi, mol yetkazib beruvchining toʻlov hujjatlari faktoring kompaniyasiga oʻtkazilishi toʻgʻrisida MSOga xabar berilmaydi. MSO olgan tovar va xizmatlar uchun toʻlovlarni MYBning hisob varagʻiga amalga oshiravyeradi. MYB esa joʻnatilgan tovar va xizmatlari uchun kelib tushgan toʻlovlarni bank yoki faktor hisobiga olgan kreditini toʻlash uchun oʻtkazib boradi. Faktoringning bu turi bank uchun xatarli hisoblanadi. Chunki mol sotib oluvchining ma'lum sabablar bilan toʻlovni oʻz vaqtida amalga oshirmasligi bilan bogʻliq risk bankning zimmasiga tuchadi. Yopiq faktoringning risklilik darajasi yuqori boʻlganligi uchun uning narxi ochiq faktoringga nisbatan yuqori boʻladi.

Regress huquqi bilan faktoring (recourse factoring)da bank yoki faktoring kompaniya oʻz mijozining debitor qarzini regress huquqi bilan sotib olish boʻyicha shartnoma tuzadi. Buning mohiyati shundaki, agar bank (faktor) mol sotib oluvchidan tovar hujjatlari boʻyicha toʻlovni undira olmasa, u mol yetkazib beruvchiga bank toʻlab bergan mablagʻ (qarz)ni qaytarib bankka toʻlash toʻgʻrisida talabnoma qoʻyishi toʻgʻrisida kelishib oladi. Faktoringning bu turi bank riskini kamaytirishi bilan bir qatorda mol yetkazib beruvchi faoliyatida yuzaga keluvchi kredit riskni oshiradi. **Regress huquqisiz faktoring (non recourse factoring)da** bunday imkoniyat boʻlmaydi. Faktoringning bu turida mol sotib oluvchi mol yetkazib beruvchining talablari boʻyicha toʻlamagan taqdirda ham barcha xarajatlarni bank qoplab berishi lozim boʻladi. Shu sabab faktoringning bu turi xalqaro amaliyotda juda kam hollarda, qachonki, mol sotib oluvchining moliyaviy holati barqaror, toʻlovga layoqatlilik darajasi yuqori, toʻlamaslik riski minimal boʻlgan hollarda qoʻllaniladi. Shuning uchun faktoringning bu turi ishlab chiqarish korxonalarini mol sotib oluvchi tomonidan toʻlamaslik riskidan himoya qiladi,

ammo bank riskini oshirishi mumkin.

Moliyalashtiriladigan faktoringda mijoz, ya'ni MYB MSOdan muddati kelganda, olishi lozim bo‘lgan to‘lovlarni undirish huquqini bank (faktor)ga beradi. Faktoringning moliyalashtiriladigan turida faktoring kompaniyasi oldindan to‘lash sharti bilan yuklab jo‘natilgan tovarlar, ba'zi hollarda hali jo‘natilmagan tovarlar bo‘yicha tomonlar o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida MYBning tovar hujjatlari qiymatining 60-70 foizini tezlik bilan to‘lash sharti asosida mijozdan tovar hujjatlari (schyot-fakturalar)ni sotib oladi. Ayrim hollarda MYB yuborgan tovarlari yoki ko‘rsatgan xizmatlari qiymatining 80-90%ini bankdan oladi, ya'ni bank o‘z mijozining tovar va xizmatlar bo‘yicha debitor qarzini to‘lab berish yo‘li bilan uning faoliyatini yuritishga kredit beradi. Jo‘natilgan tovar yoki xizmatlar qiymatining 10-20%i mijozga MSOdan mablag‘ undirilgandan keyin, komission to‘lovlar va foizlarni chegirgan holda to‘lab berilishi mumkin. Xalqaro amaliyotda bunday operatsiya uchun faktor - vositachi, odatda, shartnoma summasidan 0,75 %dan 3 %gacha komission to‘lov va MYB bergan krediti uchun foiz stavkasini undirib oladi. Kredit MYB tovar hujjatlarini bankka bergan kunidan to bank tomonidan MSOdan pul mablag‘larini undirib olgungacha bo‘lgan muddatga beriladi va xalqaro amaliyotda bu kreditning foiz stavkasi hisob stavkasidan 1-2 punktga yuqori bo‘lishi mumkin.

Moliyalashtirilmaydigan faktoring bank-faktor tomonidan MYBning debitor qarzdorligini inkassasiya qilishdan iborat. Faktoringning bu turida MYB jo‘natilgan tovarlarning hujjatlarini bank - faktor orqali MSOga yetkazadi. Bank o‘z navbati MYB va MSO o‘rtasida tuzilgan, xo‘jalik shartnomasida ko‘rsatilgan muddatlarda va summada MSOdan mablag‘ni MYB hisobiga undirish vazifasini bajaradi. Bunda bank MYBga undan sotib olgan tovar hujjatlarini ma'lum bir sanalarda to‘lab berish bo‘yicha majburiyat olishi mumkin.

Agar mol yetkazib beruvchi va mol sotib oluvchi, shuningdek, faktoring kompaniyasi bir mamlakat hududida joylashgan bo‘lsa, bunday faktoring ichki faktoring (domyestic factoring) deyiladi. Eksportyor va importyor va bank yoki

faktor turli mamlakatlarda bo‘lib, mamlakatlararo faktoring munosabatlari yuzaga kelsa, bu xalqaro faktoring (international factoring) hisoblanadi. Faktoringning bu turida eksportyor bank yoki faktoring kompaniya bilan global sessiya shartnomasini tuzadi va eksportyorning barcha yoki ba’zi importyorlaridan uning to‘lovlarini undirish huquqini faktorga o‘tkazadi.

Faktoringning u yoki bu turini qo‘llash mol sotib oluvchining pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyoji va banklarda bank resurslarining yetarliligiga, faktoring operatsiyaning risk darajasiga bog‘liq. Shu va boshqa sabablardan kelib chiqib faktoringning qiymati, u bo‘yicha komission va foiz to‘lovlarining miqdori past yoki yuqori bo‘lishi mumkin.

10.3. Faktoring xizmati bo‘yicha shartnoma va uning tarkibi

Dunyo amaliyotida faktoring xizmatlarining narxi 2 elementga bog‘liq:

1) Xizmat ko‘rsatish uchun haq - komission to‘lov. U o‘rtacha schyot-faktura narxining 0,5-3,0%ini tashkil qiladi, ammo ba’zi hollarda bu to‘lov 5.0%gacha ham boradi.

2) Berilgan kredit mablag‘lari uchun haq - bankning kredit bo‘yicha foiz stavkasi. Uning miqdori mijoz tovar hujjatlarini bankka taqdim qilib, pul mablag‘larini bankdan olgan kundan boshlab to mol sotib oluvchidan pul kelib tushishigacha bo‘lgan vaqt ichidagi mijozning kundalik debyet salьdosi miqdoriga qarab belgilanadi. Ushbu davr mijozning bank kreditidan foydalangan davri- kreditning muddati hisoblanadi.

Faktoring xizmati mijoziga shartnoma asosida ko‘rsatiladi. Shartnomada, albatta, bankning mol yetkazib beruvchiga regress huquqi borligi yoki yo‘qligi ko‘rsatiladi.

Regress huquqiga ega bo‘lgan shartnomada bank mol yetkazib beruvchiga bergan uning hujjatlarini to‘lab berish bo‘yicha majburiyati va to‘langan mablag‘larini qaytib olish huquqiga ega va, aksincha, regress huquqiga ega bo‘lmagan shartnomada bank to‘lanmaslik riskini o‘z zimmasiga oladi.

Jahon amaliyotida faktoring operatsiyalari bo‘yicha chegaraviy summalarni belgilashning uch xil usuli mavjud:

1) kreditlash limitini ajratish. Faktoring xizmati shartnomasida xizmatlarni ko‘rsatishning limit chegarasi belgilanadi. Agar MYB tomonidan to‘lanadigan summa belgilangan limitdan oshib ketsa, bank mol yetkazib beruvchiga barcha qo‘shimcha mablag‘larni qaytarib berish huquqiga ega. Mol yetkazib beruvchi to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lsa, u holda mol yetkazib beruvchining hisob varag‘iga kelib tuchadigan mablag‘lar uning qarzdorlik summasi undirilgunga qadar bank hisobiga o‘tkaziladi;

2) har oylik yuk jo‘natish limitini jo‘natish. Mol yetkazib beruvchi mijoz qarzining miqdoridan qat’i nazar, shubhali qarzlardan sug‘urtalanadi. Limit hafta, oy, choraklarda belgilanishi mumkin;

3) alohida shartnomalar bo‘yicha sug‘urta. Bu usul alohida holatlarda, katta summalarda shartnomalar imzolanganda qo‘llaniladi. Ba’zi hollarda tomonlar aralashgan usullarni ham qo‘llashlari mumkin.

Faktoring xizmati to‘g‘risida bank mol yetkazib beruvchi bilan shartnoma imzolashdan oldin mol yetkazib beruvchi o‘z bankiga mol sotib oluvchining rekvizitlarini - to‘lovchining nomi va manzili, u bilan tuzilgan shartnoma shartlari, barcha qarzdorlik to‘lovlari summasi va boshqa tur ma’lumotlarni taqdim etadi. Barcha ma’lumotlarni o‘rganib chiqib bank kelishuv shartlari to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Faktoring xizmatlari to‘g‘risidagi shartnoma yoki kelishuv, odatda, 4 yilga tuziladi. Ochiq faktoringda shartnoma yoki kelishuv to‘liq xizmat amalga oshirilishiga, yopiq faktoringda esa faqat hisob-kitob hujjatlari hisobini (diskontlashga) yuritishga tuziladi.

To‘liq xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma yoki kelishuv regress huquqi bilan tuziladi (ma’lum vaqtga, asosan, to‘lov muddatidan so‘ng 90 kun), alohida holatlarda esa mol yetkazib beruvchi bankning ishonchini qozongan bo‘lsa, regress huquqi bo‘lmasligi ham mumkin. Davlatlararo savdo-sotiq qiladigan korxonalarga xizmat ko‘rsatishda eksport va import faktoringidan ham foydalaniladi.

Faktoring kelishuvida faktoring turidan tashqari, shuningdek, quyidagilar koʻrsatiladi:

- sotib oluvchilar, taqdim etiladigan majburiyatlar;
- taqdim etiladigan majburiyatlarning limit (nazorat) summasi;
- avans miqdori;
- ushlab qolishlar;
- majburiyatlarni toʻlash muddatlari;
- faktoring operatsiyalarini bajargani uchun toʻlov miqdori;
- yetkazib beruvchi tomonidan olinadigan qoʻshimcha xizmatlar;
- faktoring operatsiyalari boʻyicha chegaraviy summa;
- regress huquqi;
- mol sotib oluvchi tomonidan toʻlovni amalga oshirishning oxirgi muddati;
- toʻlovchi toʻlovni toʻgʻri oʻz vaqtida amalga oshirmaganda koʻriladigan choralar;
- shartnoma shartlarini buzganliklari uchun tomonlar javobgarligi;
- faktoring boʻlimiga operatsiyalar boʻyicha shikoyat muddatlari;
- kelishuvning amal qilish muddati;
- kelishuvning byekor qilinish shartlari va boshqalar.

Faktoring shartnoma yoki kelishuvda bank va mijoz huquq va majburiyatlari koʻrsatib oʻtiladi.

Bank majburiyatlari:

- unga taqdim etilgan qarzdorlik majburiyatlarini oʻz vaqtida toʻlash;
- mijozga hisob-kitoblarning holati toʻgʻrisida yoki yuzaga kelgan ma'lum toʻlovchilar bilan qiyinchiliklar toʻgʻrisidagi axborot taqdim etishi koʻrsatiladi.

Mijoz majburiyatlari:

- bankka barcha yetkazib bergan tovarlar yoki koʻrsatilgan xizmatlar haqidagi hujjatlarni, shuningdek, mol yetkazib beruvchi tovar va xizmatlarni akseptlagani toʻgʻrisidagi hujjatlarni, shartnoma shartlari hamda tovar miqdori va sifati toʻgʻrisidagi hujjatlarni;

- tovar va xizmatlarni sotib oluvchilari bilan mavjud bo‘lgan kelishmovchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etishi;
- bankka nomaqbul o‘zgarishlar to‘g‘risida o‘z vaqtida ma’lumot berishi, ular bankning faktoring operatsiyalariga ta’sir etish doirasini belgilashi;
- arbitrajda ishlarni ko‘rib chiqishda bank bilan birga ishtirok etishi lozim.

Faktoring operatsiyalari bank balansida aks ettirilib, debyet tomonida bank yetkazib beruvchiga to‘lagan summa, kredit tomonida esa mol yetkazib beruvchi bankka to‘lagan summa aks ettiriladi.

Har yili bankning faktoring bo‘limi ishlarni amalga oshirish bo‘yicha keyingi moliyaviy yil uchun reja tuzadi. Unda keyingi yil uchun taxmin qilinayotgan faktoring operatsiyalar hajmi, rejalashtirilgan miqdorlar, kreditlarni taqdim etish va ularni to‘lash shartlari, faktoring operatsiyalarini ko‘paytirish uchun foydadan o‘tkazmalar miqdori va boshqalarni rejalashtiradi.

Faktoring bo‘limlari bosh bankda hamda bank filiallarida tashkil qilinishi mumkin. Uning faoliyati bank ma’muriyati tomonidan kuzatilib boriladi.

Faktoring mol yetkazib beruvchi uchun foydalidir. Birinchidan, u umumiy summaning asosiy qismini shu vaqtda oladi va o‘zining hamkorlari, mol yetkazib beruvchilari, xodimlari bilan hisob-kitoblarni tezkor amalga oshiradi, uning mablag‘i tejaladi, xarajatlari kamayadi. Ikkinchidan, bank to‘lanmagan majburiyatlarni o‘zi zimmasiga olishi bilan birga mol yetkazib beruvchining to‘lamaslik riskini ham o‘z zimmasiga oladi. Uchinchidan, mol yetkazib beruvchi kredit riskidan himoyalanadi. U o‘z faoliyati bo‘yicha aniq muddatlarni belgilab, o‘z rejalarini amalga oshirishi mumkin. To‘rtinchidan, bank mijozga to‘liq summani to‘laguncha boshqa xil xizmatlarni ham ko‘rsatadi: mijoz bank xizmatlari bo‘yicha turli axborot, audit, sug‘urta, statistika ma’lumotlar va boshqalardan xabardor bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Faktoring xizmatlari kichik biznyes korxonalari faoliyatini olib borishda qulay keladi, chunki ishlab chiqarishni

kengaytirish imkoniyati bo‘la turib, ular mol sotib oluvchilardan mablag‘larni o‘z vaqtida olmasligi oqibatida moliyaviy qiyinchiliklarga uchraydilar. Faktoring esa mana shunday moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf qilishga zamin yaratadi.

Ammo barcha mol yetkazib beruvchilar ham faktoring operatsiyalari subyekti bo‘la olmaydilar.

Debitorlari juda ko‘p bo‘lgan subyektlar, kreditga va to‘lovga qobiliyatsiz deb topilganda, jismoniy shaxslardan va bankning boshqa moliyaviy talablariga javob beraolmaydigan subyektlar faktoring operatsiyalarini o‘tkaza olmaydilar.

10.4. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini rivojlantirish masalalari

Respublika tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalari «O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini olib borish tartibi» to‘g‘risidagi nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

Banklar tomonidan faktoring xizmatini ko‘rsatishda sotib olingan majburiyatlarning to‘lovini ta’minlash muddati 90 kundan oshmasligi va mol yetkazib beruvchi va to‘lovchi 2-kartotekaga ega bo‘lmasligi kabi shartlari qo‘yiladi. Ushbu muddatda to‘lovi amalga oshirilmagan majburiyatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda undirib olish choralari ko‘rilishi shart.

Faktoring operatsiyalari quyidagilar bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin emas:

- byudjyet tashkilotiga qo‘yilgan talabnomalar;
-jismoniy shaxslarning qarz majburiyatlari bo‘yicha;
- to‘lovga layoqatsiz deb e’lon qilingan korxonalarning majburiyatlari;
- zarar ko‘rib ishlaydigan korxonalar bo‘yicha;
- nolikvid balansga ega bo‘lgan korxonalar bo‘yicha;
- kapital qo‘yilmalarni moliyalash bo‘yicha;
- tovar to‘lovi va barter bitimlari bo‘yicha;
- bajarilgan ishga bosqichma bosqich yoki tugashi bilan haq

to‘lanadigan bo‘lsa;

- agar oldi-sotdi to‘g‘risidagi shartnomada to‘lovchi shartda kelishilgan muddatda mahsulotni qaytarish huquqiga ega bo‘lsa, shuningdek, sotuvdan keyin xizmat ko‘rsatish mavjud bo‘lsa, faktoring qo‘llanilmaydi.

Faktoring operatsiyalariga doir mablag‘larni yetkazib beruvchining hisob raqamiga o‘tkazilishi ikki nusxada myemorial ordyer bilan rasmiylashtiriladi, ulardan bittasi shu operatsiya amalga oshirilgan kunga tegishli kunlik hujjatlarga tikiladi, ikkinchi nusxasi esa mijozning hisob raqamdan ko‘chirmasiga ilova qilinadi. Faktoring bo‘yicha hisob- kitoblar amalga oshirilganida to‘lov talabnomasining yuqori qismida faktoring dyegan yozuv yoki muhr va oluvchi hisobraqamida faktoring hisob raqami ko‘rsatilishi shart.

Aslida faktoring yuqori daromad keltiruvchi operatsiya bo‘lishi bilan bir qatorda, o‘ziga yarasha riskli operatsiya hisoblanadi. Bank shartnoma shartlariga muvofiq operatsiyalarni amalga oshirishi, yetkazib beruvchi va to‘lovchi bilan amalga oshirilgan operatsiyalarning batafsil hisobini yuritishi, yetkazib beruvchini shaxsiy hisob varag‘i holati to‘lovchi tomonidan to‘lov talabnomalari to‘lanishi va qarzni qaytarilish holati to‘g‘risida muntazam ravishda hisobot tayyorlashi va muddati o‘tkazib yuborilgan to‘lov talabnomalarning tahlilini amalga oshirishi shart.

O‘zbekiston Respublikasida hozirgi paytda to‘lov muddatlariga rioya qilish, hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning debitor va kreditor qarzdorliklarini imkon boricha kamaytirishga jiddiy e’tibor berilmoqda. Bank faktorlar faoliyati, aynan tovar yetkazib beruvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi munosabatlarda to‘lovlar xatari va muddatlilik muammosini hal qilish, ushbu munosabatlarning barqaror bo‘lishiga ko‘maklashishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasida banklar faktoring operatsiyalarini XX asrning 90-yillar o‘rtalaridan amalga oshira boshladilar. Fuqarolik Kodeksining 42-bobi pul talabnomasi ostida mablag‘ bilan ta’minlash, Markaziy bankning yo‘riqnomalaridan kelib chiqib banklar faoliyatida faktoring

operatsiyalari qo‘llash imkoniyatlari kengaya boshladi.

Markaziy bank tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirish uchun ro‘yxat mol yetkazib beruvchining asosiy hisob raqami ochilgan bankdagina berilishiga ruxsat etilgan.

Faktoring uchun bankning o‘z mablag‘lari manba bo‘ladi, ya’ni banklar faktoring xizmatini o‘z sarmoyasi hisobiga amalga oshiradi, faktoring muddati 90 kun qilib belgilangan va faktoring operatsiyalarning samaradorligini oshirish uchun ushbu operatsiya regress huquqisiz amalga oshirilishi, ya’ni bank mol yetkazib beruvchi hisobvarag‘idan faktoring shartnomasi bo‘yicha o‘tkaziladigan summani qaytarib olishga haqli emas. Bu shart hozirgi kunda faktoring amaliyoti va uning samaradorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bu operatsiya orqali nafaqat mol yetkazib beruvchi, balki mol sotib oluvchi ham ijobiy imkoniyatlarga bo‘ladi. Bular:

* sifatsiz tovarni sotib olish riskini bartaraf etadi;
* mablag‘lar aylanishini tezlashtiradi, raqobatbardoshligini yaxshilaydi;
* xarid hajmini ko‘paytiradi.

Bundan tashqari faktoringning iqtisodiy afzalliklari:

* likvidlilik va rentabelligini oshiradi va foydasini ko‘paytiradi;
* debitor qarzdorlik tezda pul mablag‘iga aylanadi;
* debitorlar tomonidan to‘lovlar muddatlariga rioya qilishidan mustaqil bo‘ladi;
* oborot hajmi kengayadi va daromadlilik oshadi;
* o‘z kapitalini iqtisodiy va moliyaviy rejalashtirish imkoniyati kengayadi;
* to‘lay olmasligi riskini kamaytiradi.

Shu bilan birga faktoring maxsus jarayon bo‘lib, bu sohada yuzaga keladigan risklarni boshqarishni talab qiladi.

Umuman, faktoring pul mablag‘lari va sarmoyalar aylanishini tezlashtirish, qarzni undirib olish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish, banklar o‘rtasida munosabatlarni osonlashtirishga yordam berib, pulning hisob-kitob tizimini mustahkamlash, mamlakatda debitor va kreditor qarzdorlikni

kamaytirishning muhim vositasi hisoblanadi.

X bobga oid nazorat savollari:

- Faktoring operatsiyalarini amalga oshirish tartibi.
- Kimlarga nisbatan faktoring qo‘llash mumkin emas?
- Faktoring shartnomasini tuzish va uning elementlari.
- Faktoring xizmatlarini taqdim etish shartlari.
- Tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini o‘tkazish.
- Faktoring operatsiyalarining kamchiliklari.

XI BOB. TIJORAT BANKLARINING BALANSDAN TASHQARI OPERATSIYALARI

11.1. Tijorat banklari balansdan tashqari operatsiyalarining mazmuni. Tijorat banki tomonidan beriladigan kafolatlar.
11.2. Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalari turlari.
11.3. Tijorat banklarining hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi hisob-kitob operatsiyalari.
11.4. Tijorat banklari balansdan tashqari operatsiyalarining boshqa turlari.

Tayanch iboralar. Bank kafolati, inkasso, kredit tarixi, muddatli majburiyat, mol yetkazib beruvchi, opsion, ovyerdraft, prinsipal, po‘lat kamera, realizatsiya qilinmagan foyda, realizatsiya qilinmagan zarar, standart, substandart, hujjatlashtirilgan akkreditiv, forvard, Fyuchers, qimmatli qog‘oz blanklari.

11.1. Tijorat banklari balansdan tashqari operatsiyalarining mazmuni. Tijorat banki tomonidan beriladigan kafolatlar

Tijorat bankining balansdan tashqari operatsiyalari deganda pul mablag‘larining harakati bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, ammo kelgusida bank uchun ma’lum bir talab va majburiyatlarni yuzaga keltiradigan operatsiyalar tushuniladi.

Tijorat banklari faoliyatida keng qo‘llaniladigan balansdan tashqari operatsiyalardan biri bo‘lib, kafolatlar berish operatsiyalari hisoblanadi.

Tijorat banklari tomonidan beriladigan kafolatlarning ikki turi mavjud:

1. Mijozlarning to‘lov majburiyatlari yuzasidan beriladigan kafolatlar,
2. Yetkazib beriladigan tovarlarning sifati yuzasidan beriladigan kafolatlar.

Mijozlarning to‘lov majburiyatlari bo‘yicha beriladigan kafolat, mijoz to‘lovga noqobil bo‘lib qolganda, uning majburiyatlari bo‘yicha to‘lovni amalga oshirish javobgarligini bankning

zimmasiga yuklaydi.

Mijozlarning to‘lov majburiyati yuzasidan beriladigan bank kafolatining stend-bay akkreditividan asosiy farqi shundaki, ushbu kafolat turida, tovar hujjatlarining kelib tushgan vaqtida mijozning joriy hisob raqamida pul mablag‘larining bo‘lmasligi bank majburiyatini bajarish uchun asos bo‘ladi. Stend-bay akkreditivida esa, tovar hujjatlarining kelib tushgan vaqtida mijozning joriy hisob raqamida pul mablag‘larining bo‘lmasligi bankning to‘lov majburiyati ijrosi uchun asos bo‘la olmaydi, balki mijozning to‘lovga noqobil bo‘lib qolishi asos bo‘ladi.

Tovarlarning sifati bo‘yicha beriladigan bank kafolati tovarlarni sotib oluvchiga beriladi. Bu yerda savol tug‘ilishi mumkin: tijorat banki xodimlari tovarlarning sifatini baholashni bilmaydi-ku?

Tijorat banki xodimlarining tovarlarning sifatini baholashni bilishi mutlaqo shart emas. Ushbu kafolatni berishdan maqsad - bo‘lgan mol yetkazib beruvchi korxona sifatli mahsulot yetkazib bermasa yoki tovarlarni shartnomada ko‘zda tutilgan muddatda yetkazib bermasa, oldi-sotdi shartnomasida ko‘zda tutilgan jarimani to‘lashi va oldindan to‘lab berilgan avans to‘lovini qaytarish majburiyatini bankning zimmasiga yuklashdir.

Amaliyotda ba’zan shunday holat yuzaga keladiki, mol yetkazib beruvchi tovar summasining sezilarli qismini (30%, 50% yoki 100%) oldindan to‘lab berishni sotib oluvchidan talab qiladi. Sotib oluvchi tomonidan avans to‘lovi talab qilingan summada yetkazib berilganda, tabiiyki, sifasiz tovarlar yetkazib berish, tovarlarni muddatida yetkazib bermaslik yoki umuman yetkazib bermaslik xavfi yuzaga keladi. Buning sababi shundaki, tovarlar summasining sezilarli qismini oldindan olgan mol yetkazib beruvchilarning ko‘pchiligida tovarlarni sifatli va o‘z vaqtida yetkazib berish ma’suliyati kamayadi. Shu sababli, bunday hollarda sotib oluvchi, o‘zini yuqorida qayd etilgan xavfdan himoya qilish maqsadida, mol yetkazib beruvchidan yetkazib beriladigan tovarlarning sifati bo‘yicha beriladigan bank kafolatini talab yetadi.

Tijorat banklari tomonidan kafolatlar berish operatsiyalari yuqori daromadli bo‘lish bilan birga, yuqori riskli hamdir. Bank, aytaylik, beriladigan kafolat uchun tovar summasining 2-3 foizi

miqdorida daromad olish bilan birga, sotib oluvchining to‘lovga noqobil bo‘lib qolishi natijasida tovar summasining 97-98 foizi miqdorida zarar ko‘rishi mumkin. Shuning uchun ham Bazel qo‘mitasi ekspertlari tijorat banklari tomonidan berilgan kafolatlarning risk darajasini 100% qilib belgilashgan. Bank kafolatlarining risk darajasi yuqori ekanligiga misol qilib, Buyuk depryessiya (1929-1933-y.) davrida AQSHda yuz bergan banklarning ommaviy bankrot bo‘lganligini keltirish mumkin.

Banklarning ommaviy bankrot bo‘lishi, bankrotlik sabablarini aniqlash maqsadida, davlat komissiyasining tuzilishiga sabab bo‘ldi. Komissiya tomonidan Prezidentga va Kongressga berilgan hisobotda tijorat banklarining ommaviy bankrot bo‘lishining sabablari asoslab berildi va asosiy sabablardan biri sifatida AQSH banklarining foyda kyetidan quvib, mijozlarning to‘lov majburiyatlari bo‘yicha katta miqdorda kafolatlar berib yuborganligi ko‘rsatildi. Natijada, Glass-Stigol qonuni qabul qilindi va AQSH banklari mazkur qonunga asosan mijozlarning to‘lov majburiyatlari bo‘yicha kafolatlar berish huquqidan mahrum qilindi.

Bank kafolatlari ularning raqobatbardoshliligini, mijozlar oldidagi ryeputasiyasini ta’minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Shu sababli, AQSH tijorat banklari Federal zaxira tizimiga doimiy ravishda kafolatlar bo‘yicha belgilangan ta’qiqni byekor qilish vaqti kelganligini bildirib, murojaat qila boshlashdi. Ular o‘z murojaatlarida ushbu ta’qiq tufayli AQSH banklarining Yaponiya va G‘arbiy Yevropa banklariga nisbatan raqobatbardoshligiga jiddiy putur yetayotganligini ta’kidlashgan.

Piravard natijada, 1991-yilda Glass-Stigol qonuni byekor qilindi.

Kafolat bergan tijorat bankining yetarli darajada likvidli va to‘lovga qobil bo‘lishi kafolat ijrosini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Odatda, kafolat bergan tijorat bankining likvidliligi va to‘lovga qobilligini baholashda ularga xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan reyting ballari hisobga olinadi. Ammo amaliyotda xalqaro reyting agentliklarining reyting ballarini olmagan tijorat banklari tomonidan berilgan kafolatlar mavjud. Bunday sharoitda kafolat bergan tijorat bankining likvidliligi va

to‘lovga qobilligi mavjud ko‘rsatkichlar asosida baholanadi. Bunda asosiy e’tibor joriy likvidlilik koeffitsienti, kapitalning yetarlilik darajasi va bank aktivlarining sifatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning tahliliga qaratiladi.

Shuningdek, kafolat bergan bank joylashgan mamlakatdagi siyosiy risk darajasi ham bank kafolatlaridan foydalanishda hisobga olinadigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2012-yil 24-martdagi 761-sonli «Tijorat banklari tomonidan bank kafolatlarini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi yo‘riqnomasiga (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2012-yil 15-mayda 2364-sonli raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) muvofiq;

Birinchidan, tijorat banklari tomonidan berilgan jami kafolat va prinsipal tomonidan qoplanmagan byenyefisarga to‘lab berilgan mablag‘lar summalarining yig‘indisi birinchi darajali bank kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak.

Ikkinchidan, kafolat olish uchun prinsipal quyidagi talablarga javob berishi lozim:

-zarar ko‘rib ishlaamayotgan bo‘lishi hamda nolikvid balansga ega bo‘lmasligi;

-muddati o‘tkazib yuborilgan kreditorlik qarzlarining mavjud bo‘lmasligi;

-oxirgi uch moliyaviy yil natijalari bo‘yicha ijobiy auditorlik xulosasiga ega bo‘lishi;

-ijobiy kredit tarixiga ega bo‘lishi.

Uchinchidan, tijorat banklari tomonidan berilgan kafolatlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxira shakllantirilishi lozim.

Shunisi xarakterliki, zaxira miqdori prinsipalning moliyaviy ahvoli, kredit tarixi va prinsipal faoliyat ko‘rsatayotgan iqtisodiyot tarmog‘i holati hisobga olingan holda uning kreditga layoqatliligidan kelib chiqib baholanadi.

Yo‘riqnoma talabiga asosan, prinsipalning kredit layoqatliligi «yaxshi», «standart», «substandart», «past» va «yomon» kabi ta’riflanadi,

Quyidagi holatlar mavjud bo‘lganda, prinsipalning kredit

layoqatliligi «yaxshi» deb e’tirof etiladi:

- moliyaviy jihatdan barqaror;
- yuqori daromadlilik darajasiga ega;
- barcha moliyaviy majburiyatlarini o‘z muddatida bajarishiga shubha tug‘dirmaydigan, shu jumladan, kafolat bo‘yicha qarzini qondirish uchun yetarli pul mablag‘lariga ega;
- tijorat ishlarini rivojlantirish hamda moliya resurslarini erkin jalb qilish imkoniyatlari mavjud;
- faoliyati cheklangan ta’minotchi hamda iste’molchilarga bog‘liq bo‘lmaganligi;
- taqdim yetilayotgan ta’minotga doir barcha hujjatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan;
- kredit yoki boshqa qarzlari bo‘yicha to‘lovlar o‘z vaqtida amalga oshirilgan.

Kreditga layotqatliligi «yaxshi» deb e’tirof etilgan prinsipalga berilgan kafolatlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxira shakllantirilmasligi mumkin.

Quyidagi holatlardan biri mavjud bo‘lganda, prinsipalning kredit layqatliligi «standart» deb etirof etiladi:

- umumiy moliyaviy ahvoli barqaror hisolangan, lekin faoliyatida ayrim iqtisodiy salbiy holatlar mavjud bo‘lgan, ularning bartaraf yetilmasligi prinsipalning majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmaslik holatini vujudga keltirish xavfining mavjudligi;
- daromadlari yoki pul mablag‘lari oqimining pasayish tyendyensiyasi mavjudligi;
- faoliyati davomida kredit yoki boshqa qarzlar bo‘yicha to‘lovlar muddatining bir marotaba uzaytirilganligi.

Kreditga layotqatliligi «standart» deb e’tirof etilgan prinsipalga berilgan kafolat summasining 10 foizi miqdorida ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxira shakllantirilishi lozim.

Quyidagi holatlardan biri mavjud bo‘lganda, prinsipalning kredit layoqatliligi «substandart» deb e’tirof etiladi:

- moliyaviy ahvolining jiddiy yomonlashuviga sabab bo‘luvchi holatlarning mavjudligi;
- daromadlari yoki pul mablag‘lari oqimining oxirgi chorakka nisbatan 50 foizga kamayganligi;
- oxirgi hisobot oyidagi mavjud barcha muddati kelgan

majburiyatlarni, shuningdek, kafolat summasini ushbu oy davomida kelib tushgan pul mablag‘lari hisobidan qoplash imkoniyatiga ega emasligi;

- faoliyati davomida kredit yoki boshqa qarzlar bo‘yicha to‘lovlar muddatining ikki marotaba uzaytirilganligi.

Kreditga layotqatliligi «substandart» deb e’tirof etilgan prinsipalga berilgan kafolat summasining 25 foizi miqdorida ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxira shakllantirilishi lozim.

Quyidagi holatlardan biri mavjud bo‘lganda, prinsipalning kredit layoqatliligi «past» deb e’tirof etiladi:

- qayd etilgan Nizomning 20-bandida nazarda tutilgan holatlardan birining og‘irlashganligi;

- oxirgi besh yilda salbiy kredit tarixiga ega ekanligi, ya’ni to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirmaganligi.

Kreditga layotqatliligi «past» deb e’tirof etilgan prinsipalga berilgan kafolat summasining 50 foizi miqdorida ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxira shakllantirilishi lozim.

Quyidagi holatlardan biri mavjud bo‘lganda, prinsipalning kredit layoqatliligi «yomon» deb e’tirof etiladi:

- berilgan kafolat bo‘yicha majburiyatni bank tomonidan bajarish holatlarining yuzaga kelishi;

- kredit yoki boshqa qarzlari bo‘yicha to‘lovlarning o‘z vaqtida amalga oshirilmaganligi;

- talab qilib olinguncha hisob varag‘iga oxirgi chorakda tushum bo‘lmaganligi;

- moliyaviy faoliyati bo‘yicha sud jarayonlarining olib borilayotganligi;

- bankrotlik alomatlarning mavjudligi.

Kreditga layotqatliligi «yomon» deb e’tirof etilgan prinsipalga berilgan kafolat summasining 100 foizi miqdorida ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxira shakllantirilishi lozim.

11.2. Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalari turlari

Tijorat banklarining forvard operatsiyalari ular faoliyatida keng qo‘llaniladigan balansdan tashqari operatsiyalar hisoblanadi.

Tijorat bankining forvard operatsiyasi deganda ma’lum bir valyutani belgilangan kurs bo‘yicha kelgusida sotib olish va sotish operatsiyasiga aytiladi.

Forvard shartnomalari tijorat banki bilan eksportyor o‘rtasida hamda tijorat banki bilan tijorat banki o‘rtasida tuziladi.

Forvard shartnomasi tuzilishi bilan shartnoma summasi tegishli balansdan tashqari hisob raqamda aks ettiriladi.

O‘zbekiston tijorat banklarida xorijiy valyutani sotish bo‘yicha tuzilgan forvard shartnomalari summasi 92709-hisob raqamda, xorijiy valyuutani sotib olish bo‘yicha tuzilgan forvard shartnomasi summasi esa 92716-hisob raqamda aks ettiriladi

Forvard shartnomasimng muddati tugashi bilan valyuta mablag‘larining balans hisob raqamlari bo‘yicha harakati sodir bo‘ladi va natijada balans hisob raqamlari bo‘yicha tegishli buxgaltyeriya o‘tkazmalari rasmiylashtiriladi. Ana shundan keyin: forvard shartnomasi summasi balansdan tashqari hisob raqamlaridan chiqariladi.

Forvard shartnomasi summasini balansdan tashqari hisob raqamlaridan chiqarish teskari buxgaltyeriya o‘tkazmalarini rasmiylashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Forvard operatsiyalari tijorat banklari uchun yuqori riskli operatsiyalar hisoblanadi. Bazel qo‘mitasining tijorat banklari aktivlarini riskka tortish shkalasi bo‘yicha banklar tomonidan tuzilgan forvard shartnomalarining risk darajasi 100 foizga teng.

Muddati tugamagan forvard shartnomalari bo‘yicha realizatsiya qilinmagan foyda va zarar aniqlanadi. Ammo ular balansdan tashqari hisob raqamlarda aks ettirilmaydi.

Respublikamizning qator tijorat banklarida forvard operatsiyalari mavjud.

Tijorat banklarining opsion shartnomalari risk darajasi yuqori bo‘lgan balansdan tashqari talab va majburiyat hisoblanadi.

Tijorat banklari tomonidan mijozlarga beriladigan opsionlarning ikki asosiy turi keng qo‘llaniladi:

1. Koll opsionlar;
2. Put opsionlar.

Koll opsionlar valyutalar va qimmatli qog‘ozlarni belgilangan kurs bo‘yicha kelgusida sotib olish huquqini beradi.

Put opsionlar valyutalar va qimmatli qog‘ozlarni belgilangan kurs bo‘yicha kelgusida sotish huquqini beradi.

Opsion berilishi bilan tijorat banklariga tegishli balansdan tashqari hisob raqamda aks ettiriladi.

Opsion shartnomasining muddati tugashi bilan, sotib olish yoki sotish operatsiyalarining amalga oshirilishi yoki amalga oshirilmasligidan qat’i nazar, opsion shartnomasi summasi balansdan tashqari hisob raqamdan o‘chiriladi. Buning sababi shundaki, opsion egasida faqat huquq bor. Agar opsion muddati tugagan paytda bozorda kurs opsion egasi uchun opsion bahosiga nisbatan qulay bo‘lsa, u opsionni ishlatmaydi. Ya’ni valyutasini yoki qimmatli qog‘ozini bankka emas, balki bozorda sotadi. Agar opsion egasi uchun bozorda baho noqulay bo‘lsa, u holda opsionni ishlatadi.

Yuqorida qayd etilgan har ikkala holatda opsion shartnomasi summasi bankning balansdan tashqari hisob raqaimdan chiqariladi. Chunki opsion shartnomasining muddati tugashi bilan u kuchini yo‘qotadi.

Opsionlarning Yevropa standarti bo‘yicha bitim ijrosi faqat opsion muddati tugagandan so‘ng amalga oshiriladi. Opsionlarning Amerika standartida esa bitim ijrosi opsion muddatining istalgan vaqtida amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli, opsion shartnomasi summasini balansdan tashqari hisob raqamdan chiqarish vaqti bevosita opsionning standartiga bog‘liq.

Tijorat banklarining Fyuchers shartnomalari ma’lum bir valyutani belgilangan kurs bo‘yicha kelgusida sotib olish yoki sotish imkonini beradi.

Fyuchers shartnomasi tuzilishi bilan shartnoma summasi tijorat bankining tegishli balansdan tashqari hisob raqamida aks ettiriladi.

Fyucherslar bo‘yicha hisob-kitoblar tijorat bankida amalga oshirilmaydi, balki kliring palatalarida amalga oshiriladi. Shu sababli, Fyuchers shartnomasi summasini bankning balansdan tashqari hisobraqamidan chiqarish uchun asos bo‘lib, kliring palatasi tomonidan bankka jo‘natilgan joriy hisob raqamdan ko‘chirma hisoblanadi

Ma’lumki, kliring palatasi Fyuchers shartnomasi bo‘yicha

hisob- kitoblarda ishtirok yetuvchi har bir tijorat bankiga bittadan joriy hisob raqam ochadi. Fyucherslar bo‘yicha tushumlar va to‘lovlar shu hisob raqamda aks yetadi. Operatsion kun tugagandan so‘ng kliring palatasi har bir tijorat bankiga uning joriy hisobraqamidan ko‘chirma jo‘natadi.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida opsionlar va Fyucherslar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar hozirgi kunda mavjud emas.

Opsionlar va Fyucherslar tijorat banklari uchun yuqori riskli operatsiyalar hisoblanadi.

11.3. Tijorat banklarining hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi hisob-kitob operatsiyalari

Tijorat banklarining hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi hisob-kitob operatsiyalari bankka daromad keltiruvchi balansdan tashqari operatsiya hisoblanadi.

Bank tomonidan mijozga akkreditiv ochilgandan so‘ng, akkreditiv summasi tijorat bankining tegishli balansdan tashqari hisob raqamida aks ettiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi «O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida»gi yo‘riqnomasiga asosan mamlakat hududida qo‘llaniladigan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning 2 shakli ko‘rsatilgan:

- qoplangan akkreditivlar;
- qoplanmagan akkreditivlar.

Ammo, xalqaro amaliyotda hujjatlashtirilgan akkreditivlarning yana 4 shakli mavjud:

- chaqirib olinadigan akkreditivlar;
- *chaqirib olinmaydigan akkreditivlar;*
- tasdiqlanadigan akkreditilar;
- *tasdiqlanmaydigan akkreditivlar.*

Qoplangan akkreditivlarda akkreditiv summasi mijozning joriy hisob raqamidan olinib, 22602-hisobraqamda deponent qilinadi. Bunda kelib tushgan hujjatlar deponent qilingan mablag‘lar hisobidan to‘lanadi.

Qoplangan akkreditivlarda tijorat banki uchun to‘lov riski mavjud emas. Shu sababli, ular bank uchun yuqori daromadli operatsiya hisoblanmaydi.

Qoplanmagan hujjatlashtirilgan akkreditivlarda tijorat banklari uchun to‘lov riski yuqori bo‘ladi.

Quyidagi rasm ma’lumotlari orqali respublikamiz bank amaliyotida hujjatlashtirilgan akkreditivlarning asosiy shakli sifatida keng qo‘llanilayotgan ta’minlangan akkreditivlar vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini ko‘rib chiqamiz.



Ta’minlangan xujjatlashtirilgan akkreditivlar orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi

Bu yerda:

(1) — oldi-sotdi shartnomasini imzolash;

(2) — sotib oluvchi akkreditiv ochish to‘g‘risida *o‘z* bankiga ariza beradi;

(3) — sotib oluvchining banki sotib oluvchining joriy schyotidan to‘lov summasini olib, uni alohida schyotda (22602-schyotda) deponentlaydi;

(4) — sotib oluvchining banki mol yetkazib beruvchining bankini akkreditiv ochilganligi to‘g‘risida yozma ravishda xabardor qiladi;

(5) — mol yetkazib beruvchining banki mol yetkazib beruvchiga hujjatlashtirilgan akkreditiv ochilganligi to‘g‘risidagi xabarni yetkazadi;

(6) — mol yetkazib beruvchi tovarlarni jo‘natadi;

(7) — mol yetkazib beruvchi tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni o‘zining bankiga uzatadi;

(8) — mol yetkazib beruvchining banki tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni tyekshiradi va qabul qilib oladi (agar hujjatlarda xatoliklar mavjud bo‘lsa, u holda hujjatlarni to‘g‘rilash uchun mol yetkazib beruvchiga qaytaradi);

(9) — mol yetkazib beruvchining banki tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni sotib oluvchining bankiga jo‘natadi;

(10) — sotib oluvchining banki deponent schyotidagi mablag‘lar hisobidan to‘lovni amalga oshiradi;

(11) — sotib oluvchining banki tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni sotib oluvchiga beradi;

(12) — mol yetkazib beruvchining bankiga to‘lovni amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi xabar yetkaziladi;

(13) — mol yetkazib beruvchining banki to‘lov summasini mol yetkazib beruvchining joriy schyotiga o‘tkazadi;

(14) — mol yetkazib beruvchining joriy hisob raqamidan ko‘chirma.

Rasmdan ko‘rinadiki, ta’minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlarda yetkazib berilgan tovarlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha to‘lovlar to‘liq kafolatlangan. Bu esa, o‘z navbatida, to‘lovsizlik muammosini hal qilish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik hajmini qisqartirish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Ayni vaqtda, amaliyot ko‘rsatadiki, ta’minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlarga xos bo‘lgan qator kamchiliklar ham mavjud deb hisoblash mumkin. Ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar pul mablag‘larining ma’lum qismi ularning xo‘jalik aylanmasidan chiqib qoladi. Deponentlangan pul mablag‘laridan sotib oluvchi o‘zining xo‘jalik faoliyatida foydalana olmaydi, tijorat banki esa deponentlangan mablag‘ga foiz hisoblamaydi.

2. Ta’minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlarda to‘lovni amalga oshirish davri cho‘zilib ketadi, hujjatlar nisbatan uzoq aylanadi. Natijada tovarlarni sotish jarayoni ham cho‘zilib ketadi.

Ta'kidlash joizki, "2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi"da tijorat banklarining kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchliligini mustahkamlash makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy oʻsish sur'atlarini saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga oid chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi qarorida hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli «2020-2025-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi» Farmoni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq, shuningdek, Jahon bankining mamlakat bank tizimi joriy holatini oʻrganish natijalari boʻyicha asosiy xulosalari va tavsiyalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Mazkur Qaror va Farmonda bank nazoratining xalqaro prinsiplari doirasida

tijorat banklari kapitalining yetarliligi, likvidliligi va barqarorligi bo‘yicha talablarni bajarish vazifalarini ham o‘z ichiga olgan.

13.3. Tijorat banklarining likvidliligini baholash usullari va likvidlik ko‘rsatkichlari

Bank likvidligini boshqarishning asosiy elementlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Lahzalik, joriy va uzoq muddatli likvidlilikni ta’minlash va holatini tahlil qilib borish;
2. Qisqa muddatli likvidlilik bachoratini amalga oshirish;
3. Bankning likvidligiga salbiy ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan holatlarni tahlil qilish (mahalliy va xorijiy moliya bozorlaridagi holatni o‘rganish, bank omonotchilari va qarzdorlarining moliyaviy holatlarini doimiy tahlil etib borish va boshqalar);
4. Bank likvidlilik mablag‘lari ortiqchaligi/taqchilligini aniqlash;
5. Xorijiy valyutalar bilan bog‘liq operatsiyalarning bank likvidlilik darajasiga ta’sirini o‘rganish.

Banklarda likvidlilikni boshqarishda uchta iqtisodiy (lahzalik, joriy va uzoq muddatli) me’yordan foydalaniladi. Ular bank aktivlari va passivlarini muddatlari, summalari, turlari va boshqa jihatlari nuqtayi nazardan likvidlilikni ta’minlashda qo‘llaniladi.

Yuqori likvidli mablag‘lar bankning majburiyatlarini to‘xtovsiz, to‘liq va zudlik bilan bajarish imkoniyatini beradi. Biroq, ushbu mablag‘lar (hukumat va Markaziy bankning qimmatli qog‘ozlariga joylashtirilgan mablag‘lar bundan istisno) bankka qo‘shimcha daromad keltirmaydi, aksincha saqlash, tashish va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha xarajatlarni talab etadi.

Banklarning past likvidli aktivlari zarur bo‘lganda zudlik bilan bankning majburiyatini qondirish imkoniyatini bermaydi, shuningdek, ularni yuqori likvid mablag‘lar (naqd pul)ga aylantirish jarayoni ansha qiyin bo‘lib, hatto, har doim ham buning imkoniyati bo‘lavermaydi. Banklarning past likvidli aktivlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Boshqa banklardagi mablag‘lari;

2. Berilgan kreditlar;
3. Investitsiya, lizing va ijaraga joylashtirilgan mablag‘lar;
4. Bino va inshootlar.

Bankning boshqa banklardagi mablag‘lari va berilgan kreditlarni yuqori likvidli aktivlarga aylantirish bo‘yicha ikkilamchi moliya bozorlari amal qilmaydi, depozitlarga joylashtirilgan va berilgan kreditlarning muddatlari tugagandan so‘ng bankka qaytariladi.

Shundagina bank ulardan yuqori likvidli mablag‘lar sifatida foydalanishi mumkin, ayrim hollarda berilgan kreditlar va unga hisoblangan foiz to‘lovlari o‘z vaqtida qaytmasligi oqibatida bankning moliyaviy holatini battar og‘irlashtiradi.

Agar bank majburiyatlarni bajarish uchun yetarli darajada yuqori likvidli mablag‘larga ega bo‘lsa, u likvidligi ta’minlangan hisoblanadi. Biroq bu juda murakkab jarayon hisoblanadi, buning murakkabligi shundaki, birinchidan, jalb qilingan mablag‘larning asosiy qismi likvid aktivlarga joylashtirilishi bankning likvidligini oshirishga xizmat qilsa-da, uning foyda darajasini pasayishiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchidan, bank mijozlarning naqd pul va pul o‘tkazmalari bo‘yicha ehtiyojlarini to‘liq aniqlash imkoniyati mavjud emas, shuningdek, bankning vakillik hisobvarag‘iga likvid aktiv sifatida kelib tuchadigan mablag‘lar hajmini aniq summasini rejalashtira olmaydi.

Banklar likvid mablag‘larni aktivlarni boshqarishning fond va taqsimlash usullari orqali ta’minlab borishlari mumkin, biroq jamiyatda ro‘y beradigan ko‘zda tutilmagan holatlar unga bevosita va bilvosita ta’siri natijasida likvid mablag‘lar bilan bog‘liq turli muammolar vujudga keladi. Xususan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar, mijozlarning bank tizimiga bo‘lgan ishonchi va milliy valyutaning sotib olish qobiliyatini pasayishi, bank mijozlari moliyaviy barqaroroligining zaiflashuvi va boshqa holatlar shular jumlasidandir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank likvidligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar hajmini aniqlash juda qiyin. Bank likvid mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini baholash uchun juda yuqori aniqlikdagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi lozim. Ayniqsa, banklar

kredit portfeli talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit mablag‘lari hisobidan shakllantirilgan bo‘lsa bankning likvidligini ta’minlash masalasi yanada murakkab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli “2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi va 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonlli “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlarida Bazel qo‘mitasining bank nazorati bo‘yicha yangi talablarini mamlakat bank amaliyotiga joriy etish bo‘yicha aniq vazifalar qo‘yildi.

Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13- avgustda 2709-sonli raqam bilan ro‘yxatga olingan) “Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi hamda Markaziy bankning 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 6-iyuldagi 2693-sonli raqam bilan ro‘yxatga olingan) “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi yo‘riqnomalari qabul qilindi.

Hozirgi davrda respublika tijorat banklarining likvidligini baholash va boshqarish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

Mazkur Nizomga ko‘ra, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining joriy likvidligiga nisbatan iqtisodiy me’yor o‘rnatilgan. Ushbu iqtisodiy me’yorning eng past darajasi 30% bo‘lib, u joriy aktivlarning summasini (to‘lov muddati 30 kungasha bo‘lgan bankning likvidli aktivlari va qo‘yilmalari, bundan muddati uzaytirilgan yoki qaytarish muddati o‘tgan kreditlar mustasno) joriy majburiyatlar (talab qilib olinguncha va ijro etish muddati 30

kungasha bo‘lgan majburiyatlar) summasiga nisbati orqali aniqlanadi.

Mazkur me’yoriy talabning bajarilishi Markaziy bank tomonidan doimiy ravishda nazorat qilinadi va tijorat banklarining likvidligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Uning kamida 30% bo‘lishini ta’minlash uchun tijorat banklari joriy likvidli aktivlar va joriy majburiyatlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashlari zarur. Buning uchun esa, ular aktivlar va passivlarning optimal tarkibini shakllantirishlari zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli “Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi yo‘rqnomasiga asosan respublikamiz tijorat banklarining faoliyatiga sof barqaror moliyalashtirish me’yori va likvidlilikni qoplash me’yori ko‘rsatkichlarining kiritilishi, fikrimizcha, birinchidan, tijorat banklarining likvidligini barqaror tarzda saqlab turish imkonini beradi; ikkinchidan, banklar faoliyatida mavjud bo‘lgan transformatsiya riskiga barham beradi; uchinchidan, resurssiz kreditlash holatining yuzaga kelishiga imkon bermaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Bazel-III standard talablaridan kelib shiqqan holda, sof barqaror moliyalashtirish me’yori ko‘ffiwienti va likvidlilikni qoplash me’yori ko‘rsatkichlarini aniqlash uslublarini tasdiqladi.

Unga ko‘ra, sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti barqaror moliyalashtirishning mavjud summasini barqaror moliyalashtirishning zaruriy summasiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Likvidlilikni qoplash me’yoriy ko‘rsatkichi yuqori likvidli aktivlarni keyingi 30 kun ishidagi jami sof chiqimga nisbati sifatida aniqlanadi.

Mazkur koeffitsientni joriy etilishi tijorat banklari passivlarining barqarorligini ta’minlash bilan birga, ularning likvidlilik darajasini oshirishga ham xizmat qiladi.

Likvidlikni yo‘qotish riski Bazel qo‘mitasi talablariga ko‘ra passivlarni qisqarishini yoki aktivlarni o‘sishini moliyalashtirishni tartibga solishdagi bankning qobiliyatsizligi tushuniladi.[11]

[11] Международная конвергенция измерения капитала и стандартов

Likvidlikni yo‘qotish yuzasidan zaxiralar shakllantirish bo‘yicha kapitalga aniq talablar belgilanmagan. Likvidlikka qo‘yiladigan umumiy talablar aktivlar va majburiyatlar muddatlarining o‘zaro mos kelishidir.

Balans va balansdan tashqari moliyaviy instrumentlar har xil harakterdagi likvidlikka ega hamda bu likvidlikni yo‘qotish riskini baholashda (har xil qaytarish muddatlarida likvidliklarni oqib kelishi yoki oqib ketishi) hisobga olinadi.

Masalan, Germaniya hukumati tomonidan 5 yil muddatga chiqarilgan obligatsiya bank uchun, kichik nemis kompaniyasiga bank tomonidan 1 yil muddatga berilgan kreditga nisbatan, likvidli hisoblanadi. Chunki bankka likvidlikni ta’minlash va moliyaviy resurslar tanqisligini tugatish zarur bo‘lib qolganda berilgan kreditga nisbatan obligatsiyani sotish osonroq bo‘ladi.

Banklar uchun likvidlik favqulotda ahamiyatga ega. Nazorat organlari banklardan likvidlikni yo‘qotish riskini boshqarishning adekvat strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladilar.

Mazkur strategiya moliyaviy resurslarga bo‘lgan sof ehtiyojlarni joriy baholash, monitoring va boshqarishni o‘z ichiga olishi lozim. Bundan tashqari, strategiya bank faoliyati harakteri va murakkabligiga mos kelishi hamda bank direktorlar kengashi tomonidan tegishli nazoratni o‘z ichiga olishi lozim.

Banklar tomonidan aktivlar va majburiyatlar (jumladan, balansdan tashqari moddalar) bo‘yicha qaytarish muddatlarining mos kelmasligini aniqlash uchun, likvidlik poziyiyani qaytarish muddatiga bog‘liq ravishda hamda turli valyutalar bo‘yicha har xil guruhlarga bo‘lib chiqish jarayoni qaytarish muddatlarining «zinapoya»sini tuzish deb nomlanadi. Banklar o‘zlarining likvidligini boshqarish yuzasidan omonatchilarning o‘zgarmas ishonchlaridan foydalanish orqali tegishli ehtiyot choralar ko‘rishlari lozim. Chunki omonatchilargina banklar faoliyatini moliyalashtirib boradilar.

Omonatchilar ishonchlarining yo‘qotilishi bankdan omonatlarning ommaviy olinishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa bankni omonatchilarning talablarini bir vaqtda qondirish uchun

капитала: новие подходи. Базельский комитет по банковскому надзору, Банк международних расчетов, июнь 2004 г. стр. 179

moliya resurslarining boshqa turlari, ya’ni banklardan kredit olish, aktivlarini sotish yoki qaytarish orqali qisqartirish kabi turlaridan foydalanishga majbur qilishi mumkin. Shu narsa e’tiborliki, biror bir bankdagi likvidlik muammosi banklararo bozor orqali tarqaluvshi umumtizim oqibatlari («domino effekti»)ga olib kelishi mumkin.

“Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomga (ro‘yxat raqami 2709, 2015-yil 13-avgust*)* “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunning 52-moddasiga asosan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Bu haqda Markaziy bank saytida xabar beriladi.

Xususan, Nizomning 43-bandiga banklar majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini ta’minlash maqsadida lahzali va joriy likvidlilik me’yorlarini bajarishlari lozim bo‘lgan norma kiritildi.

Joriy likvidlilik koeffitsienti joriy aktivlar summasini (to‘lov muddati 30 kungacha bo‘lgan bankning likvidli aktivlari va qo‘yilmalari, bundan muddati uzaytirilgan yoki qaytarish muddati o‘tgan kreditlar mustasno) joriy majburiyatlar (talab qilib olinguncha va ijro etish muddati 30 kungacha bo‘lgan majburiyatlar) summasiga nisbati orqali aniqlanadi Mazkur koeffitsient 30%dan kam bo‘lmasligi lozim.

Ayni paytda lahzali likvidlilik koeffitsienti bank kassasidagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari hamda bankning Markaziy bankdagi hisobvaraqlaridagi mablag‘lari (bundan Markaziy bankdagi majburiy zaxira hisobvarag‘i va majburiy zaxiralar depozitlaridagi mablag‘lar mustasno) summasini ushbu Nizomda ko‘rsatilgan hisobvaraqlarning qoldiqlari - talab qilib olinguncha majburiyatlar summasiga nisbati orqali aniqlanadi.

Lahzali likvidlilik koeffitsientini hisoblashda faqat O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi mablag‘lar inobatga olinadi.

Lahzali likvidlilik koeffitsienti 2017-yil 1-avgustdan boshlab 10%dan, 2017 yil 1 noyabrdan boshlab 15%dan, 2017-yil 1-yanvardan boshlab esa 20%dan kam bo‘lmasligi lozim.

Statistik ma’lumotlar ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi likvidlik ko‘rsatkichi 01.03.2023-yil holatiga 94426 mlrd. so‘m bo‘lib, yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati

16.8%ni tashkil etgan. Shundan likvidlikni qoplash me'yori 191.6% bo'lganligini (minimal talab 100%) ko'rishimiz mumkin va lahzalik likvidlik me'yori 107.4% (minimal talab 25%) etdi.

Shunday qilib, tijorat bankining likvidliligi - bu bankning mijozlari va boshqa banklar oldidagi to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajara olish qobiliyatidir. Bank tizimining likvidliligi - bu mamlakatdagi banklar orqali o'tadigan to'lovlarning uzluksizligini ta'minlash imkoniyatidir.

13.4. Tijorat banklarining likvidligini baholash bo'yicha xorij tajribalari

Xorijiy amaliyotda tijorat banklarida likvidlik quyidagilar asosida o'lchanadi:

- balanslarda hisoblangan va balans likvidligini aks ettiruvchi moliyaviy koeffitsientlar;
- tegishli davrlarda bank balansining aktivlari va passivlari bo'yicha aylanma tahlilini hisobga olgan holda likvid mablag'larga bo'lgan ehtiyojni aniqlash.

Koeffitsient usuli balans moddalari o'rtasida miqdoriy munosabatlarni o'rnatishni o'z ichiga oladi. Ba'zi mamlakatlarda bu nisbatlar hukumat tomonidan belgilansa, boshqalarida esa, jumladan Amerika Qo'shma Shtatlardagi kabi banklarning o'zlari ularni o'rnatadilar.

Banklar tomonidan to'plangan tajribadan kelib chiqib, muayyan ko'rsatkichlardan endi ko'proq foydalanishga olib keldi.

Likvid aktivlar va depozitlar nisbatini aniqlashda ikkita ko'rsatkich qo'llaniladi:

1) [Birlamchi zaxiralar (kassa + Korrespondent hisob Markaziy bankda)] : Depozitlar;

2) [Birlamchi + Ikkilamchi zaxiralar (davlat qimmatli qog'ozlari)] : Depozitlar.

Ushbu ko'rsatkichlar orqali likvid aktivlar va bajarilishi kerak bo'lgan depozitlar shaklidagi majburiyatlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik o'rnatiladi. Bank likvidligini ta'minlash bo'yicha birinchi ko'rsatkich darajasi kamida 5-10% miqdorida qabul qilinadi; ikkinchisining darajasi 15-25% dan kam emas. Ikkinchi

koʻrsatkich Yaponiyada ham qoʻllaniladi (barcha banklar uchun majburiy), bu yerda uning darajasi 30%dan kam boʻlmasligi kerak.

Amerika Qoʻshma Shtatlarida likvidlikni baholash uchun berilgan kreditlar va depozitlar miqdori nisbati (bu miqdor 1 dan ortiq boʻlsa, bank likvidligi shunchalik past boʻladi) va aktivlar diversifikatsiyasining aksi sifatida umumiy aktivlardagi kreditlar ulushi koʻrsatkichlari yordamida baholanadi (*bu* koʻrsatkich 65-70% darajasida optimal hisoblanadi).

Likvidlikni baholash uchun aktivning naqd pulga tez ayirboshlash qobiliyatini aks ettiruvchi koʻrsatkich ham qoʻllaniladi. U likvid aktivlarning umumiy aktivlarga nisbati sifatida hisoblanadi. Likvid aktivlarga faqat naqd pul qoldiqlari, tranzitdagi naqd pullar, xorijiy valyutadagi hisobvaraqlar, Markaziy bankdagi va boshqa banklardagi NOSTRO hisobidagi qoldiqlar kiradi.

Bu koʻrsatkich qanchalik yuqori boʻlsa, likvidlik shunchalik yuqori boʻladi va daromadlilik past boʻladi. Likvidlikni boshqarish sohasidagi menejmentning maqsadi likvidlik va rentabellikning optimal nisbati hisoblanadi.

Bunda jalb etilgan resurslar tarkibi, depozit bazasi barqarorligini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratiladi. Barqarorlik nuqtayi nazaridan depozitlar asosiy (barqaror) va “uchuvchan”larga boʻlinadi. *Asosiy* (barqaror) depozitlar bankka biriktirilgan va undan shiqmaydigan depozitlardir. Ular qanchalik koʻp boʻlsa, bankning likvidligi shunchalik yuqori boʻladi. Asosiy depozitlar talab qilib olinadigan depozitlar, muddatli va omonat hisobvaraqlari va depozitlar boʻlishi mumkin. Depozitlarning barqaror qismi talab qilib olinmagan depozitlar orasida yuqoriroqdir. Muddatli va jamgʻarma depozitlari boʻyicha talab qilib olinmaguncha depozitlarga nisbatan yuqoriroq foiz belgilanadi. Muddatli va omonat depozitlari boʻyicha toʻlov turli banklarda har xil boʻlib, ular koʻproq mablagʻlar harakatiga bogʻliq boʻladi.

Depozitlarning barqarorligini tavsiflovchi koʻrsatkich asosiy depozitlar miqdorining ularning umumiy miqdoriga nisbati sifatida hisoblanadi. Omonatlarning umumiy miqdorida asosiy omonatlarning ulushi kamida 75% boʻlsa, bank likvid hisoblanadi.

Depozit bazasining barqarorligini aks ettiruvchi yana bir

koʻrsatkich - muddatli va jamgʻarma depozitlarining omonatlarning umumiy miqdoriga nisbatidir. Muddatli va jamgʻarma depozitlari bank resurslari bilan bogʻliq boʻlib, ular foiz stavkalarining oʻzgarishiga nisbatan sezgirroqdir. Ularning ulushini oshirish "oʻzgaruvchan" depozitlar hajmini oshiradi va bank likvidligini pasaytiradi.

Bankning resurs bazasining sifati tijorat bankining tashqi manbalar (banklararo kredit) uchun mavjudligini koʻrsatuvchi koʻrsatkich bilan ham baholanadi ($\boldsymbol{S_{rb}}$):

$\boldsymbol{S_{rb}} = \boldsymbol{Sb}$: Sjs,

Bu yerda,

Sb - boshqa banklardan, shu jumladan Markaziy bankdan olingan ssudalar;

Sjs – jalb qilingan mablagʻlar summasi.

Zaruriyat tugʻilganda banklararo bozordan va Markaziy bankdan resurslarni oʻrtacha haq evaziga tezda jalb qilish va vaqtinchalik likvidlik yetishmovchiligini bartaraf etish imkoniyati bankning yuqori likvidligini, tashqi qarzlarning katta ulushi esa bankning past likvidligidan dalolat beradi. Shuning uchun qoʻshimcha tahlillar oʻtkaziladi:

1) qarz olish chastotasi;
2) qarz olish shartlari (garov bilan yoki garovsiz);
3) mablagʻlarni jalb qilish sabablari.

Koʻpgina mamlakatlarda tijorat banklarining likvidlik koeffitsientlari muddatlari boʻyicha guruhlangan aktiv va passiv balans moddalarining nisbati asosida hisoblanadi. Fransiyada bunday muddat qiymati 60% dan past boʻlmagan holda - uch oy, Angliyada - bir oy (likvidlik koeffitsienti darajasi kamida 12,5%). Germaniyada tijorat banklari har oy Germaniya Federal bankiga oʻz balanslarining likvidlik holati toʻgʻrisida hisobot beradilar. Koeffitsientlarning 100% atrofida talab qilinadigan darajasi uzoq muddatli investitsiyalarni qisqa muddatli resurslar bilan qisman qoplash imkoniyatini nazarda tutadi. Yaponiya, AQSH va Yyevropaning koʻpgina mamlakatlarida koeffitsient usuli bilan bir qatorda bank likvidligini pul oqimiga qarab baholash ham ishlab chiqilgan.

Xorij mamlakatlarida banklarning likvidligini ta'minlash

uchun kredit risklarini cheklashga katta ahamiyat berilmoqda.

XIII bobga oid nazorat savollari:

- Tijorat banklarining likvidliligi deganda nimani tushunasiz?
- Tijorat banklari to‘lovga layoqatliligi va uning ko‘rsatkichlari.
- Tijorat bankining to‘lovga layoqatliligi qanday aniqlanadi?
- Banklarning likvidlilik darajasi qanday aniqlanadi?
- Tijorat banklar likvidligi va to‘lovga layoqatligiga ta’sir qiluvchi omillar.
- Tijorat banklarining aktivlari va ularning risklilik darajasi.
- Tijorat banklarining daromadlarini sanang.
- Tijorat banklarining xarajatlarini keltiring.
- Tijorat banki faoliyati va uning daromadlarini shakllantirishda aktiv operatsiyalarning rolini asoslab bering.
- Bank aktivlarini turli mezonlarga ko‘ra tasniflang.
- Aktivlar sifatini baholashning asosiy ko‘rsatkichlarini sanab o‘ting va ularning iqtisodiy mazmunini tavsiflang.
- Tijorat bankining likvidligi va to‘lov qobiliyati o‘rtasidagi tub farqlar nimada?
- Xalqaro bank amaliyotida qo‘llaniladigan likvidlik ko‘rsatkichlarining iqtisodiy mazmunini aniqlang.
- Bankning umumiy likvidlik koeffitsientini bekor qilishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini tavsiflab bering

XIV BOB. “TIJORAT BANKLARI” FANIDAN INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI KO‘NIKMALARI, MA’LUMOTLAR BILAN ISHLASH, STATISTIK MA’LUMOTLARDAN FOYDALANISH VA SHARHLASH

Reja:

14.1. Ma’ruza mashg‘ulotlarning tashkil etishning asosiy shakllari.

14.2. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari.

14.3. “Tijorat banklari” fanidan ma’ruza va amaliu mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar va ma’lumotlar bilan ishlash usullaridan samarali foydalanish.

14.4. Innovatsion ta’lim texnologiyalari ko‘nikmalarini shakllantirish va statistik ma’lumotlar bilan ishlash tartibi.

14.1. Ma’ruza mashg‘ulotlarning tashkil etishning asosiy shakllari.

Ma’ruza mashg‘uloti – o‘qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanadi, bilimlarni birlamchi egallashga yo‘naltirilgan.

Ma’ruzani asosiy belgilanishi – o‘qitishni nazariy asosini ta’minlab berish, o‘quv faoliyatga va soha iqtisodiyoti va menejment faniga qiziqishni rivojlantirish, talabalarga o‘quv kursi ustidan mustaqil ishlash uchun yo‘nalishlarni shakllantirish**.**

Ma’ruza materiallarining mazmuni va hajmiga talablar:

Ma’ruza materiallarining mazmuni quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- yangilik, ilmiylik, asoslilik va axborot uchun belgilanganlik;
- aniq, ishonchli misol, fakt, asosnoma va ilmiy dalillarning mavjudligi;
- faktga asoslangan (statistik va v.h.) materiallarning ko‘p emasligi.

Ma’ruza materiallarining hajmi rejalashtirilgan mavzuni yoritish uchun yetarli bo‘lishi kerak.

Ma’ruzalar turlari va ularga xos xususiyatlar

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi	Ma’ruza turi, uning o‘ziga xos xususiyatlari
Kirish ma’ruzasi	
Fan doirasida o‘quv axborotini o‘zlashtirish bo‘yicha talabalar harakatining yo‘naltiruvchi asosini ta’minlash.	Ta’lim berish tuzilishida motivatsion bosqich hisoblanadi. Uning vazifasi – o‘quv fani mazmuni, uning o‘quv jarayonidagi o‘rni va kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatdagi axamiyati to‘g‘risida dastlabki tasavvurlarni berish, talabalarni ishlash tizimida yo‘naltirish, oldinda turgan mustaqil ishning uslubiyoti va tashkillashtirlishi bilan tanishtirish, hisobot berish vaqti va baholashni aniqlashtirish.
Axborotli ma’ruza	
O‘quv mavzu bo‘yicha tasavvurni shakllantirish	Bu an’anaviy ma’ruza turi: ma’ruza rejasiga muvofiq o‘quv materialini monologik tarzda izchillikda bayon etish.
Muammoli ma’ruza	
Muammoni belgilash va uni yechimini topishni tashkillashtirish/an’anaviy va zamonaviy nuqtai nazarlarni jamlash va tahlil qilish va v.h. orqali o‘quv mavzusi bo‘yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Yangi bilimlar savol/vazifa/vaziyatlarning muammoligi orqali kiritiladi. Bu jarayonda talabalarning bilishi o‘qituvchi bilan hamkorligiga va dialogiga asoslanadi, hamda izlanuvchilik faoliyatiga yaqinlashadi.
Ko‘rgazma ma’ruza	
O‘TVdan keng foydalanish orqali o‘quv mavzusi bo‘yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma’ruzani o‘qish, ko‘rib chiqilayotgan ko‘rgazmali materiallarni ochib berishga va qisqacha sharhlashga olib keladi.
Binar ma’ruza.	
Talabalarga munozara madaniyatini, muammoni hamkorlikda yechishni namoyish etish orqali o‘quv mavzusi bo‘yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma’ruzani o‘qish ikki o‘qituvchi/2-maktabning ilmiy vakillari/olim va amaliyotchi/o‘qituvchi va talabalarning dialogini o‘zida namoyon etadi.
Anjuman-ma’ruza	

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi	Ma’ruza turi, uning o‘ziga xos xususiyatlari
O‘quv axborotni izlash, tanlash va bayon etish jarayonida talabalarning faol ishtiroklarida yoritib berish orqali o‘quv mavzusi bo‘yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Oldindan belgilangan muammo va uni har tomonlama yoritib berish nazarda tutilgan ma’ruzalar tizimi (5-10 daq. davomiyligida) bilan, ilmiy-amaliy mashg‘ulot ko‘rinishida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi mustaqil ish va so‘zga chiqishlarga yakun yasaydi, axborotni to‘ldiradi/aniqlik kiritadi, asosiy xulosalarni ifodalaydi.
Umumlashtiruvchi ma’ruza	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Ma’ruzada bayon etilayotgan nazariy holatlarning negizini kursning yoki katta bo‘limlarning ilmiy-tushunchali va kontseptual asosi tashkil etadi.
Maslahatli-ma’ruza	
Bilimlarni chuqurlashtirish, tizimlashtirish.	Turlicha stsenariy bo‘yicha o‘tishi mumkin. 1. “Savol-javoblar” - o‘qituvchi bo‘lim yoki to‘liq kurs bo‘yicha talabalar savollariga javob beradi. 2. “Savol-javoblar-munozaralar”: o‘qituvchi nafaqat savollarga javob beradi, balki javoblarni izlashni ham tashkillashtiradi.
Yakuniy ma’ruza	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Kursni o‘rganishni yakunlaydi, butun davr mobaynida o‘tilganlarni umumlashtiradi. Yakuniy ma’ruzada o‘qituvchi kursning asosiy g‘oyalarini ajratadi, kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatda va boshqa fanlarni o‘rganishda olgan bilimlarni qanday qo‘llash yo‘llarini ko‘rsatadi, fan bo‘yicha yakuniy nazorat xususiyatini tushuntiradi, yakuniy nazorat variantlarining murakab savollarini tushuntiradi.

14.2. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari

Amaliy mashg‘ulot:

- o‘quvchilarni o‘qituvchi bilan va o‘zaro faol suhbatga kirishishiga yo‘naltirilgan,

- nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta’minlovchi,

-olingan bilimlarni amaliy foydalanish imkoniyatlarini muhokama qilishga mo‘ljallangan mashg‘ulotning o‘qitish shakli.

Amaliy mashg‘ulotning mazmuniga quyiladigan talablar:

•muhokamaga munozarali savollar olib chiqiladi;

•muhokama qilinuvchi savollar ilm-fanning erishgan zamonaviy yutuqlari tomoni bilan ko‘rib chiqiladi;

•nazariya va amaliyotni uzviy birligi ochib beriladi;

•muhokama qilinuvchi materialning talabalarning bo‘lg‘usi kasbiy faoliyati bilan aloqasi ta’minlanadi;

•ko‘rib chiqilayotgan material adabiyotda mavjud emas yoki material, qisman bayon etilgan.

Amaliy mashg‘ulotlar turlari va ularga xos xususiyatlari

Amaliy mashg‘ulot turi	**Amaliy mashg‘ulot shakli, uning o‘ziga xos xususiyatlari**
Talabalarning nazariy bilimlarini tizimlashtirish/ tuzilmaga keltirish/ mustahkamlash/ kengaytirish: - metodologik nuqtai nazaridan eng muhim va o‘ziga xos fan mavzularining yaxshi o‘rganish. - tushunish va o‘zlashtirish uchun murakkab bo‘lgan mavzu savollarini batafsil o‘rganish. - kasbiy tayyorgarlik sifatini aniqlovchi, alohida asosiy bo‘lgan mavzularni batafsil o‘rganish.	**Keng ko‘lamli suhbat.** Hamma uchun umumiy bo‘lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo‘shimcha adabiyotlar bilan mashg‘ulotning har bir reja savollariga talabalarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo‘llash bilan: so‘zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o‘ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar, so‘zga chiquvchi talabalarni kuchli va kuchsiz tomonlariga talbalar diqqatlarini qarata olish, talabalar diqqatini va qiziqishini, ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi tomonlarga o‘sha vaqtni o‘zida ajratib ko‘rsatish va boshqalar asosida ko‘pchilik talabalarni savollarni muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi. Keng ko‘lamli suhbat ba’zi savollar bo‘yicha alohida talabalarni avvaldan rejalashtirilgan qo‘shimcha ravishda so‘zga chiqishlarini istisno qilmaydi, balki taxmin qiladi. Biroq bunday ma’lumotlar muhokama uchun asos bo‘lmaydi, balki muhokama qilingan savollar uchun to‘ldiruvchi bo‘ladi.

- Ilm-fanning alohida xususiy muammolarini chuqurroq ishlab chiqish.	Ilm-fanning alohida xususiy muammolarini chuqurroq ishlab chiqish. **Ma’ruza va referatlar muhokamasi.** Muhokamaga 12-15 daqiqa davomiyligidagi 2-3 ma’ruzadan ko‘p bo‘lmagan ma’ruzalar olib chiqiladi. Ba’zida qo‘shimcha ma’ruzachi va opponentlar (muxoliflar) belgilanadi. Oxirgi chiquvchilar mazmunni qaytarmaslik uchun, ma’ruza matni bilan tanishadilar. Biroq ko‘p holllarda, ma’ruzachi va opponentlar, qo‘shimcha ma’ruzachilardan tashqari, hech kim seminarga jiddiy tayyorlanmaydi. So‘zga chiquvchilarni o‘zlari ham faqat bir savolni o‘rganadilar. Shu bilan birga, odatiy seminar ishiga “quruq nazariyalik” elementini kiritib, bunday mashg‘ulotlar talabalarda ba’zi qiziqishlarni uyg‘otadi. Talabalarni har birini qo‘shimcha ma’ruzachi yoki opponent sifatida tayyorlanib kelishga o‘rgatish juda muhim hisoblanadi. Referatli ma’ruzalarni yakuniy seminarda, uning asosiy savollari avvaldan muhokama qilib bo‘lingan, katta bir mavzu bo‘yicha ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. **Press-konferentsiya.** Qisqa so‘zga chiqishdan so‘ng birinchi savol bo‘yicha ma’ruzachiga (agarda ma’ruzalar bir qator talabalarga berilgan bo‘lsa, o‘qituvchining o‘zi ulardan biriga so‘z beradi) so‘z beriladi. Shundan so‘ng har bir talaba ma’ruza mavzusi bo‘yicha unga savol berishi lozim. Savol va javoblar seminarning markaziy qismini tashkil etadi. Qancha ko‘p jiddiy tayyorgarlik ko‘rilsa, savollar shunchalik chuqur va mahoratli beriladi. Savollarga avval ma’ruzachi javob beradi, so‘ngra u yoki boshqalar bo‘yicha istagan bir talaba o‘z fikrini bildirishi mumkin. Bunday holatlarda qo‘shimcha ma’ruzachilar, agarda shundaylar belgilangan bo‘lsa, faol bo‘ladilar. O‘qituvchi har bir muhokama qilinayotgan savol bo‘yicha yoki seminar yakunida o‘z xulosasini qiladi. **O‘zaro o‘qish.**

	Tushunish va o‘zlashtirish uchun eng ko‘p murakkablikdagi savollarni o‘rganish asosiy maqsadga ega bo‘lgan seminar. Seminar mobaynida talabalarni o‘zaro o‘qishga yo‘naltirish muhim hisoblanadi: har kichik-guruhga mavzuning bir savoli beriladi, bu bo‘yicha ular ishlaydilar va bunga asos (ekspert varaqlar – savolni yoritish rejasi, tayyorlangan ma’lumotlarni vizual taqdim etish bo‘yicha tavsiyalar) beriladi. Ekspert guruhlarning ish natijalari taqdimotidan so‘ng o‘qituvchi xulosalar qiladi. Yumaloq (yozma /og‘zaki) stol. O‘tgan mavzu bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish va aniqlashtirish, bor bilimlarni safarbar qilish va har xil vaziyatlarda ularni qo‘llash, o‘z fikrlarini qisqa va asoslangan holda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsadga ega bo‘lgan, seminar. Har xil ssenariylar bo‘yicha o‘tkazilishi mumkin. 1. «Yozma yumaloq stol» - talabaning savoli / yechimi topilishi kerak bo‘lgan g‘oya yozilgan varaq, doira bo‘yicha uzatiladi va har bir ishtirokchi o‘z mulohazalarini qo‘shadi. 2. «Og‘zaki yumaloq stol» - har bir talaba qo‘yilgan savolning javobiga o‘z qo‘shimchalarini kiritadi / oldingi ishtirokchi tomonidan taklif qilingan g‘oyani qo‘llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi. Spetsseminar. Bakalavriatning 4 kursida, magistraturada o‘tkaziladi. Ilmiy mavzu bo‘yicha yosh tadqiqotchilarni muloqat maktabini ifodalaydi. Spetsseminar vaqtida talabalarning guruhlarda ishlashga va uni baholashga, ilmiy tadqiqotlar usullaridan foydalanishga intilishlari katta rol o‘ynaydi. Spetsseminarning yakuniy mashg‘ulotida o‘quituvchi, qoidaga ko‘ra, seminarlarni va talabalarning ilmiy ishlarini muhokama qilingan muammolarni kelgusida tadqiqotlar qilish istiqbollarini va talabalarni ularda ishtiroq etish imkoniyatini ochib umumlashtiradi.

Maxsus (kasbiy) va umumoʻquv koʻnikma va amaliy malakalarni shakllantirish: - amaliy muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechish jarayonida harakatlar algoritmini aniqlash bilan bogʻliq egallagan nazariy bilimlarni amaliy qoʻllash.	**Ta'limi oʻyin.** Oʻqitish samaradorligini uning ishtiroqchilarini nafaqat bilimlarni olish jarayoniga faol jalb qilish, balki ularni (hozir va shu yerda) foydalanish orqali oshirishga imkon beradi; oʻzgaruvchan vaziyatlarda oʻzini tutish taktika koʻnikmalarini shallantiradi; rol oʻynash xulq-atvorining dinamikasini ishlab chiqaradi; amaliyot imitatsiyasini ifodalaydi; aniq koʻnikma va malakalarni shakllantirishga va ishlab berishga qaratilgan. Seminar natijaviyligini uning tashkiliy-uslubiy ta'minoti belgilaydi: oʻyinning texnologik xaritasini ishlab chiqish; oʻyin atributlarini va materiallar paketini: vaziyat bayoni, ishtiroksilar uchun yoʻriqnomalar, personajlar ta'rifi (agar oʻyin rolli yoki ishbilarmon boʻlsa) yoki vaziyatli koʻrsatmalar (agar oʻyin modellashtiruvchi boʻlsa) tayyorlash. Amaliy topshiriqlarni bajarish. Amaliy topshiriqlarning koʻpchiligi kichik guruhlar tarkibida bajariladi va quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi: yoʻriqnoma berish → oʻquv topshiriqni bajarish boʻyicha yoʻriqnoma bilan tanishish → topshiriqni bajarish → natijalarning ommaviy taqdimoti → natijalarni umumlashtirish va baholash. **Masalalar yechish boʻyicha mashq.** Yakka tartibda amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi: yoʻriqnoma berish – masalani yechish – natijalarni tanlama taqdimoti - umumlashtirish. Muammoli masalalar va vaziyatlarni yechish. Muammoli masalalar va vaziyatlarni ishlab chiqish juda katta mehnat talab qiladi. Lekin talabalar tomonidan amaliy kasbiy faoliyatdan olingan muammoli masalalarni yechish va muammoli vaziyatlarni koʻrib tahlil qilish nazariyani haqiqiy amaliyot bilan bogʻlashga imkon beradi. Bu oʻqitishni faollashtirishga imkon beradi, talabalarga oʻrganilayotgan materialni amaliy foydasini tushunishga yordam beradi.

	Ta’lim beruvchi amaliy muammoli vaziyatlarni (keyslarni) yechish. Keys (muammoli vaziyatdan farqli ravishda) talabalarni muammoni ifodalash, muammoli vaziyatni tahlil qilish va baholash, uni maqsadga muvofiq yechim variantlarini qidirishga yo‘naltiruvchi tashkilotlar, insonlar guruhi yoki alohida individlarni hayotining muayyan sharoitlarini yozma ravishda taqdim etilgan bayonini o‘z ichiga oladi. Keysni yechish jarayoni quyidagi bosqichlarini o‘z ichiga olish muhim: → muammoni yakka tartibda tahlil qilish va yechish, → yakka tartibda topilgan yechimni birgalikda (kichik guruhlarda) tahlil qilish, o‘zaro maqbul yechim variantini rasmiylashtirish, → guruh ishini taqdimoti, → muammoni yechish usul va vositalarining eng maqbul variantini jamoaviy tarzda tanlash. Fiklash jarayoni, muammoli vaziyatni yechish jarayonida paydo bo‘lingan, mustaqil topilgan dalilllar oriyentirlarni, kasbiy boyliklarni topishga va mustaqkamlashtirishga, kelgusi kasbiy faoliyati bilan aloqani anglashga ko‘maklashadi. **O‘quv loyihalarning taqdimoti va baholanishi** Ushbu o‘quv mashg‘ulotini tayyorlashda o‘qituvchining roli quyidagilardan iborat: loyiha topshirig‘ini ishlab chiqish; talabalarga ma’lumotlarni izlashda yordam berish; o‘zi axborot manbai bo‘lishi; butun jarayonni muvofiqlashtiri; ishtirokchilarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish; uzluksiz qayta aloqani amalga oshirish; maslahat berish. Ushbu o‘quv mashg‘ulotida guruhlar o‘z faoliyatining natijalari to‘g‘risida ma’ruza qilishadi va uni belgilangan shaklda taqdim etishadi (loyihaviy faoliyatning natijalarini, hamda loyiha mahsulotini tasviriy va og‘zaki taqdimot ko‘rinishida).

	O‘qituvchi guruhlarning o‘zaro baholanishini tashkillashtiradi va loyiha ishtirokchining faoliyatini baholaydi.
Talabalarni nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish va baholash	**Kollokvium.** O‘qituvchining talabalar bilan kollokviumlari (suhbatlashuvi) odatda kursning u yoki bu mavzusi bo‘yicha bilimlarini aniqlash, uni chuqurlashtirish maqsadida olib boradi. U ko‘pincha 1) dasturda ko‘zda tutilmagan, lekin talabalarda qiziqish uyg‘otgan qo‘shimcha mavzular bo‘yicha; 2) fanning alohida murakkab, lekin talabalar tomonidan yetarli darajada o‘zlashtirilmagan mavzulari bo‘yicha qo‘shimcha darslar mobaynida; 3)oxirgi seminar mashg‘ulotlarida javob bermagan talabalarni birish darajasini aniqlash uchun. Seminar-kollokvium mobaynida ma’ruza, referat va boshq. Yozma ishlar tekshirilishi mumkin. **Yozma (nazorat) ish.** Talabalar nazorat savollariga javob beradilar/ testlarni yechadilar/ nazorat topshiriqlarini bajaradilar. Ularning to‘plamini to‘g‘ri tuzish muhim hisoblanadi: ular rejalashtirilayotgan o‘quv materialni o‘zlashtirish darajasiga mos kelishligi kerak va ularni tekshirishni ta’minlashi kerak.

14.3. “Tijorat banklari” fanidan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar va ma’lumotlar bilan ishlash usullaridan samarali foydalanish

Aqliy hujum uslubi

Aqliy hujum uslubini birinchi bo‘lib bundan bir necha o‘n yillar oldin F.Osborn Aleks reklamasi orqali Batter, Barton, Dastin va Osborn firmalarida qo‘llagan. Keyinchalik ushbu uslubdan yirik xalqaro korporastiyalar ham foydalana boshlashgan. Hozirgi kunda ko‘pgina rivojlangan davlatlarda, ushbu uslub ma’muriy boshqarishda va nodavlat tashkilotlarda oddiy odatiy holga aylandi.

Respublikamizdagi ta’lim muassasalarida ushbu uslubdan 2000-yillardan boshlab foydalanila boshlandi. Ushbu uslubning mohiyati juda oddiy. Talabalar mavzuga oid muammoli savol yoki masala bilan tanishtiriladi. Masala bo‘yicha talabalar o‘z g‘oya va fikrlarini bildirishlari uchun aniq vaqt ajratiladi, masalan - 10 minut. 10 minut ichida bildirilgan barcha g‘oyalar va fikrlar yozib boriladi. Bildirilayotgan g‘oyalar baholanmaydi, auditoriyada shovqin bo‘lishiga, ayrim talabalaraning boshqa talaba fikri ustidan kulishi yoki uni baholashiga ruxsat berilmaydi. Dastlabki maqsad-son! G‘oya qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi. Alohida faol talabalarning yetakchilik qilishlariga, ya’ni faqat bir necha talaba fikr bildirishlariga yo‘l qo‘yilmaydi. Mumkin qadar barcha talabalar fikrini bayon etishlariga imkoniyat yaratiladi. Vaqt tugagach talabalarga ekranda yozilgan barcha fikrlarni o‘qib, muchohada qilishlariga vaqt ajratiladi. Keyin o‘qituvchi yordamida barcha g‘oyalar guruhlarga bo‘linadi va ular tahlil qilinib, eng maqbul variant tanlab olinadi.

Aqliy hujum uslubining asosiy qoidalari:

● ilgari surilgan fikr iva g‘oyalarni tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi;

● taklif qilinayotgan fikr va g‘oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo‘lsa ham, uni baholashdan o‘zingizni tiying;

● tanqid qilmang! Hamma bildirilgan fikrlar bir xilda bebahodir;

● fikr bildirilayotganda gapni bo‘lmang;

● maqsad-fikr va g‘oyalar sonini ko‘paytirish;

● qancha ko‘p g‘oya va fikr bildirilsa, shunchalik yaxshi. Yangi, bebaho fikr va g‘oyaning tug‘ilish ehtimoli paydo bo‘ladi;

● agar fikrlar qaytarilsa, rad etmang;

● xayoliy fikrlashga ijozat bering;

● bu muammo faqatgina ma’lum, aniq usullar yordamida hal bo‘lishi mumkin deb o‘ylamang;

● fikrlar hujumini o‘tkazish vaqtiga qat’iy rioya qiling;

● berilgan savollarga qisqacha javob bering.

Insert texnikasi

Insert (inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib – insert – interaktive - interfaol, noting – belgilash, system – tizim, for-uchun, effective – samarali, reading – o‘qish, and – va, thinking – fikrlash degan ma’noni anglatadi).

1)Samarali o‘qish va fikrlash uchun matnda belgilar qo‘yishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matnni belgilash tizimi:

(√) - mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;

(+) –men uchun yangi axborot;

(−) - menning bilganlarimga, zid axborot;

(?) - meni o‘ylantirib qo‘ydi. Bu bo‘yicha menga qo‘shimcha axborot kerak.

Pinbord texnikasi

Pinbord–(inglizchadan: pin - mahkamlash, board – yozuv taxtasi) – o‘quvchilarni tizimli va mantiqiy fikr bildirishga o‘rgatadigan metod.

Pinbord texnikasi:

1) muammoli masalalar va vaziyatlar, aqliy hujum va amaliy o‘qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) muammoni yechish variantlarini baholash hamda ular ichidan eng yaxshisini tanlash imkonini beradi;

2) aqliy hujum va amaliy o‘qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) toifali sharh o‘tkazish imkonini beradi.

Pinbord texnikasining texnologik chizmasi

Amaliy mashg‘ulotlarda quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi**:**

Mashg‘ulotning motivatsiya bosqichida: “Keys-stadi” usulidan foydalaniladi.

Keys-stadi uslubi

Keys – (ingl. sase – to‘plam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni yechish jarayonida qo‘llash imkonini beruvchi o‘qitish vositasi.

Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan

yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima- natija (What).

Keysda bayon qilingan vaziyatni o‘rganib va tahlil qilib, o‘quvchilar o‘zining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o‘xshash vaziyatlarda qo‘llashi mumkin bo‘lgan tayyor yechimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg‘ulotlarda yechiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilagan) va talab (nimani topish kerak) berilgan bo‘lsa, keysda, qoidaga ko‘ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O‘quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

- keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo‘lishi kerak;
- bayon qilingan muammoli vaziyatni yechish uchun kerakli va yetarli xajmda ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak;
- keysni yechish uchun uslubiy ko‘rsatmalar bo‘lishi kerak.

Keys-stadi – o‘qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan o‘qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o‘quvchilarni quyidagilarga undaydi:

•muammoni shakllantirishga;

•amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;

•muammo yechimini eng maqbul variantini tanlashga.

O‘quv mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o‘rtacha miqdordagi, katta).

2. O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli:

-savolli (savollar keysdan keyin keltiriladi);

-topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi).

“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich. Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	Yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich. Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	Individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich. Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	Individual va guruhda ishlash; muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich. Keys yechimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	Yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Bank tomonidan jismoniy shaxsga berilgan 10,0 mln. so‘mlik iste’mol krediti qaytmayapti. Mijoz doimiy ishlab turgan ish joyidan bo‘shaganligi ma’lum bo‘ldi. Kredit uchun mijoz tomonidan qo‘shimcha garov qo‘yilmagan.

Nazorat uchun savollar:

1. Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
2. Muammoni hal etish ketma-ketligini aniqlang (juftliklarda bajaring).

Ma’ruza mashg‘ulotida quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi:

“Blits-so‘rov” usuli

Topshiriq mazmuni - «Blis-so‘rov» metodi orqali berilgan fikrga munosabatlar keltirish.

Usulning tavsifi. Ushbu usul talaba (yoki o‘quvchi)larning harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosida xilma-xil fikrlar, ma’lumotlar ichidan kerakligini o‘ziga tanlab olish, shu bilan bir qatorda, o‘zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o‘z fikrini o‘tkaza olish hamda o‘z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o‘rgatishga qaratilgan.

Usulning maqsadi: ushbu usul orqali talaba (yoki o‘quvchi)larga tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan harakatlar ketma-ketligi avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikr bo‘la olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi.

Ushbu usul bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

- O‘qituvchi talaba (yoki o‘quvchi)larga ushbu mashg‘ulot bir necha bosqichda o‘tkazilishi haqida tushuncha beradi. Har bir bosqichga mo‘ljallangan vazifalarni bajarishga aniq vaqt berilishi, tinglovchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi;
- o‘qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifa (tarqama materialda berilgan harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri belgilash, belgini qog‘ozda alohida ajratilgan bo‘limga raqamlar bilan qo‘yish kerakligi)ni tushuntiradi;
- tarqatma materialda berilgan vazifa dastlab yakka tartibda bajarilishini ta’kidlaydi;
- har bir talaba (yoki o‘quvchi) o‘zining shaxsiy fikri asosida tarqatma materialdagi **“yakka baho”** bo‘limiga berilgan harakatlarning mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi;
- talaba (yoki o‘quvchi)larning yakka tartibdagi ishlari

tugagach, oʻqituvchi ulardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini soʻraydi. Kichik guruhlar talaba (yoki oʻquvchi)larning xohishlariga qarab yoki raqamlar boʻyicha tashkil etilishi mumkin;

•kichik guruhdagi talaba (yoki oʻquvchi)larning har biri oʻz qogʻozidagi **“yakka baho”** boʻlimida belgilangan harakatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, keyin ular 3 kishida uch xil boʻlgan ketma-ketlikni birgalashib (bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, bir-birlariga ta’sir oʻtkazib, oʻz fikrlariga ishontirib) kelishgan holda, tarqatilgan qogʻozdagi **“guruh bahosi”** boʻlimiga muqobil raqamlarni belgilab chiqadilar;

•barcha kichik guruhlar oʻz ishlarini tugatgach, oʻqituvchi harakatlar ketma-ketligi boʻyicha toʻgʻri javobni beradi, ya’ni talaba (yoki oʻquvchi)lardan ularga tarqatilgan qogʻozlardagi **“toʻgʻri javob”** boʻlimiga u tomonidan aytilgan harakatlar ketma-ketligi raqamlarni yozishini soʻraydi;

•oʻqituvchi “**toʻgʻri javob**” boʻlimida berilgan raqamlar bilan “**yakka baho**” hamda “**guruh bahosi**” boʻlimidagi raqamlarni solishtirish va kattasidan kichigini ayirish, ayirmalarni mos holda “**yakka xato**” va “**guruh xatosi**” boʻlimlariga yozishlarini soʻraydi;

•oʻqituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni boʻyicha tushuncha beradi va ularni har birini alohida-alohida shartlab beradi;

•oʻqituvchi mashgʻulotni yakunlab, ba’zi guruhlarning mashgʻulot mobaynidagi ish faoliyatlariga oʻz fikrini bildiradi va talaba (yoki oʻquvchi)larning bilimini ilovadagi mezonlar asosida baholaydi yoki mos kelgan toʻgʻri javoblar soniga qarab har bir talaba (yoki oʻquvchi) oʻz bahosini ilovada koʻrsatilgandek aniqlaydi.

“Blis-soʻrov” savollari:

•AQShda banklar faoliyatini nazorat qilish tizimining tashkil topishi va uning oʻziga xos xususiyatlarini ayting.

•Buyuk Britaniyada bank nazoratini ayting.

•Germaniya bank nazoratining oʻziga xos xususiyatlarini sanab bering.

•Bank nazorati boʻyicha Bazel qoʻmitasining vujudga kelishi va rivojlanishini ayting.

FSMU texnologiyasi

Ma’ruza mashg‘ulotida quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi:

Topshiriq mazmuni: «FSMU» metodi orqali berilgan fikrga munosabatlar keltirish

Texnologiyaning maqsadi: mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

F	**Fikringizni bayon eting**
S	**Fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating**
M	**Ko‘rsatgan sababini isbotlab misol keltiring**
U	**Fikringizni umumlashtiring**

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o4zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna.

Fikr: “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarining mamlakat bank tizimiga ta’sir etmasligi uchun boshqa davlatlar bilan eksport-import operatsiyalarini olib bormaslik lozim”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

1-amaliy mashg‘ulotda quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi.

1) Mashg‘ulotning motivatsiya bosqichida: “SWOT-tahlil”dan foydalaniladi.

Topshiriq mazmuni - “Internet banking masofaviy bank xizmati imkoniyatlari va kamchiliklarini keltirib o‘ting?”

Ushbu texnologiya talabalarni o‘z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikriga boshqalarni ishontirishga, ochiq-oshkora bahslashishga, egallagan bilimlarni tahlil qilishi, ularni qay darajada egallaganligini baholashga hamda talabalarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi. Ushbu texnologiya talabalarga qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etish tartibida amalga oshiriladi.

F – fikringizni bayon eting.

S - fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatilgan sababni tuchuntiruvchi misol keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

FSMU texnologiyasida mavzu bo‘yicha savol qo‘yiladi. Talabalarga FSMU texnologiyasining mohiyati va ularning vazifasi tushuntiriladi. Topshiriqni bajarish uchun aniq vaqt belgilaydi, masalan 15-20 daqiqa.

Topshiriqni har bir talaba shaxsan bajarishi talab etiladi. Talabalar faoliyatini kuzatadi, ularning savollariga javob berib boradi, yo‘naltiradi, maslahatlar beradi. Kuzatuv davrida to‘g‘ri qaror yoki fikr yozayotgan talabalarni aniqlaydi. Javoblarni yig‘ib olib, kuzatuv davrida nisbatan to‘g‘ri deb topilgan talabalarning fikrlarini o‘qiydi, qo‘shimchalar kiritib, savol bo‘yicha to‘liq ma’lumot beradi.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminari yakunida (talabalarning o‘quv-seminari haqidagi fikrlarni bilish maqsadida) yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin.

«Vena» diagrammasi texnologiyasi

Bu metodni ta’lim jarayonida qoʻllashdan maqsad talabalarning aqliy faoliyatini har tomonlama taraqqiy ettirish boʻlib, oldindan mavjud boʻlgan bilimlar zaxirasiga tayanadi.

Oʻqituvchi “VENA” diagrammasi usulini qoʻllab, doskaning oʻrta qismiga ikkita doirani chizadi va ikkita tushunchani yozadi. Shundan soʻng talabalar berilgan tushunchalarga bir nechta tushunchalarni ayta boshlaydilar. Oʻqituvchi soʻz tushunchalarni bir nechasini yozadi va shu bilan bir qatorda har biri uchun umumiy va farqli tomonlarini yozadilar.

Bu metodni darsning turli etaplarida qoʻllaganda turlicha natijaga erishiladi. Ya’ni talabalarni darsda faollashtirish, yangi oʻquv materialini esda saqlash va boshqalar.

Muammoli seminar

Munozara qatnashchilariga eslatma:

1. Munozara munosabatlar yigʻindisi emas, balki muammo yechimi uslubiyatidan iborat.
2. Koʻp gapirmasdan, boshqalarning soʻzlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yoʻlida xissiyotlarni jilovlab, batafsil oʻylagan holda soʻzla.
4. Raqiblaring vaziyatini oʻrganib, ularga hurmat bilan murojaat qil.
5. Raqiblaring tomonidanaytilgan fikrlarga tanqidiy va mulohazali yondash.
6. Munozara predmeti boʻyicha chetga chiqmagan holda toʻgʻri yondashib gapir.

Muammoli seminarning boshqaruv dastaklari

Boshlovchi barcha vazifalarni oʻziga oladi - munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va toʻgʻriligini tasdiqlash, qoʻllangan termin va tushunchalarni aniqlash, munosabatlarni toʻgʻri qoʻllash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini toʻgʻri boshqarish.

Taqrizchi - tomonlarning ma’ruzalarini yoʻnalishlar boʻyicha belgilash va toʻliq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyligi va masalalarning aniq qoʻyilganligi, xulosalarning aniq koʻrsatilishi.

Raqib - qabul qilingan tadqiqot oʻrtasida raqobatchilik

jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma’ruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki xato tomonlarini topish hamda o‘zining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

Ekspert - barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning mahsuldorligini baholaydi.

O‘quv loyiha metodi

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma’lum muddat ichida (bitta o‘quv mashg‘ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta’lim oluvchi guruhli yoki yakka tartibda berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig‘ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan foydalanuvchiga yo‘naltirilgan yangi ma’lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy yechimidan iborat.

O‘quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste’molchiga mo‘ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilish usuli;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o‘quv vosita va qurollari;

- rivojlantiruvchi, ta’lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita.

Grafik tashkil etuvchilar

KLASTER (klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish asosida aniq biror mazmunni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalb qilishda yordam beradi.

Klasterni tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

1.Katta qog‘oz varag‘i markazida kalit so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing.

2.Kalit so‘z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana - “yo‘ldoshcha” ichiga mavzu bilan aloqador so‘z yoki so‘z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan “bosh” so‘zga bog‘lang.
3.Ushbu “yo‘ldoshcha”larda “kichik yo‘ldoshlar” ham bo‘lishi mumkin, ular ichiga yana so‘z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g‘oyalar tugamagunga qadar davom ettiriladi

«NIMA UCUN?» SXEMASI – muammoning dastlabki sababini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri bo‘lib, tizimli, ijodiy, tahliliy muchohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

«Nima uchun?» sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammo sababini aniqlash uchun:
1) Muammoni yozing va strelka chizig‘ini chiqarib «Nima uchun?» so‘rog‘ini yozing.
2) Savolga javob yozib nima uchun so‘rog‘ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring.

«BALIQ SKELETI» CHIZMASI – bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:

1.«Baliq skeletini» chizing:



2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o‘ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni

yozing.

«QANDAY?» IERARXIK DIAGRAMMASI - muammo to‘g‘risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning yechimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Qanday?» diagrammasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

«Qanday?» diagrammasini tuzishdan avval, siz quyidagilarni bilishingiz kerak: ko‘p hollarda Sizga muammolar hal etishda «Nima qilish kerak?» haqida o‘ylashga hojat bo‘lmaydi. Muammo yechimini topish uchun asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo‘ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

1. Doira chizing va uning ichiga yechilishi lozim bo‘lgan muammoni yozing.

2. Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo‘ying va shu savolga javob bering. Shu tartibda savollarni ketma-ket berib boravering va javoblarni o‘ylab o‘tirmasdan, solishtirmasdan, baholamasdan, tez-tez yozishda davom eting.

Maslahat va tavsiyalar:

Yangi g‘oyalarni grafik ko‘rinishda qayd etishni o‘zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko‘rinishida, yuqoridan pastga yoki chapdan o‘ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko‘p miqdordagi foydali g‘oyalar va muammo yechimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

Agarda siz muammoni yechimini topish uchun to‘g‘ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo‘nalishini namoyon bo‘lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi.

14.4. Innovatsion ta’lim texnologiyalari ko‘nikmalarini shakllantirish va statistik ma’lumotlar bilan ishlash tartibi

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S - (strength) • **kuchli tomonlari**

W - (weakness) • **zaif, kuchsiz tomonlari**

O - (opportunity) • **imkoniyatlari**

T - (threat) • **to‘siqlar**

Namuna: Internet banking masofaviy bank xizmati imkoniyatlarining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tuchiring.

S	Internet banking masofaviy bank xizmatidan foydalanishning kuchli tomonlari	To‘lov tizimining elektronlashib borayotgani jarayonida mijozlar bankka bormasdan masofadan shaxsiy kompyuterlari orqali to‘lovlarni amalga oshirishi...
W	Internet banking masofaviy bank xizmatidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	Internetga ulangan kompyuter (noutbuk) va unga Microsoft Internet Explorer dasturining 6.0 yoki undan yuqori versiyasi o‘rnatilgan bo‘lishi...

O	Internet banking masofaviy bank xizmatidan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	• o‘z hisobvarag‘ingizdagi operatsiyalarni osongina va yengil amalga oshirish; • hisobvaraqdagi pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi ko‘chirma, karta hisobvaraq to‘g‘risidagi hisobotni olish; • Yuqorida sanab o‘tilgan funksiyalardan sutkasiga 24 soat va haftasiga 7 kun foydalana olish...
T	To‘siqlar (tashqi)	Aholining texnik tomondan yetarli bilimga ega emasligi va viloyatlarda kommunikatsion infrastrukturaning yaxshi rivojlanmaganligi...

2-ma’ruza mashg‘ulotida quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi:

Topshiriq mazmuni: - “Masofaviy bank xizmatlari turlari va ularning misollar keltiring?

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi

- trener o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;
- trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni

tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tuchirilgan tarqatma materiallar bilan tanishtirish;

- har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;

- navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z tadqimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna:

M	Masofaviy bank xizmatlari turlari				
Internet banking		SMS banking **SMS**		Mobil banking	
Afzalligi	Kamchili	Afzalligi	Kamchilig	Afzalligi	Kamchili
Xulosa:					

2-amaliy mashg‘ulotda quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi:

1) Mashg‘ulotning motivatsiya bosqichida: “Assesment” metodidan foydalaniladi.

<u>Topshiriq mazmuni</u>: - Berilgan turli topshiriqlarni bajarish?

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda

esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir jadvaldagi to‘g‘ri javob 4 ball yoki 1-4 balgacha baholanishi mumkin**.**

Test
• 1. Internet banking tizimi orqali
to‘lovlarni amalga oshirishda
lozim?
• A. Elektron raqamli imzo
• B. Telefon
• C. Faks

Qiyosiy tahlil
• Bankning kunlik balansini tahlil qiling?

Tushuncha tahlili
• KAMI ni izohlang...

Amaliy ko‘nikma
• Ipoteka kreditini olish uchun talab etiladigan xujjatlar nomini aytib
bering?

Ma’ruza mashg‘ulotida quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi:

Topshiriq mazmuni: - «Tushunchalar tahlili» metodi orqali berilgan fikrga munosabatlar keltirish.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda

tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;

- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushuncha-lar	Sizningcha, bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Inflation	bu tovar muomalasiga nisbatan qog‘oz pul massasining ortiqchaligidir.	
Income	ishlab chiqarish omillarini ishlatishdan keladigan pul va natural tushumlar.	
Currency	bu xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladigan u yoki bu mamlakat milliy pul birligida ifodalangan to‘lov hujjatlari va pul majburiyatlaridir.	
Audit	xo‘jalik faoliyatini tekshirish, taftish va tahlil qilish.	
Loan	u vaqtincha o‘z egalari qo‘lida bo‘sh turgan pul mablag‘larini boshqalar tomonidan ma’lum muddatga haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlarni bildiradi.	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

Amaliy mashg‘ulotda quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi.

Mashg‘ulotning motivatsiya bosqichida: “Blis-so‘rov” usulidan foydalaniladi.

“Blis-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi»

o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

«Savdo kreditining bir martaga olish va so‘ndirish» ketma-ketligini joylashtiring. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To‘g‘ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Talab etiladigan hujjatlar					
Yillik 18% dan berilgan kreditning 3 oylik foizini hisoblang					
Asosiy qarz va foizni so‘ndirish provotkalarini yozing					
Kreditning so‘ndirish grafigini tuzing					

4-ma’ruza mashg‘ulotida quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi:

Topshiriq mazmuni: - «Insert» metodi orqali berilgan fikrga munosabatlar keltirish.

“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;

- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;

- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

- **Belgilar 1-matn** - **2-matn**	**1-matn**	**2-matn**	**3-matn**
“V” - tanish ma’lumot.			
“?” - mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“- ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

Amaliy mashg‘ulotlarda quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi:

Mashg‘ulotning motivatsiya bosqichida: “Venn Diagrammasi” usulidan foydalaniladi.

Topshiriq mazmuni: - Berilgan turli topshiriqlarni bajarish?

Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

-ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga

yozib chiqish taklif etiladi;

-navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;

-juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yoxud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

XV BOB. DARS MASHG‘ULOTLARI O‘TISH JARAYONLARIDA GURUHLARDA ISHLASH VA TAQDIMOTLAR TAYYORLASH

Reja:

15.1. **Guruhlarda ishlash va taqdimotlar tayyorlashning turlari va shakllari.**
15.2. **Taqdimotga tayyorlanish bosqichlari.**
15.3. **Taqdimot va slaydlarni tayyorlash talablari.**
15.4. Slaydlar dizayni.
15.5.O‘zini o‘zi taqdim etish

15.1.Guruhlarda ishlash va taqdimotlar tayyorlashning turlari va shakllari

Yer yuzida aholi soni oshib borgani sari, turli-tuman axborotlar ham ko‘payib boraveradi. Kundan kunga ko‘payib borayotgan axborot oqimida insonning idrok qilishi, tabiiyki, murakkablashadi. Insonning axborotni qabul qilish va idrok etish imkoniyati bilan axborot salmog‘i o‘rtasida jiddiy ziddiyat vujudga keladi. Ko‘payib borayotgan axborotni qabul qilishni osonlashtirish uchun uni to‘g‘ri tizimlashtirib taqdim etishni o‘rganish zarur. To‘g‘ri tayyorlangan taqdimot yaxshi natija garovidir.

Prezentatsiya - bu axborotni taqdim etish usuli. Axborot ko‘rgazmali va ishonchli shaklda taqdim etilishi kerak. Buning uchun grafika, video va ovozli axborotdan foydalaniladi. Asosiy g‘oyalar kichik matnlarda aks etadi.

Prezentatsiyadan turli maqsadlarda foydalaniladi. Shunga ko‘ra prezentatsiyalarning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ma’ruzalarni to‘ldiradigan prezentatsiyalar;
- o‘quv maqsadlarida foydalaniladigan prezentatsiyalar;
-savdo-sotiq va marketingda foydalaniladigan prezentatsi-yalar.

Ko‘rgazmali axborotni taqdim etish shakliga ko‘ra prezentatsiyalarni uch guruhga bo‘lish mumkin: oddiy, animatsiyali va multimediali.

Birinchisi oddiy slaydlar to‘plami bo‘lib, matn, rasm, grafikadan iborat bo‘ladi. Tayyorlash ko‘p vaqt olmagani va alohida ko‘nikmalarni talab qilmagani uchun bunday taqdimotlardan ko‘p foydalaniladi. Prezentatsiyani mustaqil tayyorlash uchun Power Point kompyuter programmasini o‘rganish yetarli. Animatsiyali prezentatsiyalarda qo‘shimcha element – animatsiyadan foydalaniladi. Uncha qiyin bo‘lmagan effektlardan foydalanish taqdimotni qiziqarli va yorqin chiqishiga ta’sir ko‘rsatadi. Animatsion effektlar ko‘p hollarda maxsus programmalarga joylashtirilganligi tufayli prezentatsiyada ulardan foydalanish qiyin ish emas. Multimediali prezentatsiyani tayyorlash esa birmuncha murakkab bo‘lib, unda grafika, video, animatsiya, ovoz, matndan iborat bo‘lgan interfaol elementlardan foydalaniladi.

Prezentatsiya shakllari turlicha bo‘lishi mumkin: auditoriyada ma’ruza uchun, ko‘rgazma zallarida stend shaklida, magazinda, televideniye yoki radioda va hokazo.

Taqdimotlar quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

-spiker tomonidan yordamchi vositalardan foydalanmagan holatda;

-spikersiz texnik vositalar yordamida (masalan, video namoyishi);

- spiker tomonidan yordamchi vositalardan foydalangan holatda.

15.2.Taqdimotga tayyorlanish bosqichlari

Har bir spikerning o‘z uslubi bo‘ladi. Ayrim prezentatsiyalar, masalan, ma’ruzalar e’tiborni jalb qilishga qaratilgan. Katta auditoriyalar uchun mo‘ljallangan ma’ruzalarda chiroyli so‘zlar ko‘p, detallar esa kam bo‘ladi. Bunday prezentatsiyalarni katta zallar uchun mo‘ljallangan prezentatsiyalar, deb atashadi.

Kam sonli tinglovchilar, masalan, mijozlar uchun mo‘ljallangan prezentatsiyalar esa o‘zgacha uslubda tayyorlanadi. Ularda detallar: grafika, statistik ma’lumotlar ko‘proq bo‘lishi kerak. Bunday prezentatsiyalarning maqsadi ishontirish va ta’lim berishdir.

Ayrim prezentatsiyalarda katta bir g‘oya bitta slaydda namoyish etiladi va u uzoq vaqt muhokama qilinadi. Har bir slayd katta hajmdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Boshqa bir spiker ma’ruzaning ayrim jihatlarinigina slaydga joylashtiradi. Bitta g‘oya bir nechta slaydlarga bo‘lib joylashtiriladi.

Taqdimotda qaysi uslubdan foydalangan ma’qul?

Bu vaziyatga bog‘liq.

Lourens Lessig uslubi

Lessig trener bir nechta, ba’zi hollarda bittagina so‘z yozilgan slayd yaratadi. Bunday slaydlar odatda oq fonga qora shrift bilan yoziladi. Spiker tomonidan bildirilayotgan fikrlarga slaydda yozilgan so‘zlar yordamida urg‘u berish mumkin.

Prezentatsiyalar bo‘yicha ekspert Aleksey Kepterev, “Prezentatsiyalar insonlarga ta’sir ko‘rsatadi. Bu prezentatsiyalar auditoriyani butunlay o‘zgartiradi, degani emas. Gap sizning boy va mashhur odamga aylanishingizda emas. Gap sizning boshqa insonga, yaxshiroq insonga aylanishingizda. Siz ko‘proq biladigan va ko‘proq tushunadigan insonga aylanasiz”, degan edi.

Ta’sirchan prezentatsiya, bu birinchi navbatda, qiziqarli, to‘g‘ri tuzilgan va chiroyli taqdim etilgan kontent. Bunday prezentatsiyada tinglovchi faqat bir maqsadda - slaydlarni rasmga olish uchungina telefonini qo‘liga oladi. Yaxshi tayyorlangan prezentatsiya odamlarni fikrini o‘zgartirishga yordam beradi.

Prezentatsiyaga tayyorlanishni nimadan boshlash kerak?

- Auditoriyani o‘rganish.
- Maqsadni aniqlash.
- Material tanlash va ajratish, ularni tizimli taqsimlash.
- Prezentatsiya ssenariysini tuzish.

Prezentatsiya tayyorlashni rasm qidirishdan boshlash katta xato hisoblanadi. Yaxshi tizimlashtirilmagan, maqsadsiz prezentatsiyalar, odatda, shundan boshlanadi. Agar prezentatsiya tayyorlash uchun vaqt oz bo‘lsa, umuman rasm qidirmagan ma’qul. Ma’noli va fikrni yetkazib berishga yordamlashadigan, oq fonga qora shrift bilan yozilgan matn chiroyli ko‘rinadi.

Auditoriyani o‘rganish. Prezentatsiyaga tayyorlanishni, birinchi navbatda, auditoriyani o‘rganishdan boshlash kerak. Tinglovchilar qanday odamlar ekanini bilish juda muhim. Jinsi,

yoshi, kasbi, bilim darajasi, xohishlari, qo‘rquv va xavotirlari, intilishlari. Turli insonlarni ham qandaydir belgiga ko‘ra birlashtirish mumkin. Tinglovchilarni qanchalik yaxshi tuchunsangiz, fikrlaringizni ularni ongi va qalbiga shunchalik chuqur singdira olasiz.

Maqsadni aniqlash. O‘zingizga haqqoniy va samimiy javob bering – tinglovchilaringiz nimani tushunishlari, qabul qilishlari va nima qilishlarini xohlaysiz? Sizning mahsulotingizni sotib olishlari kerakmi? Sizni ishga qabul qilishlari kerakmi? Bilim olishlari kerakmi? Maqsadni aniqlash prezentatsiya tayyorlashda to‘g‘ri yo‘nalishni tanlashga yordam beradi.

15.3.Taqdimot va slaydlarni tayyorlash talablari

Talablar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- boshqalarni o‘z nuqtayi nazaringizga ishontirish;
-bilim berish, tajribangiz bilan o‘rtoqlashish;
- hisobot berish;
-mahsulotga qiziqish uyg‘otish.

Maqsad juda katta bo‘lishi shart emas, asosiysi - aniq bo‘lishi kerak.

Maqsad	Aniq maqsad
Yaxshi chiqish qilish	Prezentatsiya tinglovchilarni xulqini o‘zgartirishi mumkinligiga ishontirish
Mafkuraviy immunitetni mustahkamlash	“Ommaviy madaniyat”ni oilaviy qadriyatlarga halokatli ta’sirini isbotlab berish

Maqsad aniqlangandan keyin, o‘ylab qo‘ygan g‘oyalaringizni qog‘ozga tushiring. Slaydlarda yoritmoqchi bo‘lgan ma’lumotlarni avval qog‘ozga chizib chiqing. Bu nima uchun kerak?

Birinchidan, taqdimotingiz uchun nechta slayd tayyorlash kerakligini hisoblab chiqasiz.

Nazorat jadvali: Umumiy shartlar

Auditoriyani o‘rganish	Tadbir ishtirokchilari kimlar?
	Qancha odam keladi?
	Tinglovchilar shaxsan sizdan nima
	Tinglovchilarning taqdimot qilinadigan mavzu yuzasidan bilim darajasi qanday?
Tadbir turi	Konferensiya, ma’ruza, targ‘ibot va b.
Atmosfera	Tadbir qanday sharoitda o‘tadi (rasmiy, tantanali yoki erkin)?
	Tinglovchilar tadbirda ixtiyoriy ishtirok etishyaptimi yoki majburiy?
Sizning chiqishingiz	Asosiy dokladchimisiz yoki boshqalar bilan teng qatorda chiqish qilasizmi?
	Sizning chiqishingizga qancha vaqt
Boshqalarning chiqishi	Dasturga ko‘ra boshqa notiqlar nima haqida gapirishadi?
	Sizdan oldin qancha odam chiqish qiladi?
	Ishtirokchilar orasida sizning fikringizga qarshi fikr bildiruvchilar bormi?
Tadbir dasturi	Tadbir dasturi bilan tanishdingizmi?
	Kimdan oldin va kimdan keyin chiqish
Texnik vositalar	Texnik vositalar bilan ta’minlanganmi?

Maqsad aniqlangandan keyin, o‘ylab qo‘ygan g‘oyalaringizni qog‘ozga tuchiring. Slaydlarda yoritmoqchi bo‘lgan ma’lumotlarni avval qog‘ozga chizib chiqing. Bu nima uchun kerak?

Birinchidan, mavzuni yoritishda mantiqiy izchillikka amal qilasiz;

ikkinchidan, slaydlar uchun qanday dizayn to‘g‘ri kelishini aniq tasavvur qilasiz;

uchinchidan, prezentatsiya uchun qanday rasmlar, qanday musiqa kerak bo‘lishini oldindan aniqlab olasiz;

materiallarni ajratish va tizimlashtirish. Ko‘p sonli materiallar orasidan maqsadingizga erishishga yordam beradigan ma’lumotlarni tanlang.

Buning uchun o‘zingizga shunday savol bering:

Menga ajratilgan vaqtda maqsadga erishish uchun auditoriyaga aynan nimani gapirishim kerak?

15.4.Slaydlar dizayni

Slayd dizaynlarida nima bo‘lmasligi kerak?

To‘liq matn. Inson, bir vaqtning o‘zida ham o‘qib, ham tinglay olmaydi. Agar slaydga ko‘p matn qo‘yilgan bo‘lsa, tinglovchi matnni o‘qiyotgan vaqtda, spikerni umuman eshitmaydi. 30 ta so‘z - slaydga qo‘yiladigan matn miqdorining chegarasi.

• Ranglar va shriftlar xilma-xilligi. Slaydni kamalakka aylantirishning keragi yo‘q - ikki-uch xil rang yetarli. Bir xil shriftdan foydalangan ma’qul. Uzog‘i bilan ikki xil - asosiy matn va sarlavha uchun.

• **Bir qatorga sig‘maydigan sarlavhalar**.

• Ko‘p sonli elementlar. Sxemalar bundan mustasno. Ular ham maksimal darajada oddiy bo‘lishi kerak.

• **Sifatsiz rasmlar**.

Yaxshi prezentatsiya qanday bo‘lishi kerak?

Qiziqarli nom. Taqdimotga qiziqarli nom tanlash juda muhim, hatto kitob sotib olayotgan inson ham birinchi navbatda uning nomlanishiga e’tibor qaratadi. Odamlar prezentatsiyani aynan nomlanishiga qarab tanlashadi. Sonlardan foydalaning.

“Taqdimot qilish to‘g‘risida 5 maslahat”.

1. **Savol qo‘ying.** “Taqdimotga qanday tayyorlanish kerak?”.
2. Qo‘shiq, film, badiiy asarlarning nomlari, ulardagi mashhur iboralarni ishlating.
3. “Hammasi..... haqida”, “ ..... , nima u?” kabi usullardan foydalaning.

Dunyodagi eng yaxshi 15 ta prezentatsiyaning 8 tasining nomlanishida savol qo‘yilgan: “...qanday ishlaydi?”, “**...**uchun nima zarur?”, “Nima qilish kerak?” va hakozo. Prezentatsiyaning sirli nomlanishi ham tinglovchilarda qiziqish uyg‘otadi. Vizuallashtirish nima uchun kerak?

-Nutqning murakkab mazmunini tushunishni yengillashtirish;

- aytilgan fikrning eng muhim jihatlariga urg‘u berish;
- tushuntirishni osonlashtirish;
- ayrim fikrlarni tinglovchilarning xotirasiga muhrlash;

-elementlar o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatish.

1. Birinchi slayddanoq tinglovchi bu prezentatsiyadan nima olishini tushunishi kerak. Tinglovchini hayron qoldirishning keragi yo‘q, to‘g‘ridan-to‘g‘ri keyingi jarayonda uni nima kutayotganini ko‘rsatib bergan ma’qul. “Hamma narsaga yetkazish uchun stipendiyani qanday sarflash kerak”?
2. Qiziqish uyg‘otish. Tinglovchini qiziqtirish uchun motivatsiya uyg‘otish lozim. Taqdimotning foydali tomonini tushuntirish yoki intriga uyg‘otish kerak. “Foydasi: siz stipendiyani 20% ini qanday tejashni bilib olasiz?”
3. Tezis. Taqdimotning asosiy maqsadi, odamlarga o‘rgatish kerak bo‘lgan jihatlar yoritiladi.
4. Antitezis. Tanganing ikkinchi tomonini ham ko‘rsatish lozim. Bu tinglovchilarda ishonch uyg‘otadi va amalda uchraydigan muammolardan ogohlantiradi.

“Tejash juda qiyin, Chunki atrofda chiroyli narsalar juda ko‘p. Agar o‘zingizni tuta olmasdan biron narsaga pul sarflagan bo‘lsangiz, bu qo‘rqinchli emas”

5. Xulosa. Yomon prezentatsiyalar “E’tiboringiz uchun rahmat!” so‘zlari bilan tugaydi. Taqdimot yakunida xulosa yoki qisqacha rezyume berish kerak. Spikerning taqdimotidan keyin tinglovchi hozir nima qila olishini tushunishi kerak.

“Endi siz tejamkorlikning uch qoidasini bilib oldingiz. Bugun do‘konda birontasini qo‘llab ko‘ring”.

15.5.O‘zini o‘zi taqdim etish

Har doim zamon bilan hamnafas bo‘lishga harakat qilish kerak. Tinglovchilarning mutaxassisga bo‘lgan ishonch darajasi taqdimotning qanchalik yaxshi tayyorlanganiga bog‘liq bo‘ladi.

Taqdimotda barcha elementlar uyg‘un, ya’ni bir xil tipda bo‘lishi kerak. Bunday slaydlar mavzuni tushunishni yengillashtiradi, tinglovchilarni charchatmaydi.

Matnli, rasmli, diagrammali slaydlar – har bir turdagi slaydlar uchun bir nechtadan shablon yaratib olish kerak. Keyin slaydlarni nusxasini ko‘chirish, faqatgina matn va tasvirlarni o‘zgartirish kerak. Bir xil tipda tayyorlangan slaydlar chiroyli ko‘rinadi.

Yodda tuting! Taqdimot matnlaringizni qo‘yadigan joy emas - auditoriyaga teskari qarab slaydlarni o‘qib bera olmaysiz, bunga umid ham qilmang. Bundan tashqari, tinglovchilar siz gapirganingizdan ko‘ra tezroq o‘qishadi - bu isbotlangan.

Shuning uchun slaydlaringiz tinglovchilar bahra oladigan darajada chiroyli, yorqin va tushunarli bo‘lsin.

Matn. Ba’zi spikerlar o‘zlarining nutqlarini to‘laligicha slaydlarga joylashtiradi va mavzuni sodda, tushunarli qilib o‘z so‘zlari bilan gapirish o‘rniga slaydlardagi matnni o‘qib berishadi. Tinglovchilarga esa bu umuman yoqmaydi, ular zerikib qolishadi. Spiker va auditoriya o‘rtasida hech qanday hissiy aloqa o‘rnatilmaydi.

Bunday bo‘lmasligi uchun slaydga iloji boricha kam matn qo‘yish kerak. Esda tuting, slaydlarni tayyorlashdan maqsad spikerga matnni eslatish emas, sizni auditoriyaga gapirayotgan gaplaringizni ma’nosini kuchaytirish. Bitta slayd - bitta g‘oya. Bunday slaydni o‘qish ham, eslab qolish ham oson. Omma oldidagi nutqda bunday slayd auditoriyaning e’tiborini jalb qiladi.

Ma’lumot qismlarga bo‘linadi. Bunda ro‘yxatdan foydalaniladi.

Matn	Matnni qisqartirib ro‘yxat ko‘rinishida berilishi
XXI asrga kelib esa xavf-xatarlar ro‘yxati ayrim kuchlarning urinishlari natijasida yana-da kengaydi. Demografik inqiroz, missionerlik, demokratiya eksporti, “ommaviy madaniyat”, g‘arbona turmush tarzini tiqishtirish kabi xavf- xatarlar paydo bo‘ldi.	XXI asrda vujudga kelgan xavf-xatarlar: - demografik inqiroz, - missionerlik, - demokratiya eksporti, - “ommaviy madaniyat”, g‘arbona turmush tarzini tiqish-tirish

Informatsiya chiroyli ko‘rinishi va esda qolishi uchun matnni sxemaga aylantirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 0‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: 0‘zbekiston, 2014. 73 b.

2. 0‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. T.:Adolat,- 520 b.

3. 0‘zbekiston Respublikasining “Markaziy bank to‘g‘risida”gi qonuni. 11.11.2019 -yildagi O‘RQ-582-son qonuni.

4. 0‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. 05.11.2019-yildagi O‘RQ-580-son qonuni.

5. O‘zbekiston Respublikasining 20.04.2022-yildagi O‘RQ-765-son “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida” qonuni.

6. 0‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.10.2019-yildagi O‘RQ-573-son qonuni.

7. 0‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni. 2008-yil 22-iyul, O‘RQ-163-son. 0‘zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to‘plami. T.: O‘zbekiston NMIU, 2011. 398 b.

8. O‘zbekiston Respublikasining 04.10.2011-yildagi O‘RQ-301-son “Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida”gi qonuni.

9. 0‘zbekiston Respublikasining “Iste’mol krediti to‘g‘risida”gi qonuni. 2006-yil 6-may, 0‘RQ-33-son.

10. “Valuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-sonli Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli «2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish

strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”

14. “Tijorat banklari tomonidan yangi ro‘yxatga olingan yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlik subyektlariga mikrokreditlar ajratish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2017-yil 12-mayda 2883-son bilan ro‘yxatga olingan.

15. «GlobUzCard» banklararo universal chakana to‘lov tizimi faoliyati to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2017-yil 15-mayda 2884-son bilan ro‘yxatga olingan.

16. “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga ta’minotsiz kreditlarni berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2017-yil 22-iyunda 2891-son bilan ro‘yxatga olingan.

17. “Jismoniy shaxslarga bank plastik kartochkasi orqali overdraft krediti berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2017-yil 21-iyulda 2900-son bilan ro‘yxatga olingan.

18. “Tijorat banklarida jismoniy shaxslar bilan valuta ayriboshlash operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2017-yil 6-noyabrda 2944-son bilan ro‘yxatga olingan.

19. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

20. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisoboti.

21. +O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 25.05.2020-yildagi “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi Nizomi

22. 0‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki

Boshqaruvining 2017-yil 10-iyundagi 12/1-sonli “Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida”gi qarori.

23. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: 0‘zbekiston, 2017.

24. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: 0‘zbekiston, 2016. 56 b.

25. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: 0‘zbekiston, 2017.46 6.

26. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.

27. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod- Moliya. 2011.

28. Бошаров В.В. Финансово-кредитные методика регулирования рынка инвестиций. М.: Финансы и статистика, 2014.

29. Лаврушин О.И. “Банковское дело. Учебник. М.: Финансы и статистика, 2012.

30. Лаврушин О.И. Банковские риски М. КНОРУС, 2007.

31. Наговицин А.Г. Валютная политика М. Экзамен, 2013.

32. Роуз П.С. Банковский менеджмент М. Дело, 1995.

33. Черкасов В.Е. Финансовый анализ в коммерческом банке. М.: ИНФРА-М, 2014.

34. Kotier F., Keller K.L. Marketing, Menedjment. 2006. 431p.

35. Shelagh Hefferman Modem Banking. John Wiley and Sons, Ltd. USA: 2012. 717p.

36. David S.Kidwell, Rishard L. Peterson, David W. Blaskwell. Finansial institutions, Markets and Money. New York, 2014. 751 p.

37. The theory of Money and Sredit, Murray N. Rothbard. Ludwig Von Misses Institut 266 p.

38. The Mystery of Banking sesond edition, Murray N. Rothbard. Aubum, Alabama, 2008. 298-p

39. The Law of Banking and Finansial institutions. Rishard Ssott Samell, Statutory Supplement, 2011.

40. The Prinsiples of Banking. John Wiley and Sons Singapore pte Ltd, 2012.

41. Bank asset and Liability Management. John Wiley and Sons Singapore pte Ltd, 2007.

42. Bank Valuation and Value Based Management: Deposit and Loan Prising Performanse Evaluation and Risk. Jean Dermine, 514 p. 2014.

43. Sommersial Banking: The management of Risk. James W. Kolari, Benton E. Gup, 2005. 530 p.

44. Sommunity Banking Strategies: Steady Growth, Safe Portfolio Management and Lasting Slient Relationships, Vinse Boberski, 2010.

Internet saytlari

- www.sbu.uz<http://www.sbu.uz> - 0‘zR MBning rasmiy veb-sayti;
- www.minfin.uz<http://www.minfm.uz> - 0‘zR Moliya Vazirligining rasmiy veb-sayti;
- www.bis.org<http://www.bis.org> - Xalqaro Bazel Qo‘mitasining rasmiy veb-sayti;
- www.universal bank.uz
- www.state, us
- www.gov.uz

www.bankir.ru

MUNDARIJA

KIRISH…… 3
I BOB. Tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari…… 7
1.1.Tijorat banklarining mohiyati va ularni tashkil etishning iqtisodiy zaruriyati…… 7
1.2.Tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari……....13
1.3.Banklarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va litsenziyalash tartibi……....16
1.4. Tijorat banklarini qayta tashkil etish shakllari.....27
1.5. Tijorat banklarini tugatish…….....34
II-BOB. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari tarkibi va ularning joylashishi.....39
2.1.Tijorat bankining resurslari, ularning tarkibi va tavsifi.....39
2.2.Tijorat banklarining passiv operatsiyalari turlari va ularning balansda joylashishi…….....45
2.3.Tijorat bankining kapitali, uning tarkibi va yetarliligiga qo‘yilgan talablar hamda uning samaradorligini oshirish yo‘llari.....51
2.4.Bank kapitali va uning funksiyalari…….....58
III BOB. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari tarkibi va ularning joylashishi…….....66
3.1. Bank aktivlari, ularning mohiyati va mazmuni.....66
3.2. Bank aktivlari tarkibi va ularning balansda joylashishi..... 70
3.3. Bank aktivlarining sifat darajasi.....74
3.4.Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularni boshqarish……....81
IV BOB. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari…..... .88
4.1.Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari va uning huquqiy asoslari..88
4.2. Valyuta operatsiyalari va ularning turlari..... 91
4.3.Valyuta kursining mohiyati va uning turlari……..... 98
4.4. Valyuta kursiga ta’sir etuvchi omillar…….....103
4.5. O‘zbekiston Respublikasi ichki valyuta bozorida xorijiy valyutani sotish va sotib olish tartibi…….....108
V BOB. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan peratsiyalari.111
5.1. Qimmatli qog‘ozlar tushunchasi va uning turlari. Qimmatli qog‘ozlar bozori va uning ishtirokchilari..... 111
5.2. Qimmatli qog‘ozlar bozorida bank faoliyati turlari……....117
5.3. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari.....122
5.4. Tijorat banklarining moliya bozori uchun o‘z qimmatli qog‘ozlarini chiqarishlari…….....129
5.5. Qimmatli qog‘ozlar bozorida tijorat banklarining vositachilik faoliyati. REPO, anderrayting va trast operatsiyalari..... ..137

VI BOB. Tijorat banklarida kreditlash mexanizmi ……145
6.1. Tijorat banklarida kreditlashni tashkil qilish.....145
6.2. Kreditlash tamoyillari 149
6.3. Tijorat banklarining kreditlash bosqichlari…..153
6.4. Bank kreditlarining turlari, shakllari va funksiyalari.....156
6.5. Tijorat bankining kreditlash usullari va ssuda hisobvaraqlarining shakllari…..160
VII BOB. Tijorat banklarining foiz siyosati…..167
7.1. Tijorat banklarining foiz siyosati va ularning amalga oshirilishi……167
7.2. Kredit bo‘yicha foiz stavkalarining shakllanishi va unga ta’sir qiluvchi omillar..... 174
7.3.Foiz stavkalari va ularni hisoblash usullari…..179
7.4. Tijorat banklarining foiz riski, ularni baholash va boshqarish usullari…..188
VIII BOB. Tijorat banklarining lizing operatsiyalari…..196
8.1.Lizing operatsiyalari va ularning mohiyati…..... 196
8.2.Lizing operatsiyasining asosiy elementlari. Lizing to‘lovlari va ularni aniqlash tartibi…..198
8.3. Lizing operatsiyalarini turlari bo‘yicha tasniflash…..... 203
8.4. Lizing operatsiyalarini tashkil etish va ular bilan bog‘liq risklar……206
IX BOB. Tijorat banklarining yangi xizmat turlari…….. 211
9.1.Tijorat banklari tomonidan ko‘rsatiladigan an’anaviy va noan’aviy xizmat turlari…..... 211
9.2. Mijozlarga ish joyida va uyida masofaviy xizmat ko‘rsatish.Internet-banking xizmatlari…..219
9.3. Plastik kartochkalar va ularni qo‘llash zaruriyati. Plastik kartochkalarning to‘lov tizimidagi o‘rni…..223
9.4.Xorijiy davlatlarda plastik kartochkalarning turlari va qo‘llanilishi…..227
9.5. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekistonda 2020-2025 yillarda bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari.....235
X BOB. Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari..... 260
10.1. Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari va uning mohiyati……260
10.2. Faktoring operatsiyalarining turlari va ularni o‘tkazish tartibi……264
10.3. Faktoring xizmati bo‘yicha shartnoma va uning tarkibi..... 267
10.4. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini rivojlantirish masalalari..... 271
XI BOB. Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalari……275
11.1. Tijorat banklari balansdan tashqari operatsiyalarining mazmuni. Tijorat banki tomonidan beriladigan kafolatlar..... 275
11.2. Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalari turlari……280
13.3 Tijorat banklarining hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi hisob-kitob operatsiyalari..... 283

13.4. Tijorat banklari balansdan tashqari operatsiyalarining boshqa turlari.....286
XII BOB.Tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va foydasi... 288
12.1. Tijorat banklari daromadlari tushunchasi. Daromad shakllari va manbalari..... 288
12.2.Tijorat banki xarajatlari tushunchasi. Xarajatlar turlari.....293
12.3.Foyda tushunchasi. Foyda va rentabellik ko‘rsatkichlari. Tijorat bankida foydaning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar..... 296
12.4.Foiz marjasi. Asosiy foiz marjasi koeffitsiyentlari.....300
XIII BOB.Tijorat banklarining to‘lovga layoqatligi va likvidligi.....304
13.1. Tijorat banklarining to‘lovga layoqatligi va likvidligi haqida tushuncha.....304
13.2. Tijorat banklarining likvidligiga ta’sir etuvchi omillar.....307
13.3. Tijorat banklarining likvidliligini baholash usullari va likvidlik ko‘rsatkichlari.....313
13.4. Tijorat banklarining likvidligini baholash bo‘yicha xorij tajribalari.319
XIV BOB. “Tijorat banklari” fanidan innovatsion ta’lim texnologiyalari ko‘nikmalari, ma’lumotlar bilan ishlash, statistik ma’lumotlardan foydalanish va sharhlash..... 323
14.1. Ma’ruza mashg‘ulotlarning tashkil etishning asosiy shakllari..... 323
14.2. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari..... 325
14.3. “Tijorat banklari” fanidan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyaalar va ma’lumotlar bilan ishlash usullaridan samarali foydalanish..... 331
14.4. Innovatsion ta’lim texnologiyalari ko‘nikmalarini shakllantirish va statistik ma’lumotlar bilan ishlash tartib.....344
XV BOB. Dars mashg‘ulotlari o‘tish jarayonlarida guruhlarda ishlash va taqdimotlar tayyorlash..... 353
15.1. Guruhlarda ishlash va taqdimotlar tayyorlashning turlari va shakllari.....353
15.2. Taqdimotga tayyorlanish bosqichlari.....354
15.3. Taqdimot va slaydlarni tayyorlash talablari.....356
15.4. Slaydlar dizayni.....358
15.5. O‘zini o‘zi taqdim etish 360
Foydalanilgan adabiyotlar..... 362

GAYBULLAYEV R.M.

TIJORAT BANKLARI

D A R S L I K

Toshkent - "INNOVATSIYA ZIYO" - 2024

Muharrir: Gaybullayev R.M

Bosishga 05.10.2024.da ruxsat etildi.
Bichimi 60x90. “Cambria” garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 24. Nashr bosma tabog‘i 23,25.
Adadi 100 nusxa.

“METODIST NASHRIYOTI” MCHJ matbaa bo‘limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Shota Rustaveli 2-vagon tor ko‘chasi, 1-uy.

+99893 552-11-21

Nashriyot roziligisiz chop etish taqiqlanadi